




687  
H - 31

G. HASANBOYEVA

# TO'QIMACHILIK DIZAYNI TARIXI

"IQTISOD-MOLIYA"



687


11-31

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

G. Hasanboyeva

# TO'QIMACHILIK DIZAYNI TARIXI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi mutaxassisligi  
uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etgan*



687

37.230.я7

H-31

TAVSIELANDI

O'quv qo'llanmada Osiyo va Ovrupo xalqlarining to'qimachilik san'ati va dizaynining tarixi qisqa shaklda o'z ifodasini topgan. Qo'llanmada qadimiylar, o'rta asrlar va zamonaviy to'qimachilik buyumlarining turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Gazlamalarning tola tarkibi, strukturası, fakturasi, qo'llangan bo'yoqlari va bo'yash usullari, naqsh mavzulari, ularning ramzlari, kompozitsion tuzilishi va ishlash usullari ko'rib chiqilgan.

O'quv qo'llanmadan badiiy, to'qimachilik va yengil sanoat xodimlari, institut talabalari, magistrantlar, aspirantlar, rassomlar, dizaynerlar va boshqalar foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar: O'zR BA akademigi, san'atshunoslik fanlari doktori  
**A. Hakimov**

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti professori  
t.f.n., Xalqaro dizaynerlar uyushmasining raisi  
**X. Komilova**

y/k 3847

T T E S I  
K U F U L A O N A S I

Hasanboyeva G.

To'qimachilik dizayni tarixi: O'quv qo'llanma/G. Hasanboyeva; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti. - T.: «IQTISOD—MOLIYA», 2006 y. 252 bet.

ББК 37.230.я7

© «IQTISOD—MOLIYA», 2006

## Muqaddima

San'at sohasida amaliy-dekorativ san'at muhim o'rinni egallaydi. Amaliy dekorativ san'at asarlari odamni ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun yaratiladi. Bu asarlar maxsus badiiy til yordamida tashqi muhitni aks ettiribgina qolmasdan go'zallik qonunlari bo'yicha uni o'zgartiradi ham. Binobarin, dekorativ-amaliy san'at namunalari odamning ichki kechinmalariga ta'sir o'tkazish orqali uning ruhiyatini parvarish qiladi, kayfiyatini ko'taradi.

O'tmish va kelajakning o'zaro bog'lqligi badiiy madaniyat yaratishning asosidir. Tabiatni obyektiv aks ettirish uchun to'qimachilik san'ati ko'p imkoniyatlarga ega. To'qimachilik buyumlari (gazmollar, ro'mollar va b.) insonning estetik tuyg'usini bitmas-tuganmas manbasidir. Insonda ongosti xislarini uyg'otish san'atning vazifasi hisoblanadi.

To'qimachilik san'atining «tili» dekorativ-amaliy san'at qonunlari bo'yicha yaratilib, uning uslubiy xususiyatlarini aks ettiradi. Bu san'at keng imkoniyatlarga ega bo'lib, boshqa san'at asarlarining «tilini» takrorlamasdan va faqat tashqi muhitni aks ettirmasdan go'zallik qonunlari asosida yaratiladi.

To'qimachilik buyumlarida naqsh yaratilishi uchun ajdodlarimizning bilim va tajribalarini bilish zarur. Naqqoshlik san'ati – bu bilim va tajribaning sezgi bilan chambarchas birligi.

Naqsh (lot. *ornamentum* - bezak) – bu turli buyumlarni bezashda ritmik takrorlangan elementdir. Naqshni taqsimlaydigan asosiy tamoyillari – uni nimaga asoslanganligi, nimaga mo'ljallanganligi va uning mazmunidir. Bularni inobatga olgan holda naqsh elementlari bir necha guruhlarga taqsimlanadi.

*Texnik naqsh* – o'riliш jarayonida hosil bo'ladigan naqsh.

*Ramziy naqsh*. Inson o'z ijodiy jarayonida tabiatning obyektiv qonunlarini o'rganib, uni intuitiv ravishda aks ettirishga intilgan. Tasvirlar esa shartli va har xil tasviriy usulda qilinardi. Tasviriy «tilni» o'ziga xos xususiyati – asl manbaga o'xshash konkret siymolarni va ramz-ishoralar sistemasini abstrakt plastik usulida insonga yetkazishdir.

*Geometrik naqsh*. Bora-bora texnik va ramziy naqshda chiziq va dog'lar hikoya ma'nosini yo'qotgan sari, murakkab kombinatsiyalarga ehtiyoj sezildi. Oqibatda geometrik naqsh paydo bo'ldi. Ammo, sujet asosini yo'qotib, u estetik qiymatini saqlab qoldi. Bu naqshlarda doimo elementlar va ularning rang birikmalari qat'yan ritmik takrorlanadi. Har qanday geometrik shaklning dastlabki shakli – bu oddiylashtirilgan va umumlashtirilgan qandaydir real shakl (doira-quyosh, meandr-to'lqin va b.).

*O'simlik naqsh.* Bu geometrik naqshdan so'ng eng ko'p tarqalgan naqsh. Ular turli xalqlarda va davrlarda o'ziga xos shakllarda bo'lgan. O'simliklар realistik yoki stilizatsiyalaniб, hajmiy yoki yassi tasvirlanadi.

*Xattotli* naqsh. Plastik tasviri va ritmik tuzilishi bo'yicha bu naqsh ayrim ifodalari harflardan yoki matn elementlaridan tuziladi.

*Fantastik* naqshning asosida ramziy va afsonaviy ma'noda yaratilgan tasvirlar yotadi.

*Astral* («astra» - yulduz) naqshda asosiy elementlari osmon, quyosh, bulut va yulduzlar tasvirlari bo'lgan.

*Peyzaj* naqshda tabiatning manzaralari tasvirlangan.

*Zoomorf* naqshda hayvonlar, qushlar, hashoratlar va boshqalar realistik yoki shartli stilizatsiyalangan holda tasvirlanadi.

*Buyumli* naqshda musiqa, maishiy, harbiy va boshqa buyumlar realistik yoki shartli ravishda tasvirlanadi.

*Antropomorf* naqshda stilizatsiyalangan odamlarning tasviri aks ettiriladi.

*Abstrakti* naqsh - konkret ma'nosiz tasvirlar: dog'lar, chiziqlar va boshqa tasvirlar ifodalangan bo'ladi.

Ushbu o'quv qo'llanmada qadimiy zamonalardan toki hozirgi zamongacha turli xalqlarni to'qimachilik san'ati va dizaynining rivojlanishi, o'ziga xos xususiyatlari, to'qimachilik san'ati va dizaynining o'zgarish sabablari, o'zaro bog'liqlari va farqlari yoritilgan.

O'quv qo'llanmani tayyorlashda T.Armand, N.N. Sobolev, E.I. Lubo-Lesnichenko, O.A. Suxareva, S.M. Mahkamova, G.Muyitdinova, Z.I. Rahimova, L.I. Yakunina, N.L. Solovev kabi mualliflarning ma'lumotlaridan foydalananildi.

O'quv qo'llanmani tayyorlash va chop etishda yordam bergani uchun X.A. Alimova, A.A. Hakimov va X.X. Komilovaga muallif katta minnatdorchilik bildiradi.

## Misr gazmollari

Misr to'qimachilik san'ati to'grisida saqlanib qolgan tasviriy va haykal-taroshlik yodgorliklari va gazmol namunalaridan batatsil ma'lumot olishimiz mumkin. Misr – zig'ir tolaning vatani. Nil vodiysining tabiiy sharoiti ushbu o'simlikni o'stirishga imkon bergan. Fir'avn va quldarlar yerlarida zig'ir ko'p miqdorda ekilardi. «Fir'avn – zig'irni saqlaydigan» lavozimi juda muhim va sharaflı bo'lgan. Qul ayollar yirik xo'jaliklarda yigirish va to'qish bilan shug'ullanardi.

Misr to'qimachilarining mahorati yuqori darajaga yetgandi. Qadimiy Misr zig'ir gazlamalarining xususiyatlari borasida hozirgacha saqlanib qolgan mato namunalariga qarab tasavvur hosil qilishimiz mumkin. Shunday matolarga 1 kv.smda 84 tanda va 60 arqoq iplari ishlatilgan. Ko'zga ko'rinnaydigan 240 m juda ingichka xom ipning og'irligi lg bo'lgan. Zig'ir matoning yupqaligi tabiiy shoyi matodan qolishmas edi - 5 qavat zig'ir mato ostidan odam tanasi aniq ko'rinnardi.

Gazlamaning fakturasi xilma-xil edi. Yangi podshoh davrida gazlamalar, ayniqsa, effektli bo'lgan: to'rsimon, zar va yaltiroq munchoqlar bilan bezatilib to'qilgan, kashta bilan bezatilgan.

Jun matolar qabr qazilmalarida juda kam uchraydi. Ammo, Misrda qo'ychilik bilan shug'ullanishardi va jun mato to'qishardi. Ayniqsa, yunonrim va kopt davrlarida jun gazlamasi Misrda keng qo'llanilar edi. Jun iplar Qadimiy Misrda zig'ir matolarida, ayniqsa, gilamsimon matolarda naqsh qilish uchun ishlatilgan.

Beni-Gason davrida gazlama ishlab chiqarishning barcha jarayonlari tasvirlangan: ip yigirish, ulash, tanda ipni ohorlash, 2 shodali gorizontal to'quv dastgohi. O'rta podshoh davrida dastgoh vertikal bo'lgan. Misr to'quv texnikasi berdoni ham bilgan: to'quvchilikni ifodalaydigan ieroglisflarning ma'nosi «mr» - berdo bo'lgan. Topilgan mato namunalariga ko'ra dastgohlar juda katta bo'lgan. Ko'rib chiqilgan matolarning eni 1,5m bo'lgan. Shunga ham e'tibor berish kerakki, matoning milki faqat bir tomonda saqlanib qolgan, ikkinchi tomoni esa yirtilgan, haqiqiy eni qancha bo'lganligi - noma'lum. Matoning uzunligi to'g'risida gapirsak – topilgan matolarning uzunligi 18 metrgacha bo'lgan edi. Ammo ma'lumot aniq emas, chunki ularning uchiga ishlov berilmagan. Mumkin qadar, ular uzunroq bo'lgan edi.

Qadimiy va O'rta podshohlik davrlarida gazmollar, asosan, kiyim va yopinchilqlar uchun qo'llangani uchun, ular sidirg'a bo'lgan. Yangi podshohlik davrida esa savdo-sotiq rivojlanishi va boyliklarni to'planishi

bobida Misrliklarning saroy liboslari juda hashamatli bo'lib, naqshli matolardan qilinardi.

Ossur-Bobil bilan qizg'in savdo-sotiq aloqlari bu matolarga kuchli ta'sir etgandi. Naqshlar to'qima, bosma va kashta usulida qilingandi. Gobelen turida to'qilgan matolar ustunlik qilardi.

Yunon-rim davrida to'qima naqshli Misr gazlamalari bobil kashtalari bilan muvaffaqiyatli ravishda raqobatlashgandi. Marsilning so'zi bo'yicha «Nil mokisi bobil ignasini yengdi».

Hashamatli naqshli gazlamalar qatoriga qadim zamonda Misrda ishlab chiqarilgan dong'i ketgan «visson»ni kiritish mumkin. Bu juda yupqa mato Misrda o'stiriladigan zig'irni maxsus navidan (linym usitatissimum) to'qildi. Keyinroq vissonni zig'ir va paxtani maxsus aralashmasidan to'qishadigan bo'ldi.

Misr mustaqil bo'lган davrda gazlamalarning naqshi qanday bo'lган екан? Bo'rtma tasvirlarda uchraydigan naqshli matolari bobil namunalariga ko'ra Misrda to'qilgan. XVIII sulola davrida ular Misr liboslarida uchrardi. Tasviriy san'at yodgorliklarida bir qator to'qilgan naqshlar shubhasiz Misrni desa bo'ladi. Ko'ndalang yoki nursimon yoyilgan yo'l-yo'llar - tipik Misr naqshi. Ularni bosh kiyimlarda(trapetsiyaplaxtasida) va liboslarining hoshiyalarida tasvirlanganini ko'ramiz.

XII sulola davrida dafn hadyalar olib ketayotgan odamlarning bittasini libosida rombsimon tasvir festonga aylangan. Izidaning liboslaridagi katakkatak naqshlar ham qiziqarli (XIX sulola Xaremhaba davri). Fir'avn liboslarining hoshiyasidagi oddiy naqshlar qatorida palmetka, doira va naxta, yaproq, meandrler, ba'zida odam va hayvonlar tasvirlari uchraydi.

Devor, pol va mebelni bezaydigan matolarda naqsh, ko'pincha, geometrik, zigzag yoki shashkasimon bo'lган. Tutmos VI maqbarasidan topilgan gilamda naqsh tasvirlari quyidagilar: nilufar guli, yarim doira va Misrning xochsimon tumorı. To'qima naqshda qizil, yashil, moviy, sariq, jigarrang va kulrang iplar tanda ipining orasidan o'tkazilgan va igna yordamida matoni chekkasida mahkamlangan.

Keyinroq, XXV sulola davrida Misr san'atida Ossur san'atining ta'siri seziladi. Misr liboslarida Misr afsonalari sahnalari tasvirlangan. Shu davrda aslzoda ayol Takumit haykalidagi ko'ylak zar va kumush bilan murakkab naqsh - din sahnalari bilan bezatilgan.

Miloddan avvalgi VI asrdan boshlab Misrni forslar bosib oldi va shu tariqa san'atiga ta'sir etdi.

IV asrda (Iskandariya davri) esa Misr ellin san'atining yirik madaniy markaziga

aylandi. Qadimiy sidirg'a matolar o'rniga naqshlilari kirdi. Misr va kopt yangi naqshlari qadimiy Misr tasvirlarini saqlab qolgandi.

Finikiylar savdo faoliyati yordamida (qadimiy zamonlarda ular Sharq va G'arb orasida dallo bo'lgan) O'rta dengiz qirg'og'idagi mamlakatlarda Bobil va Misr gazmollari keng tarqalgandi. Finikiylar gazlamani ishlab chiqarish-magan, ular Misr va Bobil matolarini olib sotishgan, ammo, qadimiy afsonalardagi ma'lumotlarga ko'ra finikiylilarni matoni *qirmizi* (*purpur*) rangga bo'yash usulini ixtiro etishgan.

Dengiz yoki purpur nomli chig'anoq (*pyrpyra pelagia*) oqish-sariq ko'pik chiqarardi. U quyosh va namlik ta'sirida qizg'ish yoki qoracha binafsha bo'yoqqa aylanardi. Qizil bo'yoq boshqa trubkasimon chig'anoqdan (bicipum yoki murex brandaris) olinardi, ammo bu bo'yoqning rangi tez oqarardi, shuning uchun uni faqat binafsha rangli purpur bilan aralashdirish ishlashdir edi. Purpurni har xil rangli aralashmalari keng qo'llanilgandi (13 rang chiqqan). Qon rangli yorqin va yaltiroq mato dong'i ketgan ikki bo'yoq aralashmasida (bis tinctus) bo'yalgan. Purpur liboslar — «porfirlar»ni faqat aslzodalar kiyishi mumkin edi. Chig'anoqdan yasalgan haqiqiv purpur bo'yog'i o'rniga o'simliklardan qilingan bo'yoqlar ham qo'llangandi. Misr qabrlaridan endi haqiqiy purpurga bo'yalgan matolar topilmagan, papiruslarda esa sun'iy purpurni tayyorlash retseptlari yozilgan. Misrda bo'yash texnikasi juda yuqori darajada bo'lgan. Pliniyning ma'lumoti bo'yicha, misrliklar oq matoni bo'yash jarayonida turli rang birikmalarini beradigan har xil moddalarni qo'shishardi. Bu moddalarga uksus-glinozyom tuzi kiritilardi. Uni tayyorlaganda misrliklar palma daraxtini suvida yog'li loyni eritib, soda bilan ushbu eritmani to'yintirishardi.

Qadimiyalar qizil o'simlik *purpur* (*kokkus*) va uch turli to'q jigarrang, zang rangli (*ferrugo*), to'q qizil va binafshani (*janthina*) bilishardi.

Bobil, Misr va antik ellistik Yunoniston faqat zig'ir va jun matoni bilishardi. Hindiston savdogarlari paxtani Misrga olib kelgan milodning I asridan boshlab Rim va Misrda paxtachilik rivojlangandi. Old Osiyo va Misrga yunon-rim davrida shoyi matolari Xitoydan olib kelingandi.

Ijodiy jarayonda Misr naqshlari faqat tabiat ko'rinishlariga asoslangandi. Ammo, naqshda san'atdagi kabi ramziylik bo'lgan. Ularni yozuvlari faqat shartli belgi tarzida bo'lmasdan, naqsh yaratish usuli taraqqiy etgan. Ramziylik forslar, arablar va mavrlarda bo'lgan, yunonlarda esa mutlaqo bo'limgan.

Misrliklar nozik tabiatli rassomlar edi, ular o'z naqshlarida yuqori yutuqqa erishgandi. O'simlik va hayvonlar rasmlarini stilizatsiyalab, real dunyoning ramzli tasvirlab, naqsh shakllarini yaratishardi.

Barcha xalqlarning naqsh ijodi faqatgina go'zal shakldan chiqmaydi. Bu dunyoning o'rganish va yozish jarayoni, go'zal shakl esa to'liq o'zlashtirish natijasidan tug'iladi.

*Stilizatsiyalangan nilufar* – bu ilohiyashtirilgan o'simlik - cheksiz turlarda mato, uy jihozlari, mebel va me'morchilik obidalarini bezatardi.

*Ilohiyashtirilgan quyosh* naqshi doira shaklida tasvirlangan. Ikki yon tomonida ilonlar bilan doira, ehrom haykallari, kohin va fir'avn kiyimlarini bezatardi.

Shular qatorida qo'ng'iz-«skarabey», ilon-«urey», qanotini yoygan *kalxatlar* aslzodalarining liboslarida tasvirlanardi.

*Nilufar* gulidan tashqari, uning stilizatsiyalangan *yaproqlari, papirus, qamish, palma, quyosh nurini ifodalaydigan nayzalar* naqshda qo'llanardi (Rasm 1,2,3).

Naqshlar asosan geometrik shaklda (*yo'l-yo'l va zigzaglar*) bo'lib, mato yuzasiga butunlay solinardi.


Misrliklar ko'p ranglilikni yoqtirishardi. Me'morchilik naqshlari doimo rang-barang bo'lgan. Bo'rtma tasvirlar, odatda, rangli qilinardi. Qadimiy Misrda oq va qora qo'shilgan, asosan, *qizil* (*quyosh ramzi*), *ko'k* (*suv va havo ramzi*), *sariq* (*yer ramzi*) va *yashil* (*o'simlik ramzi*) ranglar qo'llanardi.

Oqartirilmagan och sarg'ish oq ranglar eng qadrli bo'lgan. Naqshli matolarda och yoki to'q fonda *ko'k, moviy, oxrasimon-sariq, yashil, jigar-rang-qizil* ranglar qo'llangandi, qora rang esa motam rangi sifatida bo'lgan.


Keyingi davrlarda *qirmizi* va *jigar* ranglar ko'p ishlatirildi. Ammo, uch asosiy ranglar - *qizil, sariq* va *ko'k* Misr san'atida ustunlik qilardi. Ular yordamida Misrliklar garmonik effektiga erishar cdilar, keyinchalik, ularga qo'shimcha ranglar va rang tuslari qo'shildi.

### Nazorat savollari.

1. Misr qanday gazlama vatani?
2. Misr gazlamalarining xususiyatlari qanday bo'lgan?
3. Gazmollarning naqsh turlari.
4. Naqsh ishlash usullari qanday bo'lgan?
5. Naqsh ramzlari.
6. Rang ramzlari.
7. Qaysi xalqlarning naqsh san'ati rivojiga ta'siri katta bo'lgan?



1-rasm. Misr naqsh elementlari.



2-rasm. Misr naqshlari.



3-rasm. Misr gazmollari.

## Ossur – Bobil gazmollari

Ossur-Bobilda gazlama ishlab chiqarish keng tarqalgandi. Davlat ustaxonalarida, ayrim feodallar, shahar hunarmandlari va korchalonlar ustaxonalarida gazlama ishlab chiqarilardi. Mesopotamiyada zig'ir va yung tolalari qadimdan ishlatirilardi. Bobilda zig'ir mato to'qish to'g'risida Hammurapi kodeksida (miloddan avvalgi ikkinchi mingyillik) aytilgan. Jun mato ishlab chiqarish ham keng tarqalgan edi. Hattoki aslzoda ayollari ham uy xo'jaliklarida jun yigirish bilan shug'ullanishgan. Amaldorlar va ayrim shaxslar gazlama va kiyim buyurganligi to'g'risida Bobilni xat-hujjatlarida eslatib o'tilgan.

Har bir sarpo va xo'jalikda gazlama va kiyimlarning majburiy qismi bo'lgan. Ko'pincha, bahosiga ko'ra ular batafsil taqsimlanardi, buning ustiga ularning bahosi har xil bo'lgan: kiyimlarning bahosi 1/2 va 5/6 sekel, uch ehrom kiyimi esa -1 sekelga baholanardi (1 sekel – talantning 1/36, kumushni taxminan 72 g).

Jun janubiy hududlardan olib kelinardi. Qadimiy Xaldeyani hisobot hujjatlari binoan (miloddan avvalgi 40000 yil) oddiy va mayin junli qo'yilar ajratilar edi. Mayin junlilarini esa maxsus cho'ponlar boqardi.

Elamga eksport qilingan bug'doy, yog', un va kumush qatorida jun ham eslatib o'tilgan.

Ilk davrlardan saqlanib qolgan haykallardagi kiyimlar naqshli tasvirlangan. Naqsh faqat hoshiya sifatida yoqasi, yengining uchi, etagi va belbog'ida qilingan, ba'zan naqsh gazlamada to'liq yoyilgan.


Naqshdagagi rasmlar xilma-xil edi (Rasm 4,5,6). Ossur-Bobil san'atida Misr san'atining ta'siri ustuvorlik kasb etgan. Ammo Misr naqshi qatorida (nilufar guli, qanotli oftob doirasi va b.) ularda o'zlarining turli naqshlari ham bo'lgan. Tasvirlar xilma-xil edi, ko'pincha, geometrik (*kvadrat, to'g'ri to'rburchak, romb, doira va yarim doira*), o'simlik (*to'pbargigul, ananas, muqaddas daraxt*), emblemaga oid (*boshi odam qiyofasidagi buqa-kerubin, sher*), antropomorfik (*Ishtar xudosi, podshoh* va b.) yoki murakkab sahnalar (*ov, jang* va b.) ko'rinishlari.

Koshinlarda tasvirlangan naqsh ranglari: *och sariq, to'q sariq, qora va og; haykallarda ko'pincha ko'k va tilla; rasmlarda - ko'k, qizil, qora va og.*

Naqshlar, asosan, kashta usulida qilinardi. Qadim zamonalardan kashtachilik san'ati bo'yicha Bobil dunyoga mashhur edi. Pliniyning ma'lumotiga binoan turli rangli iplar bilan kashta tikish usuli Bobilda ixtiro qilingandi.

Keyin, Rim davrida, Rim shoirlarning so'zi bo'yicha - «*babilonica acus*» - «*bobil igna*»si - ipak yoki junga zar qo'shib tikilgan kashtalarining


dong'i ketgandi; qimmatbaho bobil dasturxonlar va gilamlar - «*triclinaria babilonica*» - Rim imperatorlari va zodagonlari uylarini bezatgandi.



4-rasm. Ossur-Bobil geometrik naqshlari



5-rasm.  
Ossur-Bobil naqshi



6-rasm.  
Ossur-Bobil gazlamalari

### Nazorat savollari.

1. Tola tarkibi va to'qish usuli bo'yicha gazlamalar qanday bo'lgan?
2. Naqsh turlari.
3. Naqsh ishlash usullari.
4. Naqsh va rang ramzları.
5. Naqshni kompozitsion joylanishi.
6. Ossur-Bobil gazlamalarni boshqa xalqlarga ta'siri.

### Yunon va Rim gazmollari

Yunon to'qimachilik hunari Misr, Ossur, Egey va Krit-Miken madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan. Egey qazilma ma'lumotlari bo'yicha uning eng ilk davrlarida loydan yasalgan urchuqlar topilgan. Kech Krit va Miken davrida ilonlarni avraydigan ayollar haykalchalarida va uzuk tamg'alarida juda qiziqarli va o'ziga xos ayollar kostyumi tasvirlangan. Ushbu liboslarning o'ziga xosligi nomi chiqqan «ariadna ipidan» to'qilgan gzmoldan bo'lganligi to'g'risida Tezey haqidagi Yunon afsonasida ma'lumotlar bor. Ammo, ikkinchi tomonidan, ular finikiylar orqali Krit, Misr va Bobil bilan savdo-sotiq qilishgan. Shu boisdan ular liboslar uchun matolar olib kelishgan bo'lishi mumkin. Tezey va Ariadna haqidagi afsonada esa eski va yangi manbalar qo'llangan tarixiy ma'lumotlarni olish qiyin.

Faqat Krit-Miken madaniyati davrida ilk Yunon aristokratik dostonlarida va Gomer poemalarida xudolar, shoh oila a'zolari va turli saroy xizmatchilar to'qimachilik va kashta tikish bilan shug'ullanligi to'g'risidagi ma'lumotlar mahalliy to'qimachilik shakllanganidan dalolat beradi. Podshoh ustaxonalarida va yirik yer egalari joylarida sharq namunalari bo'yicha matolar to'qilar edi. Chamasi, Gomer davrida gzmolni ishlab chiqarish va uni bezatish katta izzat-ikromga sazovor bo'lgan bo'lsa kerak, chunki to'qilgan va kashtalangan namunalar to'g'risida poemalarda anchagina ma'lumotlar aytib o'tilgan. To'qimachilik san'ati Afinaning sevimli mashg'uloti bo'lgan. U odatda o'zi uchun va xudolar uchun hashamatli liboslarni yaratgan. Poemalardagi barcha zodagon ayollar (Areta, Elena, Penelopa, Sirtseya va b.), ko'pincha, to'qimachilik bilan shug'ullanishgan. Gomer yozgan to'quv dastgohning tasviri guldon rassomchilikda ko'rsatilgan (V asr). Tasvirlarda ilk Yunon to'qimachiligining asosiy usullari ko'rsatilgan — tik tortilgan tanda ipi osib qo'yilgan og'irlik yordamida perpendikulyar holatda ushlangan.

Eng so'nggi adabiyot ham uyda to'qimachlik hunari keng tarqalgani to'g'risida bir muncha ma'lumot beradi. Afina qizlari har yil naqshli

choyshabni Afinaga xudosiga bag'ishlab to'qishardi. Aflatunning so'zi bo'yicha panafiney peplosini yaratgan birinchi to'qimachi-rassomlar Akczas va Gelikon bo'lgan. Ulardan tashqari qadimda Misrlik Pamfiliyas va Alkimenning (yoki Alkisfon) dong'i ketgan bo'lgan. Gera Lakoonskayaga bag'ishlab Alkimen to'qigan dong'i ketgan choyshabida Olimpiya xudolari va kundalik hayot sahnalari tasvirlangan. Aristofen va Feokrit qahramonlari ham kashtachilik bilan shug'ullanishgan.

Urug'doshlik tuzimi inqirozga uchrashi va yunonda savdo—sotiq madaniyatni yuksalishi bilan uyda mato to'qish asta-sekin yo'qola boshladidi. Katta to'quv ustaxonalari paydo bo'ldi. Hududlar va shaharlar bir turdag'i matoni ishlab chiqarish bilan shug'ullanishardi: bittalari yupqa zig'ir mato ishlab chiqarsa, ikkinchilari esa — yupqa yung matoni chiqarishardi. Ayrim shaharlar choyshab va yopinchiquarlarni ishlab chiqarish bilan shug'ullansa, boshqalari esa — mato bo'yash yoki kashtachilik bilan shug'ullanishardi. Shu davrda shaharlararo raqobat yuzaga kelgan.

Shaharlar yoki homiy-xudolararo bo'lgan raqobat to'g'risida xalq dostonlarida yozilgan. Ushbu mavzu bo'yicha kolofon to'qimachisi qizi Arxana (yunoncha — «o'rgimchak») to'quv mahorati bo'yicha Afinani musobaqaga chaqirgan emish. Arxana Iidiya naqsh to'quv san'atida ishtirot etgan, Afina xudosi esa - sidirg'a matoni ishlab chiqargan. Afina shahar homiyi sifatida ishtirot etgan.




Miloddan avvalgi VI asrga qadar Yunonistonda, asosan, naqshli matolar ishlab chiqarilgan edi. Keyin, demokratik to'ntarish tarixiy sahnaga yangi sinfni olib chiqardi. Ularga sidirg'a (oq yoki qizil-qizg'ish gazmollar faqat sariq, qizil yoki ko'k yo'l-yo'l bilan bezatilgan) matolar maqbul bo'lgan. Ellin davri yaqinlashganda esa, aslzodalar orasida naqshli matolar yana tarqaldi. Avval Yunon matolar naqshi asosida sharq mavzulari ifoda topsa, endi guldon tasvirlarga ko'ra biz sharqdan farqlanganini ko'ramiz.

Agar Sharq — asosan Bobil va Fors — matoni serhasham naqsh bilan to'liq bezasa, yunonlar uchun naqsh - nafis tafsilot, qayerda elementlar odatda matoni to'liq egallamasdan, ora-sira joylashgan. Agar Yunon matoda hattoki murakkab sahnalari tasvirlansa ham, ular baribir naqshga ayrim erkin kompozitsiyaning xususiyatlarini kiritishardi. Ammo, ko'pincha yunonlar liboslarida murakkab kompozitsiyalar uchramasdi: asosan *geometrik shakllar*, *yulduzlar*, *yaproqlar*, *gullar* va keyingi davrlarda *real* va *fantastik hayvonlar* tasvirlangan (Rasm 7,8,9).




Yunon liboslarini bezatadigan naqshlarni uch turga ajratish mumkin. Birinchisi — tasvirlar sharq mavzulariga o'xshash: *festonlar*, *doiralar*,



7-rasm. Yunon geometrik naqshlari



8-rasm. Yunon naqsh elementlari



9-rasm. Yunon o'simlik naqshlari

*kvadratda nuqtalar, to 'pbarggullar bilan yo'l-yo'llar yoki gazlama yuzasini to'ldirgan kataklar, kvadrat va rombsimon, shashkali tasvirlar va b.* Shunday naqsh turlari miloddan avvalgi VII-VI asrlarda uchrardi. Ikkinchi turi - klassik davrga (miloddan avvalgi V asr) mansub, *yo'l-yo'l* yoki *mayda xoch* shaklida *to 'pbarggullar, uchbarg va svastika* naqshli yengil va nozik matolar. Ba'zan, kiyimni chetlarida nuqta yoki festonli naqsh qilingandi. Uchinchi turi miloddan avvalgi IV asrda paydo bo'lgan va ellinizm davrida rivojlangan. Deyarli nozik emas sidirg'a mato yoqa va etak bo'ylab serhasham *kashtalangan*. Geometrik naqshning o'rniga o'simlik naqsh (*palmetta va akant*) qilinardi. Naqsh ma'lum darajada matoning turi bilan bog'liq bo'lgan: odatda yengil va nozik naqsh bilan zig'ir matolar bezatilardi, jun matolarda esa naqsh og'irroq bo'lgan.

Guldon tasvirlardan tashqari qazilmalardan topilgan mato parchalari qiziqarli ma'lumot beradi. Kerchdan Kavkaz va Xotritsa oroligacha doir skif va bosfor qabrlar qazilmalaridan topilgan gazlamalarda naqsh *to'qima kashtalangan* yoki *bosma* qilingan. Mavzulari xilma-xil va ancha murakkab bo'lib, yuqorida aytigan uchinchi turga mansub.

Miloddan avvalgi IV-II asrlarga oid qabrlardan Pavlov topgan ayol kiyimi parchalarida Yunon kashta namunalari uchragan. Qirmizi-siyoh rang jun gazlamada rang-barang jun iplar bilan amazonka (jangovar xotin) tasviri va o'simlik naqsh yassi banya bilan kashta qilingan. Kuban viloyati Temryuk uezdi Semibrat qabrida topilgan bosh kiyim *to'qima* naqshli matodan qilingan. Nafis qoramtil-olcha rangli fonda olachi por o'rdaklar va bug'u boshlari *to'qilgan*. Bu matoda ikki *to'qish* usuli qo'llangan: bir tomonida - atlas o'riliishi, ikkinchi tomonida esa - reps, shuning uchun gobelen kabi tasvirning ko'rinishi ikki tomonida bir xil. Miloddan avvalgi IV asrda yashagan jangchining tobutining ustida katta choyshab (3,6x3,6 m) topilgan. U bosma naqshli jun mato parchalaridan (uzunligi 0,32m) tikilgan. Naqshi afsonaviy sahnalar va o'simliklardan iborat. Naqsh bosma usulida qilingan.

1924- yilda Mo'g'ilistondagi Noin-Uli qabrlaridan topilgan Yunon *to'qima* matolari miloddan avvalgi II asrda ishlab chiqarilgan. Bu matolar dunyoda yagona *kashtalangan* mato namunalaridir. Matoning bir parchasida (0,36x0,21m) tepadagi frizida o'simlik novdalari bilan palmettalar va qariotli ajdaho tasvirlangan, pastida esa guldonlarda ko'p uchraydigan palmettalar yo'li ishlangan. Boshqa mato parchalarida quyidagi naqshlar: naqshdag'i bargdan chiqib kelayotgan odam figurasi, chap qo'lida - qalqon, o'ng qo'lida esa - uchayrli nayza; tumshug'ida ilon bilan qanoti yoyilgan katta qush; oq, sarg'ich, *to'q* qizil va jigar rangli iplar bilan *kashtalangan chavandozlar*

guruhi qirmizi rangli matoda. Kashtadagi odamlarning kiyimlari (kashtalangan kafan va uzun ishtonlar), yumshoq poyabzallar va soch turmaklarini skiflarga o'xhashligi Yunon kashtachilarini skiflar orasida yashaganligini isbotlaydi. Qabrni tepasiga tortilgan mato ham kashtalangan: xoch shaklli tupbarggullar (rozetkalar), ular orasida toshbaqa, baliq va kaltakesaklar. Bular barchasi bir necha qator ikki tomonli palmettalar tupbarggul bilan almashgan hoshiya bilan o'ralsan. Ushbu mato namunalarini tasvirlariga ko'ra Yunon gazmollari Markaziy Osiyoga skiflar orqali kelganini anglash mumkin.

Miloddan avvalgi IV asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Yunoniston Makedon imperiyasiga kirdi va shu orqali ellen madaniyati uzoq Sharq, hattoki Hindiston va Misr madaniyatiga ta'sir etdi. Iskandar Zulqarnayn qurgan shahar Iskandariya Sharq va G'arb madaniylari sintezining asosiy o'chog'i bo'ldi.

Yunonlar liboslardan uchun mayin, yumshoq, drapirovkabop matolarni qo'llashgan. Matolar eni 2 metrgacha bo'lib, vertikal dastgohda to'qilgan va qimmat narxda baholangan.

Yunon matolarining tola tarkibida zig'ir va yung bo'lgan. Iskandar Zulqarnayn harbiy yurishlarida Hindistonda paxtani ko'rib hayratda qoladi. Paxtani ular «daraxt yungi» deb atashgan. Yunonlarni kostyumning konstruktiv tomoni emas, plastik tomoni qiziqtirardi.

Yunon arxaika davridagi naqshli matolar o'mini klassik davrida (V-IV asrlar) ko'k, qizil, qirmizi, yashil, sariq va asosan oq rangli sidirg'a matolar o'rinni oldi. Qora rang liboslarda qo'llanilmagan. Kul rang va jigar rang motam rangi bo'lgan.

Sidirg'a matolar kashtali, aplikatsiyali yoki bo'yalsan hoshiya bilan bezatilgandi. Naqshlar tabiat bilan bog'liq bo'lgan: stilizatsiyalashgan geometrik va o'simlik (meandr, krit to'lqini, palmetta) mavzulari. Rapporti gorizontall yo'nalishda tuzilgan naqsh ritmik joylashgan.

Vertikal yo'nalishdagi drapirova taxamlari aniq va ifodali bo'lib, go'zallikni va harakat plastikasini ta'kidlaydi.

Antik to'qimachilik san'ati Rim madaniyatiga ta'sir etgandi. Qadimiy italyaliklar kiyim uchun zig'ir matoni ishlab chiqqanganlar. Ilk davrda Italiyada jun mato to'qishgan va respublika davrida odatda Rim aholisi uyda to'qilgan matodan kiyim kiyishgan.

Rim bosib olgan yerlar mustamlakalarga aylanishi bois, Italiyada uyda ishlangan mollar o'rnini olib keligan narsalar egalladi. Tarixchi Strabonning aytishi bo'yicha, «eng yaxshi mayin yungni Mutina va Skutana daryosi atrofidagi joylardan olib kelishgan; dag'alini esa — Listikha va insubrlar mamlakatlari berardi; italyan uy xizmatchilari ko'pincha kiyimni shu jun matosidan qilishgan».

Rim imperiyasi Sharq va G'arb orasida savdo-sotiq rivojlanishiga sabab bo'lгandi. Milodning I asrida Rim Xitoy bilan aloqa bog'ladı. Xitoy elchilari har xil sovg'alar jumlasida shoyi gazmollarni olib kelishardi. Ipak gazlamalar Rimda keng tarqala boshladi. Maxsus savdogarlar shoyi gazlamalarni olib kelish va sotish bilan shug'ullanishgan. Bombitsinadan yasalgan Kos va Ossur matolari Rim bozoridan siqib chiqarilganligi bois, ushbu matoni sotadigan Rim savdogarları Senat orqali qaror o'tkazishdi: shoyi gazmoldan, hech bo'lmasa, erkaklarga kiyim kiyish man etilsin, «chunki u sharmandalarcha quvvatsizlikka olib kelishi mumkin» («ne serica vestis vires foedarent»). II asrda ayollar orasida, ayniqsa, katta shaharlarda, shoyi gazmollarning ommabopligi to'g'risida doktor Galen aytib o'tgan. III asrda shoyiga talab undan ham kuchaydi, garchi narxlar juda qimmat bo'lsa ham. Vopiskning ma'lumoti bo'yicha shoyini qadog'iga oltinning qadog'i berilar edi - «libra epim auri tunc libra serici fuit».

IV asr modalara Osiyo dabdabaligi ham kamaymadi. Yozuvchi A. Martselinining so'zi bo'yicha «zamonaviy aslzodalar o'z qadr-qiyamatini va ulug'verligini faytonning balandligi va o'z kiyimlarining hashamatligi bilan baholaydi. Shamolda hilpillagan qirmizi shoyidan uzun liboslar tagidan turli hayvonlar naqshi bilan kashtalangan boy tunukalar ko'rindi». Shunday hashamatli liboslar, ayniqsa, sharq viloyatlarida tarqalgandi. Shuni ham hisobga olish kerakki, ishlab chiqarish usuli u yerlarda yuqori darajada bo'lgan. Yepiskop Asteriyning so'zi bo'yicha, *odamlar va hayvonlar* tasviri bilan butunlay bezatilgan kiyimlarda boylar ko'chada yursa, bolalar kulib, ularni barmoq bilan ko'rsatar edilar; «Rassom tabiatdan barcha narsalarni o'zlashtirgan: sher, qoplon, ayyq va buqalar, o'rmon va qoyalarni ko'rish mumkin edi».

Shoyi gazlamani ishlab chiqaradigan Sharq markazlari va Rim bozorlari orasida Rim savdo xodimlari dallollik bilan cheklanmasdi. Imperiya davridagi yunon-rim uddaburonlari Misorda zig'ir va jun mato ishlab chiqaradigan ustaxonalarni ochishdi. Ishlab chiqarish texnikasi sezilarli darajada takomillashtirildi. Saqlanib qolgan Rim mahsulotlari namunalarida oddiy, kiper va atlas o'rilishlar, reps, ikki qavatli vatukli matolar uchraydi.

Rimda gazlamani bo'yash usuli yuqori sifatlidi. Shuni ham hisobga olish kerakki, umuman Rim zodagonlari kiyimlarining ranglari yunonga nisbatan turfaroq bo'lgan: freskalarda qizil va siyoh rang erkaklar kiyimida; *sariq, pushti va havo rang* - ayollar kiyimida tasvirlangan.

Gazlama to'qish va bo'yashga qiziqish uyg'otilganligini badiiy adabiyotdan bilishimiz mumkin.

## Vizantiya gazmollari

Yunon-rim imperiyasi an'analarini Vizantiya imperiyasi saqlab qoldi va yanada rivojlantirdi. Antik davr matolari deyarli qolmagan bo'lsa, Vizantiya matolari ko'p muzeylarda saqlanib qolgan.

Vizantiya savdo yo'llari chorrahasida joylashgan. Osiyo, Afrika, Ispaniya, Italiya, Germaniya va Rossiyadan kelgan mollar Vizantiya orqali o'tardi. Suriya va Qizil dengiz orqali Fors, Seylon va Xitoy bilan Vizantiya aloqa bog'lagandi. O'rta dengiz havzasida Vizantiya savdogarları, shubhasiz, birinchi o'rinni egallardi.

Konstantinopol ustaxonalarida o'rta asr zeb-ziynat buyumlari ishlab chiqarilardi. Yevropa feodallari Vizantiyadan zar buyumlari, qimmat baho toshlar va marvarid bilan bezatilgan ruhoniylar buyumlarini olishardi. Ammo, shubhasiz, jun va shoyi matolar, zarli kimhob, gilam va kashtalar ularning orasida muhim o'rinni egallardi. Mato shunchalik yupqa bo'lganki, ma'lumot berishlaricha, uni qamishdan o'tkazish mumkin edi.

Ming yildan ko'proq vaqt mobaynida Vizantiya imperiyasida saroy xodimlari va aslzodalar Vizantiya matolari bilan uylarini bezatishgandi va liboslar tiktirishgan.

Gazlamani ishlab chiqarish, bo'yash va bezash davlat nazorati ostida edi.

Naqshli matolari Vizantiya haykallarida, devoriy rasmlarda va mozaikalarda tasvirlangan. Bezatilgan gazlamalar bilan zavqlanib, Vizantiya jamoasi faqat so'nggi rim sezarlar davrida belgilanmagan yo'ldan borgandi. Rimga Sharq viloyatlari qo'shilishi bilan Rim jamoasi orasiga Osiyo xalqlari odatlari va modalari kirgandi. Sidirg'a zig'ir va jun matolari o'rniga kashtalangan va to'qima naqshli shoyilardan liboslar urf bo'lgandi.

Vizantiyada ishlab chiqarilgan gazlamalarning bir qismi ichki bozorga, ikkinchisi esa – eksportga ketardi. O'rta asr fransuz poemalarida dam-badam Vizantiya matolari to'g'risida eslatib o'tilgan: qay yerdan chiqqanligi va qayerda to'qilganligi aytilgandi. Rus dostonlarida ham shunday ma'lumotlar bor: «knyaginyaga oq kamkani hadya etishdi, kamka qimmat emasdi, ammo naqshi murakkab: Gradning ayyorligi, Iyerusalimning donishmandligi».

Ellinizm davrida sharq va g'arb madaniyatining sinteziga asoslangan antik an'analarini Vizantiya matolari bezatish san'atida muhim o'rinni egallardi.

Ammo, Vizantiya xoqonligida ellinistik asosga – Sosoniy davridagi fors va arab madaniyati yangi elementlari kirdi. Vizantiyaga Sharqni ikkinchi marta ta'sir etgani sababi – VI asrning yarmigacha Vizantiya o'z shoyi matolari fors i pagidan ishlab chiqarardi. IV asrdan boshlab Sosoniy Fors ipakchilik bilan shug'ullangan, ammo xom ipak Xitoydan So'g'd orqali vohalarga

(Buxoro va Samarqand) olib kelinardi. Forslar ipak savdosini o'z qo'lida ushlashardi va urush paytlarida Vizantiya ustaxonalari xomashyosiz qolardi. Shuning uchun Vizantiya o'zi xomashyosini chiqarishining kerakligini anglagandi va xoqon Yustinian davrida cherkov homiyligida ipak xomashyoni chiqarishga ruxsat berildi.

Matolar maxsus hunarmandlar uyushmalari – korporatsiyalarda ishlab chiqarilardi. «Eparx kitobi»da (X asr) to'qimachilar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Hunar savdodan ayrılmazı, ammo, ikki xil hunar yoki turli savdo bilan shug'ullanish man etilgandi va aybdor qattiq jazolanardi (qamchi bilan urishardi va mol-mulkini musodara qilishardi). Shoyi matoni sotadigan savdogarlar boshqa narsalarni sotishiga haqi yo'q edi. O'z kasbiga binoan korporatsiyaga kirmagan shaxslarni hunarmandlikka o'rgatish man etilgandi; shoyi liboslarni sotuvchilar korporatsiyasiga kirish uchun 5 uyushma a'zolaridan kafolatnoma olishi shart edi (ular korporatsiyaga kiradigan shaxsning ishini yaxshi bilishini tasdiqlashi kerak edi).

To'qimachilar o'z molini ustaxonasida yoki ko'chada sotishi mumkin emasdi. Faqat bozor kuni molini orqasida olib yurishi kerak edi. Provinzial savdogarlarga Konstantinopolda uch oydan ortiq turish mumkin emasdi: shu muddatda ular o'z molini sotishi shart edi, bo'lmasa moli musodara qilinardi va savdogar qamchi bilan urilib, haydalardi. Tantanali kiyimlar uchun qimmatbaho shoyi gazlama sotuvchi korporatsiya a'zolari molini faqat shunday kiyim kiyish uchun huquqi bor shaxslarga sotilishini va chet elliqlarning qo'liga tushmasligini nazorat qilishi shart edi. Rasmiylashtirilmagan namuna va rangli gazlamani to'qish man etilgandi. Ammo, to'qimachilarga bezalgan fors shoyilariga o'xshatib to'qish tasdiqlangandi. Eksportga oid matolarda eparxning tamg'asi bo'lishi shart edi, chunki chet elga olib chiqish uchun ruxsatnoma talab qilinardi.

Qattiq nazoratdan maqsad – faqat chet el raqobatidan o'z mamlakatidagi korxonalarini himoya qilishgina emas edi, balki asosan bir qator matolarga (misol uchun, qirmizi matoga) xoqon monopoliyasini o'rnatish edi.

Asosan ayollar ishlaydigan davlat korxonalarida (ginikeyalarda) qirmizidan tashqari boshqa serhasham matolar to'qlardi. Ularni eni keng (2,6-3,12 m) va naqsh rapporti katta (0,32x0,95m) bo'lgan. Bu matolarni maxsus nomi bo'lgan: *amita*, *dimita*, juda qimmat baholari - *heximita*, qizillari – *diarhoddon*, yashillari – *diapistus*, naqshli qimmatbaholari – *exarentasnata* va b.

Ginikeyadan chiqqan matolar fonida, ko'pincha, shu davrda hukm yuritgan imperatorlar nomi yoki hoshiyasida korxona boshlig'i-perlashkariyning nomi to'qlardi.

Konstantinopoldan tashqari Fessaliya, Fiva, Korinf, Antioxiya davlat ustaxonalarida shoyi mato to'qilar edi.

Turlari va texnologik xususiyatlari bo'yicha Vizantiya matolari juda xilmal-xil bo'lgan: pishitilgan qalin kalava shoyi ipdan zikh to'qilganidan tortib juda yupqalarigacha.

Naqshlari *bosma*, *kashta* va *to'qima* usulida qilinardi, ayniqsa, *to'qima* naqshli matolari Vizantiyaning *milliy iftixori* bo'lgan.

Milodning III asridan va XI asrgacha qadar kashta odatda cho'zilgan oltin sim bilan qilingandi. Ular faqat bir necha joyda matoga tikib biriktirilardi. XI asrdan keyin cho'zilgan oltin sim o'rniga zig'ir ip bilan yigirilgan oltin qo'llangandi. Shunday oltin iplarni Kipr orolida qilishardi. XI asrda Vizantiya matolarida shu iplar paydo bo'lgan. Mato arzonroq va egiluvchanroq bo'lGANI uchun XV asrga borib cho'zilgan oltin simlar o'rnini egalladi. Cho'zilgan oltin sim faqat juda qimmatbaho kashtalardagina saqlanib qolgan.

Vizantiya san'ati taraqqiyotida uch asosiy bosqichlar belgilangan: IV-VI, IX-XI va XVI-XVI asrlar. Har bir bosqich Vizantiya ijtimoiy-iqtisodiy tarixining asosiy paytlarini, yer egaligi va savdo-sotiqni, unda solishtirma hajmi, Sharq va G'arb bilan iqtisodiy aloqalar bilan uzviy bog'liqligini fodalardi. Shu bosqichlarga binoan Vizantiya matolarini bezash tarixini tahlil etish mumkin.

Ilk Yunon va sharq kashta va matolari Vizantiya matolarini bevosita o'tmishdoshlari va timsollari bo'lgan. Ularni ko'pgina namunalari Misr va kopt qabrlaridan topilgan. Kashtalar rang-barangligi bilan ajralib turar edi va cherkov mozaikasi yoki Vizantiya o'yma sirlarini eslatardi.

IV-VI asrlarda Vizantiya antik san'atning davomchisi bo'lib, uni yangi sharoitga moslagandi. VI asrda Rim imperiyasi harobalari bosib olindi, O'rta Jengiz sohilidagi mamlakatlar birlashib, yangi ulkan Vizantiya imperiyasi parpo etildi. Rivojlanayotgan feodalizm qatorida Vizantiyani «do'stona savdos» muhim rol o'ynagandi. Bu davrda mato san'ati asosan poytaxt islzodalarini va saroyga hizmat ko'rsatardi. Ularda haddan tashqari serhashamlikka ntilish zuhur etilgan; san'atining realistik va «rangtasvir» uslubi an'analarini aqlangan; uni dinamikasi, erkin kompozitsiyasi va rang dog'ining ustunligi aqlangan.

Sharq san'atining namunalari elliň ruhida qayta ishlanib chiqarilardi yoki ayrim element sifatida erkin kompozitsiyaga kiritilardi.

Parijning Klyuni muzeysiда saqlanayotgan Axen kapellasidagi mato namunasi V-VI asrdagi badiiy yuksak mato namunasidir (Rasm 13). Bu mato mashhur qirmizi rangli; doirada kvadriga (arava) sirkning sahnasiiga



13-rasm. V-VI asr  
Vizantiya gazlamasi.  
Klyuni muzeyi.


kompozitsiyasi kabi, toshdan qush, qo'ylar tasvirlari naqsh tamg'ali. To'q-ko'k qirmizi fonida to'q-sariq (avval qizil bo'lgan) rangda naqsh to'qilgan.

Rimning Lateran muzeyidagi ajoyib qirmizi shoyi matosini ikkinchi mashhur yodgorlik deb tan olish kerak (Rasm 14). Uni medalyonlarida (diametri 0,30m) Iso-payg'ambarning tug'ilishi va xushxabar kelishi tasvirlangan. Bu diniy mavzular erkin va realistik sharhlangan.


Umuman, mebel va liboslarga ko'ra rasm ishlash usuli bo'yicha bu mato namunali deb hisoblansa bo'ladi; uni VI asrda to'qishgan. Benazir boy rang-barang gammasiga ko'ra bu mato ruhoniylarga mo'ljallangan va Iskandariya ustaxonalarida ishlangan.

Tahlil etilgan naqshlar matoning o'ng tomonida ishlangan. VI asr mozaikalari tasvirlarda matolarida oddiyroq rasmlar ham tasvirlangan. Naqshlar o'simlik va astral mavzusida bo'lgan. Ular doira va to'g'ri to'rtburchakda qilingan (Rasm 15).

V-VI asrlarda Vizantiya arab va slavyanlar bilan kurashgan va birma-bir janubiy va g'arb viloyatlari ajralib chiqqandan so'ng, Vizantiya



14-rasm. VI asr  
Vizantiya gazlamasi.  
Lateran muzeyi.



15-rasm. XII asr Viantiya mozaikasi.

jahon xoqonligidan milliy mamlakatga aylandi. Tashqi va ichki kurash natijasida san'atga deyarli e'tibor berilmasa ham, VII-VIII asrlarda badiiy ishlangan gazlamalar uchardi. Oldingi maishiy mavzular qatorida gazlamalarda sharq namunalari ta'siri sezildi. Ba'zi eski mavzular fors didiga moslanib, qaytadan ishlangan. Chunki bu davrda qochoq fors shoyi to'qimachilar o'z bilimini va mato namunalarini olib kelishgandi. Belgiya va Fransiya muzeylaridagi shoyi gazlamalar naqshlarida doira to'rt otli aravalari, aravakashlarning boshi ustida nurli chambar, Mitra (quyosh va yorug'lilik xudosi), Oy xudosi, qanotli grifonlar, palmetkalar va boshqa turli tasvirlar uchraydi (Rasm 16,17). Zar bilan to'qilgan grifonlarning oyoq va dumlari qirmizi rangli


bo'lgan, yulduz va medalyonlar orasidagi tupbargullar ham zarli bo'lgan. Berlin muzeyidagi gazlama namunasida (VIII asr) boshlari bir-biriga

qaragan qo'sh o'rdaklar sakkiz qirrali shakl ichida tasvirlangan (Rasm 18).


Sosoniylar ta'sirida to'qilgan Vizantiya gazmollarini namunalarida cho'zilgan sakkizburchaklar ichida boshlari bir-biriga qaratilgan qo'sh o'rdaklar tasvirlangan.

IX-XI asrlarda iqtisodiy va siyosiy qiyinchiliklar tamom bo'lgandan so'ng, Vizantiyada san'at yanada rivojlnana boshladi. Vizantiyaning boyligi osha boshladi, savdo aloqalari

kuchaydi va kengaydi. Shu boroda feodal saroylarida yangi san'at va madaniyat o'choqlari yaratilgandi, ammo savdogarlar va feodal yer egalari endi san'atda sharq ta'sirlarini o'zlashtirishardi. Gazmollar sharq-feodal ramzlar, fil, sher, buqa, burgut, fantastik grifon va qanotli otlar tasviri bilan bezatilgan (Rasm 19). Bu mavzular feodal san'atida kuch va qudratning ramzlari edi. Nasroniy



17-rasm. VII asr  
Vizantiya gazlamasi  
Moskva Tarix muzeyi



18-rasm. VII asr  
Vizantiya gazlamasi  
Berlin badiiy-sanoat  
muzeyi



19-rasm. X asr Vizantiya gazlamasi. Berlin badiiy-sanoat muzeyi

mavvzular esa gazlamada tasvirlanmasdan, faqat freska, miniatura va tasviriy san'atda saqlanib qolgandi.

Sosoniy mavzularini o'zlashtirgan IX asr gazlama namunalarida doiralar ichida tasvirlangan fillar, qirmizi rangli fonda oq, sariq, sapfir-moviy, yashil-zumrad ranglarda naqsh ishlangan. Doiralarning keng hoshiyalari Sosoniy palmetkalar bilan bezatilgan. Ichida boy bezatilgan fillar naqshli daraxt oldida tasvirlangan. Qo'shni doiralarda ularning boshlari bir-biriga qaratilgan. Umuman kompozitsiya chiziqlari va ranglari bo'yicha uyg'un qilingan va yakunlangan. Bu serhasham gazlamaga Ulug' Karlning jasadi o'ralgandi (814 yoki 1000- yil). Bu gazlamaning razmeri 1,62x1,36m bo'lgan, milki esa saqlanib qolmagan. Gazlamaning o'rtasi o'qi ikkita doirani orasida, ularning diametri 0,78m edi. Ammo gazlama qo'lda to'qilgani uchun nosimmetrik ro'y bergen: tepadagi doiranining diametri 0,82m bo'lsa, pastdaginiki - 0,675 m edi. Doiralar shakli cho'zilgan: o'rtasi to'pbargulgulning bo'yi - 0,23 m, eni - 0,27 m edi.

Zigburgda muqaddas Annotaning maqbarasidan topilgan gazlamada sher va burgutlar tasvirlangan. Och sariq rangli i pakdan to'qilgan sherlar qatorda uchtadan tasvirlangan: ikkitasi - bir-biriga, uchinchisi esa - milk tomoniga qaratilgan. Sherlarning tanasi yon tomonidan tasvirlangan. Ularning yoli, oyoqlari, tumshuq mushaklari qirmizi rangli ipak bilan to'qilgan. Tasvirlarning stilizatsiyasi ularning kuch va qudratini ko'ssatadi.

IX-X asrlarning ayrim gazlamalarida stilizatsiyalangan burgutlar tasvirlangan. Bu burgutlar ma'lum darajada rimliklarning merosi (ularning bayroqlarida burgutlar bo'lgan) dir. Ammo ularning talqin qilinishi Sosoniy uslubida bo'lgan.

Germaniyada Briksen rizaxonasida topilgan gazlama namunasida (Rasm 20) 0,70m bo'yli qora burgutlar tumshuqlarida sariq halqani ushlab turishgani tasvirlangan. Har bir burgut aylanasisiga to'rt katta to'pbargullar bilan tasvirlangan.

Yana shunga o'xshash gazlama namunasi (mantiya-riza) (Rasm 21) Metsa soborida saqlanmoqda. Unga qalin qizil rangli shoyida zar iplar bilan naqsh to'qilgan. Kompozitsiyada radius bo'yicha joylashgan to'rt burgutni yoyilgan qanotlarida dumaloq medalyonlarda grifonlar va ilonlar bilan naqshlar tasvirlangan. Fonning ora-



20-rasm. IX- XII asr  
Vizantiya gazlamasi  
Briksen rizaxonasi



21-rasm. X-XI asr. Vizantiya gazlamasi. Metsa soborining rizaxonasi

oralari mayda o'roqsimon nozik to'qilgan naqshlar bilan to'ldirilgan. Garchi sosoniy ta'siri bu gazlamada ayon bo'lsa ham, naqshni yarim doira shaklida joylanishi bu gazlamani Vizantiya xoqon saroy kiyimida qo'llaganligini isbotlaydi.

Fantastik hayvonlar o'simliklar naqshi bilan hoshiyalangan mavzulari X-XI asrlarga oid gazlamalarda ko'p uchrab turadi.

Agar feudal davrining birinchi bosqichida ov mavzulari qisman uchrasa, endi, Vizantiya feudalizmi ravnaq topgan davrida, ov mavzulari boyroq va effektli tasvirlangan.

Vatikanning nasroniy atiqalari muzeyidagi gazlamada to'pbarggullar bilan o'zaro bog'langan 0,32 m diametrligi doiralarda quyidagi sahnalar tasvirlangan: doira tepasida, o'rtadagi palmaning ikki tomonida simmetriyali joylashgan ikki ovchi sherga nayza sanchyapti. Doiraning pastida shunga o'xhash sahna tasvirlangan: orqama-orqa turgan ikki ovchi qoplonni o'ldiryapti. Oralarida qushlar, ovchi itlar va boshqalar tasvirlangan. Ovchilar tunukalarida kopt gazlamasida uchraydigan kashtasi bor. Oralarida quyonlar, ov itlari tasvirlangan. Sahnani hoshiyalagan filli axen gazlamasini eslatadigan palmetkalar oddiyroq bo'lgan.

Darvoqe, VIII asrda ham sherni yengan odam tasviri gazlamada aks ettirilgan. Shunday gazlama Sans soborining rizaxonasida va Eyshtatdag'i Valburg abbatligida saqlanmoqda. Birinchisi - uzunligi 1,60 m qalin serhasham gazlama Eyshtatdag'i gazlamaga o'xshaydi. Ikkalasida ham ellips shaklli medalyonda katak-katak tunuka kiygan uzun sochli odam tasvirlangan. U qo'llari bilan ikki sherni itaryapti, ikkita boshqa sherlar esa uning oyog'ini tilka-pora qilyapti. Och sariq rangli fonda tasvirlar sariq, oq va havo rangli qilingan. Bu tasvir Sozoniy sujetini takrorlagan: Bobildan esa o'zlashtirilgan Gilgameshni sherlar bilan kurashi tasvirlangan mato topilgan.

Shunday mavzular X asr gazlamalarida ko'p uchraydi. Parijdagi Klyuni muzeysiда hoshiyasi gulli qirmizi rangli gazlamada sherni oyog'i bilan bosib turgan jangchi tasvirlangan. X-XI asrlarda Sharq ta'siri sezilib turgan ushbu lavha o'zgacha ishlangan.

XIV-XVI asrlarda Vizantiyada gazlama ishlab chiqarish so'nggi bosqichga ko'tarilgan. Ayrim yuqori yutuqlarga erishilganligiga qaramasdan, endi bu inqirozga yuz tutgan san'at edi.

Bu davrda san'at asosan saroydagi aslzodalarga bag'ishlanardi. San'at ma'lum darajada eklektik bo'lgan. Bu yerda realizm xususiyatlari, G'arbiy Yevropa Gotikasi bilan yaqinlanish, ishqiy munosabatlar bilan qiziqish, antik mavzular yordamida san'atni yangilashga intilish, zohidlik elementlarini ta'kidlash, tarki dunyochilik – bularning barchasi Vizantiyani iqtisodiy muvaffaqiyatsizlikka uchraganligining ifodasi edi. Gazlamalar ishlab chiqarishda Sharq ta'siri susayib, milliy izlanishlar ro'y bergandi, texnikaviy inqiroz sezilardi, tasvirlar qo'pol bo'lib, ta'sirchanligini yo'qtgandi. Italiya gazlamalari bilan raqobat natijasida to'quvchilik sanoati rivoji to'xtab qolib, ikkinchi planga o'tdi.

Moskvadagi qurol-aslaxa palatasida saqlanayotgan XVI-XVII asrlarda Vizantiyada ishlab chiqarilgan matolar namunalarini (Rasm 22) o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu yerdagi Iso va Bibi Maryam tasvirlari shu davrning tipik ifodasidir. Bosh figuralar yuzi qayg'u, his-tuyg'uli, harakatsiz qotgan holatda, yelkasi tushgan, bo'yni cho'zilgan holatda tasvirlangan.

Sakkosni och rangli shoyida Bibi Maryam tasvirlangan, ularning orasida poyali lola va chinnigullar (gruzin va arman qo'lyozmalaridagi mavzularni eslatadi) joylashgan. Boshqa XVI asr sakkosida Xristosning taxtda o'tirgan tasviri, yon tomonlarida esa injilchilar ramzları tasvirlangan. Ularni orasida lola, chinnigullar sochib qo'yilgan. Yana bitta sakkosda taxtda o'tirgan Xristosni qo'lida Injil, oraliqlarida farishtalarning boshlari tasvirlangan. V.K. Kleyinning ma'lumoti bo'yicha Rossiyada chet eldan olib kelingan shunday gazlamalar ularni to'qilish usuliga ko'ra Yunon obyari deb nomlangan.

XIV-XV asrlarda Vizantiyada to'qilgan gazlamalar avvalgi davr gazlamalariga teng



22-rasm. XVI asr Vizantiya gazlamasi. Moskva Qurol palatasi.

kela olmasdi. Ammo kashtalangan gazmollar ajoyib bo'lgan. Turli cherkov liboslarida kashtalangan tasvirlar to'qima naqshli gazlamalarga ko'ra hayotiyroq bo'lgan.

Ba'zan, rassom tasvirni avvalgi davr yoki antik san'atidan o'zlashtirgan. Bu davrning eng mashhur Vizantiya kashtasi Rimdag'i muqaddas Pyotr soborini rizaxonasida xoqonning bebaho dalmatigi (dalmatik – ruhoniylar va zodagonlar libosi bo'lgan kalta ko'yak) deb tan olingen. Bu juda qalin, havo rangli, yaltiroq shoyi gazlamada oltin va kumush xochlar orasida zar ip bilan o'simlik naqsh kashtalangan. Old va orqasida, yelkalarida muqaddas yozuvda Xristosni madh qiluvchi sahnalar tasvirlangan. Markazda yulduzli osmon fonida yozuv: Xristos – «qaytadan jonlanishi va hayot». Xristosning atrosida farishtalar, pastida shoxlar, patriarxlar, yepiskoplari, rohib va rohibalar yurishi, undan pastroq burchaklarda Avraam va mo'min qaroqchi tasvirlangan. Markazdagi taxtda o'tirgan Xristos soqolsiz, Rim kiyimida. Barcha tasvirlangan figuralar uyg'un, aniq va bo'rtib chiqqan.

Rossiyada saqlanayotgan ikkita Vizantiya dalmatigi (Fotiyni katta va kichkina sakkoslari) havo rangli qalin shoyidan qilingan va tepadan pastigacha muqaddas yozuvdan har xil sahnalar, ilohalar, payg'ambarlar va farishtalar tasvirlari kashtalangan. Bittasining etagida xoqon Ioann Paleolog, uning rafiqasi Anna, Moskva knyazi Vasiliy Dmitriyevich va uning rafiqasi Sofya Vitovtovna tasvirlari. Barcha kashtalar cho'zilgan zar, kumush va rangli ipak bilan qilinib, chegaralariga marvarid tikelgan. Kompozitsiyalar qonun-qoidalar asosida tuzilgan.

XV asrda Vizantiyani turklar bosib olgandan so'ng, Vizantiyani badiiy san'ati inqirozga uchragandi. Undan tashqari Vizantiya to'qimachilik o'rniqa boshqa g'arbiy Yevropa mamlakatlarida to'qimachilik san'ati turlari rivojlana boshladi. Ammo, bu san'at tarixida Vizantiya o'zgacha muhim rol o'ynaganligi tan olinadi. O'rta asrning oxirida Vizantiyadan o'zib ketgan mamlakatlar u orqali antik an'analari va sharq namunalari bilan tanishgan. Vizantiya to'qimachilik san'ati normanlar, Sitsiliya va u yerdan Ispaniyaga bevosita yoyilgandi. Vizantiya gazlama namunalari Shimoliy Italiya to'qimachilik san'atiga ta'sir ko'rsatgandi. Vizantiya gazlama va kashtalari Rossiyaga ham yoyilgandi va XV-XVI asrda rus kashtasi Vizantiya badiiy uslubi asosida qilingandi.

Vizantiya gazlamalaridagi naqshlar me'morchilik va haykaltaroshlikka ta'sir etgan. Mato naqshlari Ravenna, Venetsiya, Rim, Kiyev, Vladimir cherkov me'morchiligidagi qo'llangan.

Vizantiya gazmollarida sharq mavzulari, fantastik hayvonlar, «hayot

daraxti» g'arbiy roman me'morchiligi ramzlarida uchraydi. G'arbiy Yevropaga Sharq mavzulari matodan me'morchilikka o'tishi salib yurishlardan oldin bo'lgan. Sharqiyl Yevropaga esa ancha kechroq o'tgan.

### Nazorat savollari.

1. Vizantiya to'qimachilik san'atiga qaysi xalqlar san'ati ta'sir etgan?
2. Shoyi gazlama ishlash uchun Vizantiya xomashyonini qayerdan oлган?
3. Raqobatdan o'z korxonalarini himoya qilish uchun qanday choralar ko'r gan?
4. Naqshlar qanday usulda qilinardi?
5. Naqshning tasviri mavzulari qanday bo'lgan?
6. Vizantiya gazlamalarini qayerga eksport qilgan?
7. Vizantiya to'qimachilik san'ati boshqa xalqlar san'atiga qanday ta'sir etgan?
8. Vizantiya to'qimachilik san'ati nima sababdan inqirozga uchragan?

### Sosoniy gazlamalari

Sosoniy Fors milodning 236-636- yillarida mavjud bo'lgan. Bu qudratli feodal mamlakati san'ati qo'shni davlatlarga ta'sir o'tkazgandi.

Sosoniy me'morchiligi, amaliy-dekorativ san'ati, zargarlik buyumlari, kashta va gazmollar bizni hayratda qoldiradi. Sosoniy haykallari va tasviriy san'ati gazmollar to'g'risida ko'p ma'lumot beradi.

Sosoniy gazmollar to'qish va bezash ildizlari Bobil va Misr texnikaviy usul va kashtalariga borib taqaladi. Ammo, naqshli shoyilar qadimda juda kam bo'lgan. Shuni esdan chiqarmas kerakki, ipakchilik na Yevropada, na Osiyoda ma'lum edi va ipak qurtini boqish va undan ipak xom ipi va shoyi gazlamani ishlab chiqarish sirini faqat Xitoy va keyinroq Hindiston bilgan. Forslar xom ipakni Buxoro va Samarganddan olib kelishardi, ularga esa miloddan avvalgi II asr oxiridan boshlab, Xitoy karvonlarida olib kelishardi va faqat imperator Vu-Di davrida (milodning boshida) karvon yo'li ochilgandi.

Sosoniy Forsda Xitoy xom i pagini qayta ishslash markazi Xuziston bo'l-gan desa bo'ladi, chunki uning shaharlarida qadimdan to'quv korxonalari ravnaq topgandi. Fors feodal saroylarida maxsus to'quv korxonalari «*tirats*» - (Tiraz)da ipak qayta ishlab chiqarilardi va gazlama to'qilardi. Dajladagi Ktezifon o'z kashtalari bilan mashhur edi.

Sosoniy shoyilar pishitilgan ipakdan gobelen to'quv usulida qo'lda to'qilardi. Ammo, mahalliy qo'l to'quvchilik an'analariga, ehtimol, boshqa mamlakatlarning usullari qo'shilgandir.

Balki birinchi ustalar texnika usullari va serhasham turli naqshli shoyilar namunalarini Xitoydan olishgan. Keyin juda foydali shoyi ishlab chiqish sanoatini o'zida o'matishga intilib, forslar o'z korxonalariga ishchilar sifatida harbiy asiralarni olishardi. Misol uchun, IV asrda Shopur II Suriyaga bosqinchilik qilgandan so'ng, o'z mamlakatiga bir qator ipak to'quvchi asiralarni ko'chirdi. Umuman, Sosoniy Fors o'z shoyi ishlab chiqarish sanoatini tiklashda Vizantiyadan ikki asr o'zib ketdi. Gazlama va kashta fors eksportida muhim o'rinni egallagan. Shuni aytish joizki, Sosoniy gazlamalar orasida shoyiga nisbatan arzon bosma naqshli ip gazlamalar ham uchraydi. Bosma naqshlar shoyidagi antik mavzularni takrorladi, ammo ular qo'polroq ishlangandi.

Hozirgacha saqlanib qolgan Sosoniy gazlama namunalari VI-VII asrlarda to'qilgan. Ular, asosan, turli g'arbiy Yevropa podshohlari va ruhoniylarining dafn kiyimlari bo'lgan. Odatda, ular qadimiy sobor, cherkovlarni rizaxonasida saqlanadi.

Ayniqsa, Fransiyaning Sans sobiq monastri va Rimdag'i Lyuteran soborining kapellasi Sosoniy gazmollari bilan boy. MDH mamlakatlarida Sosoniy gazlama namunalari umuman yo'q.

Agar Sosoniy gazlama va kashtalaridagi tasvirlarni tahlil etsak, faqat ayrimlarida antik sujetlarga guvoh bo'lamiz. Misol uchun, shunday ip gazlamasida Ganimedni olib chiqish sahnasi tasvirlangan. Sosoniy Forsni ijtimoiy tarziga mansub feodal mavzulari gazlama naqshlarida tasvirlangan: shoh ov sahnasi, shoh madhiyasi, otni jilovlash, feodal ramzlari (real va fantastik hayvonlar — kuch va qudrat timsollar) va b. Diniy mavzular ham naqshlarda uchragandi: «hayot daraxt»i (Home) va «olov qurban qiladigan joy» (Piree).

Ov tasvir etilgan naqshlarning rapporti 0,9-0,99 m edi. Ishtirok etuvchi shaxslar Sosoniy shohi va oliy zotlar bo'lgan. Odatda, figuralar qo'sholoqlangandi, ya'ni fantastik yoki «hayot daraxt»i turida ifodalangan naqsh markaziy o'qni ikki tomonida tasvirlanardi. Bu, shubhasiz Ossur-Bobil san'ati negizida bo'lgan va u orqali Sosoniy Forsga o'tgan shumer Old Osiyo «geraldik uslubi»ni an'anadir.

Odatda chavandozlar figuralarini orqaga qaratilmagan. Barcha ko'chmanchilar (fors, parfiya, mo'g'ul, skif yoki turklar) otni faqat oyog'i bilan haydashgan. Shunday holat barcha kompozitsiyalarda uchragan va ko'p vaqt o'zgarmasdan naqshda saqlangandi.

Sosoniy tarixi davomida qurbanlik olovi tasviri gazlama naqshlarida uchrar edi. Faqat uning shakli vaqt-i-vaqt bilan o'zgarardi. «Hayot daraxti» (Home) forslar uchun tirk jonlar va buyumlarni ilohiy qaytadan jonlanishi timsolidir. Avval, uni palma, keyin, sarv yoki fantastik o'simlik turida tasvirlashgan. Olov qurbanlik qiladigan joy, «hayot daraxti» oldida hayvonlar (bittadan yoki qo'shaloq) o'zaro kurashgan, chavandozlarga hujum qilgan yoki ularning oyog'ini oldida yotgan holda tasvirlangan. Ularning figuralari hurpaygan va darg'azab holda, tanasi va oyoqlari o'simlik unsurlari bilan bezatilib, realistik tasvirlangan. Ko'pincha, yarim qush - yarim hayvonlarning g'alati birikmalarini uchraydi. Bu mahluqlarning qanotlarini va dumlarining erkin va yengil tasvirlash - ko'p asrlar davomida o'zlashtirilgan Sosoniy yodgorliklariga taalluqli xususiyatdir.

Chopayotgan qanotli otlar, grifonlar va boshqa hayvon va qushlar mushaklarida turli shakldagi tamg'alar bu san'atga o'ziga xos benazirlik beradi.

Sosoniy gazmollarida qush (xo'roz, o'rdak, tovuslar) va fantastik naqshlar ishlangan. Ularning real shakllari tangachalar, munchoqlar, stilizatsiyalangan gulchambarlar va gulli naqshlar bilan bezatilgan. Bezak elementlarining to'p-to'pligi tasvir yengilligini yo'qotmaydi va zerikarli taassurot tug'dirmaydi. Hattoki, qush va hayvonlarning sust harakatlari ko'zni charchatmaydi.

Odatda, Sosoniy gazmollar kompozitsiyasining o'rta o'qi matoni uzunasiga ikkiga bo'ladi va naqshlar o'qining ikki tomonida joylashadi. Ko'pincha, naqsh mavzulari doira yoki maxsus tupbargullar ichida ishlangan. Qadimiy naqqoshlar doira bezash usulini «cirumrotatum» yoki «rotata», katak ichida joylashni — «scutulata» deb atashgan. Umuman, naqshni doirani ichida joylash Sharqqa mansub usul. Doiraning ichidagi kompozitsiyada yuzi yoki orqasi bilan bir-biriga qaratilgan bir xil figuralar o'rta o'qning yon tomonida yoyilib, simmetrik takrorlanib joylashgan.

Yo'l-yo'l yo'nalishda ishlangan kompozitsiyalar ham uchraydi. Shunday kompozitsiya qadimiy deb hisoblanadi, chunki qadimiy fors Axamoniy sulolasi davri san'atida ko'p uchragan. Persepoldagi Doroni taxt o'rnatilgan xonasida shundai usulda sher, buqa va grifonlar tasvirlangan.

Hozirgi zamongacha saqlanib qolgan ayrim Sosoniy gazmollarini tavsiflab ko'ramiz.

Shoh hokimiyatini ulug'laydigan naqshli matolardan quyidagilari e'tiborimizni o'ziga tortadi.

Kyolndagi muqaddas Ursula cherkovidagi to'q ko'k rangli shoyi gazmol (Rasm 23). Hozir Berlindagi Badiiy-san'at muzeysiда saqlanmoqda. Bu gazmol

VII asrning birinchi yarmida ishlangan. Uzliksiz takrorlangan kompozitsiyada qanotli va shoxli sher bilan kurashayotgan grifonga mingan sossoniy shohning qo'shaloq tasviri. Soqoli olingen chavandozda qanotli shoh toji. Shohni sher bilan kurashi afsona asosida tasvirlangan va dushman ustidan g'alaba qozonish timsoli bo'lgan. Xuddi Axuramadza Axriman bilan kurashgani kabi. Orqaga o'girilgan holda Ezdegard grifonga minib o'tiribdi. Chavandozlarini ayirib turgan daraxtlar yaproqlari orasida shohga homiylik qilayotgan farishalar ko'rinish turibdi. Gazlamaning qolgan joylari fors naqshiga taalluqli sher va tog' taqalari och ranglar bilan naqshlangan. Qizil, yashil va qum rangli figuralar to'q-ko'k fonda ajralib turadi.


Kyondlagi avliyo Gunibertni rakasidan topilgan gazlama (Rasm 24) ham juda qiziqarli. Bu Sosoniy gazlamada eng yirik rapportli kompozitsiya: doiralar diametri 0,99 metrgacha bo'lgan. To'q ko'k fonda finik palma soyasida orqasini o'girib turgan tarang tortilgan yoyilari bilan ikki chavandoz tasvirlangan. Kamondan otilgan o'qlar sherning o'ljası – yovvoyi eshakka sanchilgan. Gullab turgan o'simliklar, burgutlar, ov itlari va quyonlar fonni to'ldirgan. Doiralar hoshiyasining eni 9,5 sm bo'lib, yuraksimon gulli naqshlar bilan bezatilgan. Bu kompozitsiya Sosoniy shoh Bahrom Go'ming ovini ko'rsatadi. Boshida parfyan va skiflar uchun odatiy uchli qalpoq, qo'lida – Osiyo ko'chmanchilariga taalluqli quroli – uzun kamon, ko'kragida esa hashamatli kashta qilingan. Serhasham ot abzali shoh libosiga mos edi. Bir-biriga tutashgan doiralar orasi yo'lison naqshlar bilan to'ldirilgan (VI asr).

Ov tasvirlangan uchinchi gazmol Tirda topilgan (Rasm 25). Hozirgi vaqtida u ikkiga bo'lingan va birinchisi - Berlin badiiy-sanoat muzeyida, ikkinchisi – Nyurenberg muzeyida saqlanmoqda. Bu gazlamani rapporti – 0,9 m . Uning rangi to'q ko'k. Shohning sher ovlagani doiralarda tasvirlangan. Oldin tavsiflangan gazlamalardagi kabi, shoh grifonga mingan holda tasvirlangan. Liboslari serhasham kashtalangan. Boshida uch uqqali qalpoq. Jingalak sochlari yelkasiga tushgan. Chavandozlarning yuzlari tomoshabinga qaratilgan. Bir qo'li bilan ular qush qo'ngan «hayot daraxt»ining shohnini ushlab turishgan. Grifonlarning oyog'i ostida bug'uni tilka-pora qilayotgan sherlar va turli holatdagi yirtqich hayvonlar tasvirlangan. Bularning barchasi hoshiyalidir ichida joylashgan. Hoshiyadagi kichkina medalyonlarni ichida har xil hayvonlar tasvirlangan (bu antik ta'sirini bildiradi). G'izolni tilka-pora qilayotgan tog' burguti tasvirlangan tupbarggullar bilan yirik doiralar biriktirilgan. Guruhlar orasida tog' qo'yilari va o'simliklar tasvirlangan.

Sosoniy gazlamalarning tipik mavzulari – fantastik hayvonlar – Bobil afsonaviy ijodiga asoslangan.



23-24 rasm. VII asr Sosoniy gazlamasi. Berlin sanoat muzeyi.



25-rasm. VII asr Sosoniy gazlamasi.  
Nyurenberg muzeyi.



26-rasm. VII asr Sosoniy gazlamasi.  
London. Viktoriya va Albert muzeyi.

Londondagi Kensington muzeyida va Parijdagi dekorativ san'at muzeyida kamka yoki dama turidagi bir xil to'q yashil gazlama parchalari saqlanmoqda (Rasm 26). Unda bir-biriga tutashgan 35,5 sm diametrli doiralarda tumshug'i ochiq, qiyshiq changalli grifonlar tasvirlangan. Doiralar bir-biriga tutashgan joylari Sosoniyalar gerbi — yarim oy va oval shakldagi tupbarggullar yordamida biriktirilgan.

Tag-i-bostan bo'rtma tasviridagi Xozroy II shohning libosini hoshiyasida (Rasm 27) deyarli o'xhash tasvirlar uchraydi. Fantastik grifonlar kamoli ehtirom va dahshat tug'dirsa, qushlar (tinch hayotning ramzi) shoh yoki vazirlar shaxsiyatiga fuqarolarni qiziqtirish amaliga xizmat qilardi. Undan tashqari, xo'roz zardushtlikda muqaddas qush deb hisoblanardi.

Rimdag'i Lateran cherkovining Sancta Sanctorum to'plamidagi gazlamasida (Rasm 28) katta stilizatsiyalashgan xo'rozlar tasvirlangan. Ularning boshi atrofidagi nur chambari bu tasvir diniy marosimlarga bag'ishlanganligini qayd etadi. Bu gazlama VI asrda ishlangani faraz qilinadi.

Tag-i-bostan bo'rtma tasviridagi gazlamada o'rdaklar tasviri uchraydi. Uzunligi tizzagacha bo'lgan kafanlar va uchi toraygan shalvarlarni kiygan ovchilar filga mingan. Liboslarida stilizatsiyalangan o'rdaklar va nilufar (lotos) gullar navbatma-navbat tasvirlangan. Misr freska rangtasvirida o'rdak va nilufar guli muhim o'rinni egallagan bo'lsa, bu yerda esa - Misr ta'siri yaqqol seziladi.

Vatikan to'plamida saqlanayotgan gazlamada olachi por patli o'rdaklar o'simlik chirmoviqlari fonida, doira ichida tasvirlangan (Ram 29). Otto fon Folke sharqiy Turkiston g'or chromining devoriy tasvirini gazlama bilan solishtirib, bu gazlama VII-VIII asrlarda ishlangan deb faraz qiladi. Volfenbyuttel shahridagi kutubxonada saqlanayotgan gazlamada o'rdaklar «hayot daraxt»i oldida juft holda tasvirlangan. Daraxt yaproqlari va o'rdaklarning patlari shashka naqshida ishlangan. Buni ham Misr ta'siri desa bo'ladi. Eniga sal cho'zilgan sakkizburchakli hoshiyada naqsh joylashgan. Tag-i-bo'stondag'i tasvirlar bilan solishtirib, Sarre bu gazlama IX-X asrlarga oid deb taxmin etadi.

Axen kapellasidagi gazmol parchasida o'rdak emas, balki boshqa uzun oyoqli qush tasvirlangan. To'q yashil fonda yotiq yo'llarda birini orqasidan biri ketayotgan uzun oyoqli och kul rang qushlar tasvirlangan. Bu gazlama VIII-IX asrlarda ishlangan.

Ibodat bilan bog'liq bo'lgan maxsus mavzuli gazlama fransuz shahri Mans cherkovida saqlanmoqda. Bu qizil qirmizi rangli shoyi kafanda olovni qurbonlik qiladigan joyga oid tasvir, yonlarida ikki sher olovni yalayapti —




**27-rasm.**

VII asr sosoniy gazlamasi.  
Fors, Tog'-va-Bo'ston



**28-rasm.**

VII asr sosoniy gazlamasi.  
Rim, Lateran muzeyi.



**29-rasm.**

IX-X asrlar sosoniy gazlamasi.

bu mavzu xaldey va ossur muhrlarida uchraydi. Sosoniy guldonlar kabi sherlarning yonboshlari yulduz tamg'asi bilan bezatilgan.

Sosoniy gazlama naqshlarning asosiy xususiyatlari – barcha naqshlar va figuralarni geometriklashdir. Bu xususiyat gazlama ishlab chiqarish texnikasi bilan bog'liq. Dastgoh ochilganda tanda i'plar poyma-poy bo'linishi yuz beradi. Bu texnikaviy xususiyat XVII asr fors gazlamalarida saqlangan.

### Nazorat savollari.

1. Sosoniy gazmollar to'g'risida qayerdan ma'lumot olishimiz mumkin?
2. Sosoniyalar qayerdan xomashyo olishgan?
3. Sosoniy naqshlari avval qayerdan o'zlashtirilgan?
4. Naqsh mavzulari va ularning ramzlari qanday bo'lgan?
5. Naqshlarning asosiy xususiyatlari qanday bo'lgan?

### Kopt gazmolları

Arablar VII asrda Misri bosib olgandan so'ng qadimiy misrliklarning avlodlarini koptlar deb atashgan. Kopt san'atida mahalliy masfurasi o'z aksini topgan. Bosqinchilarga bo'ysunib (yunon va rimliklar, keyin vizantiyaliklar) mahalliy savdogarlar ma'lum darajada milliy xossalariini saqlab, ularni istilochilar san'atiga kiritishgan.

Yevropa olimlari XIX asrda Antinoyya, Axmim, Nekada, Sakkara, Samayun va Fayyum kopt maqbaralrni qazilmasidan topilgan namunalar bilan ilk bora tanishgandi. Misrning quruq va issiq iqlimida dafn kiyimlarining gazlamalari yaxshi saqlanib qolgan. Odatda, marhumni ikki yoki uch ko'ylik va to'qima naqshli tunukaga kiyintirib, bir necha kafanlarga hoch shaklida o'rashardi. Bosh va yelkani ostiga va ko'kragiga naqshli sochiqlar qo'yildi. Sochlari bir necha to'rsimon qalpoq bilan o'ralardi (o'riltgan to'rni birinchi ilk namunalari).

Ushbu qazilmada topilgan gazmollar oddiy qadimiy Misr gobelen usulida to'qilgan. Naqshlar maxsus dastgohda to'qilib, kiyimning ma'lum joylariga tikilardi yoki to'qimachi tandani ma'lum joyida gobelen o'riliш usulida naqsh qilinardi. Deyarli barcha dafn gazlamalari zig'ir tolasidan to'qilardi. Naqshlari esa - zig'ir yoki jundan qilinardi. Butunligicha to'qilgan tunukani bosh uchun kesimi dumaloq yoki yotiқ bo'lgan. Barcha kopt kiyimlarida bezaklar bir xil yoqa o'mizada, etagida va yenglarida joylashgan. Ular faqat

nozikligi bilan farqlanardi. Yelka orqali orqasidan oldiga ikki naqshli dumaloq yoki nayzasimon to'pbargul bilan yakunlangan bezak chizig'i o'tgan. Ulardan tashqari old va orqasining o'tasida va bortning burchagida dumaloq yoki kvadrat yirik naqshlar qilingan (*calvi tabulae*).

Koptlarning eng qadimiy dafn gazlamalari qora yoki to'q qirmizi fonida oqartirilmagan iplardan jimgimador va bog'langan kabi chiziqlarda nozik naqshlar tasvirlangan. Avval bu naqshlarni kashtalangan deb hisoblashgandi, ammo, Gobelen manifakturasida ularni tahlil etganda igna texnikasi aniqlandi.

Kopt gazlamalarini barcha naqsh effektlari tanda ip kompozitsiyasida belgilangan ma'lum joylarida taglik mokilar yordamida yaratilardi.

O'ziga xos naqshlarning asosiy elementlari (Rasm 30) - qo'sh o'rama, meandr, svastika, sakkizqirrali yulduz, doiraga o'xhash geometrik shakl va zigzag chiziqlardan iborat edi; ba'zan, mahalliy flora va faunaning stilizatsiyalangan elementlari - yassi tasvirlangan yaproqsimon naqsh, gullar va mevali savatlar, uzum boshi va guldaстalar tasvirlangan. Umuman, geometrik shakllar, o'simliklar va stilizatsiyalangan hayvonlar qadimiy Misr ieroglislarining badiiy uslubini ma'lum darajada eslatadi (misol uchun, Beni-Xassan va El-Bezin maqbaralaridagidek). Shu bilan birga, naqshning ayrim detallari o'yin kartalariga o'xshagan: qarg'a(piki), chillik(tref), g'ishtin (bubi),tappoн (chervi).

Yunon va keyin Rim hukmronligiga o'tgach, Misr O'rtal Yer dengizida rivojlanayotgan chaqqon savdoga jalb etilgandi. Kopt sanoati rivojlana boshladи va ayrim holda Yunon va Rim ishbilarmonlari ishtirokida Kopt san'atida qo'llanilgan gazlama naqsh mavzulariga elliн elementlari kirdi. Endi yo'llar va bog'langan chiziqlar kesishgan joylarida rombsimon shakllar ishlangandi; kesishgan nuqtalarida to'pbarggular va romblarning ichida o'simlik shakllari tasvirlangandi (Rasm 31). Shunday mavzular miloddan avvalgi V-IV asrlarda Yunonistonda keng tarqalgandi. Rim-ellistik davrida ayrim kopt gazlamalarida yunon-rim afsonalari mavzulari uchrardi. Ular I-II asr Rim mozaikasini eslatardi. Ammo, antik davr ta'siri bu yerda ham kopt san'atining o'ziga xosligiga ta'sir o'tkaza olmadı. Strjgovskiyning fikri bo'yicha Yunon figuralari va suriya-ellistik naqshi bu yerda misrchanli o'zlashtirgan mahalliy tajribali rassom qo'li bilan ishlangan.

Olimpiya afsonalari mavzusida mo'tadil rangli rasmlar qatorida yorqin rang-barang stilizatsiyalangan janr va allegorik mavzularda ishlangan kopt gazlamalari ham uchraydi.

Nil vodiysi Vizantiya sultanatiga kirishiga va Misrga nasroniy (xrhistian) dini kelishiga qaramasdan, kopt to'qimachilik san'atida o'ziga xoslik saqlanib

qolgandi. Vizantiya davridagi gazlamalar naqshi o‘z chegarasidan chiqib, gazlama yuzasiga yoyildi; afsonaviy va janr mavzulari o‘rniga nasroniy dunyosiga yaqinroq tasvirlar kirdi. 430- yilda Yunon va Misr nasroniy cherkovlar orasidagi kelishmovchilik tufayli kopti Misr cherkovi ajralish uchun qilgan harakat avjiga chiqdi va Yunonlar hukmronligiga qarshi keskin millatchilik reaksiyasini uyg‘onishiga darhol tayanch topildi.

Antik mavzular gazlamalarda sezilmay qoldi, simmetrikkal paydo bo‘lgan intilish rivojlanib, batamom simmetriyaga o‘tildi. Rasmlarda qadimiy Misrning barcha ranglar gammasi tiklandi. Bu davrdagi gazmollar kuchli va kontrast tonlarni bir-biriga qiyoslangani bilan farqlanardi. Odam va hayvon figuralari geometrik va xarakterli past bo‘yli tasvirlana boshlandi. Boshlari yuz tomonidan yoki 3/4 tomonidan tasvirlangan. Ikki ko‘zi doimo ko‘rinardi.

Ushbu gazmollar qatorida Antinoya (Antinoya – qadimiy Antinopol – Nil daryosi o‘ng qirg‘og‘i Fivadagi shahar, hozir u xarobalar ostida qolgan) qazilmalarida topilgan gazlamalar san‘at tarixida alohida o‘rin tutadi.

Aleksandriya bilan bir qatorda Antinoya Misr yunon-rim san‘ati markazi bo‘lgan. Fransuz olimi Gaye 1896- yilda ilk bora maqbara qazilmasidan topilgan ashyo sivilizatsiyaga dahldor ekanligini isbotlaydi. Topilgan gazlamalar Parijda Guimet muzeyida; Lion, Berlin, Sankt-Peterburg (Ermitajda) kolleksiyalarida va Moskvadagi Nafis san‘atlar muzeyida saqlanmoqda. Bundan tashqari, shularga o‘xshash gazlamalar Axen kapellasida va Fransiya Sans shahri soborida bor. Antinoyyadagi gazlamalarni qo‘shni Axmimda (avval Penopol) topilgan gazlamalar bilan solishtirish asnosida quyidagi taxminlarga kelish mumkin: Axmimdagagi gazmollar qo‘polroq ishlangan bo‘lsa ham, ular o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, erkinroq talqin qilingan (Rasm 32).

Berlin muzeyida saqlanyotgan Antinoya gazlamalarida rombsimon naqshning ajoyib namunalari bor. Misol uchun, V-VII asrlarga oid qora-qizil rangli shoyi gazlamada buralgan yo‘llardan o‘ziga xos zigzaglar va to‘g‘ri burchaklarni xochsimon birikmalari romblar ulangan joylarida tasvirlangan. Rombning ichida uzum boshi osilgan daraxt; yaproqlar va boshqa detallari «*g‘ishtin*» va «*chillik*» tasavvurini tug‘diradi. Naqsh uyg‘un va yengil, uning barcha qismlari o‘zaro moslangan. Markazida stilizatsiyalangan daraxtli rombsimon naqshlar boshqa antinoya gazlamalarida ham uchraydi (Rasm 33).

Berlin muzeyida saqlanyotgan Axmimda topilgan gazlamalarni Antinoya gazlamalari bilan solishtirganda, quyidagilar ma‘lum bo‘ldi: o‘zining dastlabki mavzulari bo‘yicha naqshlar bir xil bo‘lgani holda, Axmimdagi larning



30-rasm. V-VI asrlar kopt gazlamasi.  
Moskva, nozik san'atlar muzeyi.



31-rasm. V-VII asrlar kopt gazlamasi.  
Moskva, nozik san'atlar muzeyi.



32-rasm. VI-VII asrlar  
Axmiridan kopt shoyi gazlamasi.  
Berlin, badiiy-sanoat muzeyi.



33-rasm. VI-VII asrlar kopt shoyi  
gazlamasi.

elementlari butunlay boshqacha talqin etilgan – elementlar qavarib, yoyilib ketgan, kompozitsiyasi to'laroq. Korxonalarda boshqa oddiyroq texnika qo'llanilgan (Rasm 34).

Lekin, naqshning rombsimon tuzilishi va fonida yoyilgan o'simliklar mavzulari mahalliy o'ziga xos rasm emas, balki u umuman Yunon birinchi davri ellistik shoyi to'qish sanoati bilan bog'liqdir. Shunday naqshli gazlamalarni bir vaqtning o'zida Antinoyya, Iskandariya, Karfagen va Vizantiyada uchratish mumkin.

Keyingi bosqich kompozitsiyasining rivojlanishini shu qazilmalarda topilgan bir qator gazlamalardan izlash mumkin. Ularda geometrik mavzular o'rniغا VI asr didiga mansub stilizatsiyalangan o'simlik mavzulari kirgan. O'simlik shakllar qatorida doiralarda simmetrik qo'sh-qo'sh joylashgan turli hayvon va qushlar shakli paydo bo'ldi. Shuni ham hisobga olish kerakki, Afrika hayvonlari shakllari ko'proq uchraydi. Real tasvirlangan fantastik zebraalar (Rasm 35) yoki yelpig'ichsimon palmetkalar tagida turgan ibislari (Nil daryosi ko'tarilishining muqaddas darakchilari) bu davrda Misr to'qimachilik san'atida odatiy bezak mavzulari uchragan (Rasm 36).

Lion savdo palatasi muzeyidagi gazlamalarning birida uzun poyali palmetka ostida afrikan bizonlar (zubrlar) tasvirlangan. Aaxen va Sans gazlamalari qo'sh-qo'sh tuyaqushlari bilan bezatilgan. Bu yerda o'rta asr shoyi gazlamasi mavzulari bilan biz ilk bor tanishamiz.

Sankt-Peterburgdagi Ermitaj kolleksiyasini V.G.Bok tadqiq etgan. (V.G.Bok «O koptskom iskusstve. Koptskiye uzorchatyiye tkani.» Trudi VIII Arxeologicheskogo syezda v Moskve. 1890, t.III M. 1897). Bu yerda har xil gazmlarning boy assortimenti saqlanmoqda. Ko'pincha, kopt to'qimachisi mavzu sifatida ellistik materiallarni qo'llagan, ammo kopt gazalamadagi barcha raqqosalar tasvirlari Orfey va Gerakl ellin namunalaridan keskin farqlanadi. Ular past bo'yli va tasvirlari yoyilgan eski feodal madaniyatining inqiroz davriga oid tasvirlardir. Ermitaj gazlama to'plamlarida o'simlik va hayvoniy dunyo ba'zan stilizatsiyalangan, ba'zan real tasvirlangan, geometrik naqshlar, o'ynaladigan karta mavzulari va ierogliflar ham uchraydi.

Moskvadagi nozik san'atlar muzeyidagi gazlama kolleksiyasida geometrik naqsh qilingan kompozitsiyasida ustma-ust qo'yilgan ikki kvadrat sakkizqirrali yulduzni hosil qilgan. Yulduz tagida ellistik turdag'i guldon. Ko'z shaklida tasmalar to'qilishi oralig'ida ieroglifsimon quyon, odam qiyofasi va o'simlik yoki juda stilizatsiyalangan parvoz qilayotgan qush tasvirlangan. Naqsh yo'l yo'l qilingan, pastki yo'lning markazida odam qiyofasi o'rniغا qush real tasvirlangan.



34-rasm. V-VII asrlar kopt shoyi gazlamasi.



35-rasm. VI asr Antinoyadan kopt shoyi gazlamasi. Berlin, nozik san'atlar muzeyi.



36-rasm. V-VII asrlar Antinoyadan kopt shoyi gazlamasi.  
Berlin, badiiy-sanoat muzeyi.



37-rasm. V-VI asrlar kopt gazlamasi.

Rombsimon naqshli to‘q qizil rangli gazlama Berlin gazlamalariga o‘xhash. Boshqa eksponatda stilizatsiyalangan sher tasviri Sosoniy ta’sirida ishlangan. Osilgan ko‘k yolli sariq sher to‘q qizil fonda tasvirlangan. Mushaklari mayda naqsh bilan ko‘rsatilgan. Umuman, Sosoniy mavzusiga qaramasdan, gazlamani ishlash usuli o‘z ranglar va stilizatsiya usuli bo‘yicha kopt usuliga oid (Rasm 37).

Kopt san’ati har xil ta’sirlarni aks ettirib va ularni badiiy jihatdan qayta ishlab, Yevropa madaniyat va san’at tarixida muhim rol o‘ynagan. Bu yerda Sharq va G‘arb san’atlari o‘zaro birlashgandi.

### Nazorat savollari.

1. Kopt to‘qimachilik san’atiga kim ta’sir etgan?
2. Naqshlar qanday usulda ishlangan?
3. Naqsh mavzulari va ularning ramzları.
4. Asosiy qo’llangan ranglari qanday bo‘lgan?
5. Yevropa madaniyat va san’atiga kopt san’ati qanday ta’sir etgan?

### Fors gazmolları (XIV – XVII asrlar)

VII asrda arablarning Sosoniy Forsni bosib olishi, boy savdo shahari madaniyatining va feodal tuzumi asoslarini o‘zgartirmadi. Fors, Suriya va Shimoliy Afrika bilan aloqa bog‘lab, Qizil va O‘rtal Yer dengizlar qirg‘oqlarida savdo mustamlakalari tashkil etiladi.

Dehqonchilikka qulay mahalliy yerlar feodal hukmronligining markazi bo‘lib qoldi. Huroson va Mavorounnahr shaharları madaniyati va san’ati o‘zlashtirildi. X asrda o‘z ta’sirini Marv, Balx va G‘aznaga yoygan Buxoro gazlama ishlab chiqarish markaziga aylanib qoldi.

XI asrda Fors Saljuqlar, XIII asrdan boshlab, mo‘g‘ullar hukmronligiga o‘tsa ham, vayronagarchiliklarga qaramasdan shahar madaniyati saqlangandi. Mo‘g‘ullar davrida musulmon san’atining eng rivojlangan joyi Fors bo‘ldi.

Turli shahar markazlarida gazlama ishlab chiqarish ham rivojlandi. Forsdagi mo‘g‘ul hokimlar saroylarida va O‘rtal Osiyoda gazlama chiqarish keng tarqaldi. Mo‘g‘ullar o‘troq xalqlarni bosib olgan bo‘lsa ham, ko‘chmanchilik odatini tark etmay o‘tovlarda yashashardi. Yirik feodallar va boylar o‘tovlarini serhasham gilam va gazlamalar bilan bezatishardi. Ayrim gazmollar saroy etiketining majburiy ashyolari bo‘lgan va saroy ahliga sovg‘a qilingan. Feodal—

harbiy asboblarda (choyshablar, yostiqlar, ot yopig'i) hayvon va qushlar tasvirlari bilan kashtalangan. Mashhur sayohatchi Marko Polo ma'lumot berishicha, Mo'g'ul imperiyasida pochta bekatlarida krovatlar shoyi ko'rpalari bilan yopilgan. Arab muartixlari Elomari va Ibn-Xaldun Tabrizda mo'g'ul hukmdorlari gazlama to'qiydigan va kashta qiladigan korxonalar tiklashgani haqida yozadi. Marko Polo Kinsaydag'i Xitoy manufakturalari to'g'risida yozgan. Uning ma'lumoti bo'yicha, aholi shug'ullanangan barcha hunarlardan o'n ikkitasi foydaliroq, deb hisoblangan. Mingtadan korxona qurilgan va har birida o'n, o'n besh va yigirma nafar mutaxassis ishlagan. Qadimiy shohlar qonunlari bo'yicha har bir fuqaro ota kasbi bilan shug'ullanishi shart edi. Biroq, ma'lum mablag'ga ega bo'lsa, u, qo'l mehnati bilan shug'ullanmasdan, faqat ota kasbi bo'yicha korxonani tutish mumkin edi.

Fors mustaqillikka erishgach, Safoviy sulolasi (1485-1732 yy.) poytaxt Isfahonga ko'chirildi va bu yerda haqiqiy badiiy san'at maktabi tashkil etildi. XVII asr Yevropa sayohatchilar Fordsa ishlab chiqarilgan shoyining xilma-xilligiga hayron qolishgandi. Mahalliy gazlamalarni batatsil tavsiflashgandi.

Fransuz sayohatchisi de-Sharden so'zi bo'yicha (XVII asr) Iezd va Isfahonda zarbof ishlab chiqarilardi. Uni bahosi bir gaz yoki arshinga 50 tumangacha (taxminan 5500 frank — 1 metrga) edi. Besh yoki olti odam baravariga 24-30 har xil mokini qo'llab, to'qishardi. Odatda esa ular soni ikkitadan ortiq bo'lmasdi. Shunday qimmatbaho zarbofdan forslik boyalar pardaga qilishardi.

Fors guruhining naqshlari to'g'risida quyidagini qayd etish mumkin: Sosoniy rasmlar (bir-biriga tutashgan doiralar ichida ovni fantastik sahnalari, grifon va hayvon figuralari) musulmon dunyosida va Forsda dekorativ shakllar rivojlanishida asos bo'lgan. To'rt asr mobaynida (VII-XI asrlarda) Fors va O'rta Osiyo gazmollar naqshlari yaratilganda bu tamoyillar saqlanib qolgan va bora-bora chiziqlar avvalgi nozikligini yo'qotib, dag'al ishlangan.

Bu o'tish davri kompozitsiya tamoyillarini yaratish namunasi Sans rizaxonasida saqlanayotgan muqaddas Kolomb libosidir. Ichida naqsh tasvirlangan doiralar tik o'qi bo'yicha joylanishi, - an'anaviy naqsh tuzilishi avval doiralarni shaxmat usulida joylash tarziga aylantirildi. Keyin chegaradosh yowni uzlusiz chiziqqacha cho'zib, sharq rassomlari nayzasimon tuzilish yaratdilar. Bu Sharq gazlamalarini antiqasi bo'lib, Sosoniy-vizantiya usuli o'rniga joriy bo'ldi. Nayzasimon bo'linishlar o'rtasi, odatda, o'simliksimon naqsh bilan to'ldirilgan. Unga Sosoniy davrdan «hayot daraxt»i mavzu bo'lib qolgan. Keyingi davr gazlamalarida o'simlik shakllari mahalliy floradan olingan. Bu o'simlik shakllari asta-sekin o'z realistik tusini yo'qotib, shartli va

stilizatsiyalangan shakllarga aylandi. Hattoki, «hayot daraxt»i va olovga qurbanlik qiladigan joy musulmonlarda asta-sekin mavhum shakllarga aylandi. (Rasm 38, 39).



38-rasm. XV asr oxiri - XVI asr. Metall ip bilan to'qilgan fors atlas gazlamasi.



39-rasm. XV asr o'ttasi. Fors kimxobi. Peterburg. Ermitaj davlat muzeysi.

O'simlikka oid mavzulardan eng ko'p tarqalgalari va sharq fantaziyasiga ko'ra o'zgarganlari – chinnigul va lola gullari bo'lgan. Ulardan keyin na'matak guli, sunbul va gulsafsa gullari o'rinn egallaydi. Bu barcha gullar alohida tasvirlanardi yoki ulardan har xil kombinatsiyalar qilinardi. Shu bilan birga, bir poyada baravariga lola, chinnigul, sunbul va na'matak gullari tasvirlanardi. Bu o'simlik mavzulari avval doirada joylanib, keyin bir-biriga tutashib, keyin biri biri bilan chirmashib, oxirida tutash qo'shilib ketgan naqsh yaratilgan. Ammo, musulmon rasmlari hech qachon barcha o'simlik kompozitsiyalarida uchinchi o'lcham – chuqurlikka hattoki sha'ma ham qilmasdi. Barcha o'simlik shakllar yassi ishlangan. Bu Osiyo va Yevropa kompozitsiyalari orasidagi asosiy tafovut edi.

Yirik gulli mavzularda doimo ingichka nafis egilgan poyasi bor. Ularning uchida gullar o'miga, ko'pincha, mahalliy floradan olingan asli sharqdan kelib chiqqan uchtadan bir palmetkalar shakli (gulkosa, gulchambar yoki yelpig'ich shaklida) aks ettirilgan. Turli stilizatsiyalangan ayrim gulli shakllar

avval bir necha gullardan, oddiy guldaстадан iborat edi. Keyin gullar o'zaro qo'shilib, to'g'ri yoki to'lqinsimon yo'nalishlar bo'yicha joylana boshladi (Rasm 40, 41, 42, 43, 44).

Hozirgacha saqlanib qolgan fors gazlamalarini turi bo'yicha donabay va metrlikka bo'lish mumkin. Bezagi bo'yicha esa: yozuvli gazlama, o'ng tomonli gazlama va o'simlik naqshli gazlama (eng yirik guruhi).

Yozuv naqshli gazlamalar Islomning birinchi yillarda bo'lган. Gazlamalar vositasida din targ'ib etilgan. Gazlamani ishlab chiqilgan joyi va vaqt, xalifalar, ularning vorislari ismlari ko'rsatilardi. Bayroqlardan tashqari gazlamalarni maqbara yopinchig'iga, pardaga, keyinroq libosga va belboqqa qo'llashgan. Ularning kompozitsion tuzilishi odatiy edi: yotiq chiziqlar orasida yozuvlar joylanardi. Keyinroq ishlab chiqarilgan gazlamalarda yotiq chiziqlar sinib shevron (zigzag) shaklida bo'lган. Bora-bora kompozitsiya tuzilishida dekorativ elementlarini to'planish va siljish tendensiyasi avvalgi aniqlik va ravshanlik o'rniga keldi.

Ryazan muzeyidagi Qosim shohlar maqbarasidan topilgan ikkita xiralashgan qalin shoyi namunalarida naqsh yo'l-yo'l joylashgan. Bir parchasida naqsh yotiq, ikkinchisida – shevron yo'nalishda ishlangan. Keng va tor shevronlar chiziqlari o'zaro almashmoqda. Tor chiziqlar nesxi shriftdagи yozuvlar bilan butunlay to'ldirilgan. Keng chiziqlarda figurali tamg'alarda harflar chirolyi joylashgan. Tashqi ko'rinishi bo'yicha bu naqshlar namunalari Parijdagi Klyuni, Berlindagi Fridrix Vilgelm va boshqa muzeylarda saqlanayotgan gазmollarga o'xshaydi.

Ikkinci gazlama namunasi yaxshiroq saqlangan. Rang-barang gazlamani yotiq yo'llarida shaxmat tartibida yozuvlar bilan cho'zinchoq tamg'alar tasvirlangan; tamg'alar oralig'i feruza rangli tangachasimon panjaralar bilan to'ldirilgan; barcha harflar va yozuvlar hoshiyalari qizil rangli; umumiy ton – sariq-tilla rangli.

Vaqt o'tishi bilan Olloh va payg'ambarga bag'ishlangan harbiy chaqiriqlar o'rniga turli-tumon farovonlik istaklari va nihoyat, sharq shoirlar ruboilylari tasvirlanadigan bo'ldi.

Odam figuralari yoki ov, urush, afsona, ertak va poema sahnalari faqat sunniylarda uchraydi, shialarda odam qiyofasini chizish man etilgandi.

Ilk davrdagi gazlamalarda birinchi istilochilar ning qahramonona jasorati sharaflanishi, bora bora tinchlik mavzulariga almashingan. Ov sahnalarida yirtqichning g'azol yoki quyonni quvib borishi tasvirlangan.

Sharq she'riyatidan namunalar gazlamalarda paydo bo'ldi. Bu guruhi naqshlarida figuralar kelishgan va egiluvchan, noz qilayotgan holatda



**40-rasm.** VII asr boshi zar ip bilan to'qilgan fors shoyi. Ermitaj.



**41-rasm.** VII asr ikkinchi yarmi Fors kimxobi. Peterburg, Ermitaj.



**42-rasm.** VII asr ikkinchi yarmi Fors kimxobi. Peterburg, Ermitaj.



**43-rasm.** VII asr oxiri. Metall ip bilan to'qilgan fors shoyi. Ermitaj.




**44-rasm.** VII asr boshi. Metall ip bilan to'qilgan fors atlasi. Ermitaj.

tasvirlangan. Liboslar naqshlari puxtalik bilan ishlangan. Hayvonlarning harakatlari juda aniq tasvirlangan. Gullayotgan bog', o'rmon yoki changalzor tasavvurini beradigan dekorativ o'simliklar yozuv izohi bo'lgan.

Perspektiva va chuqurlik yo'q. Figuralarning birini tepasida biri joylanib, fazo ko'satiladi. Naqsh shakllari bir-biri bilan chirmashib, gazlama yuzasini butunlay to'ldirgan.

Moskva muzeylarida fors gazlamalarini deyarli boy to'plami bor. Ulardan birida qizil fonda boy safoviy sallali otga mingan yosh fors tasvirlangan. U asir mo'g'ulni arqonda sudramoqda. Qo'li orqaga bog'langan, osilgan uzun mo'ylovli asir egnida beli bog'langan uzun olachipor chopon, boshida do'ppi. Chavandoz orqasida, egarda kichkina ayol o'tiribti. Chavandoz va asir o'rtasidagi daraxtda fantastik qush tasvirlangan (Rasm 45-46).



**45-46 rasm.**

XVI a. uchunchi choragi. Fors shoyi gazlamasi. Peterburg, Ermitaj davlat muzeyi.

Moskva Qurol palatasi kolleksiyalarida (XVII asr) serhasham duxoba gazlamada yopinchig'da kelayotgan odam figurasi tasvirlangan. Bu figura shaxmat tartibida gullagan tup ostida turgan fantastik qush bilan almashadi. Odamlar figuralari tik qatorlari to'q sariq yoki och yashil rangli liboslarda. Barcha tasvirlar qora rangli hoshiyali.

Qurol palatasidagi chor kafaning matosi ishlab chiqarish texnikasi va qimmatbaholigi bo'yicha mashhur hisoblanadi. U yerda safoviy sallada

qandaydir ertak qahramoni tasvirlangan; kafani etagining uchi beliga qistirilgan, belida xanjari bor. Tepaga baland ko'tarilgan qo'lllarida o'rmalab kelayotgan ajdahoga uloqtirishga mo'ljallayotgan qoya parchasi. Ajdahoni turish holatida, uni bilanglagan olachipor tanasida, qayrilgan changalida forslar xitoyliklar fantastikasidan o'zlashtirgan an'ana va usullar yaqqol seziladi. Daraxtli, tog'li joyda jang ketmoqda. Dumli jannat qushi kompozitsiya harakatini kuchaytiradi. Qolgan fon turli yo'nalishda joylashgan yaproqlar bilan to'ldirilgan (Rasm 47).

P.I.Shchukinning kolleksiyasidagi duxobada daraxt tagida ziyofat sahnasi tasvirlangan. Bu sahna shaxmat tartibida ikki turda takrorlanadi. Ikkinci shoyi gazlama ingichka naqshli yo'llar bilan tik va yotiq yo'nalishda bo'lingan va to'rt alohida sahnalarda daraxtlar ustida abadiy barhayot jannat qushlari bor. Bu sahnalarda guslida (musiqa asbobi) chalgarlar, oshiq-ma'shuqalar, ziyofat manzaralari ko'rsatilgan. Erkaklar safoviy sallada, ayollar yelkasigacha tushgan ro'mollarda tasvirlangan. Sahnalar orasida maydaroq ko'ndalang bo'limlarida turli hayvonlarning juft tasvirlari: g'azollar, sherlar, qoplonlar (Rasm 48).

Rossiya Davlat muzeyida XVI asr gazlamasi bor. Umumiy tilla-za'faron fonida odamlar va hayvonlar figuralari to'q jigarrangda hoshiyalangan. Bu gazlamada Nizomiyning «Layli va Majnun» dostoni qahramoni Majnunning sevgidan azob chekkan holdagi sahroda hayvonlar orasidagi tasviri takrorlangan.

O'simlik naqshli gazlamalar kompozitsiya tuzish usuli bo'yicha eng katta gurujni tashkil etadi.

Troitse-Sergiyev lavrani (XVI asr) knyaz Shchenyatinning feloni ilk o'simlik naqshni realistik tasvirlash usullarini saqlagan. Ammo, uzluksiz naqsh turida tuzilib, gazlama yuzasini juda zich to'ldirgan. Gazlamaning och sariq fonida qizil va moviy rangli chinnigullar va lolalar yoyilgan. Naqsh rapporti katta emas, nozik tasvirlangan gullar yengil va erkin kompozitsiyada yoyilgan. Keyinroq shu turda to'qilgan gazlamalar qo'polroq ishlangan va kompozitsiyasi tinqilinch qilib yaratilgan. Shunday gazlamalarga Sviyajsk shahridagi Uspen monastridagi rizasi; Moskva to'qimachilik instituti muzeyidagi ikki zarbof lahtasi; Sergiyev lavradagi V.I.Nagoyni feloni (1622y.) kiradi. Birinchi uch gazlamalarda rasmda to'q alvon qirmizi fonda sariq hoshiyali qizil gullar; to'rtinchisida - to'q yashil fonda oq hoshiyali sariq rangli yirik chinnigullar. Naqsh kompozitsiyasi aniq simmetrik; markazda yirik lola g'unchasidan besh chinnigullar chiqqan. Bu yirik gullar guruhi barcha bo'sh joylarni egallagan maydaroq o'simlik shakllar (yaproqlar va

to'pgullar) orasida joylashgan. Moviy atlas fonda Perespol barefsidan tanish shaxmat tartibida o'ziga xos stilizatsiyalangan «hayot daraxt»idan tangachali g'uddalar tasvirlangan (Rasm 49).

Kompozitsiyani benazir sipoligi, oddiyligi boshqa gazlamalar qatorida uni ajratib turadi.

Moskva Qurol palatasi gazlamasida sal ochilgan yelpig'ichsimon chinnigul va gulsafsaq qatorlari almashgan. Bu juda oddiylashgan va stilizatsiyalangan gul shakllarida gul tuzilishi hali sezilardi (Rasm 50). Chamasi, rassom hali stilizatsiya usulini yaxshi egallamagan. Tabiatdan juda uzoqlashib, o'ziga xos va badiiy yuksak naqshlarni yaratadi. Ular kelajak to'qimachilik sanoatida muhim rol o'ynaydi.

Moskvadagi Novodevichiy monastiridagi gazmol namunasida shaxmat tartibidagi gullar joylashgan. Bu gazlamalarni razmeri bir xil (eni 0,71 m), naqsh rapporti 0,12x0,12 m. Ularning birida to'g'ri poyada bir-biriga zich turgan o'n gulbargli gul. Poyaning o'ng va chap tomonida simmetrik yaproqlar va g'unchalar ornamental shaklni hosil qiladi. Ular zarbof gazlama yuzasini batamom to'ldirgan. Gul to'q hoshiyali nafis shaftoli rangli; yaproq va poyalar – sariq-yashil rangli.

Boshqa gazlama bitta rapportda ikki gulli shakllar tasvirlangan: bittasi – uch ko'knor, ikkinchisi – lola va ikki chinnigul. Nafis moviy rangli gullar to'q ko'k hoshiyali. Kumush rang zarbof fonda juft sulilar poyasi yoyilgan.

Gazlamaning shunday turlari Kirillo-Belozer monastrida va boshqa muzeylarda ham saqlanmoqda. Sergiyev lavrani rizasida, Zvenigorod va Novodevichiy monastrlarida. Barcha gazlamalarda ingichka va nozik tasvirlangan markaziy to'pbargul shoxlaridan galmagal chinnigul va lola guli chiqqan. Fonida esa tilingan yirik yaproqlar tasvirlangan. Bu yirik o'simlik shakllari orasidagi asosiy poya tomonlarida lola g'unchalari yoki deyarli mayda juft yaproqlar simmetrik joylashgan. Naqsh tuzish umumiy sxemasi bir xil, farqi faqat mayda detallar turida. Naqsh rapporti taxminan 0,46x 0,30 m.

Buyuk Abbos davrida (1587-1629 yy.) serhasham gazmollar yaratilgan. Saqlangan gazmollar orasida to'lqinsimon tik kompozitsiyalar uchraydi. Shunday yangi tamoyilda tuzilgan kompozitsiyalar juda ko'p. Moskva Qurol palatasida saqlanayotgan fors gazlamasida gullar shakli va rapporti yirik. Unda och sariq fonda egilgan poyalarda sal ochilgan yirik lolalar to'qilgan. Tilla shox va gullar mayda tilingan yashil yaproqlar bilan hoshiyalangan. Yirik lola va shoxlarda qator gulli shakllar bor.

Moskva sharq madaniyati muzeyida saqlanayotgan gazlama namunasi yorqin qizil fonda parallel egilgan, o'qlarda o'ng va chapga egilgan sal ochilgan



47-rasm. XIII a. Fors kimxobi.  
Peterburg, Ermitaj davlat muzeyi



48-rasm. XII a. Fors kimxobi.  
Peterburg, Ermitaj davlat muzeyi



49-rasm. XII a. Duxoba usulida to'qilgan  
fors kimxobi. Peterburg, Ermitaj.



50-rasm. XII-XIII aa. Fors kimxobi.  
Peterburg, Ermitaj muzeyi.

lolalar, ularning qarshisida buralgan keng yo'l o'rtasi mayda gullar bilan naqshlangan. Lolaning ikki tomoniga egilgan yaproqlarni qo'shib, muslimon rassomlari gazlama bezashning yangi usulini yaratishdi. Bu nayzasimon naqsh shakli - ichki va sirtqi tomonidan simmetrik joylashgan gul va o'simlik mavzular - stilizatsiyalangan chinnigul o'mniga kira boshladи. Shunday gazlama namunasi Moskva to'qimachilik instituti muzevida saqlanmoqda: och sariq fonda yashil va ko'k rangli o'simliklar, rapporti 0,42x0,11 m. Shunga o'xhash mavzular Parijdagi dekorativ - san'at muzevida ham bor.

Nayzasimon shakl o'mniga bora-bora nayza bargli bog' bilan ananasni eslatadigan dumaloq shakl kirdi.

Metrli gazlamalardan tashqari Forsda bir qator donalab ishlangan buyumlar ham to'qilgan. (Katta gilamlardan yostiqcha, xurjun, ot yog'log'i, uzun shoyi belbog' va ularga o'xhash buyumlargacha).

Ustki kiyimi uzun chopon bo'lgan xalqlarda belbog' libosning shartli qismi hisoblanadi. Fors miniaturalarida va o'ng tomonli gazlamalarda belda bir necha marotaba o'ralgan keng va uzun belbog'lar tasvirlangan. Ularning uchlari yon tomonida osilgani sababli bezak naqshlari va uzun shokilalari ko'rindi. Shunday belbog'larni faqat Sharqda emas, Vengriya, Polsha va Rossiyada ham kiyishardi. Fors belbog'lari dunyoga mashhur edi.

Qadimiy fors belbog'lari faqat ipakdan qilinardi. Keyin zar va kumush iplar qo'shiladigan bo'ldi. Ular gobelen usulida to'qildi. Belbog'lar bezagi o'simlik va naqshli shakllardan iborat takrorlangan mayda bezak bo'lgan. Ular alohida yoki ko'ndalang chiziqlar orasida joylanardi. Uchlarida ikkitadan beshgacha yirikroq gulli yoki naqshli shakllar qilinardi. Ba'zan belbog'lar uchi boshqa rangda bo'lgan.

Moskva to'qimachilik institutida saqlanayotgan to'rt fors belbog'idan biri faqat ipakdan to'qilgan (razmeri 3,48x0,52 m). Yuzasi stilizatsiyalangan o'tkir burchakli mayda gullar bilan to'ldirilgan, foni yorqin sariq, naqshi - to'q binafsha rangli; uchlarida - to'q sariq rangli to'rt dasta chinnigullar va moviy-yashil yaproqlar ishlangan va shu rangda gulbargi atrofida hoshiya qilingan.

Ikkinchisining (razmeri 3,40x0,58 m) ranglari hashamatliroq. Oq ipak bilan to'qilgan naqsh to'q sariq, yashil va to'q qizil naqsh ko'ndalang yo'llarda ajralib turadi. Ko'ndalang, har xil enli oq naqshli to'q sariq va yashil yo'llar eni torroq moviy naqshli yo'llar bilan almashib turgan. Belbog' chetlarida uzunasiga to'q qizil yo'l qilingan.

Uchinchisining (razmeri 4,62x0,56 m) to'q binafsha foni zar yaproqlar bilan to'ldirilgan. Uchlarida jigarrang hoshiyali yashil kartush (lavha); ularni ichlarida to'pbargullar.

To'rtinchı belbog' eng serhasham (razmeri 3,40x0,39 m). O'rtasi yotiq yo'lli. Uchlarida uchtadan «hayot daraxt»i; ularning shakli hind yung va shoyi shollardagi naqshni eslatadi.

Polshaliklar fors belbog'larini o'zlashtirib, Krakov va Slutskda o'z belbog'larini to'qishgan. Ayniqsa, Slutsk belbog'ları mashhur bo'lgani uchun Rossiyada keng tarqalgandi.

Ushbu sharh deyarli 400 yil (XVI-XVII asrlar) davomidagi forslar gazlamalarini yoritadi. Bu davrda gazlama bezatish usuli o'zgarmagandi. Shuni ham hisobga olish kerakki, tadqiq etilgan fors gazlamalari namunalari, asosan, eksportga oid edi. Ular mahalliy didni aks ettirmasdan, chet bozor talabini qondirgan bo'lishi mumkin.

Umuman, rus kolleksiyalaridagi fors gazlamalari ko'rib chiqilganda – XVI asrda uchragan o'ng tomonli tasvirlar XVII asrda deyarli yo'qolgan. XVI asrda mayda naqsh bo'lsa, XVII asrda esa naqsh yirik, stilizatsiyalangan bo'lib, harakati nozik va yengil bo'limgan.

Fors o'z savdo ahamiyatini va kuch-qudratini yo'qotgandan so'ng, badiiy uslubi og'irlashib, dag'al bo'ldi.

### Nazorat savollari.

1. Fors to'qimachilik san'atiga kimlar ta'sir etgan?
2. O'zlashtirilgan va mahalliy naqsh mavzulari qanday bo'lgan?
3. Fors gazlamalarining mahalliy kompozitsion xususiyatlari .
4. Fors naqshlarining asosiy xususiyatlari qanday edi?
5. Eksportga ishlangan gazlama turlari qanday bo'lgan?

### Hind gazlamalari

Hindistonda gazlama to'qish qadim-qadim zamonlarda bo'lgan. Moxenjodarada bundan 5 ming yil avval topilgan ip gazlama parchalari yuqori sifatli to'qish va bo'yash texnikasi bo'lganligini isbotlaydi.

Ind daryo vodiy qazilmasida juda ko'p dag'al oddiy loy va fayansdan yasalgan bejirim urchuqlar topilgan.

Ma'lumki, qadimgi zamonda aholining barcha tabaqalari - kambag'allar va boylar – gazlama to'qish va bezashni bilishardi.

Qazilmalar chog'ida topilgan terrakota va toshdan yasalgan haykallarda naqshli liboslar tasvirlangan: yopinchiq, belbog' va bo'yinbog'lar. Bu

naqshlarning ishlash texnikasini hozir tasavvur qilish qiyin – kashta, bosma, aplikatsiya yoki erkin rasm chizish usullari. Rasm foni qanday bo‘lganligini ham tasavvur qilish mumkin emas. Ammo, ma’lumki, shu vaqtida gazlamani bo‘yashgan, chunki qazilmada topilgan kumush guldonga yopishib qolgan ip gazlama parchasi chidamli bo‘yoqlar bilan bo‘yalgandi.

Miloddan avvalgi birinchi mingyillik oxiridagi haykallarda va milodiy mingyillikning boshi va o‘rtasidagi devoriy tasvirlarda doimo boy naqshl (kashtalangan, to‘qima, bosma) liboslar tasvirlangan. Shimoli - g‘arbiy Hindistonda toshdan yasalgan qolip topilgan (V asr).

Ajanta g‘or ehromidagi ko‘prangli freskalarida ko‘p odam figuralari tasvirlangan, ularni liboslarida o‘rtasiga mansub gazzmollarni tahlil etish mumkin. Odatda gazlama yuzasi bir necha seksiyaga bo‘linadi – doira, katakkatak, to‘g‘ri yoki to‘lqinsimon yo‘llar va boshqalar. Bu seksiyalar geometrik yoki stilizatsiyalangan o‘simlik naqshlari bilan to‘ldiriigan, ba’zan ularga muqaddas oqqush va sher tasvirlari qo‘shilgan. Yoyilgan yoki to‘plangan xol-xol naqshlar ham uchraydi. Keyinroq turli hayvon va odamlarning figuralari ko‘proq tasvirlangan.

Hindlarning ijodiy zakovati qadim-qadim zamonlardan hozirgacha urchuq to‘quv dastgohi yordamida o‘z aksini topgan. Hindlar uchqur to‘qimachi kimligini tasavvur etishi uchun uch afsonaviy hikoyalari ma’lumot beradi.

Birinchi afsonada hind o‘rgimchak xudosi to‘g‘risida hikoya berilgan. Uni hind paxtasidan to‘qilgan juda katta to‘ri Himolay tog‘lariga yoyilgan va unga mashina va texnika to‘g‘risida bilimlar va ariy xudosidan tushib qolgan.

Ikkinci afsona – Shiva xudosi to‘g‘risida. U donishmand to‘quvchi yordamida kosmik raqsni ilohiy sirlarini bandaga ochishga rozilik bergen. Donishmand xudoga qaramasdan, faqat uni so‘zi bo‘yicha, raqsni gazlamada to‘qib tasvir etishi shart edi. Dastgohda yetmis holatni to‘qib, to‘qimachi chidamasdan tepaga qaragan va g‘azablangan Shiva o‘z vahiyini to‘xtatgan. Shunga qaramasdan Shivaning holatlarini gazlamadan ehrom haykallariga va keyin raqsga ko‘chirishgan. Afsuski, bu hindlar uchun ilohiy vahiy bo‘lsa, boshqalar nazdida bid‘at sanalgan. Butun hind yarimorolida chet el bosqinchilari tomonidan vayron qilingan haykallar va rasmlar uchraydi, chunki ular hind madaniyatining badaviy deb hisoblashardi. Ingliz aslzoda ayollarig‘azablanib, kosmik raqsga tushayotgan Shivan tasvirlashni man etishgandi va hind ayollariga raqs tushishni taqiqlashga intilishgandi. Ammo, gazlamani man etish mumkin emasdi, shuning uchun barcha hind hayotidan madaniyat chekinsa ham, hind to‘qimachisi hind san‘atining an‘analarini barbob bo‘lishiga yo‘l qo‘ymadi.

Uchinchchi afsona hind dostoni «Maxabxarata»dan olingan. Ü yerda olijanob malika Draupadi to'g'risida aytilgan. Malikani asirga olib, g'olibning oldiga olib kelishgan. Mehmonxonada vijdonsiz g'olib aslzodalar va askarlar oldida uni yechintirishga buyruq berdi. Askarlar malikani libosiga yopishgan paytda, malika xudolardan or-nomusini himoya qilishga yordam so'raydi. Shunda gazlama ko'paya boshlaydi va shiftgacha oshib borib, g'olib shohni taxtida bo'g'ib o'ladiradi.

Bu hikoya afsona bo'lsa ham, hind gazlamasi mamlakat shon-sharafini himoya qilishda xizmat qilgani bobida ma'lumot beradi. Masalan, bosqinchilarga o'z noroziligini bildirish uchun ular faqat hind gazlamasidan kiyim kiyishgan – «bizni erkinlik libosimiz» deyishgan. Hindiston mustaqillikka erishganda bayroqlar markazida urchuq tasvirlashgan.

Ind vodiyida sivilizatsiya davrida yuqori baholangan ajoyib hind bo'yoqlari ranglar gammasisiga kiradi – oxra, qizil va afsonaviy *indigo*.

Shimoliy bug'doy va xantalning sariq ranglari, janubiy yozning oq va och kul ranglari, islomning pushti va moviy ranglari, guruch dalalarini eslatadigan yashil ranglar, *indigo* – Sharq mussoni g'azabining rangi, sir bilan kumush va zar ranglar, shohona ranglar hind gazlamalarida ko'p qo'llangan. Mamlakat bo'ylab madaniyat va ranglar mosligini bilish hind to'quvchilariga xos bo'lgan. Hind to'quvchilar gazlama tarkibini va rangini ko'rsatadigan barcha naqshlar va rasmlarning xilma-xilligini bilishardi.

Keyingi asrlarda to'qimachilik, ayniqsa, shoyi gazlamani ishlash diniy bayramlar va marosimlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Chunonchi, qadimiy ibodatxona shaharlarida ikki ibodatxona va ziyoratxona xodimlari ehtiyojini qondirish uchun yirik shoyi to'quvchilik markazi bo'lgan. Qadimiy va o'rta asr Hindistonida shoyi to'quvchilikni rivojlanishiga podshohlar homiylik qilganlar.

### **Benares shoyi**

Buddanining jasadi Benares gazlamasiga o'ralgandi. «Majsximankiya» budda yozuvida quyidagilar yozilgan: «Serhasham gazlamaning qizil, moviy va sariq rangli nurlari ko'zni qamashtiradi». Asrlararo benares kimxobi va shoyilar odamlarni uzoqdan e'tiborini o'ziga tortardi va bu qadim shaharga savdogar va do'kondorlarni o'ziga jalb qilardi.

Hindistonda benares gazlamalarni avvalgiday hashamatli yog'dusi va murakkab zar naqshlari uchun qadrlashadi. Kelinlar zar bilan serhasham bezatilgan sarini kiyishadi. *Kinxab (kimxbob)* – benares gazlamalaridan eng

rhashami. Haqiqiy kinxabda ipak tandasiga kumush yoki zar iplar o'shib, nafis guldor naqsh to'qiladi. Kumush gazlama - «rupari» - va r gazlama - «sonari» - shoh oilasi uchun to'qilardi. Ularning qatorida ozirgi ustalar ipakdan «tanchoy» texnikasida (Xitoydan uch aka-uka Choy ib kelgan) kinxab to'qishadi. Ilk bor tanchoy usuli Gujarat shtatidagi ratda paydo bo'lgan va u yerdan bu texnika Benaresga o'tgan va hozirgacha ahalliy ustalarning eng bejamdor buyumlar ishlanishida qo'llanadi. Bu rda kumush va zar iplar bilan tovlanadigan yupqa nafis shoyi sari, mush va zar nuqtalar yoki mayda gullar bilan qoplangan sari «buttidor» qiladi.

Benares to'qimachilari deyarli yo'q bo'lib ketgan bengal «jamdani» i'atini ham tiklab, muvaffaqiyatli ravishda rivojlantirgandi. Sari jamdani 'shimcharangli ipak ipi bilan gobelen usulida to'qiladi, kumush va zar arzi gazlamada bo'rtib chiqqan gulli yoki geometrik naqshni hosil qiladi. usulni varianti sifatida qo'shimcha iplar to'quv dastgohini eni bo'yicha tilib, naqsh shakliga ko'ra qirqiladi.

Benares kinxabning yana bir turi - «ximru» ni janubiy shtat Maxarashtrada qariladi.

O'rta asr shohi Muhammad bin To'g'loq poytaxtni Dehlidan Daulatbadga chirganda benares to'quvchilarni birga olib ketgandi. Aurangabadda nashib va ustaxonalarni tashkil etib, ular shoyi va paxta aralashmasidan xab to'qishgan, chunki musulmon aslzodalar uchun shoyi gazlamadan im kiyish man etilgan, faqat shoh oila a'zolariga shoyi libos mansub edi. zir shunday kinxabni ishlab chiqaradigan ustalar o'z mahoratini bashang llar va bezak uchun gazlamalarda ishlatishadi.

### Ikat

Arslon va fil, raqsga tushayotgan qiz va fil - bu faqat ikat usulida ishlangan m tasvirlar. Bu usulda ayrim iplar (tanda yoki arqoq) bo'yalmasligi un bog'lanadi. Ushbu to'qish usulida naqsh rasmi va ranglari astoydil qilaniadi. Tanda yoki arqoq iplari dastaga ajraladi va bo'yashdan oldin da naqsh belgilanadi. Keyin, naqshga ko'ra xom ip bo'yalmaydigan arzi bog'lanib, kerakli rangga bo'yaladi. Bu jarayon har bir rang uchun uida takrorlanadi, och ranglardan to'q ranglarga gacha, to xom ipga naqsh-archa ranglari ko'chmaguncha. Shunday tayyorlangan xom ipni to'quv gohiga o'matib gazlama to'qiladi.

Bu to'quvchilik usuli Gujarat, Andaxara, Pradesh va Orissa shtatlarida

tarqalgandi. Shuni ham hisobga olish kerakki, har bir shtat o'z usulini ishlab chiqqandi. Gujarat qo'sh ikatga ixtisoslashgan (tanda va arqoq iplari naqshga binoan alohida bo'yaladi). Orissda esa yovvoyi ipakdan ikat usulida gazlama to'qiladi.

Gazlamalar stilizatsiyalangan qush, hayvon, gul va geometrik shakllar tasviri bilan bezatiladi. Odatda, qo'sh usulda ishlangan yorqin ranglarga bo'yalgan katak-katak naqshli, hoshiyasida, masalan, baliq yoki o'rama chig'anoq tasvirlangan sarini to'yda kiyishadi.

### Kanchipuram

Hindistonning janubidagi ibodatxona Kanchipuram shahridagi to'quvchilar-sagarlarning tasavvuri bo'yicha ular to'quvchi xudosiga mansub bo'lishgan. Ranglari qimmatbaho toshga o'xhash sarini qo'lida to'qib chiqish mahorati bobida ular tengi yo'q edilar.

Kanchipuram to'quvchilarini o'z gazlamalarini zichligi va chidamliligi bilan faxrlanardi. Gazlamaning sifati uning vazni bilan belgilanardi. To'quvchilarining iste'dodi ranglar birikmasini tanlaganda ko'rindar.

Sarining asosi uchun dastgohda uch moki qo'llanadi va pallava uchun alohida asos to'qiladi.

Ehrom marosimlari va to'ylar uchun Kanchipuram va muqaddas shahar Tanjor ustalari zar bezakli serhasham shoyi sari to'qishadi. Bu sarilarning hoshiyasini va pallavani tovos, sher, to'tiqush va boshqa tabiiy tasvirlar bilan bezatishgan. Ehrom frizidan o'zlashtirilgan afsonaviy mahluqlar ham naqshda uchraydi. Ular jakkard usulida to'qiladi.

Bu yerda kumush va zar ip bilan to'qilgan gazlamalar ham ishlanadi. Benares gazlamalari kabi bular ham juda qimmat baholanadi.

To'quvchilar o'zlari naqshlariga nom berishgan va doimo rang birikmalarini yangilashga intilishgan.

Janubiy Hindistonning boshqa shaharlari ham shoyi to'qish an'analariga ega bo'lgan. Shuni hisobga olish kerakki, har birida o'ziga xos ranglar va rasmlar bo'lgan.

Assamda va mamlakatning sharqiy shtatlarida azaldan gazlama to'qilgan. Ko'pincha, ayollar o'z oila a'zolari uchun gazlama to'qishardi. Tog'larda mahalliy qabilalarda ayollar oddiy dastgohlarda to'qishardi — bambuk yog'ochlarga tanda i pi tortilardi. Yog'ochlarni bir tomoni bir yoki ikki qoziqqa bog'lanib, yerga suqilgan ikkinchi tomoni to'quvchiga tortib qo'yiladi.

Tekis joydagisi aholi, odatda, mokili dastgohda to'qishardi. Ular, asosan,

rhashami. Haqiqiy kinxabda ipak tandasiga kumush yoki zar iplar o'shilib, nafis guldor naqsh to'qiladi. Kumush gazlama - «rupari» - va r gazlama - «sonari» - shoh oilasi uchun to'qilardi. Ularning qatorida ozirgi ustalar ipakdan «tanchoy» texnikasida (Xitoydan uch aka-uka Choy ib kelgan) kinxab to'qishadi. Ilk bor tanchoy usuli Gujarat shtatidagi ratda paydo bo'lgan va u yerdan bu texnika Benaresga o'tgan va hozirgacha ahalliy ustalarning eng bejamdar buyumlar ishlanishida qo'llanadi. Bu rda kumush va zar iplar bilan tovlanadigan yupqa nafis shoyi sari, mush va zar nuqtalar yoki mayda gullar bilan qoplangan sari «buttidor» qiladi.

Benares to'qimachilari deyarli yo'q bo'lib ketgan bengal «jamdani» i'atini ham tiklab, muvaffaqiyatli ravishda rivojlantirgandi. Sari jamdani 'shimcharangli ipak ipi bilan gobelen usulida to'qiladi, kumush va zar arasi gazlamada bo'rtib chiqqan gulli yoki geometrik naqshni hosil qiladi. usulni varianti sifatida qo'shimcha iplar to'quv dastgohini eni bo'yicha tilib, naqsh shakliga ko'ra qirqiladi.

Benares kinxabning yana bir turi - «ximru» ni janubiy shtat Maxarashtrada qariladi.

O'rta asr shohi Muhammad bin To'g'loq poytaxtni Dehlidan Daulatbadga chirganda benares to'quvchilarni birga olib ketgandi. Aurangabadda nashib va ustaxonalarni tashkil etib, ular shoyi va paxta aralashmasidan xab to'qishgan, chunki musulmon aslzodalar uchun shoyi gazlamadan im kiyish man etilgan, faqat shoh oila a'zolariga shoyi libos mansub edi. zir shunday kinxabni ishlab chiqaradigan ustalar o'z mahoratini bashang illar va bezak uchun gazlamalarda ishlatishadi.

### Ikat

Arslon va fil, raqsga tushayotgan qiz va fil - bu faqat ikat usulida ishlangan m tasvirlar. Bu usulda ayrim iplar (tanda yoki arqoq) bo'yalmasligi un bog'lanadi. Ushbu to'qish usulida naqsh rasmi va ranglari astoydil qilanadi. Tanda yoki arqoq iplari dastaga ajraladi va bo'yashdan oldin da naqsh belgilanadi. Keyin, naqshga ko'ra xom ip bo'yalmaydigan arsi bog'lanib, kerakli rangga bo'yaladi. Bu jarayon har bir rang uchun iida takrorlanadi, och ranglardan to'q ranglarga gacha, to xom ipga naqsh-archa ranglari ko'chmaguncha. Shunday tayyorlangan xom ipni to'quv gohiga o'rnatib gazlama to'qiladi.

Bu to'quvchilik usuli Gujarat, Andaxara, Pradesh va Orissa shtatlarida

tarqalgandi. Shuni ham hisobga olish kerakki, har bir shtat o'z usulini ishlab chiqqandi. Gujarat qo'sh ikatga ixtisoslashgan (tanda va arqoq iplari naqshga binoan alohida bo'yaladi). Orissa esa yovvoyi ipakdan ikat usulida gazlama to'qiladi.

Gazlamalar stilizatsiyalangan qush, hayvon, gul va geometrik shakllar tasviri bilan bezatiladi. Odatda, qo'sh usulda ishlangan yorqin ranglarga bo'yalgan katak-katak naqshli, hoshiyasida, masalan, baliq yoki o'rama chig'anoq tasvirlangan sarini to'yda kiyishadi.

### Kanchipuram

Hindistonning janubidagi ibodatxona Kanchipuram shahridagi to'quvchilar-sagarlarning tasavvuri bo'yicha ular to'quvchi xudosiga mansub bo'lishgan. Ranglari qimmatbaho toshga o'xhash sarini qo'lida to'qib chiqish mahorati bobida ular tengi yo'q edilar.

Kanchipuram to'quvchilarini o'z gazlamalarini zichligi va chidamliligi bilan faxrlanardi. Gazlamaning sifati uning vazni bilan belgilanardi. To'quvchilarining iste'dodi ranglar birikmasini tanlaganda ko'rindar.

Sarining asosi uchun dastgohda uch moki qo'llanadi va pallava uchun alohida asos to'qiladi.

Ehrom marosimlari va to'ylar uchun Kanchipuram va muqaddas shahar Tanjor ustalari zar bezakli serhasham shoyi sari to'qishadi. Bu sarilarning hoshiyasini va pallavani tovos, sher, to'tiqush va boshqa tabiiy tasvirlar bilan bezatishgan. Ehrom frizidan o'zlashtirilgan affsonaviy mahluqlar ham naqshda uchraydi. Ular jakkard usulida to'qiladi.

Bu yerda kumush va zar ip bilan to'qilgan gazlamalar ham ishlanadi. Benares gazlamalari kabi bular ham juda qimmat baholanadi.

To'quvchilar o'zlari naqshlariga nom berishgan va doimo rang birikmalarini yangilashga intilishgan.

Janubiy Hindistonning boshqa shaharlari ham shoyi to'qish an'analariga ega bo'lgan. Shuni hisobga olish kerakki, har birida o'ziga xos ranglar va rasmlar bo'lgan.

Assamda va mamlakatning sharqiy shtatlarida azaldan gazlama to'qilgan. Ko'pincha, ayollar o'z oila a'zolari uchun gazlama to'qishardi. Tog'larda mahalliy qabilalarda ayollar oddiy dastgohlarda to'qishardi — bambuk yog'ochlarga tanda i pi tortilardi. Yog'ochlarni bir tomoni bir yoki ikki qoziqqa bog'lanib, yerga suqilgan ikkinchi tomoni to'quvchiga tortib qo'yiladi.

Tekis joydagisi aholi, odatda, mokili dastgohda to'qishardi. Ular, asosan,

ip gazlama to'qishardi va turli mahalliy ipak navlarini ham ishlatishardi - «endi», «muga» va «tassar»ni. Dag'al sariq xom ipni «eri» yoki «endni» kanakunjut yaproqlari bilan ovqatlanadigan «eri» qurtidan olishadi. Zar «muga»ni faqat Assamda ishlab chiqarishadi. Daraxt po'stloqiga o'xshaydigan gazlama yovvoyi ipak «tassar»dan to'qiladi.

O'rta asr hind qo'lyozma miniaturalarida har xil naqshlar gazlamalarda tasvirlangan. Gazlama naqshlari me'morchilik va kulolchilik naqshlariga o'xshaydi.

Hindistonda tasviriy va amaliy-dekorativ san'atlar bir butunlikni yaratadi. Gazlamadagi naqshlar ishlash uslubi va mazmuni asrlararo murakkablashib xilma - xil tus olgan.

XVI asrda shimoliy Hindistonda musulmon shohlar boshqargan imperiya ravnaq topgan. Shoh saroyida va imperiyada Eron, Afg'on va O'rta Osiyodan rassomlar va usta-hunarmandlar ishlangan. Shoh Jahongi: podsholik davrida (1605-1627- yil) tashkil etilgan ustaxonalarda to'qima va kashtalangan buyumlar, gilamlar, zargarlik buyumlari ishlangandi. Bu ustaxonalarda hunarmand ijodida san'atkorona ishlangan islom mamlakatlari geometrik naqshi hind o'simlik va hayvoniy naqshlari bilan suratga uyg'unlashgan; hind bosma naqshiga fors va O'rta Osiyoga egilgan ingichka uchli g'uncha tasviri qo'shildi; fors gazlamalar va eshik pardalari yuzasini to'ldiradigan daraxt yoki gullab turgan shoxli o'simlik mavzusiga musulmon ustalariga man etilgan odamlarning tasviri qo'shildi. Mayda gullar yoki guldstalardan «mozaika» naqshi bu davrda gazlama yuzasida yoyilgandi.

Natijada Shimoliy Hindistonni naqshli gazlamalarida o'ziga xos yangi uslub yaratildi. Janubiy Hindistonda esa milliy an'analar saqlangandi va gazlamalarda sujetli va xilma-xil o'simlik naqshlar ishlangandi.

Miloddan avvalgi to'rtinchı mingyillikda xomashyo paxta bo'lgan (Hindiston – paxta vatani). Ehtimol yung ham ishlatilgandir, chunki Ind vodiyida mayda mol boqishgan. Miloddan avvalgi VII-II asrlarda paxta va yung kiyimda qo'llanganligi to'g'risida qadimi sharq yozma yodgorliklarida va Yunon sayohatchilarni bayonlarida eslatib o'tilgan: ularning ma'lumoti bo'yicha hindlarda bo'yagan ip va jun gazlamalari bo'lган.

Bezalgan va yupqa gazlamani hindlar, ko'pincha, sayohatchilar yaxshi ko'rganligi to'g'risida yunonlar ko'p yozishgandi.

Ikki yarim ming yil mobaynida bu gazlamalar Hindiston shon-sharafi bo'lgan. O'rta Yer dengizi mamlakatlari miloddan avvalgi IV asrda Iskandar Zulqarnayn davrida Yunon askarlari, siyosiy arboblar va dengiz sayohatchilari bu gazlama to'g'risida ma'lumot olib kelishgan. Qadimgi Rimda hind muslini

yupqaligiga ko'ra «shamoldan to'qilgan» degan nom berishgan. Keyingi davr hind shoirlari bir necha marta o'z asarlarida bu ajoyib muslinlarni tarannum qilganlar va ularga «cho'pda shudring», «tirqirab oqayotgan suv», «kechki bulut» va boshqa nomlar berishgan. Ko'p asrlar mobaynida XIX asrga qadar Dakka shahri dovrug'i olamga yoyilgan muslin ishlab chiqarish markazi bo'lgan.

Hindiston tarixini qadimiy davrlarida naqshli gazlamalar Yunoniston, Rim, Misr, O'rta Osiyo, Xitoy va boshqa mamlakatlarga eksport qilingan.

O'rta asrda Hindistonda badiiy gazmollar savdosi juda rivojlangani sababli, qishloq hunarmandchiligidagi ma'lum mamlakat uchun gazlama ishlab chiqarish yoki bosma naqsh qilish uchun qoli plar yasash rasm turiga kirdi. Masalan, Axmadobodda Siamga olib boriladigan maxsus gazlama ishlanardi, Fayziobodda — Nepalga...

XV asr oxirida Hindistonga kelgan portugaliyaliklar hind gazlamalarini Yevropaga olib borishdi. Yevropada bu gazlamalar keng tarqalib, ommabop bo'ldi, shuning uchun Hindistonning ayrim viloyatlari Yevropa uchun gazlama ishlab chiqaradigan bo'ldi. O'rta Osiyo, Misr va boshqa joylardagi qazilmalarda topilgan gazlama namunalarini naqshi va bo'yoqlari tahlili quyidagi xulosaga olib keldi: ular asosan Bombey shtatining Gujarat shahrida ishlangan.

Ko'p asrlar davomida Gujarat va uning yonidagi viloyatlari bosma naqshli gazlama ishlab chiqarish va eksport markazi bo'lган. Hozirgi zamonda shtat Uttar Pradesh (Hindistonni shimolida) gazlama ishlash va eksport markazidir.

### Bosma naqshli gazmollar

Hindistonda bosma naqshli gazlama ishlash naqshi qo'lda to'qilgan gazlamalardan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Hindistonni barcha shahar va qishloqlarida gazlama ishlab chiqarish bilan shugullanishadi. Har bir viloyatda ishlangan gazlama o'ziga xos rang va naqsh ishlash usuliga ega. Kiyimga qo'llanadigan barcha gazmollar bo'yaladi.

Gazlamani bo'yash va naqshlash jarayoni mahalliy usullarga ega. Ularning olti usuli Hindistonda qo'llangan:

1. Bo'yalgan gazlamaga yog'ochdan yasalgan qolip yordamida naqsh bosish.

2. Naqsh solinadigan joylarga dastlabki suv o'tkazmaydigan modda (yelim, mum, kamed loyi va b.) qoplanadi. Bu usulda bo'yoq shu joylarga sizadi va zaxira moddasi olib tashlanganidan so'ng shu joylarda tishli naqshlar hosil bo'ladi.

3. Maxsus kimiyoiv moddalar bo'yoqlar bilan aralashib turli rang va tus beradi. Bu usulning varianti bo'yagan gazlamada naqshni o'yma usulida ishslash va oqartirilgan joylarga yangi bo'yoqlar surish.

4. Kanakunjut moyi asosida maxsus pasta yordamida gazlamaga rasm solish.

5. Tuguncha usuli «bandxari» quyidagicha qilinadi: sidirg'a gazlamada naqshga binoan nuqtalar belgilanadi, keyin shu joylarda mumlangan ip bilan tugunlar bog'lanadi, keyin gazlama bo'yaladi va gazlama qurigandan so'ng, tugunlar yechiladi, ularni tagida bo'yalmagan joylar qoladi. Bu dog'larni ba'zan qo'lda bo'yashadi, ba'zan yana tugun bog'lab boshqa rangga bo'yashadi.

6. Cho'tka bilan trafaret yordamida bo'yash. Gazlamaga naqshni ko'chirish uchun bu usul ham qo'llanadi. Bu usulda ham qog'ozda rasm nusxasi igna bilan sanchib solinadi, so'ng qog'oz gazlamaga qo'yilib, maydalangan pista ko'mir poroshogi bilan ishqalanadi.

Eng qadimgi va keng tarqalgan usullar: pasta, o'yma va yog'och qolip bilan naqsh solish usullari.

Bosma va rasm solish usulida gazlamani naqshlashda xilma-xil rasmlar uchraydi. Bir viloyatda ko'p figurali odam, qush, hayvon va o'simliklardan ko'pfigurali kompozitsiya bo'lsa, ikkinchilarida esa — geometrik va o'simlik naqshlar bo'lган. Tematik tasvirlar asosan janubiy va sharqiy viloyatlarga mansub. Bu milliy san'atning qadimiy an'analarini saqlab qolgan mahalliy uslubdir.

Janubiy Hindistonda ko'p asrlararo ikki usul keng tarqalgandi: birinchisi — batik usuli — naqsh dastlab mumlangan so'ng gazlama bo'yaladi; ikkinchisi — naqshni uyma usulida solish. Mum maxsus uchlangan trubkacha yoki qalam bilan naqshga ko'ra chiziladi. Bu usulda ishlangan gazlamalar «qalamkari» deb nomlangan. Ehromlarning devoriy rasmlari (Kandjiveram, Tandjur va Kochinda) bilan ilhomlanib, bosma san'atning yirik markazlarida (Masulipatam, Palakolla, Kalaxasti, Madras va Tandjur) qalamkari usulida rasmni mukammalligi, ranglarni yorqinligi va tiniqligi bo'yicha tengi yo'q gazlamalar ishlangan.

Janubiy Hindistonda qalamkari gazlamalari pardaga yoki diniy marosimlarda qatnashgan muqaddas aravaning yopinchog'iga qo'llanardi. Bu pardalarda ko'pincha ko'pfigurali murakkab kompozitsiyalar bo'lган. Ularda hind dostonlaridan sahnalar ketma-ket tavsirlangan, qadimiy afsonalar va naqshlar mazmuni yoki xudolar va qahramonlarning faoliyatini o'z aksini topgan. Asrlararo bayramlarda ehromga kelgan son-sanoqsiz savodsiz hunarmand dehqon va ziyoratchilar uchun pardalar o'ziga xos kitob vazifasini o'tagan. Xalqlar hotirasida ming yillab saqlanayotgan og'zaki

doston ijodiga ular ko'rgazmali tasvirlar bo'lgan. Bu rasmlarda xalq fantaziysi, hind tabiat, milliy kostyumi, bezaklari, odatlari va an'analar o'z aksini topgan. Ayniqsa, «Ramayana» va «Maxobxarata» dostonlaridan sahnalar va siymolar to'qima, kashta, bosma va qalamkari usulida ishlangan naqshlarda ko'p uchragan.


Sujetli bosma naqshlar an'anasi shimoliy, janubiy va sharqiy Hindiston va Gujaratda ishlangan maishiy gazlamalarda tasvirlangan. Agar ehrom gazlamalarida afsona va dostonlardan sahnalar tasvirlansa, maishiy gazlamalarda - xalqning kundalik hayotini turli tomonlari aks topgan (Rasm 51-56). Ayniqsa, yubka uchun bombey ip gazlamalari va bengal shoyi gazlamalari; sari, ro'mollar va bo'yin ro'mollar uchun shunday gazlama turlari namunali bo'lgan. Bu buyumlarda dostonlar, an'anaviy voqealar, turli hayot sahnalari, xalqning mehnat faoliyatini ayrim paytlari, turli gullar, hayvonlar va qushlar tasvirlangan.

Agar bombey gazlamalari unchalik yarqiramagan rangli bo'lsa (ko'pincha bo'yalmagan och sariq rangli gazlalamada jigar rangli naqsh qilinardi yoki to'q fonda naqsh bo'yalmasdan qoldiriladi), bengal bosma gazlamalari - o'zini yarqiragan ranglari, olachi porligi va ko'pfiguraligi bilan ajralib turadi.

Xalq rassomlarining ijodiy usullarining diapazoni juda keng. Odamlar, hayvonlar va o'simliklarni tasvirlash usuli, ko'pincha, umumlashgan. Ba'zi ustalar shaklni shunday umumlanishiga erishish uchun faqat harakat va holatni ko'rsatib, uni sxematik siluetli tasvirlashgan. Birlari tasvirni takrorlangan kvadrat, uychalar yoki kataklar ichida joylasa, boshqalari - real voqelikni ifodalaydi. Ular faqat tasvirlangan figuralarni real aks ettirmasdan, ko'yak naqshi, soch turmag'i, uy jihozlari va kompozitsiyani boshqa mayda-chuydalarini puxtalik bilan tasvirlashgan (Rasm 57-63).

Shunday bosma naqshli gazlamalar ba'zan haqiqiy san'at durdonasi bo'lgan va tasvir nozikligi bo'yicha hind miniatura rangtasviriga o'xshardi.


Janubiy hind shtati Andxara o'ziga xos uslub yaratdi. XVII asrda y sifati bo'yicha mitkal yoki kolenkorga o'xhash bosma ip gazlama chiqaradigan markazi bo'ldi. Bu mitkallar bir necha asrlar davomida Sharq va G'arbga eksport moli bo'lgan. Andxara hunarmandlari bozor maydonini kengaytirish uchun ist'emolchilarining didiga binoan shu davlatlar tasviriy san'atida keng tarqalgan tematik rasmlarni ishlashgan. Mitkallarda an'anaviy mahalliy naqshlar qatorida golland, fransuz, siam va xitoy naqshlari o'zlashtirilgandi. Bu mitkallarni foni ko'pincha ko'k yoki qizil rangda ishlangan. Yuzani mumlash, qolip bilan qo'lda rasm solish, o'yib naqshlash usullari mitkalda qo'llangan.



51-rasm. Hind naqshi.



52-rasm. Mavzuli bosma



53-rasm. Mavzuli bosma



54-rasm. Mavzuli bosma



55-rasm. Gazlamada mavzuli naqsh



56 a-rasm. Choyshabda mavzuli naqsh.



56 b-rasm. Choyshabda bosma naqsh.



57-rasm. Sarining bosma hoshiyasi.



58-rasm. Gazlamada bosma.



59-rasm. Choyshabda bosma naqsh.



60-rasm. Sarida bosma naqsh.




61-rasm.  
Sarida bosma naqsh.



62a-rasm. Choyshabda bosma.



62b-rasm. Gazlamada bosma.



63-rasm. Gazlamada bosma.



64-rasm. Parcha «ximru».

I asrdan boshlab Gujarat yarqiragan bosma naqshli ip gazlamani ishlash markazi bo'lgan. Shuning uchun Hindistonning barcha viloyatlari Turkiya, Arabiston, Xitoy va boshqa mamlakatlarga olib chiqiladigan gazmollar Gujaratdan o'tardi. Gujarat hunarmandlari eksport gazlamalari yuboriladigan mamlakatning badiiy uslubiga ko'ra bezatishardi va shuning uchun ularda xorijiy mamlakatlar naqshi uchrardi. Hozirgi zamonda ham Gujarat qishloq ayollari qishloq xo'jalik ishlaridan bo'sh vaqtida gazlama yoki tayyor buyumlarini (sari, ro'mol, choyshab va b.) bosma usulda bezatishadi. Hayotning turli voqealariga mansub gujarat sarilarining an'anaviy turlari to'qiladi. Masalan, to'y sarisi qizil bo'lib, naqshi sariq, oq va ba'zan yashil to'tiqush yoki odam figurasidan iborat; motam sarisi — qizil, qora yoki oq naqshli to'q qizil edi. Gujarat gazlamalari o'z ranglarining xilma-xilligi va yorqinligi bilan ajralib turadi. Sarining uchlari doimo gulli naqsh bilan bezatiladi.

Gujaratga yaqin viloyatlar ham Hindistonda eng yarqiragan rangli gazmollarni ishlab chiqarardi. Masalan, Rojostonda tuguncha va bosma usulida naqshlangan gazmollarda naqsh kontrast ranglarda ishlanadi — sariq fonda yashil tuguncha yoki yashil fonda qizil tuguncha va boshqalar qilinadi. Shunday buyumlarning hoshiyasi fon va tugunchani tonida bo'yaladi. Bu gazlamalar faqat ayollar libosida qo'llanadi.

Gujarat va Orissa Janubiy Hindiston pardalariga o'xshash ehrom pardalari ishlanadi, ular doston sahnalari bilan bezatilgan.

Shimoliy Hindistondagi bosma naqshli gazlamalarida asosan geometrik va o'simlik naqsh O'rta Osiyo va O'rta Sharq ta'sirida rivojlangan. Bu naqshlar rasmlarning nozikligi va birikmalarini cheksiz xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Hunarmandlarni deyarli har guruhiда o'zini trafaretlari va qoli plari bo'lgan.

Uttar Pradeshda ishlangan arzon ip choyshablar ranglar birikmalarini uyg'unligi, naqshni astoydil ishlanganligi va gazlamani yuzasida naqshni proporsional va uyg'un joylanishi bilan barchani lol qoldirgan. Bu choyshablar odatda parallel joylashgan o'simlik naqsh bilan bezatilgan. Murakkab kompozitsiyali bosma mavzu naqshli ip choyshablari Uttar Pradeshni shonu shuhrati bo'lgan. Shunday choyshablarda saroy hayoti yoki ov sahnalari, to'y marosimlari va boshqalar tasvirlangan.

Ayrim joylarda hozirgi zamongacha mo'g'ullarning «mozaik» uslubi saqlangan (gazlama yoki buyum yuzasi mayda gul yoki guldastalar bilan batamom to'ldiriladi).

## Kimxob

Shimoliy Hindiston, asosan, to'qima naqshi bilan dovrug' qozongan. Hind to'quvchilari oddiy qo'l dastgohida nozik naqshli gazlamalarni va serhasham murakkab naqsh bilan bezatilgan og'ir kinxabni to'qishardi. Bu badiiy hunar gazlamani bo'yash va bosma naqsh qilish kabi qadim zamonlarga borib taqaladi.

To'qima naqshlar o'z mavzu va uslublari bo'yicha tasvirlangan yoki bosma qilingan naqshlarga o'xhash, ammo o'simlik va geometrik shakllar bu yerda ko'proq qo'llangan. Masalan, dong'i ketgan bengal shoyi va muslin sarini uchi va hoshiyasi nozik gobelenga o'xshab murakkab gulli rasm bilan bezatilgan. Bu naqshli bengal gazlamalari «butidor» deb nomlangan.

Bombey va Gujaratda ishlangan «patola» gazlamasi (to'y libosi uchun rang-barang ipak iplaridan to'qilgan) va Gujarat va Orissa ishlab chiqarilgan «ikab» gazlamasi ommabop bo'lgan. Bu gazlamalar «ikat» usulida bo'yalgan. Katak shakli ichida gullar yoki hayvonlar joylashgan naqsh juda ko'p uchraydi. Ba'zan bu kataklar faqat bir zar ip bilan qilinsa ham, naqsh kompozitsiyasini tashkil etishga yetarli bo'ladi. Ko'pincha, uchi qayirilgan cho'zilgan g'uncha gazlama yuzasini mayda gullar bilan to'ldiradi.

Dxoti va sallani chekkasi, eshik va deraza pardasi, choyshab va poyandozlar to'qima naqsh bilan bezatilgan.

Hind to'qima naqshli gazlamalari orasida parcha eng serhasham, boy va go'zal. Milodlar chegarasida uni dong'i ketgan. Gazlama va buyumlarni (bo'yin bog'ichlar, pardalar, choyshablar va boshqalar) hind to'quvchilari qo'lida to'qishgan.

Hind parchasi uch turli bo'lgan;

- *amru* – faqat ipak ipidan to'qilgan;
- *ximru* – ipak va paxta ipidan to'qilgan;
- *kximkab* – shoyi gazlamalada naqsh kumush va zar ip bilan to'qilgan;

Azaldan Surat shahri amru ishlab chiqarish markazi bo'lgan, ximru esa Haydarobodda to'qilardi. Kimxab to'qish markazi – hind madaniyatining qadimgi markazi Banoras bo'lgan.

Amru, ko'pincha, gullab\_turgan shoxlar va stilizatsiyalangan daraxtlar tasvirlangan hoshiya bilan yoki o'simlik va hayvonlar tasvirlangan naqsh bilan bezatiladi. Ba'zan aniq tasvir bo'lmasa ham, gazlama tovlanib, yaltirab turadi va sharillab oqqan suv kabi turli ranglari bilan jilvalanadi.

Ximru parchasi, ko'pincha, gazlama yuzasida mahorat bilan qilingan kashtani eslatadi. Odatda uni naqshi mayda geometrik shakllardan, qush, hayvon, gul va boshqalar tasvirlaridan iborat. Ximru asosan parda, choyshab va boshqa bezak buyumlari uchun ishlatiladi (Rasm 64).

Faqat to'y va bayram marosimlarida zarbof parchadan kiyim va bo'yin bog'ichlar kiyiladi. Zarbof bo'yin bog'ich kelin uchun eng yaxshi sovg'a hisoblanadi. Naqshlari benazir xilma-xil va go'zal. Ba'zan ular ramkani ichida takrorlangan elementlardan iborat edi, ammo, ko'pincha ular yaxlit kompozitsiyani tashkil etib, daraxt, gul, qizlar o'yini va raqlar, sevgi yoki ov sahnalari tasvirlari buyumda batamom joylanardi. Tasvirlarda hind miniaturasidagi kabi perspektiva nisbatlari e'tiborga olinmagan.

### Kashta

Hind xalq kashtalari naqshini ifodaliligi va ranglarning tiniqligi bilan ajralib turadi. Hindistonning har bir viloyati o'ziga xos kashtalash texnikasiga ega.

Liboslarga yoki uy-ro'zg'or buyumlariga jilodorlikni berish uchun hind ayollar ularni faqat ip bilan kashtalamasdan, yaltiroq tangachalar, slyuda, oynacha yoki shishaning mayda parchalari, munchoqlar, metall plastinkasi (hattoki qo'ng'izning rang-barang qanotchalar) bilan bezatishardi.

Bombey, Gujarat va Manipurda mayda yaltiroq qoplanmalar bilan kashtalari keng tarqalgan. Naqsh zanjir choq bilan qilinardi, oynachalar yoki boshqa qoplomalarning atrofi shu iplar bilan tikilardi (diametri 10-12 mm doira shakldagi yuza ochiq qolardi).

Shunday usulda kashtalangan yubkalar, oynachalar jilosiga ko'zni quvontirardi. Hindiston shimoli -sharqida joylashgan Manipur shahrida («manipur» - raqs vatani) raqsda ishtirot etuvchilarining yubkalari - gxagara oynachalar bilan butunlay kashtalanadi va yubkaga o'ziga xos bashanglik va ifodalilik beradi.

Eshik va deraza pardalari va boshqa buyumlar shunday usulda bezatiladi. Bombey, Bxopal va Rojastonda ayollar duhoba sumkachasi, bolalarning dumaloq qalpoqchalari, bashang poyabzal va boshqa mayda maishiy buyumlar yaltiroq tangachalar, munchoq va ingichka metall sim bilan kashta qilinadi.

Bombey va Maysorda tarqalgan boshqa kashta usulini - «kasuti» deyishadi. Bu qo'lida to'qilgan to'q yoki, ko'pincha, qora rangli gazlamada ipak iplar bilan qilingan rangli shtrixli rasmni eslatadi (poyasimon yoki chokli banya va iroqi). Parda, choyshab, ayollar va bolalar kiyimi kasuti usulida kashtalanadi. Parda va boshqa yirik buyumlarda, odatda, daraxtlar, odamlar va hayvonlar tasviri kashtalanadi, sari va ko'yakda - gullar, qushlar va olachi por naqsh kashtalanadi.

Manipur tagdo'zi usulidagi kashtasi bilan ham mashhur (yarqiragan kontrast iplar bilan dag'al ip gazlamada tikiladi). Odatda naqsh yirik


stilizatsiyalangan gullar, hayvon va qushlar tasviri yoki noto'g'ri geometrik shakkardan iborat. Shunday kashta va naqshlar Mani purga qo'shni tog'li Assamda yashagan xalqlarga mansub. Manipur va Assamga yaqin qo'shni Bengalda qadimdan o'ziga xos kashta usuli – «*kantxa*» bo'lgan. Kantxa so'zi «qiyiq», «latta» ma'nosini bildirib, kashta usulining mohiyatini ifodalaydi. Kashtaga eskirgan buyumlar, ko'pincha eski sari qoldiqlari qo'llanadi. Kantxa kashtasi uchun bir xil och rangli sari qiyiqlari saralab olinib, kerakli razmergacha tikiladi, keyin bir necha qavatga biriktirilib, sarining naqshli hoshiyasidan rangli iplar sug'urib olinadi va kashta qilinadi. Kashtaning foni mustahkam va bir xil rangda bo'lishi uchun asosiy rasm qilingandan so'ng, oq ip bilan qoplanib tikiladi. Shuni e'tiborga olish kerakki, fonda tikilgan bahyalar tasvirlarga parallel qilinadi.

Kantxa kashtalar naqshning mazmuni cheksiz, turli-tuman. Bu – gullar, hayotdan turli sahnalar, afsona va dostonlardan sahnalar, fillar, toshbaqalar, ilonlar, qushlar, sherlar va boshqa narsalar tasviridan iborat. Bu kashtalarda hayvon va odam figuralari oddiy ko'rinsa ham, ular juda ifodali tasvirlangan. Figuralarning chegarasi odatda to'q ko'k va to'q qizil rangda tikiladi, yuzasi esa shu rangda yoki kontrast rangda nuqtali chiziqni eslatadigan mayda banya bilan butunlay qoplanadi. Ba'zan poyasimon banya bilan kashtalangan uzuksiz chiziqlar vositasida yuzasi qoplanadi. Shunday kantxalar bilan krovat yoki yostiqlar yopilardi, devorlarga osilardi, qishda yopinchiq sifatida yelkaga tashlanardi. Katta va murakkab kantxani ishlashga bir necha yil ketardi. Bengalda bayramga yaqin qarindoshlarga kantxa eng yaxshi sovg'a deb hisoblanardi (Rasm 65-66-67).

Bengal bilan chegara shtat Orissa kashta usuli – aplikatsiya keng qo'llanilgan. Bu yerda bayramda po'ga yoki uy oldidagi yerga solinadigan katta ip gilamlar ko'p rangli aplikatsiyalar bilan bezatiladi; Djagannatxu xudosiga bag'ishlangan tantanali yurish uchun yelpig'ichlar, katta soyabonlar, ehrom va uy uchun pardalar bezatiladi.

Shimoliy Hindiston Uttar Pradesh shtatida, ayniqsa, Lankau shahrida «*chiqqan*» kashtasi keng tarqalgan. Odatda, oq yoki och sariq rangli yupqa ip gazlamada(ko'pincha muslinda) juda ingichka oq ip bilan kashtalanardi. Naqsh - stilizatsiyalangan o'simliklar - poyasimon banya, qo'lda ishlangan choc, yo'rma yoki nozik tagdo'zi usulida erkaklar ko'ylagining yoqasi, sochiq, dasturxon va ichki kiyimda qilinardi. Chikkan kashta usulida qilingan buyumlar eksportga yuboriladi.

Shimoli - g'arbiy Hindistonda gazlamalar yorqin rangli kashtalar bilan bezatiladi. Sharqiy Panjobda libosning bir qismi ro'mol – ipak bilan kashtalangan. Ro'mollar va kashtalar bu hududda qadimdan bo'lgan.



65, 66 -rasm. «Kantxa» usulida ishlangan kashta.



67 -rasm. «Kantxa» usulida ishlangan kashta.

Miloddan avvalgi bitilgan budda adabiyoti yodgorliklarida bir necha marta chiroyli kashtalangan gazmollar to'g'risida eslatib o'tilgan. Toshdan yasalgan haykallarda kashtalangan kiyimlar tasvirlangan. Keyin musulmon askarlari Panjob aholisi gazlamalarda va kiyimlarda ko'rgan kashtalarining go'zalligidan zavqlanishgan. Buyuk Mo'g'ullar davridagi ro'mollar barcha amaldorlarga ma'lum edi. Bu ro'mollarni faqat qishloq ayollarigina emas, kashtado'zlik rassomlari ham kashta qilishardi. Shunday kashtalarda saroy hayotidan sahnalarini rojalar portretlari, afsona va dostonlardan sahnalar tasvirlanardi. Kashtalangan sujetlarda personajlar o'zgacha dinamikli tasvirlangan – ular ashula aytadi, raqsga tushadi, musiqa asboblari chaladi, yovvoyi hayvonlarni ov qilishadi.

Bu kashtalarining asosiy kompozitsion xususiyati – barcha figuralar ro'mol chekkalarida joylanardi, ularning boshlari markaz tomonga qaratilgandi. Ba'zan asosiy sujet ro'mol o'tasida joylanib, dumaloq, kvadrat yoki figurali ramka bilan o'ralib olinadi, chetlarida o'simliksimon naqshlar qilinadi. Ko'pincha, ro'mol yuzasi sujetli kashta bilan to'ldirilib, eng katta figuralar markazda joylanadi, maydalari esa hoshiya hosil qiladi. Ko'pincha ro'mollarda freska rangtasviridan o'zlashtirilgan sahnalar kashtalanadi.

Dehqonlar qilgan kashtalar oddiyroq bo'lgan. Ammo ularda turli mahalliy sujetlar, liboslar va turli buyumlar tasvirlangan. Orqa va o'ngi bir xil ro'mollar eng qimmatbaho hisoblanardi. Ularning shakli, asosan, kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak bo'lgan. Razmeri 0,6-1,5 kv.m bo'lgan.

Gujarat, Rojaston va Kashmirda ustki kiyimlar, shollar, choyshablar, poyabzallar, ro'mollar kashtasiga o'xshaydigan kashta bilan bezatiladi.


Kashtalar satin, charm, jun yoki shoyi gazlamalarda qilinadi. Ular xilmashil bo'lib, hammani qoyil qoldiradi.

Hindistonning Panjob kashtalari – «pxulkari» va kashmir shollari bilan dovrug' qozongan. «Pxulkari» so'zining tarjimasi «gul qilish», «gulni tasvirlash» ma'nosini anglatadi. Haqiqatdan, XIX asrgacha bu nom so'zning ma'nosiga munosibligini ko'rsatdi, chunki asosan gul mavzulari pxulkari kashtasida bo'lgan (Rasm 68).

Bu kashta usulining o'ziga xos xususiyati quyidagilar: buyumning yuzasi butunlay ip bilan qoplanib, naqsh hosil qiladi, asosiy gazlama esa ko'rinxaydi. Pxulkari choki to'rlashga yoki yirik tagdo'ziga o'xshaydi, bahyani o'rtacha razmeri 6-7 mm edi. Kashta buyum teskarisidan qilinadi, ammo o'ngida tayyor tasvir bo'lib chiqadi. Pxulkarining asosi - qalin emas, qo'lda to'qilgan ip gazlami «kxadder» kashta esa bo'yalgan yumshoq ipak xom ip bilan qilinadi. Qadimda pxulkari, ko'pinch maxsus rangli geometrik



68a -rasm. «Pxulkari» usulida  
choyshabda ishlangan kashta.



68b -rasm. «Pxulkari» usulida  
choyshab burchagida ishlangan kashta.

to'qima naqshli gazlamada qilinardi, kashta esa gazlamani naqshi bilan bir-biriga mos kelardi. Ammo XIX asr oxiridan boshlab shunday pxulkarilar ishlanmaydigan bo'ldi. Hozirgi pxulkarilarda asos kashtalanmaydi, naqsh hoshiya sifatida qilinadi.

Pxulkarining ko'p turlarini 4-5 asosiy guruhga bo'lish mumkin: eng oddiy arzonlari - «*tilpatra*» arzimas kashta bilan bezatiladi; kundalik kiyimga pxulkari - «*salu*»-yorqin qizil yoki to'q qizil rangli; sifati va nimaga mo'ljallangani bo'yicha o'nga yaqin pxulkari - «*nilak*» ko'k yoki qora fonda qizil yoki sariq rang bilan kashtalangan.

Panjobning janubi-sharqida oynachalar yopishtirilgan «*sheshadar*», janubda esa uni faqat tagdo'zi usulda emas, iroqi usuli bilan ham kashtalashadi.

Kashtalangan naqsh geometrik bo'lishi mumkin, ammo, ko'pincha, gullar ham kashtalanadi. Stilizatsiyalangan gullar va yaproqlar bilan yuzasi butunlay kashta kilingan pxulkari eng serhasham hisoblanadi. Shunday pxulkari «bog'lar» deb ataladi.

Pxulkari - «*bog'lar*», asosan, musulmonlar yashagan joyda qilinib, ularning naqsh mavzulari kashtalanadi.

Pxulkari - «*bog'lar*»dan tashqari boshqa pxulkarilari ham bor. Ularda kashta gazlamada interval bo'yicha taqsimlanadi yoki faqat uchlari kashtalanadi.

To'y shollari - «*chope*»ni tayyorlashga panjob ayollari ko'p e'tibor berishadi. Chope yorqin sariq ip bilan qizil gazmollarda kashtalanadi. Bu shollarni tayyorlashda bo'lg'usi kelin oilasining barcha ayollari qatnashadi. Chope kashtasining boshlash kuni oilaviy bayram bo'lgan. Chopening asosiy

xususiyati quyidagilardan iborat: kashta sholning faqat chegarasida qilinib, o'ng va teskarisidagi naqsh ko'rinishi bir xil bo'ladi.

Pxulkari kashtasi yubka, kofta, parda, divan yostig'i kabi boshqa buyumlarda ham qilinadi. Kashtaning standart naqshlari bo'lmasdan. Har bir viloyat va hattoki, har bir oilada ayollar o'z buyumlari uchun naqshlar yaratishardi. Buyumning go'zalligi faqat naqshga bog'liq bo'lmasdan, gazlama va kashtada qo'llangan iplarning rang birikmalariga bog'liq edi. Shuning uchun ularning rangiga katta ahamiyat berilardi. Avval, asosan, tabiiy bo'yoqlar qo'llangan – nil bo'yog'i, ro'yan, qizil daraxt va boshqalar. Hozir ularning o'rniga kimyoviy bo'yoqlar qo'llanadi.

### Kashmir shollari

Panjobning shimolida Hindistonning «gullayotgan bog'i» - xushmanzarali Kashmir vodiysi joylashgan. Bu yerdagi hunarmandlar yasagan buyumlarning dong'i dunyoga ketgan, ayniqsa, kashmir shollarining. Ular ko'p asrlar davomida Sharq va G'arb mamlakatlariga eksport qilingan. Bu shollar shunchalik yupqa bo'lganki, ularni uzukdan o'tkazish mumkin edi. Razmeri 1,5-2 kv.m, sholning og'irligi 100 grammdan kam bo'lgan.

Shollar qo'y, echki juni – «pashmina»dan va yovvoyi tog' echkilarining juda yengil nozik tivitdan qilinardi. Jun yoki tivitdan nozik gazlama to'qib, egiluvchanlik va pishiqlik berish uchun uni maxsus usulda yumshatishadi. So'ng gazlamani gardishga tortib, silliqlangan xolsedon yoki aqiq bo'lagi bilan silliqlanadi. Shu kabi ishlovlar berilgandan so'ng, gazlama kashta qilish uchun tayyor deb hisoblanadi. Kashta mayda zanjira chok bilan qo'lda qilinadi. U ba'zan sholni yuzasiga butunlay yoki o'rta va chetlariga qilinadi. XIX asrda sholni o'tasida doira, burchaklarida doira sektori kashtalangan shollarni «oy sholi» deyishardi. Ammo, shollar faqat kashtalangan emas edi. XVI-XVIII asrlarda shollar to'qima naqshli bo'lgan. To'qish jarayoni juda murakkab bo'lgani uchun sholni bir yil davomida to'qishardi yoki sholni ayrim bo'laklarini bir necha dastgohlarda to'qib, bo'laklarni ko'rinxaydigan choklar bilan biriktirishardi. Va faqat XIX asrning boshida yangi usul – to'qima bir rangli asosda kashta qilish tarqalgandi.

Kashmir shollari to'g'risida ilk ma'lumot XVI asr adabiyot yodgorliklarida bor. Ularda ma'lumot berilishicha, shollar xilma-xil va serhasham edi. Shundan xulosa qilish mumkin: shollarni ishslashda qadimiy an'analar bo'lgan.

Kashmir shollari naqshlarining o'z tarixi bor. Hind shollarining naqsh mavzulari, asosan, forslarnikiga o'xshash edi, ammo, ular juda ko'p detallar bilan boyitilgandi. Hind rassomlarining eng muhim tipik xususiyati – yuzani

naqsh bilan to'ldirishdir (hattoki foni ko'rmasdi). Hind san'atida ko'pincha miqdor ustunlik qiladi: detallarning ko'pligi ularning muhimligini, kuch va qudratini ta'kidlash uchun kerak edi. Fors mavzulari qayta ishlansa ham, miqdor ustunligi ro'y berardi. Hamma biladigan «hayot daraxti» bu - yerda shoxlanib, yaproqlar, g'unchalar va gullar bilan burkalgan tasvirdir. Ularga turli shakl berilgan – ingichka xanjarsimon, keng, ovalsimon, xurpaygan va shoxlab ketgan. «Hayot daraxti»dan tashqari doimo egilgan ajoyib sharqona bodomsimon shakllar uchraydi. Bu o'simlik mavzulari shunchalik darajada stilizatsiyalanganki, ular dastlabki tasviriy ma'nosini yo'qtgandi. Ulardan faqatgina ba'zi shaklning umumiy tashqi ko'rinishi qolgan, ichi esa shoxda son-sanoqsiz meva, g'uncha va gullar bilan to'ldirilgan. Kashmir sholini ishslash texnikasiga ko'ra, har bir shaklni chegarasi gilamda to'qilgan naqshga o'xshab, tishli qilingan.

Mo'g'ul imperiyasining shoh saroyida kashmir shollar moda bo'lган. Ba'zan, ularni kumush va zar iplari bilan kashtalashardi, to'qima naqshi esa chiroqli qilinardi. Fors naqshida ko'p uchraydigan naqsh – gullab turgan daraxt tomiri poyasi bilan – shu davrning asosiy naqshi bo'lган. Keyinroq naqsh stilizatsiyalangandi. Avval daraxtning o'rniga uning gullayotgan shoxshabasi, keyin gulasta va uchi qayirilib cho'zilgan stilizatsiyalangan g'uncha shaklida naqsh qilingan (bu mavzu – «buta» deyiladi va hind naqshida endi O'rta Sharq mamlakatlari dagi kabi keng tarqalgan).

XIX asrda gul va yaproqlardan olachi por naqsh bilan konturi to'ldirilgan g'uncha mavzusi kashmir shollarida ham qilinadigan bo'ldi (Rasm 69).

XVIII asrning oxirida va XIX asrda Yevropada, ayniqsa, Fransiyada, shollar har bir modaga berilgan ayolning libosida bo'lishi zarur edi. Shuning uchun XIX asrning o'rtasida Kashmirda fransuz rassomlari paydo bo'ldi. Shollar naqshiga ular mahalliy an'anaviy tasviriy usulidan ajralib turadigan yevropa naqshining elementlarini kiritdi.

XIX asrda kashtalangan shol – «*amali*» kirgandan so'ng, ularning naqshida avval bo'limgan odam tasviri va hattoki, hayot sahnalari yuz ko'rsatdi.

XIX asr o'rtasidan boshlab, Kashmirda eng qimmatbaho shol «*dorukxa*»ni ishlab chiqarishadigan bo'lishdi. Ularda orqa va o'ngida naqsh mutlaqo bir xil bo'lган.



69-rasm. Kashmir sholini kashtalangan parchasi

XX asrda to'rsimon k<sup>o</sup>'z-ko'z kashta (ingichka jimjimadan iborat naqsh) sholni yuzasini to'dirgani. Ba'zan, unga gul va yaproqlar tasviri qo'shilardi, ba'zan esa, sholning yuzasi mutlaqo sidirg'a bo'lib, faqat, hoshiyasi kashtalanardi.

Kashtalangan jun shollar Panjobning ayrim joylarida ishlanadi, ayniqsa, Kulu tog'li joylarida (bu yerda aholining asosiy xo'jalik ishi chorvachilik bo'lgan).

Ammo, dunyoda eng <sup>eng</sup> <sup>dong'i ketgan</sup> shollar Kashmirda qilinardi.

### Nazorat savollari.

1. Hindiston qanday gazlamaning vatani?
2. Hind gazlamlari to'g'risida afsonalar qanday ma'lumot beradi?
3. Benares shoyilaming asosiy xususiyatlari .
4. Ikat usulida naqsh qanday ishlanadi?
5. Kanchipuram shahridagi to'qilgan shoyilar qanday xususiyatlarga ega?
6. Bosma usuldagina qishlar qanday ishlanardi?
7. Hindistonda gazlarning bo'yash usullari qanday bo'lgan?
8. Hind naqsh mavzullari.
9. Hind naqshlarining farqlovchi xususiyatlari qanday edi?
10. Hind kimxbor turlari.
11. Hind naqshining kashta usulida ishlash mahalliy turlari.
12. Kashmir shollar to'qish usuli va ularning naqshlari.
13. Hind to'qimachilik san'atining dunyo to'qimachilik san'atiga ta'siri.

### Xitoy gazmollari

Miloddan avvalgi 249- yilda Chi-Xoong-Ti sulola asoschisi bo'lib, birlashgan imperiyani tas'hlil etdi. Xan sulolasi davrida Xitoyning chegarasi kengaytirildi. Xoqon Ven-Tinning mahkamasi davrida Xitoy Xotan bilan ittifoq tuzib, Hindiston va Baqtriyaga yo'l ochdi. Xitoyda buddaviy dini keng tarqalgani tufayi Hindiston bilan aloqa kuchaydi. Hindiston shu davrda yunon-baqtriya san'ati ta'sirida bo'lgan edi. Baqtriya esa, Iskandar Zulqarnayn davridan boshlab, qit'ada Yunon ta'sirining o'chog'i bo'ldi. Xitoyning chegarasi kengayishi parsiya xoqonligi bilan tutash bo'lishligiga olib keldi, keyin esa Xoqon August davrida Xitoy elchilari Rimga ilk bor kirishi bois Rim xoqonligi bilan aloqa boshlangandi.

Milodiy 165- yilda Rim xoqoni Mark Avreliyning elchilari Fors ko'rfazi va Hind okeani orqali Kanton yonidagi Xitoy portiga yetib olib, Xuang-Ti saroyiga kelishdi. Shu vaqt dan boshlab, Rim xoqonligi va Xitoy o'tasida savdo-sotiq aloqalari o'rnatilgandi. Xon ipak va asosan, naqshli shoyi gazlamalar Yevropaga olib boriladigan asosiy mollaridan biri bo'lgan.

Bu davrdagi xitoy gazlamalarining naqshlari ko'p vaqt davomida — 1914- yilda Avreliy Shteyn Turkiston qazilmalarida shoyi gazlamalar topmagancha noma'lum edi. Ular miloddan avvalgi II-I asrlarda ishlangandi.

1924- yilda P.K. Kozlov Shimoliy Mo'g'ulistonda Noin-Uli qo'rg'onlaridan undan ham qadimiyoq gazlamalar va kashtalar topgandi. Tarimbekon istehkomidagi maqbara qazilmalarida yaxshi saqlangan naqshli gazlamalar topilgan (Rasm 70). Ajoyib naqshlarda fantastik va real hayvon va o'simliklar tasvirlangandi. Bu naqshlar aristik davrdagi naqshlardan keskin farqlanardi. Odatiy tuzilish qoidalari va simmetriya, ko'pincha, kompozitsiyalarda uchramagan. Ularning birida g'alati shaklli shoxlar turli yo'nalish bo'yicha egilib, oraliq hosil qilgan, u yerda yolg'iz chavandozlar sakrashgan, bilanglashgan va mushuk singari kerishgan shoxli fantastik hayvonlar joylashgan (Rasm 71).

Chavandozning figurasi shantun toshlarda yoki Xan davrining (miloddan avvalgi 206- milodiy 221yy.) loydan yasalgan figuralariga o'xshaydi, grifonlardan biri esa — Sosoniy gazlamadagi shoxli hayvonga o'xshaydi (keyin ishlangan gazlama).

Shteyn topilmalarida o'simlik naqshi jingalalari orasida turli holatda arslonlar tasvirlangan. Bu nosimmetrik kompozitsiyalardan tashqari rombsimon tuzilgan naqshli gazlamalar topilgan. Kompozitsiyani asosiy o'qiga nisbatan simmetrik joylashgan juft ajdaholar gorizontal yo'nalishda ikki egilgan to'rsimon yo'llar orasida tasvirlangan (Rasm 72).

Bundan boyroq va xilma-xil xitoy gazlamalari va kashtalar kolleksiysi Noin-Uli qo'rg'on qazilmasida topilgan. Ularning sulola tamg'asiga ko'ra, topilgan gazlamalar ertaroq ishlangan. Ulardan birida asosiy o'qqa nisbatan simmetrik joylashgan chuvalashgan o'simlik orasida yugurgan grifonlar va qanotli otda o'tirgan shoxli chavandozlar navbatma-navbat tasvirlangan. Orasida xoqon Li-Vangning (miloddan avvalgi 571- yil) tamg'alarini tasvirlangan (Rasm 73). Uning zaytun rangli naqshi oq chegarali bo'lib, qizg'ish-jigar rangli fonda to'qilgan. Kimyoviy-teknologik tadqiqot naqshli gazlamalarni qadimiylamona yuqori sifatlari bo'lganligini ko'rsatdi. Bu namuna uch tandava bir arqoq ip bilan to'qilgan. O'riliishi esa «ikki qavat gazlamani klassik turida» bo'lgan.



70-rasm. Xitoy naqshlari.



71, 72-rasm. Miloddan avvalgi II-I asr xitoy gazlamasi.



73-rasm. Noin-Uladan xitoy gazlamasi.

74-rasm. XIV asr xitoy kimhobi.

Boshqa gazlama namunasining ustida spiralsimon yoyilgan kashtalar qilingan (ehtimol gazlamaga nisbatan kashta kechroq qilingan), nosimmetrik joylashgan o'simlik mavzulari orasida arslonlar va ularga eeshvoz chiqayotgan sherga o'xshagan fantastik grifonlar tasvirlangan. Bu gazlamanada xoqon Li-Vangning tamg'asiga o'xshagan belgi ham qilingan (miloqdan avvalgi 878- yil).

Uchinchi Xitoy gazlamasida zinchalangan naqsh orasida qushning boshi va gavdasi ko'rindi.

Bu barcha namunalar repsga o'xshagan qalin ipakdan qilingan. S.A.Teplouxovning so'zi bo'yicha «Noin-Ulning mahalliy kishilar xitoy shoyini kiyim va boshqa buyumlar uchun yoki kigizlar bezagi uchun qo'llashgan. Shoyidagi naqshlarni inobatga olmasdan, ular qora qirgiz va osiyo ko'chmanchilarining kigizlarini naqshiga o'xhash spiralsimon naqshlarini qavishgan». Qazilgan qabristonlarning katalogi va u yerdagi topilmalariga ko'ra qabristonda xun xonlari, shomyunlari dafn etilgan desa bo'ladi. Xitoy manbalariga binoan, xun shanyurlari xitoy xoqonidan sovg'a sifatida shoyi gazmollarni va boshqa zeb-ziynat buyumlarini olishgan.

P.K.Kozlov va Shteyn ekspeditsiyasi topgan xitoy gazlamalari naqshi an'anaviy ellen san'atiga o'xshamaydi. Ularning sarant kompozitsiyasida maxsus yo'naliish aniq seziladi (skif-sibir yo'naliishi). Hir bir yangi kashfiyotda bu o'xhashlik aniq ko'rindi va skif-sibir san'atini godimiy Xitoya ta'siri juda kuchli bo'lgani yaqqol sezildi.

Ellin va Eron san'ati skiflar madaniyatiga, Eron san'ati ularning sharqiy qo'shnilariga ta'sir etmagancha, xitoy san'atiga skiflar ta'siri bo'lgan. Eron madaniyatining ta'siri, ayniqsa, VII-VIII asrlarda seziladi. Bu davrdagi Xitoy gazmollari Sosoniy gazmollarning xitoysi nusxasi bo'lgan. Nara shahridagi yapon ehromida saqlanayotgan namunalar yoki akademik V.V.Radlov Oltoyda topgan va Pelko Kansu minsaqasi qazilmasida topilib Luvr muzeyiga berilgan gazlama namunalarini isbotlaydi. Saqlangan gazlamalardan tashqari Kodamaning «Eski rasmlar oynasi»dagi nusxalari va Oriman rizaxonasini o'ng tomonli xitoy gazlana asida suratlar to'plamlari bor. Mikado Shomu bayrog'i nomli gazlama (726-748- yillar) Eronni xitoy gazlomasiga ta'sirini aniq ko'rsatadi. Bu gazlana Kyolndagi muqaddas Gunibert qabristonida topilgan gazlamani xitoya odintakrorganligini ko'ramiz. Kitoy takrorlanishida xoqonning tamg'alarini qo'shilish, kompozitsiya tuzilishi esa o'zgarmagan, ammo tasvirlar mahalliy usulda stilizatsiyalangan.

Juft chavandozli bosma va to'qima naqshli gazlama namunalarini ko'p niqdorda saqlanib qolgan. Ularning eng yaxshi koleksiyalari Nara shahridagi shizoan to'plamida va ornush ehromida saqlanmoqda.

Xitoy hayvoniylar naqshida g‘alati komponovka qilingan chala ~~real~~, chala fantastik hayvonlar seriyasini uchratamiz. Ularning qatoriga, en<sup>g</sup> avvalo, ajdaho kiradi, odatda, uni buqalamunning boshi, bug‘ining shoxi, ~~bugan~~ning qulog‘i va ilonning dumi bilan tasvirlashgan. Uni egilgan panjalari burgut tirnog‘i, tanasi esa baliq tangasi bilan qoplangan. Xitoy fantastikasida bu mahluq xudoning odamlarga yuborgan marhamati deb hisoblanadi. Avval u serhosil suv, bulut, tog‘ cho‘qqilarini, osmonni tajassum etgan, keyin qudrat va kamolot ma‘nosiga ega bo‘lib, Xan sulolasidan boshla<sup>n</sup>, xoqon sultanating timsoli bo‘lgandi.

Ajdahodan tashqari, ko‘pincha, mushukka o‘xshagan taut-ieng<sup>ing</sup> ulkan figurasi — badnafslikning timsoli, ki-lin — yakkashoxga o‘xshagan bug‘i, qirg‘ovul boshli, qanotlari yoyilgan, tovus yoki ajdaho gavdali va bo‘yni toshbaqanikiga o‘xshagan kaknus uchraydi. Toshbaqa, baliq, ilon, ~~ot~~, arslon va rosomaxalar real tasvirlangan.

Hind-baqtriya san‘ati ta’sirida xitoy gazmollariga svastika, meandr, rozetka, gulli yulduz, romb, xoch va ellistik Sharqqa mansu<sup>b</sup> boshqa mavzular kirib kelgan. Shuni ham hisobga olish kerakki, Xitoy meandri Yunon meandrini faqat uzuksiz yo‘l sifatida takrorlamasdan, goh yakka, goh juft tamg‘ani tasvirlaydi. Xitoy san‘atining taniqli bilimdon Fr.Girt ushbu tamg‘alarda momaqaldiroqning ramziy tasavvur egandi.

Buddiyarning muqaddas hayvonlari — fil va sher xitoy naqshida ham uchraydi, sher esa stilizatsiyalangan holda ko‘proq pudelga o‘xshaydi. Xan sulolasidan boshlab, «ajdaho va kaknus», «qush va gullar», «shaftoli danagi va uzum» kabi maxsus naqshlar shoyi gazlamalarda uchraydi.

Ko‘pincha, xitoy xoqonlari saroy ustaxonalarida ishlab chiqarilgan naqshli gazlamalarni qo‘snilariga sovg‘a qilishardi. Misol uchun, Ven<sup>s</sup> sulolasidan (238 y.) xoqon Ming-Ti xitoy saroyiga kelgan elchilar orqali yapon xoqonining xotiniga malina rangli fonda ajdaholar to‘qilgan bes<sup>t</sup> kimxob parchasini hadya etgan.

Kimxob va shoyi gazlamalarning naqshlari asta-sekin shunchalik darajada standartlashgandiki, Sung sulolasasi davrida (960-1279- yillard) ellik<sup>an</sup> ortiq nomlari ma’lum edi: «ko‘p qavatlari saroy va pavilyonlar», «suvdagisi ajdaholar», «bir necha yuz gullar orasida bilanglagan ajdaholar», «ajdaho va kaknuslar», «argus-qirgovul va laylaklar», «toshbaqa kosasining naqsh mavzulari», «dur va guruch donalar», «nilufar va qamish gulsi», «qimmatbaho<sup>sh</sup> toshlarni quvgan medalyonli ajdaholar», «olchalar», «rangli fonda oq gulda<sup>n</sup> kvadrat va medalyonlar», «nilufarlar va toshbaqalar», «uzoq umrning gulli timsoli», «musiqa asboblari», «koptok o‘ynagan sherlar», «suv o‘tlar va o‘ynoqi

baliqlar», «pushti gulxayrining novdasi», «uch sallagul», «tovuslar», «bulutga uchgan yovvoyi g'ozlar» va boshqalar.

Naqshli kimxbob va qalil shoyi gazlamalardan tashqari yumshoq damas va harir gazlamalar shunday tasvirlar bilan bezatilardi. Xoqon Djen-Sugning (1023-1063- yillar) farmoniga binoan, uning bosh kiyimida to'q ko'k harir gazlamadan ajdaho va kalxatlardan medalyonlarni zar bilan to'qib chiqish, ularning oralig'ini burkagan bulutlarni esa ajdaholar bilan to'ldirish lozim edi.

Bu tasvirlar hozirgi vaqtgacha o'z mohiyatini yo'qotmadi. Xitoy to'qimachiligi qo'l dastgohda qadimiylar gazmollarni to'qishardi. Hattoki dastgoh ham o'zgarmadi. Syu-shu va Xan-shu ustaxonalarida chet el mashinalaridan foydalanan man etilgandi.

Xitoy to'quv dastgohi — pang-xoa (gulni tortayotgan) tik qilinardi va unda, odatda, ikki odam ishlardi. Bosh to'quvchi pastda, uning yordamchisi tepada o'tirib, ipining kerakli qismlarini ko'tarib «nabor»larni tortardi va iplarni almashtirishga yordam berardi.

Qadimiylar Xitoy «dehqonchilik va ipakchilik» qo'llanmasida (1210- yil) gulli kimxbob uchun qo'llangan murakkab dastgoh tasvirlangan. Unda tanda ipning ayrim qismlari maxsus iplar bilan biriktirilib, tepaga ko'tariladi va rangli tugma bilan mahkamlanadi. Shunday birikmalar «nabor»lar deyiladi. Tepada o'tirgan yordamchi to'qimachi naborlarning rangli tugmachalarini galma-gal tortadi va tanda ipni ayrim qismlaridan xomuza hosil qilib ko'taradi. Unga bosh to'qimachi kerakli rangli mokini o'tkazadi. Bu usulda juda murakkab ko'p rangli naqshlar ishlanadi.

Qum ostida qolgan bo'm-bo'sh shahar Xara-Xoto devorining yonida mashhur Suburgan qazilmasida (P.K. Kozlov, 1908- yil) xudolar tasvirlangan noyob xitoy gobelenlari topilgandi. Sankt-Peterburg Rus muzeyida namoyish etilgan gazlama namunasida yashil Tara siymosi (98x45 sm) yaxshi saqlanib qolgan, ammo, ranglari o'chgan; tepe va past tomonlarida unga musiqa asboblarda o'ynayotgan dakini tasvirlangan naqshli yo'llar to'qilgan. Uch tomonidan tor naqsh chizig'i o'tgan.

XIII asrning oxirigacha G'arbiy Yevropa o'z to'plamlarida xitoy shoyi gazlamalarini bilmagan. Ammo 1300- yildan boshlab, ular Perudja, Bern va boshqa Germaniya shaharlar rizaxonalarida ko'p miqdorda uchraydi. Yevropaga xitoy gazlamalari oqib kelishi Chingizzxonning vorislari davrida Ilxandin podsholigini tashkil etilganligi bilan izohlanadi. Bu davrda mo'g'ul xosqinchilari chegaralarni yo'qotib, Sharq va G'arb orasida savdo-sotiqni ashkil etishdi. Iskandar Zulqarnayn Yunon san'atiga yo'l ochgan bo'lsa, endi G'arbgaga uzoq sharq gazlamalari, ularning fors o'xhatmalari va ipak tomashyosi kirib keldi.

1304- yilda Perudjda olamdan o'tgan papa Benedikt XI dafn libosi qadimiy xitoy naqshli gazlamasidan qilingan. Bu oppoq gazlamada qalin shoxli o'rta razmerli nilufar to'qilgan. Ishlash texnikasi o'ziga xos qiziqarli bo'lган: rasmning bir tomoni zarlangan tor charm tasmalar bilan to'qilgan, ular yassi bo'lib, shoyida o'rmasdan o'tkazilgan (Rasm 74).

Shunday texnika Xitoydan tashqari boshqa joylarda qo'llanmagan va o'rta asr xitoy kimxoblarining farqlovchi belgisi bo'lган. Shuni e'tiborga olish kerakki, zar yalatilgan charmli tasmalar o'rniga keyinroq qalin zarli qog'oz ishlatilgandi.

Musulmon mamlakatlari bilan Xitoyning birlashgani, gazlamalar naqsh kompozitsiyasi tuzilishida nayzasimon bo'linish kirishda va to'lqinsimon paralell tik o'qlar bo'yicha o'ziga xos stilizatsiyalangan mayda va yirik nilufar gullar kompozitsiyasining tuzilishida o'z aksini topdi (Rasm 75).

Xitoy naqshlar majmuyida o'simlik mavzularidan tashqari hayvon va fantastik dunyo bir necha asrlar bo'ylab shoyi gazlamalarda tasvirlangan. O'ziga xos stilizatsiyalangan tovuslar, kaknuslar, fong-xanglar, sherlar, yoli xurpaygan, changallarini yozgan va qanotini yoygan, ajoyib egilgan holatda naqshlar bilan bezatilgan ajdaholar yorqin va nafis fonnini qoplagan. Masalan, Shtaralzund muzeiyidagi anvon parchasida bo'yniga qo'ngiroq bog'lagan qanotli sherlar egilgan ajdaholarga hujum qilayotgani tasvirlangan. Hayvonlarning oraligi reshyotkali yirik yaproqlar bilan to'ldirilgan, foning qolgan joylari nafis chizilgan to'rsimon gullar bilan to'ldirilgan (Rasm 76).

O'ziga xos mahalliy naqshli gazlamalardan tashqari musulmon mamlakatlari uchun eksport gazlamalar ishlanardi. (Ba'zan, iste'molchining maxsus buyurtmasi bo'yicha). Misorda saratsin qabrlaridan topilgan shoyi gazlamalarida mamelyuk sulton Nazirning ismi yozilgan (1340 y.). Ularda, asosan, o'simlik mavzulari, markazi xitoy yozuvlari bilan to'ldirilgan ilonsimon egilgan qirqma poyalarda nilufar guli tasvirlangan. Zarhallangan yo'llar bilan to'qilgan xitoy kimxoblari musulmon iste'molchilari uchun ishlangandi, bu yerda xitoy uslubiga arab mavzu va timsollari qo'shilganligi seziladi, ba'zilarida esa tegishli yozuv bo'lган (Rasm 77). To'tiqush tasvirlangan zar qora kimxboba qushning yelkalaridagi dumaloq tamg'alarida kuf harflari bilan yozilgan: birida «Muhammad», ikkinchisida — «Dono, adolatli bizning sultonimiz janob Nazir Eddinga shon-sharaflar bo'lsin». Sultanning zamondoshi mamelyuk tarixchisi Abulfido o'z ko'zi bilan ko'rganini yozgan: «1343-yilda mo'g'ul elchixonasi Nazir Eddinga boshqa sovg'alar qatorida 700 to'p kimxobni (avval aytilgan yozuvlari bilan) hadya etdi». Bu kimxobni tadqiqotini quyidagini ko'rsatgandi: xitoy naqshlari — ajdaho, nilufar guli, alangali



75, 76-rasm. XIV asr xitoy kimxobi. Shtralzaund muzeyi.

buddaviy palmetkalar yengil va erkin tasvirlangan, to'tiqush va yozuvlardan esa bezakning umumiy uslubi bilan uyg'unlashgan (Rasm 78).

Regensburgdagi yo'l-yo'l kimxobda uslubning ikkilangani sezildi. Yo'lning birida to'rtburchaklar ichida o'ynayotgan xitoy sherlari, o'rdak va baliqlar «Shon-sharaf va galaba» va «Bizning janob sultonimizga shon-sharaflar bo'lsin» degan arab yozuvlari bilan bezatilgan kvadratlardan sakkizqirrali rozetkalar bilan almashgan. Bu kvadratlardan ko'proq ikkinchi yo'ldagi naqshi xitoy kompozitsiya elementlaridan keskin farqlanadi: reshyotkali turli naqshlar va musulmon ramzlari — yarimoy va yulduz tasvirlangan.

Ichki bozor va eksport uchun ishlangan naqshli shoyi gazlamalar, kimxob va duxobadan tashqari Xitoy o'z gobelenlari bilan mashhur edi. Gobelenlar



77, 78-rasm. XIV asr. Exportga oid xitoy kimxobi.

alohida panno yoki umumiy g'oyani aks ettirgan bir necha alohida kompozitsiya seriyasidan iborat edi. Diniy sahnalar yoki xitoy afsonalari va hayotdan sahnalar, ularning ko'p xilma-xil marosimlari bilan birga, tasviriy mavzulari bo'lgan. Choksiz to'qima rasmi tantanabop kiyimlarni ham gobelenga kiritish mumkin. Ularni kompozitsiyalarida hashoratlар, asosan, gullar bo'lgan. Xitoy gazlamalarida gullar fors yoki saratsin san'ati kabi stilizatsiyalaridan o'zining tabiiy shaklini saqlab qolgan. Xitoy to'qimachilik san'atida, asosan, turli rangli xrizantema va sallagullar tasvirlangan. Odatda, ular boylik va abadiylik timsollari — kapalak va parvonalar bilan tasvirlanardi. Nelumbium (nenyufar) va nilufar, buddaviy limoni, qo'ziqorinlar, bambuk novdalari va orxideya — bu asosiy mavzular to'qimachilik san'atida keng tarqalgan.

Odatdagi gazlamalardan tashqari, Xitoyda yana o'zgacha to'qimachilik san'ati bor — «ko-ssu». Ularda, kompozitsiyaga yaxlitlik berish uchun, ayrim detallari qo'lda chiziladi. Rangtasvir va gobelen orasida turib va xitoyning o'tgan hayotidan olingan sahnalarni tasvirlab, ko-ssu ajoyib yarimgobelen - yarimrasmi zuhur etadi. Ular, asosan, qabulxonalar devorini bezatish uchun qo'llanardi.

To'qima naqshlardan tashqari Xitoyda kashta «xsiu-xua» qilinardi. Bu kashta turiga zar va kumush qo'shilgan rangli ipak iplar bilan qo'lda qilingan har xil kashtalar kiradi. Kashta qilish uchun gazlama maxsus gardishga tortiladi. Tortilgan gazlamani yuzasiga rasm chiziladi. Kashta turlari juda ko'p bo'lgan: ipak ip, shnur, xom ip va turli yassi balyha va tugunchalar bilan kashta qilish usullari ham har xil bo'lgan. Masalan, kashtada balyasi ikki tomonlama qilinsa, rasm ikki tomonidan bir xil bo'ladi, iplarni uchi csa mohirona berkitiladi.

Kashtachilar uchun maxsus kitoblarda yogochdan yasalgan gravuralarda naqshlar keltirilgan, ularda oddiy dekorativ mavzular texnologik nomlari bilan tasvirlangan.

Qadimiylar maxsus dastgohda zar tasmasi ipak ip bilan o'ralardi. Keyinchalik, tasmaning o'rniiga zar yoki kumush sim qo'llanadigan bo'ldi. Shunga ko'ra mandarinning ko'krak tamg'asi - maxsus qush yoki fantastik hayvon - shunday ikki metall ip bilan zikh tikilgani uchun u metall plastinkaga o'xshardi.

To'qima naqsh kabi xitoy kashtasida ham o'ziga xos kompozitsiyalar mavjud, ularning mavzulari qadim zamonalarda rasmiylashtirilgandi. Ularning paydo bo'lishi va evolyutsiyasining tavsifi xitoy san'atining tarixini ta'riflashi mumkin.

Xitoy solnomalarida bayroq, tug' va rasmli kiyimlardagi kashtalar to'g'risida ko'p ma'lumotlar keltirilgan. Ularda kohinlarning kiyimlarini bezatadigan o'n ikki «chang» - ramziy naqshlarning tavsifini uchratish mumkin.

Xoqon liboslardida ham o'n ikki ramz kashta qilinardi, ularning ma'nosi Sung sulolasi davrida (420- yil) berilgan. Ular ming yillab o'zgarmaganligini dalili – xitoyning mumtoz tarixi «Shu-ching»da ifoda etilgan: Xoqon Shung (1644- yil) o'z kiyimlarida ajdodlarning quyidagi emblematik figuralarini ko'rishni xohlaysdi:

1. «Dji» - quyosh, quyosh doirasini ko'tarib turgan bulutlar tizmasi, uni o'rtasida uch panjali qush;
2. «Iyuye-oy» - oy, oy doirasida dasta bilan o'g'irda hayot eleksirini tuygan quyon tasvirlangan;
3. «Xsing, Chen» - yulduzlar, to'g'ri chiziq bilan biriktirilgan uch yulduzlar turkumi;
4. «Shan» - Xitoyda qadimiy zamonlardan ilohiylashtirilgan tog'lar;
5. «Lyung» - ajdaholar, besh panjali, tangachali ikki fantastik mahluq;
6. «Xua-chung» - ikki rang-barang tustovuq;
7. «Sung-yun» - yo'lbars va maymunni zuhur etuvchi qadimiy ibodat idishlari;
8. «Tzyao» - suv o'simliklari;
9. «Xyuo» - alangali jingala ko'rinishdagi olov ;
10. «Fen mi» - medalyon shaklida guruhlangan tariq donalari;
11. «Fu» - oybolta, jangchining quroli;
12. «Fu» - naqsh shakli.

Shunday ramzlarning to'la to'plami faqat bogdixanda bo'lishi mumkin edi. Irsiy aslzodalarga quyosh, oy va yulduzlar ramzlari man etilgandi. Keyingi ikki unvonga tog' va ajdaho ramzlari man etilgandi va h.k. Demak, libosda ramzlar shaxsning ijtimoiy xoli va unvonini ko'rsatgan.

Kiyimdan tashqari igna bilan rasm va dekorativ pannolar kashtalangandi. Qadimiy naqlida Tang sulolasiga mansub (VIII a.) malika kimxob choyshabda uch ming just mandarin o'rdaklarni kashta qilgan, oralig'ini esa noyob gullarning novdasi, yaproqlar va qimmatbaho toshlar bilan to'ldirgan.

Son-sanoqsiz Xitoy manzara tasvirlari; jang sahnalari; ko'p figurali, realistik tasvirlangan hayvonlar, qushlar, hashoratlar va o'simliklar bilan diniy marosimlar manzaralari mahorat bilan ishlangan kashtalar tasvirlari muzeylarda saqlanmoqda, ammo bu san'at turiga oid namunalar saqlanib qolmagan.

Shunga e'tibor berish joizki, gazmol va kashta naqshlari doimo sir va chinni kabi boshqa san'at turlaridan o'zlashtirilgandi.

## Xitoy shoyi gazlamalari

Xitoyda ipakchilik miloddan avvalgi uchinchi mingyillikning oxirida paydo bo'lgan. Avval shoyi gazlama faqat xoqon saroyida ishlab chiqarilardi. Qurt boqish, ipak xomashyosini tayyorlash, uni turli o'simlik bo'yoqlariga bo'yash va gazlama to'qish — bular barchasi katta sir bo'lgan va ibodat marosimlari bilan bog'liq edi. Bu davrda shoyi gazlamadan liboslar tikilmasdi, ulardan bayroqlar va amaldorlarning unvonini aks ettiruvchi soyabonlar qilinardi. Har bir unvonda rasmiylashgan rang qo'llanishi lozim edi: xoqon va uning xotini uchun — sariq rang, boshqa xoqon oila a'zolari — binafsha rang, moviy rang — yuqori harbiy unvonlar uchun, qora rang — uchinchi va to'rtinch darajali zabitlar uchun. Liboslar esa zig'ir va kanop tolasidan va hayvon terisidan qilinardi.

Feodal tuzimida(miloddan avvalgi XII asrda) xoqon saroyidan ipakchilik ayrim feodallarga o'tib, Xitoyning barcha hududlariga tarqaldi. Feodal saroylarida dabdabani rivojlanishi va ular orasidagi raqobat naqshli ipak gazlamalar ishlab chiqarish ko'payishiga sabab bo'ldi, ba'zilari esa zar va kumush ipni kiritib, kimxob to'qishadigan bo'ldi.

Xitoy ajoyib kashfiyat — ipakchilikka yo'l berdi. Kapalagi chiqmasdan oldin ipak qurtining pillasini issiq suvg'a solinardi. Ishlov berish natijasida ip qolardi, seritsin esa issiq suvd'a erib ketardi. Shunday ishlov berish pilladan ipni uzunasi bo'yicha yechib olishga imkoniyat bergen. Ipak i pi texnikaviy tomonidan to'qish uchun eng qulay xomashyo bo'lgani qadimiy xalqlarga ma'lum edi. Iplarni yuqori texnologik sifatlari pishiq tanda va arqoq ipli matoni to'qishga imkon yaratgan. Boshqa qadimiy to'qima matolar (jun, zig'ir, paxta) shoyi gazlama sifatiga teng kela olmasdi.

Xitoy xalqining ajdodlari neolit davrida ipakchilik bilan shug'ullanishgan. Sintsun qazilmasida xitoy arxeologlari toshga aylangan ipak pillasini topishgan.

In-Shan davrining (miloddan avvalgi XV-XI asrlarda) qadim-qadim manbalaridan ma'lumki, ipakchilik aholining asosiy ishi bo'lgan. Masalan, In davriga oid suyak yozuvlarida quyidagi ieroglislar ko'pincha uchragan: «san»-tut daraxti, «tsan»-ipak pillasi, «syu»-ipak ipi, «bo»-shoyi gazlama va turli kiyimlarni belgilaydigan ieroglislar.

Bu davrda to'qish mahorati va texnikasi yuksakligi borasida bronza idishlar qatlamida qolgan shoyi gazlamalarning izlari ma'lumot beradi. Kultivatsiya qilingan ipak qurtlarini iplaridan gazlamalar to'qilgan. Kashtalar izlarini borligi ip va gazmollarni bo'yalgani to'g'risida faraz qilishga imkon beradi.

Gazlama izlardagi iplar o'riliшининг murakkabiligi Xitoyda bundan uch

ming yil oldin juda mukammallashtirilgan to'quv dastgohi bo'lganligini isbotlaydi.

Ipakchilik ilohiga qurban qilish to'g'risidagi ma'lumotlar aholi uchun ipakchilikning muhimligini ko'rsatadi. Suyakdagi yozuvlardan birida quyidagilar yozilgan: «Qurbanlikning sakkizinchи oyida... ipakchilik ilohiga – uch buqa». In yozuvlariga ko'ra afsonaviy xoqon Xuan-dinning xotini Ley-Szu ipakchilik ilohi bo'lgan. Qadimiy dostonlarda Ley-szu ipakchilik homiyi sifatida ishtirot etgan. U odamlarga ipak qurtini o'stirishni va gazlama to'qishni o'rgatgan emish.

In davrida qabrga qo'yiladigan yasama toshdan yasalgan ipak qurtining tasviri ipakchilikning muhimligini ko'rsatadi.

Keyingi Chjou davrining (miloddan avvalgi XI-III asrlar) ko'p adabiy yodgorliklari ipakchilik rivojlangani to'g'risida ma'lumot beradi.

Xan davrida ishlangan topilma-xitoy gazlamalari to'quvchiligi tarixini tadqiqot etishda asqotadigan favqulodda ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotdir.

Ikki davr chegarasida ishlangan ko'p xitoy shoyi gazlamalarini A. Stecyn Sinszyan va P.K. Kozlov Mo'g'uliston arxeologik qazilmalarida topishgan. Ulardan keyin Sinszyanda F. Bergman va Palimirada R. Pfisterni Xan davrida ishlangan xitoy shoyi gazlamalarini topishgan. Shuni eslatib o'tish kerakki, Chjango davrida ishlangan qadim-qadim shoyi gazzollar Pazariq qo'rg'onlarida va Chansha qazilmalarida topilgan.

Bu kashfiyotlar qadimiy xitoy shoyi gazlamalarining ishlab chiqarish texnologiyasini, naqshlarini tadqiq etishga imkon beradi. Bu to'g'risida ko'p ilmiy tadqiqot ishlari yozilgan. Ularning qatorida F. Andryus, A.A. Voznesenskiy, N.P. Tixonov, V.N. Kononov, D. Darrel va O. Nil, R. Pfister, V. Silvan va Simmone ishlarini alohida ta'kidlash mumkin. Ushbu kashfiyotlar qadimiy ipakchilik texnikasi, texnologiya va naqshlarini tadqiqot etishga imkon beradi.

Xan davriga oid barcha ma'lumotlarni xitoy shoyi gazzollarini to'qish usuliga ko'ra bir necha guruhga bo'lish mumkin. Barcha tadqiq etilgan gazlamalarning asosiy xususiyati – tanda ipi to'qima naqsh yaratish uchun muhim edi, arqoq ipi esa – bo'ysungan ahamiyatga ega. Naqshli gazlama to'qishda qo'llangan o'riliш usullari uncha ko'p bo'lmagan. Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida saqlanayotgan xitoy shoyi gazlamalarini o'riliш usuli bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- sidirg'a naqhsiz (tafta va reps);
- kamchat gazzollar (naqshli gazzollar);
- harir (gaz)gazzollar;
- rang-barang (polixrom) gazzollar.

Bir rangli naqhsiz (sidirg'a gazmollar).

Sidirg'a gazmollar Xitoyda eng oddiy shoyi gazlamaning ilk turi bo'lsa kerak. Bu gazlamalarda tanda ipi arqoq ipidan ustunlik qiladi (zichligi 1,5:1 yoki 2:1). Bir rangli sidirg'a gazlamalar qalinligi, tanda va arqoq iplarning sifati, rangi va boshqa xususiyatlari bo'yicha farqlanadi. O'rilib usuli o'ziga xosligi tanda ipining zichligi guruhlarga bo'lishga asos qilib olingan. Ularni ikki guruhga bo'lish mumkin: tafta va tanda reps. Taftaning tanda ipini lsmida o'rtacha zichligi 40-70; repsniki esa - 60-100. Tanda repsni iplarni qalinligi bir xil va zich bo'lganligi bois, odatda, taftaga nisbatan yuqori sifatli shoyi gazlama hisoblanadi.

Davrlar chegarasida ishlangan gazlamalarda tanda ipning zichligi 180 dan yuqori bo'lgani rivojlanayotgan o'rish va to'qish texnika bo'lgani to'g'risida dalolat beradi. Bunga bir necha sabab bo'lgan: qadimiy Xitoyda to'qimachilar yuqori sifatli xomashyoga ega bo'lishgan; ipak ipi eshil-maydi, u egiluvchan, cho'ziluvchan va ingichka. Ipakning bu xususiyatlari boshqa to'qima gazlamalardan (jun,zig'ir, paxta va b.) afzalroq.

Xan davrida xitoyliklar, asosan, yovvoyi ipak qurtining dag'al ipi bilan emas, balki kultivatsiya qilingan qurtning ipidan foydalanishgan. Ipak qurtini boqish In davridan boshlangandi.

To'qish uchun ipni tayyorlash muhim rol o'ynagan. Tozalanish uchun ip avval yuvilardi, ammo tanda iplari yengil siljishi uchun (moki o'tishga homuza yasash uchun) seretsin ma'lum miqdorda qoldirilardi. To'qish uchun ipni tayyorlaydigan qadimiy xitoy ustalarining mahorati to'g'risida «Chjou li» va «Ili» konfutsiylik qonuni kitoblarida Xan omillari sharhlarida bir necha martaba aytib o'tilgan.

### Kamchat gazmollari

Xan davrida Xitoyda kamka eng ko'p tarqalgan shoyi gazlama edi. Sidirg'a gazlamalar kabi kamkani to'qilgandan so'ng bo'yashardi. «Chjou li»ning sharhlovchisi Lyu I - chjun quyidagilarni aytgan: «Ipak iplarni va shoyi gazlamai bo'yash quyidagicha bo'ladi: yuqori sifatli gazlamalar uchun avval xom ip bo'yaladi, keyin to'qiladi, sifati past gazlamalar esa oldin to'qiladi va keyin bo'yaladi».

Sidirg'a gazlamalarni to'qish texnikasining rivojlangani natijasida kamchat gazmollarni paydo bo'lganini, sidirg'a gazmollar singari yaqqol ko'rinxaydigan milkni yo'qligi, naqshlarni tafta va reps foni ko'rsatadi (tanda ipi bir necha arqoq ipi ustidan o'tilgani natijasida naqsh hosil qilinadi).

Kamka Xitoyda qadim-qadim zamonalarda ishlanardi. Ermitajdagi

namunalar tadqiqoti Xan davrida kamchat gazmollar to'qilishida sarja o'riliish usuli qo'llangani isbotlaydi. Qadimiy gazlama namunalarida naqsh tanda emas, arqoq i pi yordarnida hosil qilingan. Masalan, gazlamaning birida bir arqoq i pi klassik sarja o'riliishda naqshni hosil qiladi.

### Harir gazmollar

Qadimgi yozuv manbalarda harir gazmollarini qadimiy Xitoyda bo'lgani to'g'risida ma'lumot berilgan. Harir gazmollar bo'yicha ma'lumot qadimiy klassik kitoblar «Li szi» va «Szo Chjuan»da berilgan.

Noin-ula va Ilmov jarlikda ushbu gazmollarning namunalari topilgan. Ishlab chiqarish texnikasiiga binoan ularni uch guruhga ajratishgan:

- oddiy polotno o'riliishda ishlangan gazmollar, ular iplar siyrakligi va yupqaligi bilan reps va tafta gazmollaridan farqlanadi, tandai pini bir yoki ikki berdoning tishini ustidan o'tkaziladigan iplar joylanish sistemasi qo'llangan;

- oddiy ko'z-ko'z, naqshsiz o'riliish ikkita tanda i pi bilan qilinadi, asosiy tanda i pi arqoq i pi bilan almashib, odatiy polotno o'riliishni hosil qiladi, ikkinchi qo'shimcha tanda i pi asosiy ipga o'ralib, ko'zni (yachey-kani) hosil qiladi;

- ko'z-ko'z texnikasi rivojlanish natijasida murakkab ko'z-ko'z o'riliish hosil bo'lgan, bu usulda tanda iplar qo'shaloq yurib, bittasi ikkinchisini o'rab oladi, ushbu o'riliish natijasida naqsh va gazlama pishiqligi yaratiladi.

### Naqshli rang-barang (polixrom) gazmollar

Xan davrining polixrom gazmollari eng qiziqarli guruhni tashkil etadi. Polixrom gazmollari Xan davridan ancha oldin Xitoyda ishlab chiqarilardi. Qadimiy «Shi szin»da (miloddan avvalgi IX-II asrlarda) naqshli gazmollarni ishlash to'g'risida aytib o'tilgan: «To'qimachi yaxshi iplarni va chiroyli ranglami biriktirib, shoyi parchasini to'qidi, naqshlari esa qimmatbaho chig'anoqni chiziqlariga o'xshaydi». «Shi szin»ning «Yuy chon» bo'limida Shimoliy Xitoy hududlaridan xoqonga soliq sifatida kauri chig'anoq naqshli shoyi gazlama berishgani aytildi. Polixrom gazlama ishlab chiqarish texnikasining rivojlanishi to'g'risida qadimiy Xitoy qonun-qoidalar kitoblarida ushbu shoyi gazlamaga tegishli ko'p atamalar keltirilgan. Chou davrida (miloddan avvalgi YIII-I asrlar) shoyi gazlama ishlab chiqarish texnikasi yuqori darajada bo'lgani to'g'risida «Chjou li»da texnologik jarayon batatsil tasvirlangani dalolat beradi.

Xan davriga oid polixrom gazlamalari bir xil texnika – «armure Han»da ishlangan. Noin-ula qazilmadagi gazmollar garnitur yoki polotno o'riliishlar

hosilasi ekanligi aytildi. Naqshni rangli tanda iplari hosil qilgan. Qadimiy Xitoy ustalari o'riliish usulini murakkab, ko'p rangli tanda iplarni qo'shishgan. Arqoq iplari esa bir xil rangda bo'lib, faqat ikki yordamchi tanda iplari bog'lagan, ishlagan va ishlamagan tanda iplarni orasidan o'tib, naqsh hosil qilgan. Tanda ipi uch arqoq ipni ustidan o'tib, to'rtinchisi ipni ostiga kirgan. Gazmolni o'ng tomonida bitta tanda ipi o'tgan, qolganlari esa teskarisiga o'tgan.

Ushbu usulda to'qilgan gazlamalarni tanda ipni miqdoriga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin:

- ikki tanda ipli gazlamalar ikki tomonlama, teskarisi esa rezerv yordamida qilingan;

- uch tanda ipli gazlamalar, bu gazlamani o'ngida bir tanda ipi ko'rindi, qolganlari teskarisida o'tgan, naqsh hosil qilish uchun kerakli rangli tanda ipi o'ngiga chiqadi, ishlamaganlari esa — teskarisiga;

- to'rt tanda ipli gazlamalar, bu gazlamalar o'riliish sxemasi ikki tanda ipli gazlamalarga o'xshaydi, farqi shundaki har bir tanda ipning turli qismlari to'rt xil rangga bo'yalgan va usta 4 rangga bo'yalgan ikki tanda ipli bilan kombinatsiya qilib, to'rt rangli naqshni hosil qiladi.

Xan davridagi polixrom gazlamalari bo'rtma naqshli bo'lgan. Bu holda to'qima naqsh kashtalangan naqshga o'xshar edi.

Noin-uladagi gazlama oddiy polotno o'riliishda to'qilgan. Naqsh tanda iplarni almashishi bilan hosil bo'lgan. Ikkita tanda va bitta arqoq ip yordamida gazlama to'qilgan.

### Kashta

Kashtalangan gazlamalar ham Qadimiy Xitoya ishlanardi. Si knyazligi gazlama va kashta bilan xoqon saroyini ta'minlagan.

Kashtalangan gazlamalarning to'qima naqshlari bilan uzviy bog'liqligi yaqqol ko'rindi. Bu o'xhashlikni faqat naqsh mavzusidagina (bulut tasmalari yoki stilizatsiyalangan qush-ajdaho) emas, balki naqsh rapporti borligi bilan oydinlashadi.

Kashta uchun fon sifatida turli (jigar, qo'ng'ir va b.) reps va tafta olingan. Ko'pincha, kashta bo'yalmagan fonda qilinardi, chunki neytral, och-qum rangli kashta uchun juda qulay fon bo'lgan. Kamchat gazmollari kamdan-kam fon sifatida qo'llanilardi.

Yuqori mahorat bilan ishlangan kashtalar odamni lol qoldiradi. Usta gazlama yuzasini murakkab naqshlar bilan to'ldirgan. Asosan, naqsh zanjir kashta bilan qilingan. Zanjir chokining uch turi qo'llangan. Choklarning qatorlari turli yo'naliishda o'tgani uchun fon zichroq to'ldiriladi.

Ayrim kashtalarda poyasimon banya va nuqtali tagdo'zi texnikasi qo'llangan.

### **Qadimiy Xitoya gazlamani bo'yash usullari**

Qadimiy gazlamalar texnologiyasi tadqiqotida bo'yoqlar va bo'yash usullari muhim ahamiyatga ega.

Qadimiy Xitoy mumtoz kitobi «Chjou li»da Xan davridagi omillar sharhlarida gazlama bo'yash to'g'risida to'liq ma'lumot berilgan. Bu kitobdag'i ma'lumotlar quyidagicha bo'lgan:

- ipni bo'yashga tayyorlash;
- qo'llangan bo'yoqlar;
- bo'yash jarayoni.

Ipak ipining bo'yashga tayyorlanishi to'rt bosqichdan iborat: yuvish, qaynatib olish, oqartirish va kimyoviy usulda ishlov berish. Pilla chuvalangandan so'ng, uni yuvishadi, ipak tozalanib, oq rangli bo'lardi. «Chjou li»da berilgan ma'lumot bo'yicha: «Qaynatuvchilar ipak i piga issiq suv bilan ishlov berishadi. Ular tozalangan suv bilan ipni yuvishadi. Yetti kundan so'ng yer chuqurligida (25 sm) va oftobda ipni quritishadi. Kunduz iplar oftobda quritiladi, kechasi esa ularni quduqqa qo'yishadi. Aynan shu jarayon ipakni suv bilan yuvish deyiladi». Bu muhim operatsiyaga Xan davridagi sharhlarda qo'shimcha izoh berilgan: «yuviladigan suv kul bilan tozalanadi; bir «chi» chuqurligida yer qazilish kerak, chunki chuqurligi e'tiborga olinmasa, issiq havo ipni o'ta quritib yuboradi. Bu holda ularni rangi ketib, ya'ni ko'rinishi yo'qoladi. Ipakni yuvish jarayoni qaynoq suv bilan emas, balki issiq va sovuqni almashishi bilan bo'ladi».

Iplar yuvilgandan so'ng ulardan bir rangli gazlamalar (tafta, reps, kamka, gaz, krep) ishlanishi mumkin. Agar iplar polixrom gazlama uchun mo'ljallansa, ular qaynatiladi va qo'llanadigan bo'yoqqa ko'ra kimyoviy ishlov beriladi. Bo'yashdan oldin sidirg'a gazlamalarga ham shunday ishlov beriladi.

Daraxt «lyan»ning kuli qo'shilgan suvda ipak qaynatiladi va tozalanadi. Mao Yan-szin sharhida ushbu jarayonda daraxt kulini qo'llash zarurligini ta'kidlaydi: «Xom ipak pishgan bo'lishi uchun «lyan» daraxtining kuli qo'llanadi». So'ng ipak oqartiriladi. «Chjou li» bu jarayonni quyidagicha ta'riflaydi: «Keyin (qaynatuvchilar) ipakni idishga solishadi va u yerda ipak iviydi. Ular ipni oqartirish uchun chig'anoq «shen»ning poroshogi bilan sepib qo'yishadi. Poroshok o'tirgandan so'ng ipak qoqib tashlanadi». Ipak

qurigandan so'ng, yaxshiroq oqartirish uchun ohak poroshogi sepilib, kechga qoldiriladi. Ertangi kunda i pakni yana ivitilgandan so'ng quritishadi.

Qaynatishni yakuniy bosqichi yuvish ishlovi bilan o'xhash: «Kunduzi i pak ostobda quritiladi, kechasi quduqqa tushiriladi. Bu operatsiya yetti kun davom etadi. Bular barchasi i pakni bo'lakda yuvish deb hisoblanadi».

Ipakni bo'yashdan oldin kimyoiy ishlov berilish to'g'risida ma'lumotlar shunday batafsil berilmagan. Ma'lumotlarga ko'ra bu jarayonda achchiqtosh va temir kuporosi qo'llanilgan.

Chjou va Xan davridagi adabiyotlarda bo'yoqlar to'g'risida ko'p ma'lumotlar berilgan. Xitoyni barcha davriga oid eng ko'p qo'llangan bo'yoq indigo bo'lgan. «Be lu» ensiklopediyasidagi ma'lumotlarga ko'ra uni ba'zi o'simliklar (Indigofera Tinctoria, Isatis Tinctoria, Polygonum Tinctoria) poya va yaproqlaridan olishardi. Ilk bor indigo to'g'risida ma'lumot «Shi szin»da berilgan: «Men ertalabdan indigo terdim, ammo etagim to'lmadi». «Li szi»da aytilgan: «Yozning ikkinchi oyida bo'yash uchun indigo terish aholiga man etilgan (chunki uni terish vaqt kelmagandi)».

Sariq rangga bo'yash uchun plantatsiyada ekiladigan «chji szi»ning mevasi (Gardenia florida) va baxmal daraxtining po'stlog'i «bo» qo'llangan.

Gazlamani qora rangga bo'yash uchun «Er ya» ensiklopediyasi ma'lumotiga ko'ra o'simlik «shu vey»ning poyasi (Salvia) va yaproqlari, xitoy bolutning cho'chqa yong'og'i «syan dou» va «in bey» qo'llanilgan.

Yashil rangli bo'yoqlar to'g'risida ma'lumot yo'q, chunki yashil rang qadimiy Xitoyda asosiy ranglar toifasiga (oq, qora, qizil, sariq, ko'k) kirmagan. Yashil rang hosila rang bo'lgani bois, oraliq rang hisoblangan va rang ramzlarida ishlatilmagan. Ammo «Er ya»ga ko'ra gazlamalar yashil rangga bo'yalardi.

Qizil rangni nozik turlariga bo'yash uchun ro'yanning tomiridan olinadigan krap bo'yog'i — «Mao guy» qo'llanilgan. Qadimiy Xitoyda indigo qatorida ro'yan bo'yoq sifatida qo'llanadigan o'simlik edi.

Xan davri oxirida ro'yanning o'rniiga maxsar «xun xua» ishlatiladigan bo'ldi. Bu o'simlik miloddan avalgi II asrda G'arbdan kelgan. «Yun lu man sha»ning ma'lumotiga ko'ra: «O'simlik «xuan lan»ni (masxaraning boshqa nomi) Chjan San olib kelgan va Xitoyda tez tarqatgan». Ko'p asrlar davomida uni ekishardi va mevasini olishardi. Quritilgan holda ular i pakni bo'yashda qo'llanardi.

O'simlik bo'yoqlardan tashqari mineral bo'yog'i kinovar (HgS) ham qo'llangan.

O'simlik bo'yoqlar bilan bo'yash operatsiyalari xitoy manbalarida

yozilmagan. «Chjou li»da faqat bo'yash vaqtı aytılğan. Yozda gazlamalar och va to'q qızıl rangga, kuzda esa barcha ranglarga bo'yalardı. Demak, yozda kinovar bilan, kuzda esa o'simlik bo'yoqlar bilan gazlamani bo'yashgan.

«Chjou li»ning ko'rsatması bo'yicha bo'yash uchun eritma bahorda tayyorlanishi kerak. So'ng kinovar qızıl jo'xori bilan ivitiladi. Uch oydan so'ng bu aralashmani qaynatishadi va gazlamani bo'yashadi. Kerakli rangga bo'yash uchun gazlama bir necha marta bo'yaladi, bo'yoqlar o'zgarishi mumkin. Bo'yash bir kecha va kunduzda bo'lmaydi, shuning uchun bo'yash jarayoni asta-sekin boradi.

«Er ya» ma'lumotiga ko'ra: «Bir marta bo'yashdan sariq-qızıl rang, ikki martadan — och shafaq rang, besh martadan — to'q qirmizi va yetti martadan — qora rang hosil bo'ladi».

Qadimi Xitoy tilida ranglarning ko'p atamalari bo'lgani ranglar ramzi mavjudligini isbotlaydi. Barcha xitoy sulolalarida o'z ramziy rangi bo'lgan, kiyim rangi lavozimini yoki unvonini ko'rsatadi va h.k. Chjen E gazlamani kerakli tusga bo'yashning muhimligini ko'rsatgan: «Har bir rang asosiy elementi va o'z sababiga ega. Ranglar o'zaro bog'langan va ramzlar bo'yicha biriktirilgan. Shuning uchun ipak har xil rangga bo'yaladi. Qanday qilib bularning barchasini adashtirish mumkin?»

### Naqsh turlari

Gazlamani naqshiga ko'ra bir necha guruhga bo'lish mumkin:

- meandr va uchburchaklar, xoch va palmetkalar;
- rombsimon naqshlar, ular, ko'pincha boshqa geometrik rasmlar bilan qo'shilgan, ba'zan, rombsimon naqsh ichiga yoki burchagiga qushlar kiritilgan (Rasm 79);
- qush-ajdahoning turli stilizatsiyalangan variantlari (Rasm 80-81);
- «bulutsimon» naqshni har xil turlari (Rasm 82.83);
- astral elementlari: quyosh, oy, yulduzlar (Rasm 84);
- olov, donlar, jingalalar, o'simliklar (Rasm 85-87);
- va h.k. (Rasm 88,89).



79, 80-rasm. XVIII asr oxiri - XIX asr boshi. Xitoy shoyi gazzmollari




81, 82-rasm. XVIII asr oxiri - XIX asr boshi. Xitoy shoyi gazzmollari



83, 84-rasm. XVIII asr oxiri - XIX asr boshi. Xitoy kimxobi.



**85,86,87-rasm.** XVIII-XIX asr boshi. Xitoy kimxobi.



**88,89-rasm.** XVIII-XIX asr boshi. Xitoy shoyi gazlamasi.

### Nazorat savollari.

1. Xitoy qanday gazlamaning vatani?
2. Shoyi to'qish usullari qanday bo'lgan?
3. Xitoyda ishlangan gazlama turlari.
4. Naqsh mavzulari va ularning ramzları.
5. Kamchat gazmollarini ta'riflab bering.
6. Polixrom gazmollarini ta'riflab bering.
7. Harir gazmollarini ta'riflab bering.
8. Kashtalangan gazmollarini ta'riflab bering.
9. Gazmollarini bo'yash usullari.
10. Xitoy i'pakchilik san'atining dunyoga ta'siri qanday bo'lgan?

## Yaponiya gazmollari

Qirq asr davomida Xitoy dam-badam mustaqillikni yo'qotgan. Son-sanoqsiz inqiloblar, sulolalar va din ta'lomitlari o'zgarishi badiiy madaniyat asarlarini va birinchi navbatda turli gazmollarni yakson etgan, Yaponiya ibodatxonadagi xazinalarida va fuqaro kolleksiyalarida ko'plab qadimgi zamon xitoy gazmollarinini ardoqlab saqlagan. Ular Yaponiya san'atida dastlabki material sifatida qo'llangan. Mo'g'ul asli jangovar qabilalar, «kunchiqar» orolidan ilk sohiblarini chiqarib yuborib, miloddan avvalgi VI asrgacha o'z san'atini yaratmagan.

Yaponiyada san'at rivojlanishiga faqat Xitoy sababchi bo'lgan. Chunki ular ipak qurtini o'stirish sirlarini, ipakka ishlov berishni va xilma-xil gazlamalarni to'qishni o'rgatishgan. Buddizmni Yaponiyada joriy etilishi, bu dinga taalluqli san'at elementlarini kirishiga ham Xitoy sababchi bo'lgan.

Ilik davrlardan Yaponiya san'ati faqat aslzodalar – samuraylarniki bo'lgan. Kurash jarayoni va aslzoda urug'larini ko'tarish Yaponiya san'ati uchun va uni rivojlanishiga, boshqa mamlakatlarga nisbatan, muhim rol o'ynagan. Hukmron va hokim sinflarni rassomlarga vasiylik qilishi Yaponiya tarixida ko'zga yaqqol tashlanadi. Xoqon Sunko (593-628 yy.) mahkamasida rassomlar uchun olti qoidalar tuzilgandi:

- 1) rassomning qalbi asarga hayot beradi;
- 2).g'oya mo'yqalam bilan namoyon bo'ladi;
- 3) har bir buyum shaklini ruhiga ko'ra tasvirlash kerak;
- 4) buyumlar ranglari o'zaro uyg'un bo'lishi kerak;
- 5) kompozitsiya avval fikrda aniqlanishi lozim;
- 6) mashhur rassomlarga taqlid qilganda, ularning ruhi bilan his qilish darkor.

Yaponiya rassomlarining ushbu qoidalarga rioya qilishi muayyan natijaga erishishga olib keldi.

Xitoy rassomlari gazlamada turli usulda rasm solishni o'rgatgani uchun, yapon gazmollariga xitoy naqshlari ta'siri bor edi – gorizontal bo'linish, meandrlar, svastika, ajoyib egilgan va chirmashgan naqsh mavzulari, o'simliklar, hashoratlar, real hayvonlar va fantastik mahluqlar.

Yaponlar turmush tarziga ko'ra naqshli gazlamalar faqat libos uchun qo'llangandi. Dekorativ mebel uchun gazlamalar juda kam uchragandi, chunki Yevropa turdag'i mebel yapon uyida kerak emasdi. Barcha Yaponiya gazmollari kiyim mo'ljaliga ko'ra bezatilardi. Yelkasiga erkin tashlangan «utikake»ga, ustki ko'yak – «uvagi»ga nisbatan, mutlaqo boshqa naqsh

qilinardi. Ayollar libosining asosiy bezagi keng belbog' — «obi» (uzunligi odatda 4 m bo'lgan) gazlamasining naqshi, kimonoga nisbatan, maydaroq bo'lib, rangi yorqinroq qilinardi.

Oddiy kiyimlar uchun ishlanadigan gazlamalardan tashqari, maxsus serhasham gazlamalar lirik dramalar — «no» (ni-isho) teatr kostyumi uchun to'qilardi.

Ularning qatoriga har bir maxsus naqshli donalab ishlanadigan buyumlarni qo'shish mumkin. Buddizmga oid diniy marosimlarda yelkaga tashlanadigan to'rtburchakli maxsus yopinchiq — «keza» shularning qatoriga kiradi. Bu qimmatbaho yopinchiqlar har xil rasmi alohida kimxob bo'laklaridan tikilardi yoki maxsus ishlansa, uning naqshi har xil kompozitsiyalardan tikilgandek tuyulardi; ibodatxonada osilgan dekorativ bayroqlar - «xata», ibodatxonaning ichi boshqa dinga sig'inganlarga ko'rinnmasligi uchun maxsus drappirovka va pardalar; poynagi fil suyagidan tayoqqa o'ralgan uzun panno — «kikemono» edi. Boshqa marosimlarda ular yozilib, devorga osilardi. Hadya qiladigan sovg'ani o'rash uchun maxsus gazlama — «fukuza»da erkin kompozitsiya tasvirlanardi. Odatda, fukuzaga yelpig'ichlar solingen qutichalarni, dorilar solingen sandiqchalarni, shirinliklar solingen qutichalarni va boshqa hadyalarni o'rashardi.

Xitoy ustalari rahbarligida ishni boshlab, yaponlar VII asr oxirida to'qimachilik san'atida katta yutuqqa erishgandi. Rang-barang ipak iplari — «ni shi»dan shoyi gazlamalari va shoyi «damas» - «ayya»ga hattoki Xitoyda ham talab katta bo'lgan.

Ibodatxonada Xoriushi xazinasida saqlanayotgan gazlamalar naqsh tarkibi va koloriti bo'yicha kopt yoki Sosoniy naqshlarni eslatadi.

To'qima va bosma naqsh (Rasm 90) ishslash qatorida kashtachilik ham rivojlangandi. Shu-gyu-dji monastridagi jannat tasvirlangan pardasi bu san'atning eng mashhur asari hisoblanadi. Shahzoda Shatoku-Taishini xotirasiga bag'ishlangan.

Tempio davrida (729-749 yy.) gazzmallarni bezash san'ati bo'yicha katta samaraga erishildi. Bu davrda to'qimachilik sanoatida,



90-rasm. Shahzoda Shatoku-Taishi tasviri tushurilgan parda

barcha usullarni qo'llab, gazlama to'qish, bo'yash va bezashda yuqori darajaga erishilgan. Naqshli to'qmachilikda chiroyli gazlamalarni ishlab chiqarish san: «*shi-zoin, koneshi va shiborizome*». Rasmlarning chetlari iplar bilan o'ralgandek rangli fonda ajralib turgan.


Bu davrdagi bosma gazlamalari avval «*kayoxeki*» keyin «*itadjime*» deb nomlanardi. Ularning naqshi yog'och qoliplar bilan solinardi. Tempio davridagi bosma naqshli gazlamalar yuqori mukammalligi bilan ajralib turdi va ularni ishlash usuli hozirgacha o'zgarmadi (Rasm 91-93).

Bu usullardan tashqari VIII asrda batikka o'xshagan «*rokexi*» usuli (Rasm 94) bo'lgan. Bu usulda batikdek eritilgan mum bilan bo'yalmaydigan joylarini qoplab, ajoyib natijalarga erishishgan. Ishning qiyinchiligi va kam samaradorligi uchun Yaponiyada rokexi usuli ming yildan ko'proq muddatda qo'llanilmaydigan bo'ldi. Ammo, Tempio davrida bosma — «*kayokexi*» va batik — «*rokexi*» baravariga qo'llanib, rangtasvir bilan raqobatlashgan va gazlamada ajoyib san'at asarlarini yaratishgan. Yodgorlik sifatida shoyida bu usulda solingan bir butun rasmlar, pardalar «*biobu*»da qolgan. Dekorativ vazifalarni yechish va ishslash texnikasining ajoyib mukammalligi biobuni yapon san'atini o'ziga xos asarlari safiga kiritdi.


Tempio davri tugagani bois qo'shni mamlakatlar bilan aloqa susaygardi va 850- yilda umuman uzilgandi. Tashqi ta'sirlardan berkitilgan mamlakatda san'at faqat milliy ruhda rivojlangandi.

Ashikaga davrinining ikkinchi yarmida (1337-1573 yy.) va Xideoshi davri da (1573-1868 yy.) Yaponiyada teatr tomoshalari, shu jumladan, No-liri dramalar ravnaq topdi. Shu asnoda serhasham dekorativ gazlamalar ishlab chiqarishga jiddiy c'tibor berildi. Izumi viloyatining Sakai bandargohi shunday gazlama ishlab chiqarish markazi bo'ldi. Bu yerda xitoy ustalari yaponlariga to'qimachilik va naqsh san'atini va ishlab chiqarish usullarini o'rgatdilar. Ilk bor yaponlar «*kin-ran*» - zarli kimxbobi va «*karaorinishiki*» (nishiki - i pi erkin tashlangan xitoy gazlamasi); «*donzu*»; «*suzure-nishiki*» - gobelenniing maxsus turini ishlab chiqaradigan bo'lishdi - shoyi kimxbobning maxsus turini (faqat no-isho uchun qo'llangan); atlas — «*shuzu*». Bu yangi gazmollarni barchasida xitoy ustalari ispan va golland texnikasini qo'llashgan.


XIV asrdan boshlab, gazlama ishlab chiqarish markazi Kioto bo'ldi. Bu shaharning Nishindjin kvartalida eng yaxshi to'qish va naqsh bosisi shustaxonlari joylashgandi. Kioto gazlamalarining mashhurligiga asos bo'ri. Yaponianing mohir rassomlari yaratgan go'zal kompozitsiyalarida yuqori texnika qo'llanilgan. Bu gazlamalar to'qimachilik sanoatning mashhur asari bo'lgan.



91-rasm. XX asr. Yaponiya bosma naqshli gazlamalari.




92-rasm. XX asr. Yaponiya bosma naqshli gazmollari.




93-rasm. XX asr. Yaponiya bosma naqshli gazmollari.



94 (a,b)-rasm. XX asr. Naqshi Batik usulida  
ishlangan shoyi gazlama.



95-rasm. XIX asr. Naqshi  
«Yudzen-dzome» kashta usulida  
qilingan gazlama.



96-rasm. XX asr. Naqshi  
«Iris va kapalak» usulida qilingan  
gazlama.

Nara davrining badiiy hunarmandchiligidagi eng yuksak rivojlangani to'qimachilik san'ati bo'lgan. VIII asrdan XVI asrgacha Yaponiya shunday taraqqiyotni bilmagandi. To'qimachilik san'ati misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Bunga Xitoydan kelgan texnik usullarning o'zlashtirilishi ham sabab bo'lgan. Yaponiyaga Xitoydan ko'p to'quvchi, bo'yoqchi va kashtachilar kelib, Yaponiya fuqaroligini qabul qilishgandi. Mahalliy hunarmandlarga texnik malaka va sirlar qatorida ko'p naqsh shakllarini berishgan.

Saqlanib qolgan nara gazlamalarining namunalari juda ham xilma-xil bo'lgan: «nisiki» - rang-barang naqshli kimxbob, «ra» - nafis harir shoyi, «aya» - qalin naqshli shoyi bosma yoki trafaret yordamida bo'yangan gazlamalar, batik, turli kashtalangan gazlamalar.

Bu davrning eng qimmatbaho va serhasham gazlamasidan biri – nozik rangli gullar qatori, to'q moviy yoki qizil fonda stilizatsiyalangan tillazaytun nilufardan yirik rozetkalar yoki markazida qaqnus joylangan gulchambarlardan murakkab naqsh to'qilgan kimxbob bo'lgan.

To'qimachilik san'atining eng yuqori yutuqlari – bu gazlamalarni bo'yash usullari: trafaret yordamida, bosma, batik, qisish yoki bog'lash yordamida bo'yash.

Trafaret yordamida bo'yalganda naqsh o'yilgan ikki ingichka taxta orasiga bir necha qatorga taxlangan gazlama qisiladi. O'yiqlarga bo'yoq surtiladi. Syossoning xazinasidagi daraxt va ikki bug'u tasvirlangan parda shunday usulda ishlangan. Gazlama taxtalangani uchun naqsh doimo simmetrik bo'ladi. Daraxt yashil, bug'ular qizil, qoyalar ko'k bo'yoq bilan ishlangan.

Batik usulida bo'yalganda naqshni mum bilan qoplab, gazlamani bo'yashardi, mum olib tashlangandan so'ng, naqsh oq bo'lib qolardi. Syosson kolleksiyasidagi fil va daraxt tasvirlangan parda shu usulda ishlangan.

Qisish yoki bog'lash usulida bo'yash keng tarqalgandi. Bu usulda naqsh sal yoyillardi. Qisish kombinatsiyalari yordamida bir necha rangga bo'yangan murakkab rang-barang rasm yaratildi.

Yog'och taxtalardan bosilgan naqshlar ham Nara gazlamalarida uchraydi.

Bu barcha gazlama bezatish usullari kiyim uchun gazlamalarda, budda monastir va ibodatxonalarini bezatadigan dekorativ gazlamalarda qo'llangan.

Bayroqlar, choyshablar, qo'lyozma uchun g'iloflar kashtalangan gazlamalar qatorida kimxbob va shoyidan qilinardi. Qimmatbaho gazlamalar saroyda, asosan, marosimlar va tantanali kiyimlar uchun qo'llanardi. Podsho saroyidagi aslzodalar va amaldorlar kiyim bichimi va rangi ular unvonining belgisi bo'lgan. Yaponlar rasmiy kiyimi xitoylarnikidek bo'lgan. Bu 701-yildagi kodeksda qayd qilingan. Unga ko'ra uch turdag'i liboslar bo'lgan:

marosim uchun, saroya oid va amaldorlar uchun. Keyinchalik, saroy liboslaridan yapon milliy kostyumi rivojlangandi.

Xeynan davrida odamlar o'zini tashqi muhitning bir qismi deb his qilishi kostyumida o'z aksini topgandi. IX-XII asrlarda Nara davridagi to'qimachilik san'atining murakkab va xilma-xil sirlari deyarli yo'qotilgandi.

IX asrda turli gazlamalarni ishlab chiqarish davom ettirilgan – kimxob, naqshli shoyi, bosma naqshli gazlamalar va batik.

Ammo, liboslar qiyofasi tobora o'zgargani sari yirik naqshli gazlamalar o'rniga nafis ranglar kirdi.

Tan Xitoydan o'zlashtirilgan Nara davridagi saroya oid marosim kiyimlari jiddiy ravishda yaponlashib, milliy kostyum «sokutay»ga aylandi va hozirgacha saroyda eng murakkab tantanali kostyum sifatida qo'llanadi. U ko'p qismilaridan iborat edi, eng asosiyilari – keng yengli ustki ko'yak, keng ishton «xo» va maxsus bosh kiyim bo'lgan. Sokutayga munosib ayollar ko'yagli «dzynixitoe» (o'n ikki qavatli ko'yak) turli rangli ichki ko'yaklar va uzun taxlamli ustki ko'yakni ustidan belidan mahkamlangan yubkadan iborat edi. Ko'pincha, ustki kiyimni yupqa nimharir gazlamalardan qilinardi, uni ichidan ichki ko'yakning naqshi ko'rinaldi. Kundalik kiyim «nosi» (erkaklarniki) va «koutigi» (ayollarniki oddiyroq) bo'lgan.

Xeynan kostyumni ifodasining asosi, ayniqsa, ayollarniki, ko'p taxlamali murakkab shakl cmas, balki ansamblning koloristik yechimi bo'lgan; ularga o'zgacha maxsus nom berishgan. Misol uchun, «qarag'ay qatlami» (besh ustki kiyimdan ikkitasi to'q-qizil, ularning ostidagi sarg'ich-ko'k va icni ko'yagli malina rangida). Dam-badam saroyda libosni har bir qismining gazlama rangi nozikligi va go'zalligi bo'yicha musobaqa o'tkazishardi. Turli rangli birikmalariga gul yoki meva nomi berilardi: oq va binafsha rangning birikmasini – olxo'ri, pushti va yashilni – shaftoli, oq va och pushtini – sallagul, ko'k va yashilni – qo'ng'iroqguli. Rang gammasi faslga mos bo'lishi lozim edi.

Gazlamaning koloriti kiyimda muhim bo'lgani to'qimachilik san'atiga ta'sir etti. Yirik naqsh deyarli yo'qoldi. Yo'l-yo'l va mayda geometrik naqshli gazlamalar avvalgidan ko'proq targaldi.

Bo'ynida kiyiladigan tumorlar g'ilofi, asosan, kimxobdan qilinardi. Ayolar rasmiy ko'ylagining keng yubkalarini kashta, oltin va kumush plastinkalardan aplikatsiya bilan va ba'zan, mo'yqalam bilan rasm solib bezatishardi.

Xeynan davriga nisbatan XIV-XV asrlarda kostyum ancha o'zgardi. Past tabaqalar kiyimini yuqori tabaqalar kiyadigan bo'ldi. Serhasham ko'p qavatli kiyimlarni esa faqat marosimlarda kiyishadigan bo'lishdi. Avval ayolar, keyin erkaklar kiyimining asosiy turi «kosode» bo'ldi. Shunday qilib,

Muromati davridan boshlab, hozirgi zamongacha kostyum bir yo'nalishda rivojlangan: bir xil shaklda naqshni xilma-xilligi, naqsh mavzusi esa shaxsning unvonini, mavsum kiyimi nimaga mo'ljallanganligini ak ettirardi.

Muramoti davrining oxirida kosode keng tarqalgan va «*katasuso*» (kata-yelka, *suso* - tizza) – ko'yakning tepe va past tomonida bezagi bo'lgan. Misol uchun, No teatr aktyorining kostyumi tagdo'zi usulida turli gullar kashtalangan va zarqog'oz parchalari mohirona naqshga kiritilgan. Keyinroq kostyum butunlay bezatilgandi, ammo turli mavzuli xilma-xil rangli seksiyaga bo'lingandi. Liboslar naqshlanganda ularning ko'rinishi albatta inobatga olinardi. Misol uchun, qiya, uzun tishli va mayda gul naqshli libos figurada aylana harakatni ifodalardi va osoyishta, mayin harakat qiladigan rollar uchun mansub emasdi. Erkaklar roli uchun libos «atsuita»ning rangli yechimi nogahoniy va dadil edi. Libos ikki kontrast bo'limdan iborat edi – to'q qizil va oltin ranglardan. She'r satrlari qizil qismida oltin ierogi flar, oltin qismida – qizil rang bilan yozilgan. Belgilar takrorlanmasa ham, ularning joylanishi kostyumga ritmik ko'rinish baxsh etadi va shunday kontrast bo'sa ham, muvozanat hosil qilardi.

XVII asrdan boshlab, bora-bora kiyim naqshida yangi rangtasvirga oid uslub paydo bo'ldi. Rassom mo'yqalam bilan rasm yuzasida chizilganday, gazlama shartli yuzadek hisoblanib, bezak yordamida naqshlanadi. Bu holda gazlamaning bo'sh joylari fon sifatida qoldiriladi. Oq va qirmizi binafsha fonida bambuk tasvirlangan kosode shunday naqshlanishning eng antiqa misolidir. Chegaralari qora, och havo rang yaproqli sarg'ich-yashil bambuk kosodeni orqa qismida o'ng chekkasida tasvirlangan. Oq va to'q qirmizi fonnini ajratadigan siniq chizig'i bo'lmasa, bu naqsh yaxlit rasmday tasavvur etiladi.

XVII asrning ikkinchi yarmigacha alohida e'tibor berilgan norapport va nosimmetriya tamoyili gazlamada saqlangandi. Ammo bora-bora naqshning to'qimachilikka oidligini, uning takroriyligini ta'kidlaydigan yangi yo'nalish paydo bo'ldi (oqqan suv va gulsapsar tasvirlangan kosode – XVII asrning sevimli mavzusi).

XVII asrdan boshlab, Yevropada mashhur rassom Satatsu – buyuk rangtasvirchi va kolorist hisoblangan va uning shogirdi Kornini (1660-1710-yil) yapon rangtasvirchilar orasida eng mohiri deyishgan; ular gazlama uchun rasmlar yaratishgan.

Atoqli iste'dodli rassomlar tufayli (ularni qatorida mashhur rassom-litograf Gishikava-Monorobu (1646-1714 yil) gazlama uchun juda ko'p rasmlar yaratgan), nihoyat yapon gazmollari ifodaliligi bilan o'ziga xos naqshlarga ega bo'ldi.

XVII asr oxirida va XVIII asrning boshida Yaponiyada to'qima, bosma va kashtalangan gazmollar uchun bir necha suratlari to'plam chiqarilgandi. Kompozitsiyaning uslubi qat'iy tasdiqlangani kashtaga ta'sir etgan. Bu to'plamlarni Monorobuning izdoshi Taxibana-Morikuni (1670-1748 y.) nashr ettirgan.

Avvalgi davrlardan keskin farqlanadigan XVII-XVIII asrlarda liboslarning yangi turi yuzaga keldi. Bu davr to'qimachilikning yuksalish davri bo'lgan. Muromati davrining oxirida to'qimachilik san'atida ro'y bergan o'zgarishlar XVII asrda go'zallikning yangi tushunchasi – yorqin, xushchaqchaq, uchinchi tabaqa dunyoqarashi bilan bog'liq, aniq badiiy g'oya sifatida rasmiyplashdi. Ammo bu davr gazlamalari «sof yapon» dekorativ tuyg'usi bilan uyg'unlashgan.

XVII asr o'rta sidagi gazlama bezagi yangiliklari - yangi texnik bo'yash usullari, bo'yash va kashta kombinatsiyasi, zar va kumush qog'ozidan aplikatsiyasi yordamida naqshlash paydo bo'lgan.

Genroku davrida Kiotoda ishlagan rassom Miyadzaki Dyudzensay ixtiro etgan bo'yash usuli «*dzyuden*» asosiy bo'yash usuli bo'lgan. Bu usulning mohiyati – kichkina tayoqcha yordamida maxsus bo'yalgan guruch pastasi suriladi. Aslini olganda, bu gazlamaga rasm solish maxsus dekorativ usuli, ko'pincha, kompozitsiya va koloristikasi murakkab mavzuni tanlashda cheksiz erkinlik beradi. Bu davrdan boshlab, to'qimachi-ustalarga rangtasvirning ta'siri kuchaygandi, naqshli kosodenning xilma-xilligi, tasvirning rang-barangligi yoki odmiligi misli ko'rilmagan darajaga yetdi.

Dzyudzen usulining bir xili «*tayya-dzuri*» bo'lgan. Guruch pastasi faqat indigo bilan bo'yalgan, naqshi esa nozik ko'k bosmani eslatardi. Ko'pincha, bu usulda ishlangan naqshlar ba'zan me'morchilik mavzulari bilan peyzajlar bo'lgan. Muntazam mayda to'qima naqshdan voz kechish va qo'lda erkin tasvirlashga o'tish kiyimni ham o'zgarishiga sababchi bo'ldi. Libos endi rasmday ko'rib chiqilib, naqshning kompozitsiyasi va rangi baholanadi.

Kimononing bichimi o'zarmagan holda, bezak - ifodalikning asosiy tomoni bo'lgan. To'qimachilikning gurkirab rivojlanishi va naqqoshlikning mexanizatsiyalanishi kosodeni arzonlanishiga va keng tarqalishiga olib keldi. XVII asrda chiroyli kiyimga intilish zavq uyg'otadigan bo'ldi. Genroku davrida olifta erkaklar serhasham g'ayriodatiy liboslari bilan ayollardan qolishmasdi. Endi kosode faqat mavsumga moslanmasdan, ma'lum vaziyatga ham mos kiyildi. Diniy, kalendar va oilaviy bayramlar munosib liboslarni talab qilardi.

Kosode uchun qalinligi har xil shoyi gazlama qo'llangan (Rasm 97 a-b),

*Yeng kiyim uchun – nasha o'simligi va paxta tolasidan ishlangan gazlamadan qilinardi.* Erkak va ayollar kosodesining farqi - ularning bezagi, koloriti va belgilari chalarida bo'lgan. Ayollar kostyumining eng qimmatbaho qismi – obi edi. Bashang obi kimxobdan qilinardi va asosiy e'tibor faqat una berilmasdan fakturasiga ham berildi (Rasm 97 v,g).

*Yaponiya to'qima, bosma va kashtalar (Rasm 94-9,98) naqsh korpozitsiyalarini yengilligi va nafisligi, mashhur texnika yordamida puxtalik bilan ishlanganligi hozirgi zamonda Uzoq Sharq to'qimachilik sanoatining q tarixiy yodgorligi sifatida ko'rildi.*



97a-rasm. XX asr. Kimonoga oid kimxob.



97b-rasm. XX asr. Obiga oid kimxob.



98-rasm. XIX asr. Yangi yilga oid «reyfuku» fragmenti.

### Nazorat savollari.

1. Yaponiya to'qimachilik san'atiga Xitoyning ta'siri .
2. Rassomlar uchun xoqon Sunko tuzgan asosiy qoidalar.
3. Yaponiyani tarixiy davralarida to'qimachilik san'atida qanday o'zgarishlar ro'y berган?
4. Yaponiya gazlamalariga naqsh solish asosiy usullari.
5. Muljaliga ko'ra gazlamalar qanday farqlanadi?
6. Yaponiya to'qimachilik sa'natining farqlovchi xususiyatlari.

### Arab gazmollarri

Arab gazmollarri guruhiga Arabiston, Mesopotamiya, Suriya, Misr va Turkiyada ishlanganlari kiradi.

Islomning birinchi asrlaridan saqlanib qolgan gazlamalarning naqshi ketma-ket, izma-iz yoki naqsh bilan chirmashgan hayvonlar sujetlari arab yozuvlar gorizontal yo'lini kesardi. Bu gazlamalar qayerda ishlanganini aniqlash qiyin. Modomiki ular ilk islomga mansub bo'lganligi uchun, Arabiston va Mesopotamiya san'atiga yaqinligi ehtimoldan holi emas. Bu yerda, asosan, Sosoniy mavzulari bo'lgan. Ammo ilk gazlamalarda fors mavzulari faqat taqlid etilmasdan, o'ziga xos qayta ishlangan: naqsh shakllari salmoqli, figuralar chorpxaxilroq. Qisman, bu arablarning didi va oddiyroq texnikasi bilan bog'liq. Balki ilk arab gazlamalari ishlanganda Sosoniy-fors ta'siriga qarshi kopti san'ati tomonidan ta'sir bo'lgan.

Vaqti-vaqti bilan naqshi dag'al, ammo, koloriti juda go'zal bo'lgan aynan shu kopti san'ati bora-bora arab gazmollarini ishlab chiqarishda ustunlik qiladi.

Misr Ummaviylar, keyin Abbosiylar xalifalarga bo'ysundi. IX asrda arab sultanati inqirozga uchraganidan so'ng, Fotimiyl turk sulolasi hukmronligi ostida Misr mustaqil davlat bo'ldi. Bu sulolaning ikkinchi vakili El-Moyenze Misrni tamomila bosib oldi va Qohira shahrini qurib, poytaxt qildi. U o'zini misli ko'rilmagan dabdaba bilan o'rab oldi va shu zamondan tarixchilarini ma'lumotlariga ko'ra uning serhasham saroyida 4000 xona bo'lgan. Bog'larida zarlangan shiyponchalar va boshqa turli bejamilar bilan bezatilgan joylar bo'lgan.

Ko'p vaqt davomida qadimiy Misrning badiiy an'analari eski Axamoniylar va Sosoniy Forsni nasroniylikdan ilgari va nasroniy davridagi ellen ta'sirlari sintezi natijasida tuzilgan musulmon san'atidan o'zlashtirilgandi. Arab guruhiga oid gazmollar, asosan, koptlar san'ati tamoyillari bo'yicha rivojlangan.

Kopt dekorativ mavzularidan nasroniylikni eslatadigan barcha elementlar olib tashlanib, kopt san'atiga mansub hayvonlar (quyon va o'rdaklar), to'rt karta turi (g'isht, tappon, chillik va qarg'a), sakkiz qirrali yulduz, svastika va doirani saqlab qolindi. Bu oddiy elementlardan kombinatsiya qilinib, yangi naqshlar yaratildi. Bu naqshlarda antik meandrlar son-sanoqsiz usullarda o'ralgan yo'llarga aylangan (Rasm 99). Shuni e'tiborga olish kerakki, Misr musulmon gazlamalari o'ziga xos xususiyatga ega: ular hech qachon faqat ipakdan qilinmasdan, doimo aralashma qilinardi (ipak zig'ir yoki kanop bilan va ba'zan, serhasham gazlamalarda ipak cho'zilgan zar ip bilan).

Sen-Deni abbatligi rizaxonasida hozirgacha saqlangan Misr gazlamasi medalyonlari o'simliklar shoxlarida o'tirgan o'rdaklar, uzun qulogli quyonlar bilan bezatilgan. X asr oxiridagi Misr fotimiylar xalifasi Xakim-Bi-Amr-Illa va uning otasining ismi va unvoni medalyonning hoshiyasida kufiy xati bilan yozilgan.

Yana bir qiziqarli gazlama namunasi – «avliyo Annanining choyshabi» – Apta shahar rizaxonasida saqlanmoqda. U uch parallel yo'l bo'yicha zar va ipak bilan to'qilgan muslin edi. Yo'llarning ikkitasida pushti fonda oltin qushlar va o'zaro o'ralishgan gullar tasvirlangan. O'rta yo'li zarli, unda bir-biriga qaratilgan it va xo'roz tasvirlari bilan arab uslubida qora S-dan hoshiya qilingan. Itlar va xo'rozlar, shubhasiz, Sosoniy merosi, chunki ular zardushtlik dinida muqaddas deb hisoblangan. Vertikal yo'l va uch medalyon chegarasida qizil harf bilan yozilgan: «Dindorlarning xukmroni Iman Abdul-Kosim-Mostali Billaxga (1094-1101- yillar Misrda fotimiylar xalifa bo'lgan) va uning bolalariga xudoning marhamati bo'lsin». Arab yozuvi choyshab bo'yicha qilingan. Ismi yozilgan gazlamalar – bu maxsus buyurtma bo'yicha ustaxonada ishlangan gazlamadir.

Moskva qurol palatasida ikkita bir xil malinarangli, cho'zilgan zar ip bilan to'qilgan pardalar saqlanmoqda. Ularning naqshi Qohira masjid devorlaridagi reshyetkasimon tosh bezaklarni eslatadi. Naqshda xochsimon katak ichida guli bor qo'sh qiya reshyetka tasvirlangan. Parda aylanasisiga hoshiya yuritilgan: pardani vertikal tomonlari zarrin. Uning naqshi zarli to'rt - va sakkiz burchaklardan iborat. Pastki hoshiyaga keng bort tutashgan. Atlas fonida kufiy xatida to'qilgan quyidagi yozuv takrorlangan: «Barchaga baravar baxt, quvonch, shon-sharaf va niyatlar taalluqli bo'lsin» (Rasm 100).

Yengil shoyi gazlamalaridan tashqari boshqa matolar bilan birgalikda mamelyuklar davrida arab guruhiiga arab xati va yo'l-yo'l atlas fonida nilufar gullar tasvirlangan og'ir zar kimxoblari kiradi. Fakturasi bo'yicha ular shu davrdagi fors gazmollariga yaqin, ammo, doimo tasvirlangan yozuv:

«Donishmand sulton» - mamelyuklarning odatiy unvoni va olachi por rangligi gazlamani Misrda ishlanganligini ko'rsatadi (Rasm 101). Shunga o'xshash gazmollar Misr qabristonlarida topilgan. Nayzasimon naqsh tuzilishlarda juda stilizatsiyalangan holda hayvoniylar naqsh ham uchraydi. O'rta o'qni ikki tomonida just griflar sultonning nomi, medalyonlar qatorlari bilan o'ralgan. Bu naqshlar metall buyumlar naqshlariga yaqin (Rasm 102-103).



99-rasm. XIV asr. Arab shoyi.




100-rasm. XIV asr. Arab kimxobi.



101-rasm. XIV asr. Arab gazlamasi.



102-rasm. XIV asr. Arab kimxobi.



103-rasm. XIV asr. Arab naqshi.

### Nazorat savollari.

1. Qaysi mamlakatlarda ishlab chiqarilgan gazmollar arab guruhiga kiradi?
2. Musulmon to'qimachilik san'atining asosiy belgilari.
3. Naqsh turlari va ularning ma'nosi qanday bo'lgan?
4. Gazlamada naqshning kompozitsion joylanishi.

## Turkiya gazmollari

Bora-bora Osiyodan G'arbgaga siljib, XIV asrda turklar Kichik Osiyoda o'mashdi va qadim-qadimdan bir-birini o'rniiga kelgan turli madaniyatlarni merosxo'ri sifatida maydonga chiqishdi. XV asr o'rtasida, o'z chegarasini Yevropa tomonga surib, XVI asr o'rtasida Sulaymon mahobatli harbiy-feodal davlatni tashkil etishdi.

Turkiya taraqqiy topgan davrida gazmollarni bezash sohasida deyarli mustaqil san'atni yaratmadı. Turklar arablar singari hech qachon bosib olgan xalqlarining madaniyatini o'zlashtirmagan va rivojlantirmagan. Hokim sinflarda faqat harbiy ish rasm bo'lgandi.

Kopt, fors, Vizantiya va italiya to'qimachilik san'atini qayta ishlab, turk gazmollari o'ziga xos mustaqil xususiyatlarga ega bo'ldi. Turk dehqonchilik san'ati qiziqarli va mustaqil yutuqlarga erishgandi. Ammo, ular to'g'risida ma'lumot juda kam. XVI asrdan oldin ishlangan turk gazlamalari to'g'risida ham ma'lumot kam.

Brussa va Skutari XVI-XVII asrlarda atlas va duxobalarining naqshi fors koshinlaridan o'zlashtirilgan. Chunki Fors orqali saljuq turklari G'arbgaga borishgan va undan tashqari Brussa va Skutari Fors va Yevropani bog'laydigan karvon yo'llarining uzeli bo'lgan. Fors koshinlariga o'xshash naqshlarni kopt san'atida ham ko'rish mumkin. Ehtimol, turklar bu naqshlarni Misrdan o'zlashtirgandir (Rasm 104).

XVI-XVII asrdagi «bruss» va boshqa turk duxobalari qayerdan kelib chiqishidan qat'iy nazar, ular baribir boshqa sharq gazmollariga nisbatan o'ziga xos xususiyatga ega edi (Rasm 105). Ularning naqshini asosiyligi – o'simlik mavzusini eslatadigan yirik sakkizqirrali rozetkalar yoki har xil yulduzlar. Gullar markazdan o'tib va diagonal va to'g'ri xoch bo'yicha joyylanib, sakkizqirrali yulduz yoki rozetkani hosil qilgan. Rasm koshindan o'zlashtirilganligi uning nihoyat geometrikligini ta'minladi. Umumiy tomonlari o'xshash bu barcha «koshin rasmlari» keyin detallarda son-sanoqsiz turli variantlarda ishlangan. Ayniqsa, qirqma duxobada. Ularning odadagi bo'yalishi – foni malina rangli, chegarasi yashil, naqshi to'qima duxoba gullar (fon va chegarasi) zarli parchadan. Rapporti 0,21x0,22 metrdan 0,31x0,61 metrgacha. Gazlamaning eni 0,46 m va undan ko'proq edi. Shunday duxoba namunalari ko'p muzeylarda saqlanmoqda (Rasm 106).

Bu gazlamalarda stilizatsiyalangan chinnigul va loladan rozetkalarda Safaviy davridagi fors kompozitsiyasini o'zlashtirganligi yoki takrorlangani sezilsa, boshqalarida esa turk rassomlarining mustaqil ijodini ta'kidlaydigan yirik doiralar («quyosh» deb nomlangan) tasvirlangan. Shunday mavzuli

gazlamalar deyarli ko'p. Ularning naqshlarida oddiy mavzu**bora-bora** har xil detallar qo'shilganini ko'rish mumkin.

Moskva qurol palatasida saqlanayotgan choyshabda doiralar kompozitsiyasi zarli duxobadan tikilgan. Rasmning rapporti 59x31,5 sm. Bu gazlari ishlama 30,5 sm diametrli doiralar orasida yulduzlari bir-biriga qaratilgan turk yarimoy shaklida uchtdan xalqalar joylashgan. Uchburchak shaklda tashqargan halqalar Temur tamg'asi sifatida ma'lum. Ehtimol, shunday belgilarni ishlamalar shu davrda ishlangandir.

Aleksandrov shahridagi muzeyda Maxrishchev monastirining rizaxonasi-dagi duxoba felonining bezagi ushbu mavzuga yaqin. Bu rizamada yirik va mayda doiralar guruhi o'zaro almashib, egilgan poyalar birlashtirilgan. Mayda doiralarda avvalgidan yirikroq yarimoyer joylangan Naqsh rapporti 29,5x32,5 sm. Umumi rang gammasi – tilla-jigarrang. Foni tomonda q, yirik va mayda doiralar esa tilla-sariq rangda (Rasm 107).

Moskvadagi Patriarx rizaxonasining sakkosida duxoba gazlari doiraldan murakkabroq kompozitsiya ishlangan. Bu gazlamada doira lar orasida stilizatsiyalangan idishdan chiqayotgan gullagan shovlar tasvirlangan. Doiralarning bezagi ham o'zgargan: charaqlagan mayda yulduzlar kattalashib, doira o'rtaсинi egallagan. Nurlari esa doirachalar qaton bilan bezatilib, bortgacha yetgan: Ulardan keyin doiraning cheti to'rsim tasvirlangan.

Shu tarzda dastlabki yirik dog' maydalanadi va doiralar orasidagi tasvirlarga rassom ko'proq e'tibor beradigan bo'ldi. Bu evolyutsiya rasmida naqsh inqirozga uchraydi. Parijda saqlanayotgan XVI asrga oid gazlarning umumi kompozitsiyasida doiralar orasidagi naqshlar doiralar kabi joylashtirilgan. Doiralar esa bo'lingan.

Yevropa, ayniqsa, Italiya san'ati bilan bevosa aloqa bog'i anishi, turk san'atiga yevropa mavzularini kiritdi. Venetsiya gazmollarining tasvirlari siri kuchli bo'lgandi. Har xil gultuvaklar, osma lampadalar, tekis tishlar, real gullar, me'moriy detallari – bu musulmon san'ati uchun yangi mavzular turk gazlamalari naqshiga qo'shildi (Rasm 108).

Yuqorida aytib o'tilgan gazlamalar, asosan, serhasham imxob, duxoba, shoyi bo'lgan va yuqori sinflar yoki eksport uchun qilingandi (Rasm 109). Ulardan tashqari Turkiyada arzon gazmollar keng tarqagan. Ular zig'ir yoki ip gazlama bo'lgan, naqshi esa bosma usulda o'simlik bo'yqlar bilan qilingandi. Bu qishloq gazlamalarida shaharning tasvirlari qilingandi. Dehqon ustalarining ijodida qimmatbaho gazmollarning naqshlarini o'siyashlib va sintezlashib, o'ziga xos aniqlik va ifodalikka erishgandi (Rasm 110).



104-rasm. XVI a.  
Turk kimxobi.



105-rasm. XVI a.  
Turk zarbof atlasi.



106-rasm. XVI a.  
Turk zarbof kimxobi.



107-rasm. XVI a.  
Turk duxobasi.



108-rasm. XVI a.  
Turk kimxobi.



109-rasm. XIX a.  
Turk duxobasi.



110-rasm. XVII a.  
Turk bosma gazlamasi.

## Nazorat savollari.

1. Turk to'qimachilik san'atiga kim ta'sir etgandi?
2. Turkiyada asosan qanday gazlamalar to'qilgan?
3. Naqsh turlari va mavzulari va ularni kompozitsion joylanishi.
4. Davrlararo gazlamalarda qanday o'zgarishlar ro'y bergan?

## Ispan - mavritan gazzmollar

VII asr boshida Kohira xalifaligi g'arb tomonga chegarasini kengaytirib, Afrika shimoliy qirg'og'ini bosib oldi, VIII asr boshida arablar Ispaniyani bosib olib, mahalliy vestgot feodallarni bo'ysundirdi. Pireneya yarimoroli deyarli sakkiz yuz yil mobaynida ispan-mavritan gazlamalarini ishlab chiqaradigan markaz bo'lgan.

O'z vaqtida bu nufuzli Rim provinsiyasi bo'lgan Ispaniyani mavrlar bosib oldi va u yerda Vizantiya va Ravennaga kabi ustunlik qilgan dabbabalik odatlarga duch kelishdi. Forsda qo'llanilgan to'qish usullarini olib kelib, mavrlar shoyi gazlamalarni ishlab chiqarishga asosiy e'tibor berishdi va zamondoshlar ma'lumotiga ko'ra tez orada to'quv dastgohlar har yerda ishlatildi. Almeriya, Malaga va Misrusiya shaharlari mavrlar davrida gazlama ishlab chiqarishning asosiy markazi bo'lgan. Korduanlik El-Shikandi (VIII asr boshida yashagan), Edrizi va El-Kshib o'z asarlarida Almeriyada har xil tonli serhasham kumush va yorqin rangli shoyi gazlamalar ishlanganligi to'g'risida aytib o'tishgan. Bu «*dibaj*» - kumushni bir necha toni, «*tiraz*» - shahzodalar ismi to'qilgan, «*xolas*» - sifati pastroq gazlama bo'lgan. Afsuski, bu gazlamalarning namunalari saqlanib qolmagan.

Mavrlar davrida i pakchilik juda rivojlangandi. Kordov xalifalar davrida (X asrdan oldin) Ispaniya faqat gazlamani emas, xom i pakni ham Yevropaning shimoliy mamlakatlariga, Afrikaga, O'rta Yer dengizi qirg'og'i-dagi qo'shnilariga Iskandariyagacha olib chiqqan. XIII asrda i pakchilik keng tarqalgandi. Provinsiya Jeanda 3000 qishloq i pak qurtini boqardi; Sevilyada esa 6000dan ortiq to'quv dastgohi ishlagandi.


Mavritan gazlamalarida ikki yo'nalish bo'lgan: ilklari – kopt san'atining ko'p tomonlarini o'zlashtirib, Sosoniy namunalariga asoslangandi va ehtimol, yirik feodallarning qarashlarini aks ettirgandi, keyingilari – asosan shahar muhitida rivojlanib va kopt naqshining geometrik elementlariga asoslanib, savdo sinfi ratsionalistik mafkurasiga asoslangan o'ziga xos ramzlarni yaratgandi. Birinchisi - mavritan san'ati Kordova uslubiga, ikkinchisi – Sevilya va

Alganibra u<sup>m</sup>ubiga m  
rang qainmisi qizil, s  
IX asr g<sup>m</sup>ollarini riq va qora bo'lgan (Rasm 111).  
bezatulgand<sup>m</sup>. Shunday iasorat va kuchni ifodalaydigan feudal ramzlari bilan  
(Berlin muzeyida vaq<sup>m</sup>) kompozitsiyaning misoli – ispan cherkovida topilgan  
kapella<sup>m</sup> Vizantiya nmoqda) fillar tasvirlangan gazlama (Rasm 112). Axen  
mavritan i<sup>m</sup>ohida ko<sup>m</sup> gazlamasi shunga o'xshaydi. Ehtimol, ikkalasida ham  
ishlangan: tasvir qu'po<sup>m</sup> pt gazlamalarida uchragan Sosoniy namuna qayta  
tasmin bilan o'ralishi roq va og'irroq, ammo, yorqin va dekorativ. Doiralarni  
kopt<sup>m</sup> gazlan<sup>m</sup> alariga ma<sup>m</sup> a ularni birikkan joylarida yulduzli naqshlari – tipik  
mavzusi<sup>m</sup> izohida se<sup>m</sup>ansub. Shubhasiz, kopt ta'siri boshqa feudal-Sosoniy  
tasviri. Ehtimol, VII<sup>m</sup> idi (Vizantiya san'atidagidek sherlar bilan Gilgamesh  
ispaniyada ham bo<sup>m</sup> IX asrlarda Vizantiya o'zlashtirgan bu sujet shu vaqtida  
varianni – II asrga o<sup>m</sup>an; ammo, saqlanib qolgan namuna uning keyingi  
topilgan. Gilgame<sup>m</sup> shring tasviri qanotli grifonlar o'ragan doirada solingan.  
Doiralar orasida o<sup>m</sup>sina D<sup>m</sup>ona bo<sup>m</sup> yicha izohlik naqshlar va yana yulduzlar (Rasm 113).

D<sup>m</sup>ona bo<sup>m</sup> yicha izohlik naqshlar va yana yulduzlar (Rasm 113).  
yo'llar usulida izohlash qatorida mavritan san'atining ilk davrida gorizontal  
tovusla<sup>m</sup> arab xati uchragan. U yerda juft hayvonlar va qushlar (asosan  
turdag<sup>m</sup> gazlamalari<sup>m</sup> «hayot daraxti» naqshi bilan almashadi. Shunday  
va Berlin Fridrix-Vile<sup>m</sup> osan X asrga taalluqli) Madrid Tarix Akademiyasida  
yon<sup>m</sup> surgan ikki odar<sup>m</sup> im muzevida saqlanmoqda. Ularning birida yonma-  
qush<sup>m</sup> la va fantastik to<sup>m</sup> figurasi medalyonda tasvirlangan – ehtimol, sherlar,  
bir ikki yo<sup>m</sup> brasida rtoyoqlar bilan o'ralgan shoh va uning xotinidir. Har  
rohiy<sup>m</sup> n Xudoning qu<sup>m</sup>idagi mazmundagi kufiy xatlar: «Bismillohir rahmonu  
yilda<sup>m</sup> davlatni bo'lib qo<sup>m</sup>indasi xalifa Imom-Abdulloh-Xishamga (bu xalifa 976-  
1005 yozilgan yoz<sup>m</sup>rgan) eson omonlik va Xudoning marhamati bo'lsin».

Muhann<sup>m</sup> payg<sup>m</sup>mlardan tashqari gazlamalarda Qur'onidan oyatlar,  
joyla<sup>m</sup> sigan. Ba'zan ha<sup>m</sup>lar va u sahabalariga maqtovlar vertikal yoki gorizontal  
tug<sup>m</sup> illadi. Vaqt<sup>m</sup> flar chirmashib ketgani uchun ularni o'qish qiyinchilik  
ma<sup>m</sup> aniyatning inq<sup>m</sup>izan sari yozuvlarni o'qish qiyinroq bo'lgan. Arab  
dekorativ davzu bo<sup>m</sup>zi bilan ular ham inqirozga uchragan. Harflar faqat  
dav<sup>m</sup>da gaz<sup>m</sup> ma ishilab<sup>m</sup> qolib, naqshning bir turiga aylandi. Ehtimol bu  
arab<sup>m</sup> illi<sup>m</sup> yozilivi<sup>m</sup> chiqarish nasroniy ustalar qo'liga o'tgan, ammo ularga  
tasv<sup>m</sup>ishgan, amino noma'lum bo'lgan. Naqshni tashqi ko'rinishini

B<sup>m</sup>aroq<sup>m</sup> lig', yosi<sup>m</sup> uning ma'nosini tushunishmagan,  
asos<sup>m</sup>ad, yu<sup>m</sup>uvli<sup>m</sup> q, choyshab, kafan va boshqa buyumlar uchun,  
stan<sup>m</sup>dintini<sup>m</sup> (1212-yil) amalar ishlatalardi. Masalan, xalifa Almoyadning  
zar va rangli ipaklar bilan arab yozuvlari aylanasiga




**111-rasm.** Mavritan naqshlari.



**112-rasm.** IX a.  
Ispan gazlamasi.



**113-rasm.** XIII a.  
Ispan-mavritan gazlamasi.



**114-rasm.** XIII-XIV aa.  
«Algambra» Ispan-mavritan  
gazlamasi.


Algambra uslubiga mos edi. Ispan-mavritan gazzollarining ko'p uchraydigan rang gammasi qizil, sariq va qora bo'lgan (Rasm 111).

IX asr gazmollar jasorat va kuchni ifodalaydigan feudal ramzlar bilan bezatilgandi. Shunday kompozitsiyaning misoli – ispan cherkovida topilgan (Berlin muzeyida saqlanmoqda) fillar tasvirlangan gazlama (Rasm 112). Axen kapelladagi Vizantiya gazlamasi shunga o'xshaydi. Ehtimol, ikkalasida ham mavritan izohida kopt gazlamalarida uchragan Sosoniy namuna qayta ishlangan: tasvir qo'polroq va og'irroq, ammo, yorqin va dekorativ. Doiralarni tasma bilan o'ralishi va ularni birikkan joylarida yulduzli naqshlari – tipik kopt gazlamalariga mansub. Shubhasiz, kopt ta'siri boshqa feudal-Sosoniy mavzusi izohida seziladi (Vizantiya san'atidagidek sherlar bilan Gilgamesh tasviri). Ehtimol, VII-IX asrlarda Vizantiya o'zlashtirgan bu sujet shu vaqtida Ispaniyada ham bo'lgan; ammo, saqlanib qolgan namuna uning keyingi varianti – XII asrga oid yepiskop San-Barnarda Kalvonni dafn mantiyasida topilgan. Gilgameshning tasviri qanotli grifonlar o'ragan doirada solingan. Doiralar orasida o'simlik naqshlar va yana yulduzlar (Rasm 113).

Doira bo'yicha izohlash qatorida mavritan san'atining ilk davrida gorizontall yo'llar usulida izoh uchragan. U yerda juft hayvonlar va qushlar (asosan tovuslar) arab xati va «hayot daraxti» naqshi bilan almashadi. Shunday turdag gazlamalar (asosan X asrga taalluqli) Madrid Tarix Akademiyasida va Berlin Fridrix-Vilgelm muzeyida saqlanmoqda. Ularning birida yonmayon o'tirgan ikki odam figurasi medalyonda tasvirlangan – ehtimol, sherlar, qushlar va fantastik to'rttoyolar bilan o'ralgan shoh va uning xotinidir. Har bir ikki yo'l orasida quyidagi mazmundagi kufiy xatlar: «Bismillahir rahmonu rohiym. Xudoning arzandası xalifa Imom-Abdulloh-Xishamga (bu xalifa 976-yildan davlatni boshqargan) eson omonlik va Xudoning marhamati bo'lsin».

Ism yozilgan yozuvlardan tashqari gazlamalarda Qur'ondan oyatlar, Muhammad payg'ambar va u sahabalariga maqtovlar vertikal yoki gorizontal joylashgan. Ba'zan harflar chirmashib ketgani uchun ularni o'qish qiyinchilik tug'diradi. Vaqt o'tgan sari yozuvlarni o'qish qiyinroq bo'lgan. Arab madaniyatining inqirozi bilan ular ham inqirozga uchragan. Harflar faqat dekorativ mavzu bo'lib qolib, naqshning bir turiga aylandi. Ehtimol bu davrda gazlama ishlab chiqarish nasroniy ustalar qo'liga o'tgan, ammo ularga arab tili va yozuvi noma'lum bo'lgan. Naqshni tashqi ko'rinishini tasvirlashgan, ammo uning ma'nosini tushunishmagan.

Bayroq, tig', yostiq, choyshab, kafan va boshqa buyumlar uchun, asosan, yozuvli gazlamalar ishlatalardi. Masalan, xalifa Almoyadning standartini (1212- yil) zar va rangli ipaklar bilan arab yozuvlari aylanasiga




**111-rasm. Mavritan naqshlari.**



**112-rasm. IX a.  
Ispan gazlamasi.**



**113-rasm. XIII a.  
Ispan-mavritan gazlamasi.**



**114-rasm. XIII-XIV aa.  
«Algambra» Ispan-mavritan  
gazlamasi.**

ashtalagan. Shtandart keng yo'l bilan geometrik bo'lingan. Ularning orasida iayda gullar va yirik yozilgan arab xati tasvirlangan.

XI asrdan boshlab, qudratli va mustaqil Kordova xalifaligi to'rt kicnkina nintaqaga bo'lindi: Sevilya, Grenada, Toledo va Valensiyaga. Yevropa aholisi iavrarni janub va g'arbgan chekintirgandi va bu yerda tamomila mavritan an'atiga - «*algambras*» etilgandi. Boshqa islam mamlakatlariidagi asarlaridan eskin farqlanadigan mutlaqo o'ziga xos musulmon gazlama guruhi yaratildi Rasm 114).

Bu davrda ispan-mavritan naqshi asosiga kopt san'atidan o'zlashtirilgan geometriklik solingen. Ammo, geometriklik asta-sekin ramziylikka aylandi. U o'g'ri chiziqlarni xilma-xil kesilishi va cheksiz murakkab kombinatsiyalar sosida bora-bora kamolotga erishdi. Raymond Koks «Les soieries d'art» sarida ramzlar ma'nosini yechishga uringandi. Uni aytishiga ko'ra: «*Musulmon zssomlar tilida gorizontal chiziqlar - osoyishtalik va o'ylash; vertikal chiziqlar - dilning ishtiyog'i yoki ezgu tilakni, egrilari - qayg'u yoki quvonchni odalaydi*. Ulardan hosil bo'lgan ko'pburchaklarning ham o'z ma'nosini bor: iuntazamlari - orom va yengil fikrlarni beradigan; noto'g'rilari esa - turakkab va notinch g'oyalarni aks ettirish uchun ishlanadi» (Raymond Cox, «Les soieries d art», Paris, 1914, 103-104v.). Cheksizlik g'oyasini odalash uchun mavritan san'ati ikki usulni qo'llagan: bir xil mavzuni zluksziz takrorlash yoki bora-bora kichraygan elementlarni toplash.

Natijada umuman turli yo'nalishda va har xil burchaklarda kesishgan to'g'ri o'l va chiziqlardan ispan-mavritan gazmollarining bezagini asosi bo'lgan joyib estetik geometriya hosil bo'lgan. Kesishib o'tgan yo'llar oralig'i rangli idirg'a yoki naqshli fon bilan to'ldirilgan (turli yo'nalishda g'alati egilgan igichka poyada uchlari burilgan tilingan yaproqlar). Ko'pincha, poyalar rasida arab xati kufiy harflari bilan yozilgan.

Bu davr gazlamalari Parijdagi Klyuni va Berlindagi badiiy-san'at muzeylarida, Mogreb, Jazoir, Telemen, Tunis va Marokashda ko'p miqdorda aqlanmoqda. XII-XV asrlarda Telesmen mavrlar poytaxti bo'lgan. Andaluziyadan ispanlar mavrlarni chiqarib yuborgandan so'ng, mavrlar 'z vataniga — Shimoliy Afrikaga ko'chib ketishdi.

Barcha mamlakatlarda ispan-mavritan san'atining an'analari hech qanday 'zgarish va qo'shimchasiz sof holda saqlangan. Ispaniyada esa avval cherkov, eyin hokim sinflar va nasroniy hokimlar tomonidan mavrlar badiiy merosiga mutlaqo mos bo'limgan bir qator kiritilgan yangiliklar ispan-mavritan aqshini keskin o'zgartirgandi.

### Nazorat savollari.

1. Ispan-mavritan to'qimachilik san'atiga kim ta'sir etgan?
2. Mavritan gazlamalarining yo'nalishlari.
3. Davrlararo gazlamalarda qanday o'zgarishlar ro'y bergan?
4. Naqsh mavzulari va ularni ishlash usullari va kompozitsion joylanishi.

### Sitsiliya gazmollari


Arab-mavritan guruhi Sitsiliya gazmollarini ham kiritish mumkin. O'rta yer dengizidagi katta orol Sitsiliya o'rta asrlarda birin-ketin Rim hokimligidan ostgotlar, vizantiyaliklar, arablar, normanlar, german Gogenshtaufenlar, fransuzlar va ispanlar qo'liga o'tgandi. IX asr boshida arablar Sitsiliyani bosib olib, boshqa mamlakatlar singari ko'p to'quv ustaxonlari — «tiratsi»ni tashkil etishdi.

Normanlar Sitsiliyani bosib olganda (XI asr) Yevropaga sharq gazlamalari tanish edi va yuqori baholanardi. Shuning uchun orolning norman hokimlari ulardan oldin rivojlangan arab korxonalarini barbod etmasdan, ularni kengaytirishdi va o'z saroylariga eng iste'dodli musulmon rassomlarni taklif etishdi. Shu bilan birga, orolda saqlangan Vizantiya san'atining ba'zi an'analari ham tiklangandi.

Sitsiliya va Vizantiya orasida urush bo'lgan vaqtida (XII asrning birinchi yarmida) norman gersogi Rojer II Korinf, Fiva va Afinani zabit etib, u yerlardan yunon ipak to'qimachilarini Sitsiliyaga ko'chirdi. Salib yurishlar davrida Sitsiliya mahsulotiga talab keskin oshgandi. Salib yurishlarini qatnashchilari musulmon gazmollariga qoyil qolishdi va Sharqning badiiy san'ati bilan tanishib, gazlamalarni o'z vataniga olib kelishdi.

Dabdabalikka talab ko'payishi yangi namunalarni taqozo qilardi. Suriya va Kichik Osiyodan ularni olib kelish uchun ko'p vaqt ketardi va bu havfli edi. Chunki dengiz qaroqchilari kemalarda talonchilik qilishardi. Sitsiliya bu savdo yo'lini o'rtasida joylashgandi.

Sharq namunalaraiga taqlid etgan sitsiliya gazmollarini Brussa, Aleppo, Damashq va boshqa musulmon to'qimachilik sanoati markazlarining mahsulotlari o'rnini bosgandi. XI-XII asrlarda Palermo gazlamalarni naqshlarida norman ta'siri deyarli sezilmasdi. Ularning bezagi Sharqda odatiy bo'lgan naqshlarga o'xshardi: o'ziga xos flora va tanasi, ko'pincha, naqshlangan shartli Sosoniy hayvonlar figurasi. Odatda, naqshning tasviri juda aniq va yirik bo'li, gorizontal qator bo'yicha tuzilardi.



115-rasm. XII asr. Sitsiliya kashtasi



116-rasm. XII asr.  
Sitsiliya kimxobi




117-rasm. XIII asr.  
Sitsiliya gazlamasi



118-rasm. XIV asr.  
Sitsiliya gazlamasi



119-rasm. XIII asr.  
Sitsiliya gazlamasi



120-rasm. XII asr.  
Sitsiliya gazlamasi

Kopt-misr mavzulari — tovus, to'tiqush, zirora va sherlar — Vizantiya san'atiga mansub geraldik salvatligi bilan ishlangan. Vaqtı-vaqtı bilan mazmuni va ishlanishi bo'yicha nihoyatda dadil bo'lgan eng g'alati birikmalar qilingan.

XII asr Sitsiliya gazmollarining qiziqarli namunasi — Venada saqlanayotgan Avstriya xoqonlarining toj kiyish marosimi uchun mantiyasi. U yarim doira shaklli, silliq, qirmizi rangli, murakkab zar kashtali Vizantiya gazlamasiga o'xshagan matodan ishlangan. Uni kompozitsiyasida palma shaklidagi «hayot daraxti»ning ikki tomonida qarama-qarshi tomonlarga o'girilgan sherlar tasvirlangan. Ular yerga ag'darilgan tuyalarni tilka-pora qilibishmoqchi. Ba'zi dekorativ mavzulari — shoxlar, sherlar yoli, tuya no'xtalari — kashtalanmasdan qolgan va gazlamani qirmizi rangi rasm chiziqlarinini ayirib ko'rsatadigan zar va dur bilan tikilgan kashta orasidan ko'rindi. Etagining keng hoshiyasida zar bilan yozuv qilingan: «... egir 528- yilda (1133- yil) Sitsiliyani poytaxtida, qayerda baxt va izzat... boshqaradi, qirol manifakturasida ishlangan bir bo'lagi» (Rasm 115). Bu serhasham mantyaning ostiga venetsian aksamit turdag'i og'ir oq shoyidan stixar kiyilgan. Yoqa va manjetlari, Algambra nisbatan osoyishtaroq izohlangan, zar va dur bilan kashtalangan, geometrik naqshli qirmizi ip bilan bezatilgan. Etagidagi keng hoshiya binafsha qirmizi va oq shoyi to'rt yo'ldan iborat. Hoshiyaning eng keng yo'lida geometrik naqsh grifonlar bilan, ensizlarida esa — sana ko'rsatadigan lotin yozuvi (1181- yilda) qilingan.

Ratisbon sobordagi saqlanayotgan ikki gazlama — Genrix VI Gotenshtaufenning sovg'asi. Ularning birida nihoyatda ta'sirchan Vizantiya sujetining izohi berilgan — ikki boshli burgut, uning tojida lanni (bug'ularga mansub just tuyoqli hayvon) g'ajiyotgan sherlar tasvirlangan. Rasmning tuzilish asosi Sosoniyligi — kopt bo'lgan, ammo mahalliy va o'ziga xos nuqtayi nazarda ishlangan. Qirol Vilgelm II (1169-1189 yy.) uchun usta Abd-El-Aziz ushbu gazlamani ishladi, degan arabcha yozuvlar burgutni qanotlarida qilingan (Rasm 116).

Genrix VI (1197- yil) dafn kiyimidagi serhasham zar kimxobi asosiy an'analarni undan ham mustaqil ravishda qayta ishlanganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu gazlama ko'rinishi Ispaniyanikiga yaqin (Rasm 117).

Tuluzada saqlanayotgan qirol Robert Neopolitanskiyni (1309-1343 yy.) mantiyasida tovuslar va quyidagi kufiy yozuv qilingan: «Xudoning marhamati taqdim etilgan» (Rasm 118). Yon tomoni bilan o'tirgan tovuslar Sitsiliya san'atiga mansub. Ular Palermo (Zisa) devoriy rasmida va fil suyagidan qilingan buyumlarda ham uchraydi. 1309- yildagi inventarlarda quyidagilar yozilgan: «Casula vetustissima diversis coloribus ad paones» (diversis coloribus

— turli ranglar bilan)» Ranglar qatorlar bo'yicha o'zgargan: tovuslar va boshqa tasviriy mavzular goh qizil, goh yashil va goh sariq rangda ishlangan.

Shubhasiz, Vizantiya ustalari ta'sirida juda behayo izohlangan katta atlas parda (Barselonaning yaqinidagi Vix shaharidan) qiziqarlidir. Qora naqshli to'q qizil rangli gazlamani ba'zi joylari oq ip bilan to'qilgan (Vizantiyani burgutli gazlamalarining tipik rangi). Rasm kompozitsiyasi gorizontal qatorlar bo'yicha tuzilgan: bir qatorida — dumlari ko'tarilgan juft tovuslar, ikkinchisida — ilonlar bilan hoshiyalangan sher boshli qo'shqavat tanali qushlar. Ikkinchi qatorning figuralari ajoyibligi va fantastikligi odamga kuchli ta'sir etadi (Rasm 119).

Vaqt o'tishi bilan Sitsiliya ustaxonalarida ham nasroniylar musulmon ishchilarning o'mini egallashdi. Naqshlarda nasroniy ramzları tasvirlanadigan bo'ldi — gerbning qalqonlari, tojlar va xochlar. Arab uslubining izohi saqlangan holda arab yozuvlari Ispaniyadagi kabi o'z ma'nosini yo'qotib, naqsh elementiga aylandi. Soxta arab yozuvli bu davr gazlamalari — Sans shahridagi soborning rizaxonasidagi avliyo Potensiyaning kafani va avliyo Lupaning qoq murdasidan choyshabi (Rasm 120). Bu ikkala gazlamada naqshlar mavzusi odatiy: «Hayot daraxti»ning ikki tomonida bir-biriga qarayotgan grifon va qushlar bilan medalyonlar. Daraxtning tagida fantastik harflardan yozuv.

Keyinroq, Sitsiliyani fransuzlar zabit etganda va 1282- yilda «Sitsiliyani kechki ibodati» deb nomlangan yirik qo'zg'olonidan so'ng, Sitsiliya ustalari kontinentga ko'chib, Apennin yarimoroliga yaqin shaharlarda boshpvana topishdi va u yerda o'rashib qolishdi. Boshqalari esa keyinroq Sitsiliyadan ketib, shimolda Lukka, Piza, Florensiya, Sienna, Turin, Milan va Venetsiyada joylashdi. Bu shaharlar salib yurishlari davrida boylik to'plab, aynan shu vaqtida mahalliy gazlamani ishlab chiqarishni rivojlantirishgandi va qimmatbaho gazlamalar ishlaydigan mohir ustalarini jon deb qabul qilishgandi. Qochoqlarning bir qismi Ispaniyani qirg'ogiga etib, o'z tajribasini shu mamlakatga olib kelishdi.

XIII asrdan keyingi Sitsiliya gazlamalari to'g'risida tarixiy hujjalarda ma'lumot yo'q. 1225- yilda Rim kuriya ro'yxatida Sharq, Vizantiya, Ispaniya va Venetsiyaning ko'p gazlamalari ko'rsatilgan, ammo Sitsiliya gazlamalari to'g'risida hech narsa aytilmagan. Bu uning sanoati to'xtaganligidan emas, balki Italiyaning boshqa shaharlarining asarları palermo ustalarining o'mini egallaganligini bildiradi.

## Nazorat savollari.

1. Sitsiliya to'qimachilik san'atiga kim ta'sir etgan?
2. Sitsiliya gazmollari qaysi gazmollar guruhiga kiradi?
3. Nasroniyarning Sitsiliya to'qimachilik san'atida o'rni.
4. Naqsh mavzulari va ularning kompozitsion joylanishi
5. Sitsiliya to'qimachilik san'atining Yevropa san'atida o'rni.

## O'rta Osiyo gazmollari

S.M. Mahkamovaning ma'lumoti bo'yicha qadimgi zamonda O'rta Osiyoda to'qimachilik rivojlangani to'g'risidagi ma'lumotlar arab va fors jugrof va tarixchilari al-Muqaddasiy, Narshaxiy, Ibn-Xavkal asarlarida uchraydi. Ularning ma'lumotlari allaqachon aniq haqiqat bo'lib, yagona edi. Ular quydagilarni bayon etishgan.

Buxoro, Marv, Samarqand va boshqa O'rta Osiyo shaharlarida yung, ip, shoyi va zig'ir gazlamalari faqat ichki bozorga emas, eksportga ham ishlab chiqarilardi. Tashqi bozor uchun qurama yoki, arablar so'zi bo'yicha, aralashma gazlamalar va kimxobni ishlashgan.

Al-Muqaddasiyning ma'lumotiga ko'ra O'rta Osiyo shaharlaridan olib chiqilgan mollar ro'yxatida quydagilar aytilgan: «tabaristonlik», «sinizi», «ushmanaylik qizil» (mamrdjal).

Narshaxiyning ma'lumotiga ko'ra Buxoroda maxsus gazlamalarni eksportga ishlashgan: oq, qizil, yashillari hattoki Rim va Misrda qo'llanilardi. Keyinroq ularning o'rniiga «zandanachi» keng tarqalgandi.

Marv va Buxoroda xalifa xazinasida saqlanadigan to'qima buyumlarni ishslash uchun maxsus ustaxonalar «beyt at-tiraz» bo'lgan. Bu ustaxonarning mahsuloti xalifalik to'qimachilari uchun tipik bo'lgan: gilam...sholcha, mehmonxona poliga solinadigan gazlamalar, gulli pardalar, dekorativ yostiq uchun jild va joynamozlar bo'lgan. Beyt at-Tirazdagi ustalarning mahorati juda yuqori darajada bo'lganligini quydagi ma'lumotlar isbotlaydi: «bitta pardaga Buxoroning yer solig'ini butunlay berish mumkin edi» (Narshaxiy, 1897, 29 b.). Buxoro ustaxonalarining keyingi taqdiri to'g'risida Narshaxiy quydagini aytgan: «Ammo vaqt kelib, bu ustaxona berkildi, gazlama ishlab chiqarilmaydigan bo'ldi va ushbu gazlamani ishlagan ustalar har tomonga tarqab ketdi... Shunisi ajoyibki, Buxoro ustalari Xurosonga ketib, shu gazlamani to'qish uchun barcha to'quv asbob-uskunalarini o'zi bilan olib ketishgan va shu yerda to'quv ustaxonalarini barpo etishgan, ammo turi va

sifati bo'yicha Buxoroda ishlangan gazlamalariga teng kela olmagan». Marvdan ipak qurti urug'idan o'zida ishlangan mahkam shoyi i pi — «*abrishim*» va «*mubxam*», «*shohijahon*» gazlamalarini yetkizib bergan.

Savdo doirasiga kirgan qishloqlar ma'lum: *Zandana*, *Vardana*, *Iskajkent*, *Dabusiya*, *Darzengi* va boshqalar. Zandana va Vardanada «*zandanachi*» va «*vadoriy*» nomli ip gazlamalari ishlab chiqarilardi. Bu ikkita gazlama dunyoga mashhur bo'lib, kimxbob bahosiga sotilardi. Ularni boshqa joylarda ham ishlashardi.

O'rta Osiyodan tayyor kiyimlar (yo'l-yo'l gazlamalar va movutdan), ayollar kiyimi uchun yengil shaffof gazlamasi, ro'mollar va bo'yoqlar (*ruyon*) olib chiqilardi.

Bolaliktepa, Varaxsha, Panjikent va Afrosiyob qazilmalaridan topilgan devoriy tasviriy yodgorliklar jiddiy yangi ma'lumotlarni qo'shdi. Ziyosat, qabul marosimi va sayohatlarda ishtirok etuvchilarining boy tantanali liboslarini va boshqa to'qima buyumlarini (gilam, ot yopig'i, yog'log'i) ilk o'rta asr manzaralari tasvirlangan. Shu tariqa So'g'd aslzodalari liboslarida qo'llanilgan gazlamalarni tahlil etish imkoniyati tug'ilди.

Belgiyadagi Yui shahri soboridagi gazlamaning («hayot daraxti»ni ikki tomonida ikki qo'y tasvirlangan) teskarisidagi yozuvni o'qilishi juda muhim ma'lumot bergandi. Amerika olimlari - qadimiy gazlamalar bo'yicha tarixchi D.Shepred va eronshunos B.Xenning so'g'd tilida tush bilan qilingan yozuvni o'qishgan. Deshifrovka natijasida gazlamaning nomi «*zandanachi*» bo'lgani ma'lum bo'ldi. O'rlish usuli va bo'yoqlar tahlili tufayli dunyo muzeylaridagi bir qator gazlamalarni avval Sosoniy yoki Vizantiya gazlamasi hisoblanganlari endi zandanachi ekanligi tasdiqlandi.

A.M.Belenitskiy va I.B.Bentovich tarixiy yodgorliklar (yozma va arxeologik) asosida arab istilosidan XVII asrgacha zandanachining tarixini tadqiq etishdi (Belenitskiy, Bentovich, 1961y.). Bir necha yil keyinroq (1967, 1972 yy.) A.A.Ierusalmeskaya D.Shepredning ma'lumotlariga ko'ra, Shimoliy Kavkaz qabristonida topilgan gazlama namunalarining bir qatori (200 shoyi namunadan asosiy ko'pligi) so'g'd naqshli gazlama ekanligi aniqlandi. A.A.Ierusalmeskaya bir qator maqolalarida so'g'd shoyilarini bilan bog'liq savollarni ko'tarib (tarixiy, iqtisodiy, tarixiy-madaniy, texnikaviy va badiiy), So'g'dda ipakchilikni paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi batatsil yoritgandi.

Ammo Narshaxiyni ma'lumotlari va keyingi ma'lumotlarga ko'ra, topilgan zandanachilar shoyi emas, ip gazlama bo'lgan. S.M.Mahkamovaning fikri bo'yicha, bu aslida zandanachi shoyi va ip gazlama bo'lgan.

Kushon davrida paydo bo'lgan Buyuk ipak yo'li O'rta Osiyodan o'tib, Markaziy Osiyonni Vizantiya bilan bog'lardi. Xitoy va G'arb mamlakatlari bilan savdoda O'rta Osiyo faqat dallo bo'lmasdan, ko'p mahalliy gazlamalarini shu qatorda shoyi gazlamalarini ham olib chiqishardi.

Ehtimol, So'g'dda shoyi gazlamani birinchi bo'lib Zandana qishloq ustalari to'qishgandir. Zandanachi shoyiga talab ko'p bo'lgani uchun Buxoro ustalari bozorga tushgan o'z gazlamalariga zandanachi deb nom berishgan bo'lishi ham mumkin.

XI-XIII asrda oid O'rta Osiyo gazmollarini to'g'risida ma'lumot yig'ish uchun S.M.Mahkamova shu davr turk manbalaridan foydalangan: Mahmud Qoshg'ariy «Devonu lug'ati turk» - (Turk lahjalar to'plami) (1072-1074 yy.), Yusuf dostoni «Qutadg'u bilig» - Saodatga eltuvchi bilim (1069-1070 yy), Ahmad Yugnakiy dostoni «Hibat ul-haqoyiq» - Haqiqat sovg'asi (XIII asrning birinchi yarmi), O'rta Osiyo tarixi, lug'at ma'lumotlari va boshqa yozuv manbalari atamalarni aniqlashga yordam bergandi.

O'rta Osiyoda gazlama ishlab chiqarish uchun yung, zig'ir, paxta va ipak xomashyosi qo'llangan.

### To'quvchilik

Har xil asboblar, to'quv dastgohlarning qismlari, jarayonlar atamalariga ko'ra gazlamani ishlab chiqarishni tasavvur etish mumkin.

Paxta va junni maxsus uskuna «etang» yordamida bir necha marta tarashardi (*iska*). Keyingi jarayon - xomashyoni yilda egirish. Xom ipni eshib, ulashardi (*tavrat*). Bu xizmatni tabaqasidan qat'iy nazar barcha ayollar qilishardi. Egirish jarayonida ishlangan xom ipni (*edrik*) tanda(*arish*) va arqoq ipiga qo'llashardi. Bo'yra «butar»ni to'qish uchun qo'llangan qalin tanda i pi qo'llanilgan.

«Esri» atamasini M.Qoshg'ariy «dog 'li» yoki «ola chipor», «esri yishig» - olachipor ip deb tushuntiradi. Olachipor ip ikki xil rangli iplarni eshish natijasida qilinardi yoki har rangli ip qo'llanilgan. «Esri» so'zini ma'nosi – naqsh solish. Bu ma'lumot XI asrda Movarounnahrda «ikat» usuli bo'lganligini bildiradi.

Tanda ipi qo'shimcha ishlov berishni talab qilardi: uni nimtalashardi, «butat» dastgohida o'tkazishardi, navoy (*cheffa*)ga o'rashardi (*kattur*) va tortishardi (*yugur*). Va tufon yozuvlarida aytilgan: «Bu dunyoda barcha narsalar kabi tanda va arqoq o'zaro o'rolganda shoyi, kimxob, bo'z va boshqa gazlamalar kelib chiqadi».

Kuzak asbobini qo'llab, to'quvchilik (*toki*) bilan erkaklar shug'ullanardi.

M.Qoshg'ariy yashagan muhitda, ehtimol, shoyi gazmollar bo'limgan.

Ma'lumki, oddiy ip va yung gazlamalari uy sharoitida ishlangan. Ammo Movarounnahrda shoyi gazlama ishlanganini inkor etishimiz mumkin emas, chunki arab manbalarida berilgan ma'lumotda shoyi gazlamalarning ko'p nomlari keltirilgan, chet el gazlamalari esa lug'atda alohida belgilangan.

Uy hunarmandligida to'quv dastgohi oddiy bo'lgan: tanda i pi tepaga ko'tarilib va blokdan o'tkazilib, qarmoqtosh yordamida tortilardi. 1811-yilda Vutix ta'riflagan Buxoro dastgohlarida shiftga faqat tanda i pi tortilmasdan, berdo, rom va shodalari bilan osildi. Etnograflar ma'lumotiga ko'ra o'troq turk xalqlarida gorizontal dastgoh «*urmak*» bo'lgan. U yig'ma bo'lgan va unda yung gazlamalari to'qilgandi. Dastgohda bitta shoda bo'lgan, tandada xomuza taxtacha yordamida hosil bo'lardi. Yog'ochga o'rالgan arqoq i pi homuzadan o'tkazilardi va yog'och taxtacha bilan mahkamlanardi.

### Bo'yash, bo'yoqlar va bezatish

Gazlamani bo'yashardi va bezatishardi (bozu). M.Qoshg'ariyga ko'ra O'rta Osiyoda maxsus mineral bo'yoqlar qo'llanilgan. Temir kuporosidan qora rangli bo'yoq (*karagu*) hosil qilinardi. Bo'yoq yorug'likka turg'un bo'lishi uchun unga anor po'stlog'i qo'shilardi. Gazlama bo'yash uchun tabiiy bo'yoqlar qo'llanilgan: yulg'unning (*dava*) yaprog'i yoki po'stlog'i va qora qayinning (avilka) qizil mevasi. Ulardan hosil bo'lgan rang noma'lum.

XI asrda qo'llanilgan boshqa badiiy bo'yoqlar (*chuvut*) to'g'risida M.Qoshg'ariyning ma'lumoti qiziqarli. Surikdan - pushti rang (*al chuvut*)ni, mis oksididan - yashil rang (*yashil chuvut*), lazuritdan - ko'k rang, mineral auri-pigmentdan - sariq rang (*sarig' chuvut*) va kinovardan - qizil rang (*qizil chuvut*) hosil qilingan.

Shubhasiz, bu bo'yoqlar har xil tasviriy ishlarda qo'llanilgan (devoriy rasmlarda, kulolchilikda, qo'lyozmani bezashda). Istisnosiz ulardan ba'zilari gazlama bezashda ishlataligan.

Shoyini bo'yashda qo'llangan bo'yoqlarni hali mahkamlashmagan, chunki «*shoyi aynidi*», «*shoyini rangi o'chgan*» degan yozuvlar uchrardi.

Gazlama to'qilgan va bo'yalgan yoki bezatilgandan (*bozu*) so'ng yaltillardi.

### Gazlamalar

M.Qoshg'ariy lug'atida mahalliy va xorijiy gazlamalarning nomlari berilgan. Silliq va paxmoq, yupqa to'qilgan va qalinlari (*sedrak*), bir tonli (*tudash*)

va naqshlilari (*az*), yaltiroqlari (*yaltruq*) va shitirlagan (*qaldira*) gazmollari bo'lgan. Qirmizi (*epkil*), ko'k (*ko'k*), yashil (*yashil*), sariq (*sariq*) rangli gazlamalar chaması yaxshi bo'lgan, ammo kiyim uchun ba'zi oq gazlamalar «kimxob va shoyiga teng» baholardı. Rang qo'llashda ayrim ramzlar bo'lgan, ularni xalq matallari ifodalaydi: «Agar ayol suzilishni bilsa, u qizil rangda kiyinadi, agar xushro'y bo'lishni bilsa, yashil rangda kiyinadi».

Xomashyoga ko'ra gazlamalari ip, yung, shoyi va aralashma bo'lgan.

### Ip gazlamalar

Chinakam xalqchil va ommalop gazlama ip gazlamasi bo'lgan. Ularning orasida eng hammabopi surup — bo'z bo'lgan. Bu eng arzon mato, boshqa gazlamalarni baholash uchun mezon bo'lgan. («zarli atlas—cho'z atlas qimmat, eng arzoni — surup-bo'z»). Pul yoki turli operatsiyalarda almashish mol sifatida o'tardi. Hattoki qul savdosida ham («Xarajat uchun bizga mablag' kerak bo'lganda, biz Qutlug' nomli ayolni sotib, Qutlug' Temurdan 150 bo'lak surup oldik»).

XI asrda surup navlar bo'yicha farqlanardi: etaklik bo'z — kiyimning etagi uchun, serdak bo'z - yuqqa to'qilgan bo'z, asosan, yengil va ichki kiyim uchun qo'llanilardi. Bo'zni kichkina bo'lagi egin deyilardi.

Etnografik ma'lumotlarga ko'ra XIX asr surupi — oddiy, bo'yalmagan sal eshilgan ipdan oddiy polotro o'rinishida to'qilgan gazlama.

M.Qoshg'ariyni lug'atida «chelekit» gazlamasi to'g'risida quyidagilar aytilgan: «Turli rangli gullar bosma qilingan ip gazlama». G'ulja mintaqasini tariflagan xitoylik Chan-chun (1221y.) oq ip gazlamada bosma qilingani to'g'risida aytib o'tgan. Keyingi manbalaridan ma'lumki, chitni Samarqandda XV asrda maxsus ustalar-chitgarlar ishlab chiqarishgan, ular naqshni tayyor gazlamaga qilishgan.

Lug'atda ip gazlamadaning ya na ikki atamasi bor: *kamak* — ko'yak uchun ola chi por gazlama, qipchoqlarda esa suv o'tkazmaydigan yopinchiklar uchun va *chek* - undan ustki kiyim tikilardi.

M.Qoshg'ariyning ma'lumotiga ko'ra ip gazlamalarning assortimenti uch-to'rt turdan iborat. Ular bir-biridan qalinligi, zichligi va naqshi borligi bilan farqlanardi. Arab tarixchilari al-Muqaddasiy, Narshaxiy va xitoy sayohatchilari uchun ip gazlamalari har xil tuyulgan; ular barcha atamalarini keltirishgan. Gazlamalarning nomi ishlab chiqarilgan joyiga binoan (*vadoriylik*, *zandanach*, *du-lu-ma*, *mo-si*, *turkistonlik* va *samarqandlik*); ularni xususiyatlariiga ko'ra (*yumshoq*, *qalin*, *tig'iz*, *nafis*, *pishiq*, *juda sof*, go'zal va *yumshoq*); rangi bo'yicha (*sarg'ich*, *va nafis*).

«qizil», «yashil») berilgan. «Xurosonda vadoriy gazlamasidan ustki kiyim kiymagan na amir, na vazir, na qozi, na boy, na oddiy xalq, na jangchi yo'q; ularda u go'zallik va bashanglik timsoli bo'lgan», - deb aytishgan.

### **Yung gazmollar**

Lug'atdagi ma'lumotga ko'ra, yung gazlamani bir necha turi bo'lgan. «Chadam» - yopinchiq va odeyal uchun yupqa namat. Namatdan yoki yung gazlamadan yopinchiq tayyor buyum turida – *keduk* bo'lgan. Ehtimol, al-Muqaddasiy so'zi bo'yicha ular Darzengi (Chaganiana) shahrida ishlanardi. Yopinchiqlarni yo'l-yo'l gazlama – *kemakdan* qilishardi; al-Muqaddasiy Xorazmdan olib chiqiladigan yo'l-yo'l gazlama yoki yo'l-yo'l choponlar to'g'risida eslatib o'tgan. Vengriya sayohatchisi A.Vamberi (XIX asr) quidagilarni yozgan: «Xiva manifakturasi to'grisida gapirsak, Urganch kiyimi ajoyib; uni ikki rangli yung va shoyi ipdan to'qishadi ».

Qalin gazlamalardan tashqari yengilroqlari – «*karish*» ham ishlangandi.

### **Zig'ir gazmollar**

O'rta Osiyoda zig'ir to'g'risida to'la ma'lumot bo'lmagan. Arab manbalaridan ma'lumki, Xorazmda Misr turidagi zig'ir gazlama – «*dabik*»ni ishlangandi (zig'ir tolasidan, shoyi va zar bilan to'qilgan; Misrdagi Dabik shahri nomi berilgan), mashhur Marv mulxamlari tarkibiga zig'ir ipi kirgan va Uyg'ur mamlakatini Lukchun vodiysida bu davrda qo'sh tanda ipli yuqori sifatli zig'ir gazlamasi ishlangan. Ular surupga nisbatan qimmatroq edi. Ammo, gazlamani mahalliy yoki olib kelingan xomashyosidan ishlangani to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. M.Qoshg'ariy lug'atida «*yutim*» (zig'ir urug'i) degan tushuncha bor. Ushbu yakka ma'lumot O'rta Osiyoning o'z zig'iri bo'lganligini ta'kidlashi mumkin. Zig'ir gazlamalari ip, yung va shoyi gazlamalariga nisbatan uncha qo'llanilmasdi.

### **Aralashma gazlamalar**

Aralashma gazlamalar ikki turda bo'lgan: tanda va arqoq iplarning tolasi har xil (paxta va shoyi, paxta va yung, shoyi va zig'ir) yoki xom ipda tolalar aralashma bo'lardi. Aralashma gazlamani ishlash an'analari ilk o'rta asrda bo'lgan. Ma'lumki Mug' tog'idan topilgan so'g'd gazlamasini tanda ipida paxta va ipak galma-gal bo'lgan, arqoq ipi esa paxta tolali bo'lgan. Mashhur marv gazlamasi «*mulxam*» aralashma bo'lgan. M.Qoshg'ariy lug'atida paxta va yung aralashma gazlama – «*yatuk*» uchraydi.

Turklarga olib chiqiladigan gazlamalar al-Muqaddasiy ro'yxatidagi qizil gazlama «mamardjal»ni V.A.Krachkovskaya aralashma deb o'yaydi. Chunki arab tilida bu so'z birorta narsa bilan aralashtirish degan ma'noni bildiradi.

### Shoyi gazmollari

Turk yodgorliklarida ko'proq ikki shoyi gazlama uchraydi: *aga va barchin*.

*Aga* – kimxob, ya'ni metall iplar qo'shilib to'qilgan gazlama. Al-Muqaddasiya ko'ra, kimxobni turklarga Samarqanddan olib kelishardi, Xorazmda esa kimxobni hadya uchun ishlatishardi.

*Barchin* to'grisida lug'atda uni tavsiflaydigan ayrim ma'lumotlar bor:

tashqi ko'rinishi bo'yicha:

- *yolaq barchin* – yo'l-yo'l barchin;
  - *yashil yerlig barchin* – yashil gruntli barchin;
- mo'ljallanishi bo'yicha:
- *eshuklik barchin* – choyshab uchun barchin;
  - *to'shaklik uchun barchin* – yerda o'tiradigan to'shak uchun barchin;
  - *barchin kezuban telu yuvga bolur kal* – barchinni kiyib, beparvo va nimjon bo'l;

bo'yash jarayoni borasida:

- *barchin bodugi ongdi* – shoyida bo'yoq xiralashdi.

Bundan shunday xulosa qilish mumkin: barchin asosan to'qima yoki bosma naqshli, qalin va ayniydigan bo'lgan. Barchinning qalinligini o'rta asrida muallif arab so'zi istabarakni tushuntirganda barchin so'zidan foydalananadi: «Istabarak bu barchin... Uning teskarisi juda chiroyli, juda qalin, o'ng tomoniga o'xshaydi, o'ng va teskarisi bir xil». Demak, barchin va shoyi, zandanachini ko'p shodali dastgohda to'qilgan bir turdag'i gazlamalar deb faraz qilish mumkin.

XX asr boshida ko'p shodali naqshli to'quvchilik naqshbandlar san'atida saqlangandi.

Lug'atda shoyi gazlamalarning boshqa atamalari ham uchraydi, ammo texnik xususiyatlari bo'yicha ularni tiklash mumkin emas: torku yoki torkushu – shoyi (*yinchka torku* – yupqa shoyi; torku yorishdi – shoyi eskirdi: «xitoy (hokkonida ko'p shoyi (*torkushu*), ammo uni o'lchamasdan bichishmaydi)» va *yurun* – shoyi bo'lagi, shoyi yoqa (*yurun yaka*).

Shoyi gazlamalar ro'yxati xitoydan olib kelingan gazlamalar bobida kengayadi: turli navli bo'yalmagan va sidirg'a shoyi gazmollar (*toxchak, shalashu, kachach, kanzi*), naqshlilari (*chinaxsi, eshkurti*), kimxoblar (*zungum, alanga fonli - chuz* va qizil rangli oltin tangachali – *loxtak*). Uyg'ur xon muhri bilan olib kelingan gazlama (*kamdu*) pul o'rniga ishlatirilardi.

Boshqa turk manbalarida («*Tafsir*» va «*Qutadg'u bilig*») bir necha arab gazlamalarining nomi keltirilgan. Istabarakdan tashqari qimmatbaho yashil naqshli gazlama «*abkari*»dan jannat yostiqlarining jildi qilinadi. Xalil ibn Akbarning so'zi bo'yicha, arablar qimmatbaho buyumni ko'rsa, uni «chiroyli akbari» deyishadi; «*rafraf*» gazlama — «bu yashil rangli shoyi gazlama (*barchin*) bilan ko'rpalarni yopishadi».

Arab gazlamasi «*kasab*» to'g'risida «*Qutadg'u bilig*»da aytildi: «Dunyoda eng imtiyozli gazlamalar — *toziy (arab)* va *rumiy (vizantiya) kimxobi (kasab)*, ular senga kelsa ham, xazinang bari bir to'lmaydi». Demak, XI asrda eng qimmatli va chiroyli deb arab va Vizantiya gazlamalari hisoblangan. Xitoy gazlamalari ko'pligiga qaramasdan, badiiy sifatning estetik ideali Vizantiya va arablar tomonida bo'lgan.

Uzunlikni o'lchash me'yori *qarich, chig'* — taxminan uzunligi 30 sm (fut). Shunga e'tibor berish kerakki, qarich bilan qimmatbaho shoyi o'lchangan, chig' bilan esa — surup. Ulgurji me'yorlar ham bo'lgan: *qo'chaq, bezinch* — dona, rulon; xom ip kalava.

Pardalar (*tulfir*) va choyshablar (*kashik*) o'ziga xos gazlama turi bo'lgan. M.Qoshg'ariy davrida to'yga oid maxsus shoyi yuz pardasi - *mundaru* bo'lgan. Kelinlar bosh va yuzini yopinchiq — *didak*, yosh ayollar esa - *saraguch* bilan yopishardi. Parda va choyshab uchun shoyi gazlama — *barchinni* qo'llashardi.

Lug'atda kashtalangan so'zanalar (*kerim, tam kerimi*) to'g'risida ilk ma'lumotlar keltirilgan. Kashta(*chechin*) zar ip bilan shoyida qilinardi. Ehtimol, shu davrda kimxobda qo'llanilgan metall iplar bilan kashta qili-nardi. M.Qoshg'ariy lug'atida zar ipni tayyorlash texnikasi keltirilgan. Chamasi O'rta Osiyoda shoyida kashta qilish san'ati avval bo'lgan. Xitoy sayohatchisi Syuan Szan (630- yil) quyidagini yozgan: «Soni 200 dan ko'p saroy amaldorlari yaltiroq kashtalangan shoyiga kiyinishgan... Kagan gulli naqshli kimxob bilan bezatilgan katta o'tovda yashagan... Yarqiragan guldor shoyi liboslarida kutib o'tirgan saroy amaldorlari katta taassurot qoldirardi».

O'rta Osiyoda sovg'a va mukofot sifatida gazlama yoki kiyim berildi. Shu maqsadda maxsus gazlamalar to'qilardi: «*bichish*» — sovg'a uchun shoyi gazlama bo'lagi, «*tanguk*» — koptokni zanjir orqasiga tashlagan o'yinchiga mukofot, yung chopon berilgan shaxsni «*chikraklan*» deyishardi.

Buxoroda kech feodal davrida sovg'abop choponlarni ishslash rivojlangandi, choponlar esa pul ekvivalenti bo'lgan.

To'qimachilik hunarmandchiliga belbog'lar (*kur, kurshag*) va kamarlarni kiritish lozim.

## O'rta Osiyo antik gazmollari

Ibtidoiy san'at faqat tashqi muhitni aks ettirmasdan, yangi siymolarni ham yaratgandi. Ilk tarixiy davrlarda naqsh usullar sistemasi bo'yicha tuzilib, har xil buyumlarning yuzasini bezaganda uslubning birligi hosil qilingan. Arxaik naqsh tuzish sistemasi bora-bora o'zgaradi. Naqsh mavzu doirasining kengayishi va o'zgarishiga ko'p sabablar bo'lgan: ijtimoiy; xalqlar va qabilalar etnik tarkibi, maishiy va hayotiy o'zgarishlar. Ammo qadimdan arxaik naqsh uslubiy birlikni barpo etgan. Naqsh asos yoki karkasni tuzadigan oddiy tipik ritmlardan yaratilgandi. Shu asosda asrlararo dastlabki naqshdan farqlanadigan boshqa murakkabroq va turli naqshlar yaratilgan.

Arxaik naqsh asosida bo'lgan tipik ritmlarni oddiy sistemasi ikki xil tasvirlardan iborat: uzlusiz va berk. Uzlusiz naqshlar takrorlanish, almashish va progressiya ritmlariga asoslangan. O'rta Osiyo arxaik naqshida to'ri va misra sxemalari ustunlik qiladi. Misra kompozitsiyaning bir turi lentasimon sxemada bo'lgan. To'rsimon sxemasi muhim rol o'ynaydi, chunki uchburchaklar, kvadratlar va romblar to'rlarda uzlusiz tasvir hosil qiladi.

Yagona tasviriy mavzu uchun belgilangan kompozitsiya qulay edi. Bu kompozitsiya turida, jonli dunyo mavzulari (muqaddas daraxt, tamg'a, geraldik timsoli yoki gerb, o'simlik va hayvon) tasvirlanardi. Ular qat'iy holatda joylanib, tik kompozitsiyani hosil etadi.

Ulardan tashqari doira sxemasida (konsentrik, radial va xordali va ularni turlari: konsentrik-radial, konsentrik-xordali, radial-xordali yoki astral) kompozitsiya tuziladi. Arxaik naqsh oddiyligiga qaramasdan, uni tashkil etgan figuralar yuzani siyrak to'ldiradi. Ular umumiy bazis chizig'ida guruhanadi, umumiy markaziy chiziqdagi umumiy nuqta atrofida.

Arxaik naqshlarning ritm va kompozitsiyalari barcha boshqa murakkab va rivojlangan qadimiylari, o'rta asr va zamонавиyy naqsh sistemalari asosi bo'lgan.

O'rta Osiyo xalqlari qadimiy naqshlarida amaliy usuli bilan naqshlarning tuzish asosiy tamoyillari belgilangan: naqsh sxema yoki figurallarga bo'linadi; sxema mavzularga bo'linadi; mavzular elementlarga bo'linadi. Elementlar ma'lum ritm tartibida uzlusiz yoki berk naqshni hosil qiladi.

Bu yerda boshlang'ich shaklda simmetriyaning asosiy turlari yaratilgan: *markaziy bir o'qli (oynali), ikki o'qli (koordinatli), uch o'qli (uchburchaklar setkasida), to'rt uqli (kvadrat setksida) va ko'p o'qli (radial)*. Bu barcha naqshlar matematika hisoblarisiz amaliy usulda, faqat tabiat va odam yaratgan badiiy shakllarni kuzatib tuzilgan.

Qadimiy O'zbekiston naqsh madaniyati qabilalar va xalqlarning o'zaro aloqalari jarayonida yaratilgan.

O'rtal Osiyo sak — massaget naqshlari, asosan, Tog'li Oltoyda qadimdan yashagan xalqlardan ma'lum.

Tog'li oltoylıklarning geometrik naqshi quyidagilarni o'z ichiga oladi: *doira, yarim oy, yarim taqa yoki loviya shakliga o'xshagan, shar, kvadrat, romb, uchburchaklar va uchburchakdan har xil kombinatsiyalar* — «bantik» va xochlar. Ularning orasida, ayniqsa, ko'p uchraydiganlari: *vergul shaklidagi figuralar, yarim taqalar, U-shakldagi belgilari, ba'zan «yugurvuchchi spiral» yoki «volyuta» bilan bog'liq jingala va tishchalar bilan murakkablashgan* (Rasm 121-133).

Shundan xulosa qilish mumkinki, deya yuqorida ko'rsatilgan deyarli barcha Tog'li Oltoy naqshlari sak-massaget davrida O'rtal Osiyo amaliy san'atida ham tarqalgan.


Jingala yoki «volyuta» qatorlari «yugurvuchchi spiral» tasvirini hosil qilardi yoki qarama-qarshi just joylanib, yurak shaklini tuzardi. Ikkalasi O'rtal Osiyo xalqlari naqshini rivojlanishida muhim rol o'ynagan. O'rtal Osiyoda jingala, ko'pincha, qo'y va mol shoxi bilan assotsiyalanadi. Ular qat'iy ma'lum xoltda joylanardi (odatda tagini pastga qaratib) va tik kompozitsiyani yaratardi (Rasm 134).

O'zbekiston dala yerlari san'atida *qo'y shoxini* tasviri jingala, yurakcha va «yugurvuchchi spiral» turida mahalliy naqshning dastlabki elementi bo'lgan. Qadimiy tog'li oltoylıklar, keyinroq usuniy ko'chma turk, qozoq va qirg'iz qabilalarida bu naqsh mavzusi keng tarqalgandi. Jingalani roli, qo'y shoxini mavzusi sifatida, boshqa o'troqlikka o'tgan qabilalar va xalqlar uchun muhim bo'lgan.


Tashqaridan o'zlashtirilgan o'simlik mavzulari orasida *nilufar* guli (lotos) va *palmetta* alohida e'tiborga ega (Rasm 135 a-c). Masalan, Pazariq-II qo'rgonidan ko'p rangli namat gilam hoshiyasidagi nilufar tasviri Janubiy Bobildagi Navuudonosor II saroyidagi sirlangan koshinlarning rangiga o'xshaydi. Noin-ulin gazlamalar naqshi Pazariq qo'rg'onidagi shoh to'qasidagi bir-biriga ko'ndalang qilib tasvirlangan ikki turdag'i palmetkalardan tuzilgan naqshga o'xshagan.

Zoomorf naqshlarda hayvonlarning harakatlari aniq va ifodali tasvirlangani bilan ajralib turadi (Rasm 136), tana proporsiyalari to'g'ri berilgan. Shu bilan birga, naqsh mavzulari ma'lum sistema bo'yicha takrorlanishda tuzilgan. Pazarik qo'rg'onidagi gilam gazlamasida va Suza saroyidagi sirlangan rangli koshinlardan frizida sherlar tasviri bir xil uslubda qilingan (Rasm 137).


Shimoliy dala yerlarda aplikatsiya texnikasi yordamida (yung va charmdan) naqsh uslubi, ayniqsa, muvaffaqiyatli bo'lgandi. Bu egri chiziqli naqshlarni




121-rasm.



122-rasm.




123-rasm.



124-rasm.





125-rasm.




126-rasm.



O'rta Osiyo antik gazmolları.



127, 128-rasm. O'rtal Osiyo antik gazmollari.



129-rasm. O'rtal Osiyo antik gazmollari.



131-rasm. Moshchyovaya balkadan «zandanachi»



130-rasm. So'g'd freskalaridan gazmolda dora tasviri



132-rasm. Xasautdan «zandanachi»




133-rasm. Lejdan «zandanachi»



134-rasm.




135 a-rasm.



135 c-rasm.



135 b-rasm.



136-rasm.

O'rta Osiyo antik gazmollari.

rivojlanishida o'z ifodasini topdi va ko'chmanchilar ning naqshini rivojida an'anaviy bo'ldi.

Shunday qilib, qadimiy O'zbekiston naqshi miloddan avvalgi VI-IV asrlarda bo'lgan boy badiiy vositalar, shakl va mavzulariga ega bo'lgan. Bu naqsh shakllar xazinasi keyingi davrlar to'quv naqshini rivojlanishiga muhim va asosiy negizni tashkil etgan.

Antik davr O'rta Osiyo to'qimachilik naqsh mavzularini quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

- chiziqli geometrik va o'simlik;
- zoomorf (hayvonsimon) va antropomorfik (odamsimon);
- atributiv.

Mahalliy chiziqli-geometrik va o'simlik naqshda *to'pbarggullar (rozetka), palmetkalar, nilufar, spirallar va turli biriktiruvchi chiziqlar* bo'lgan.

*To'pbarggul* – bu qadimiy naqshlarda eng keng tarqalgan mavzu. Uning real asosi quyosh yoki gulning shartli tasviri bo'lgan. Doira sxemasida tuzilgan azaliy naqsh shakli-to'pbarggul bilan ko'pgina naqshlar bog'liq.

To'pbarggullar kabi palmetkalar ham naqshning qadim-qadim mavzulari bo'lgan. Ellinizm davriga Noin-ula (miloddan avvalgi II-I asrlarda) gazlamalariga palmetkalar mansub. Gazlamada chapga harakat qilayotgan chavandozlar yurishi tasvirlangan. Yetti gulbargli palmetkalar anor bilan ritmda takrorlangan, yarimspirallar jingalalari esa biriktiruvchi figuralar bo'lgan.

Nilufar tasviri barcha Qadimiy Sharq xalqlariga mansub. *Nilufar* – Qadimiy dunyoni barcha din va ibodatlarida muqaddas o'simlik hisoblanadi. Naqshda uch yoki besh gulbargli nayzabarg turi tasvirlangan. Noin-Uladagi gazlama uchbarglar va yetti gulbargli palmettalar jingala va chirmoviqlar bilan qatorasiga joylantirilgan kompozitsiyalapda ishlangan. Palmetta va nilufar O'rta Osiyoda muhim rol o'ynagan.

*Jingala* va *spiral* – naqsh mavzulari Osiyoda serhosillik ramzi bo'lgan. Ular har xil shaklda va kompozitsion usullarda qo'llanilgan: qatorasiga, to'rsimon va aylana. *Jingala, shoxcha, chirmoviq, to'lqinsimon chiziq va «og'ma to'lqinlar»* turidagi shakllar gazlamada tasviri chiziqli va rangli ishlangani bo'yicha turlanadi. Spiral harakati va chirmashadigan poyalarga odatda doiralar va g'uddachalar jo'r bo'ladi.

*Zoomorf* va *antropomorf* naqsh – bu hayvonlar va odamlarni stilizatsiyalangan tasviri. Eng ko'p uchraydigan naqsh elementlari – *real* va *fantastik hayvon va qushlar, afsonaviy mavzu* bo'yicha kompozitsiyalar. Hayvon, qush va sudraluvchilarning alomatini o'zida mujassamlashtirgan

fantastik hayvonlar tasviri Nain-Uladagi gazmollarda ko'p uchraydi – bu shoxi oldiga egilgan, qayirilgan qanoqli, egilgan uzun tanali grifonlar.

Bu gazlamalarda odamlar ham tasvirlangan – bu ritmik takrorlangan yirtqich qushlar va yalang'och bolalar figurasi. Bola chap qo'lida dumaloq qalqon va o'ng qo'lida qadima bilan, goh qushdan qochgan, goh uni qadima bilan nobud qilgan holda tasvirlangan. Bolaning past tomoni sebarg'a va chirmoviqqa o'tib ketgan. Fon jingala, tok novdasining chirmovig'i, liliya va lolasimon gullar va ag'darilgan sebarg'a bilan palmetalardan guldastalar bilan to'ldirilgan. Hoshiyalarida sebarg'a tasvirlangan (Rasm 138 a-c).



137 a-rasm.



137 b-rasm.



138 a-rasm.



138 b-rasm.



138 c-rasm.

O'rta Osiyo antik gazmolari.

*Atributiv naqsh* – bu *afsonaviy xudolar va qahramonlar atributlarining tasviri*. Bu *kamon o'qdon bilan, qurbanlik marosimining alomatlari* va boshqalar. Ranglar gammasi: qizil, oq, qora. Rang yechimi - ko'prangli.

Qadimiy asrlar to'qimachilik naqshi antik san'atining badiiy konsepsiyasini bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, uni asosida tabiatni afsonaviy tasavvur etish yotgan...

Antik san'atni shakllanishiga urug'-aymoq an'analari, yunon, xitoy, hind va fors san'ati ta'sir etgan.

### **Ilk o'rta asr gazmollari**

Olimlar tadqiq etgan arxeologik asl nusxalar, rangtasvirda tasvirlangan gazlamalar va yozma ma'lumotlar O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlarda to'qimachilik san'ati va badiiy ipakchilikning rivojlanganligini ko'rsatadi.

Shubhasiz, ilk o'rta asr to'quvchilikni rivojlanishida Buyuk Ipak yo'lli bo'yicha qizg'in savdo va madaniy aloqalar katta rol o'ynagan. Chunki bu yerdan uch muhim yo'llar o'tgan: Karategin, Shungan va Vaxan. Ular Xitoy, Hindiston va qo'shni Osiyo mamlakatlari va ular orqali esa Yevropa bilan bevosita O'rta Osiyoniga bog'lashadi.

Toxariston gazlamalari borasida Bolaliktepani devoriy rasmlaridan, ushbu saroydan topilgan gazlama namunalardan va qo'rg'onidan topilgan topilmalaridan tasavvur hosil qilish mumkin. Shu mintaqadagi arxeologik qazilmalar natijasida ip, shoyi va yung gazlamalarning ancha namunalari topilgan.

Bu davrda asosan ip va yung gazlamalari qo'llangan. Tog'li joylarda faqat yung gazlama qo'llangan. Aslzodalar liboslari kimxbob va shoyidan bo'lgan. Toxariston boy ayollarini kimxbob va shoyi, qimmatbaho toshlar bezatilgan liboslarda tasvirlangan. Qimmatbaho gazlamalarni, asosan, mahalliy to'qimachilar ishlagan. Ko'pincha, hashamatli sovg'a sifatida xorijiy saroylarga taqdim etilgan. Masalan, xitoy manbalarida Toxariston elchixonasi xitoy xoqoniga zarli libos hadya etgani haqida ma'lumot bor.

Mamlakatlararo savdo-sotiqda gazlamalar katta rol o'ynagan. Ayniqsa, shoyi gazlamalar. Shoyi dunyo bozorida qimmatbaho va yengil bo'lgani uchun eksportga qulay edi. Shoyi va boshqa qimmatbaho gazlamalarga ehtiyoj oshgani uchun, shoyi oltin va kumush kabi xalqaro valyutaga aylandi. Xuttaldan ko'prangli shoyilar hattoki xitoy gazlamalari bilan raqobatda bo'lgan. Xitoyda esa O'rta Osiyodan kelgan gazlamalarga o'zgacha ehtiyoj sezilgan.

Rang-barang gazlamalar ko'p shodali dastgohda to'qilardi va shunday dast-

gohlarda to'quvchilik badiiy ipakchilik taqdirida muhim rol o'ynadi va boshqa amaliy san'atda yaratilgan tasvirlarni rasm va rangda tiklashga imkon berdi.


Ko'p to'qimachilik mavzulari qadim-qadimdan kelgan. Shoxi egilgan tog'li qo'yalar figuralar, brinj muhrlarda geraldik holatda tasvirlangan burgut, doirani ichida tasvirlangan to'pbarggul va xochlar, ko'pincha, brinj davridagi Shimoliy Baqtriya yodgorliklaridan kelib chiqqan. Bular to'qimachilik naqshining elementlarining timsoli bo'lgan (Rasm 139-140). Qo'sh oybolta, yarimoy, «yurakcha», qo'sh egilgan tog' qo'yalarining shoxi va tupbarggul doirada Baqtriya liboslari bezagining bir qismi bo'lgan. Ular qimmatbaho metallardan qilinib, rangli toshlar bilan inkrustatsiya qilingan. Aynan shu mavzular va rang yechimlari keyin to'quv naqshi asosiga yotgan, rangtasvirlardagi gazmollar tasviri shuni tasdiqlaydi.

Sosoniy injularining kushon an'analarini bilan bog'liqligini Oltintepadan chiqqan kiyimga mo'ljallangan oltin nashivka (doirani ichida donachalar bilan o'ralgan to'pbarggul) tasdiqlaydi. Shu bog'lanishga Dalvarzin tepadan topilgan oltin taqilma ham ko'rsatadi (ritmik takrorlangan yurakcha va donachadan doirani ichida o'ralib olgan kichkina hayvon). Akant bargi va palmetka mavzulari mahalliy antik an'analariga borib taqaladi. Ular Bolaliktepa va Kalaishodmon tasvirlaridagi gazlamalarda qilingan. Toxaristonda bu sujetlar ko'ngilga yaqin to'qimachilik elementlari bo'ldi, chunki ularni ishslash usuli oson edi.

Dalvarzin, Bolaliktepa, Kalaikafirni va Kalaishodmon rangtasvirlarida mashhur zandanechi gazlamalari aks ettirilgan. Ularning o'ziga xos naqshi shaxmat tartibida joylashgan figuralar gazlamani yuzasida ritmik takrorlangandi. Ko'pincha, figura va kompozitsiyalar yumaloq yoki oval shaklli inju, to'pbarggul, «yurakcha», stilizatsiyalangan tangasimon bargdan medalyonlar ichida joylashgan (Rasm 141-143).

Ipak zandanachi ko'p qismida oddiy geometrik va o'simlik naqsh bo'lgan, chunki ularni ishslash oson bo'lgan va to'quv texnikasi bilan organik bog'liq edi. Shunday gazlamalar O'rta Osiyoning bir necha tarixiy-madaniy mintaqalarida bir-biridan farqli ravishda ishlanardi. Buni Xorazm huquq inshosi parchasi tasdiqlaydi: «buxoro va xorazm zandanechisi – ikki har xil turda».

Dalvarzin tasvirlarida zandanechining naqshi – injuli yumaloq medalyon-larga joylashgan to'pbarggul va figuralar. Kalaikafirnigan tasvirlarida shoyi doiraga joylashtirilgan yumaloq injular bilan bezatilgan. Kalaishodmon tasvirlarida asizodalar ko'ylagining qadama yenglariga to'pbarggul (elementlari qizil, ko'k va sora rangli iplar bilan) to'qilgan. Shu rangtasvirda zandanechidan yosqilar qilingan. Shoyinining naqshi injuli katta doiralar



139-rasm.



140-rasm.



141-rasm.



142-rasm.




143-rasm.



144 a-rasm.




144 b-rasm.



a



b



c

145-rasm.

Ilk o'rta asr gazzmollari.

ichiga joylashtirilgan palmetkalar mayda injular yordamida biriktirilgan. Asosiy katta injular orasi sebargsimon daraxt bilan to'ldirilgan.

Shaxmat to'r va oyboltalar bilan bezatilgan dulbarjin gazlamalar naqshida Qadimiy Baqtriya an'analari ko'rindi.

Bolaliktepa tasvirlaridagi shoyi gazmollar naqshlari maxsus e'tiborga sazovor: inju doiralar ichida birida to'ng'iz boshi (144-a), ikkinchisida – soqollı erkakning boshi joylashtirilgan (144-b). Bu shoyilardan kiyimlar keltirilgan. Ehtimol, ular mahalliy ishlangani uchun arzonroq bo'lган, chunki keltirilgan gazmollar bilan serhasham kiyimlar faqat bezatildi.

Qadimiy baqtriya amaliy san'ati an'analarini Bolaliktepa rangtasviridagi gazlama naqshlarida ko'rish mumkin. To'pbarggul, akant bargi, xochlar va injular bilan bezatilgan gazlamani ular toifasiga kiritish mumkin. Bu mavzular eron-Sosoniy san'atiga yaqin, shuning uchun ba'zan Toxariston gazlamani Sosoniy gazlamalaridan ajratish qiyin. Gazlamalar naqshi eron yoki Sosoniy naqshlaridan o'zlashtirilganligini ilg'ash mumkin.

Qadimiy Baqtriyani naqshli kulolchilik an'analari i p gazlamalarga naqsh solinganda qo'llanilgan (rombsimon va shaxmat naqshi qiya to'r ichida tuzish tamoyili). Shu tamoyilda Bolaliktepani ba'zi shoyilari bezatilgan (vertikal romb va baliq tasvirlangan gazmollar). Ehtimol, to'g'ri to'rtburchakda joylashtirilgan qo'ng'iroqcha turidagi osilchoqlar bilan naqshlangan shoyi ham mahalliy edi, chunki ular Toxaristondagi bezaklarga o'xshaydi.

O'yin kartasi belgilari («*qarg'a*», «*chillik*», «*tappon*») bilan bezatilgan gazlamalar o'ziga xos qiziqarli. «*Qarg'a*» va «*tappon*» bilan naqshlangan gazlama bilan kiyimlar bezatilgan, «*chillik*» naqshli shoyidan esa kiyim qilingan (145 a-c).

*Xoch* rasmlı gazlamadan xizmatkorlar kiyimi qilinganligi ularni mahalliyligini isbotlaydi. Demak, yopinchiq va kafanlar bezagi uchun qo'llangan gazmollar boshqa joydan keltirilgan. Bu shoyilarning naqshi Axnim (Vizantiya) shoyilariga o'xshardi. Ular ham «*qarg'a*», «*chillik*» va «*tappon*» tasvirlari bilan bezatilgan.

Eski Termizdan topilgan arxeologik kiyimlar eftaliy kiyimlar turini aniqlashga imkon beradi. Bolaliktepa devoriy rasmlarida eftaliy kiyimlari tasvirlangan. Shubhasiz, ilk o'rta asrda Buyuk Ipak yo'lidi Sharqiy Turkistondan Vizantiyagacha yuqorida aytigan naqshli gazmollarga ehtiyoj sezilgan. Ammo, Sharqiy Turkistonda va Toxaristonda shu uch karta belgilari faqat eftaliy kiyimin naqshida uchraydi.

Bolaliktepa rasmidagi uchbagli gullar va «*mujgonchalar*» naqshli gazmollar – mahalliy gazlama hisoblanadi. Gul mavzulari va geomtrik

figuralar «mujgonchalar». Qadimiy Baqtriya san'atiga mansub. Gul mavzularining timsoli brinj davrining har xil muhr to'pbargullari va antik kiyimlarning nashivkalari bo'lishi mumkin. Ammo, «mujgoncha» to'qimachilik naqshining manbasi Qadimiy Baqtriya san'ati an'anasisiga borib taqaladi. Yuqorida ko'rsatilgan mavzuli gazmollardan Bolaliktepa personajlarining barcha kiyimlari tikilgan. Shu bilan birga gul mavzuli gazlama (uch bargli to'pbargul) erkak kiyimida ikki marta uchraydi: plashch va bel kiyimida. Gul naqshli shoyi gazlamalar ilk o'rta asrda Sharqiy Turkistonda Bolalik-tepadagi shoyilarga o'xshagan. Keyin, VII-VIII asrlarda o'xshash mavzular Afrosiyob va Panjikent rangtasvirlardagi gazmollarida uchraydi.

G.Muyitdinovning tadqiqotiga ko'ra, Toxariston badiiy i pakchiligi Sosoniy san'ati bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, O'rta Osiyo ilk o'rta asr gazlamalari bir necha xususiyatlari bo'yicha Sosoniy badiiy gazmollariga yaqin. Bu naqsh sujetidan boshlab, rangli yechimi va kompozitsiyasida ko'rinadi.



Toxariston gazlamasining kompozitsiyasi ikki-uch, kamrog'i to'rt rangli bo'lgan. Kostyumda rang gammasi yarqiragan va rang-barang, assosiy ranglar – qizil rangni turli tuslari, ko'k, tilla-sariq, qora va oq bo'lgan. Faqat Bolaliktepa tasvirlarida xizmatkorni kiyimida bir marta kul-yashil rang uchraydi. Erkak va ayol aslizodalar liboslarida ustunlik qiladigan rang gammasi qizil, sariq va oq, naqshga esa ko'k va jigar ranglar kiritilgan. Ustki kiyimlari qizil, sariq va oq rangli. Xizmatkorlar esa qora va yakkam-dukkam – oq, sariq, yashil rangli bezakli qizil kiyimlarda (146-148 rasmlar).

Dalvarzin va Bolaliktepaning Qo'rg'onidan topilgan asl arxeologik namunalariga ko'ra yelka va bel kiyimlarini rangi bir xil bo'lgan. Liboslar bezagida qora va qizil, sariq va qizil ranglar birikmalari keng qo'llanilgan. Qizil va sariq ranglarni keng tarqalganligi bejiz emas, chunki ular indigodan tashqari Toxariston tabiatida uchraydi. Arxeologik topilma gazmollar, avval aytganimizdek, qizil, ko'k, yashil (birikmasiga indigo kirardi) va sariq rangga bo'yagan. Bu bo'yoqlardan toxaristonliklar avlodni (Karategin va Darvoz) foydalangan. XX asr boshida A.A. Semyonov ilk bor qo'llangan bo'yoqlar va bog'lash (batik) usulida gazlamaga naqsh solishni tavsif etgan. Masalan, Karategin va Darvoz tojiklari yashil rangni hosil qilish uchun avval sariq, keyin ko'k rangga bo'yashardi. Sariq bo'yoqni hosil qilish uchun yong'oq bo'qog'i («chegari chormag'z»), tut va olma daraxtidagi bo'qoqlar, isparak o'simligining guli, xasanap o'tini qo'llashardi.

Panjikentliklarning ustki kiyimlari murakkab naqshli bo'lgan. Tadqiqotchilarining ma'lumotlariga ko'ra, O'rta Osiyo gazlamalari naqsh



146-rasm.  
So'g'd freskasidan  
gazlama



147a,b-rasm.  
Ilk o'rta asr gazmollari



148a,b-rasm.  
Ilk o'rta asr gazmollari



mavzulari Eron va O'rta Osiyoga mansub. Panjikent gazlamalarining naqshi Bolaliktepa, Afrosiyob va Varaxsha naqshlariga o'xshash. Ehtimol, u yerda Sosoniy shoyilari yoki zandanachi turidagi mahalliy so'g'd shoyilari tasvirlangandir.

Liboslardagi naqshlar kashta usulida qilingan bo'lishi mumkin. Shunday taxmin qilish uchun xitoy manbalari ijozat beradi. Boyshi va Suysuning xronikalari quyidagilarni bildiradi: «Kan (Samarqand, So'g'd) xoqon libosi kashtalangan shoyi gazmollar, kamka va oq matodan... Erkaklar kamchat kafanlar kiyishardi». Ma'lumki *kamka* (xitoycha «kim-xva») — bir rangli

gulli shoyi gazlama. Naqsh tanda va arqoq iplari o'rilishi natijasida hosil bo'lgan. So'g'dda u «*spring*» deb nomlanardi. So'g'dlar kiyimida qo'llanilgan gazlamalar to'g'risida boshqa xitoy manbalarida ham ma'lumot keltirilgan. XIV asr Ma Dualinni xitoy qomusida So'g'd aholi tavsiflarida quyidagilar aytilgan: «erkaklar... kashtalangan kiyim kiyishgan».

VII asr muallifi Syuan-Szaning ma'lumoti Sharqiy Turkistonga (Kuchi) taalluqli. Uning ma'lumotiga ko'ta Toxariston ahollisining kiyimi Xotanliklarga o'xshaydi. Ehtimol, Sharqiy Turkistonga so'g'd va toxariston an'analari ta'sir etgan (VII-VIII asr Kuchi va boshqa joylar tasvirlarida personajlarni kiyimida ko'rsatilgan) dir.

Syuan-Szan ma'lumotiga ko'ra, aslzodalar va oddiy aholi «zar bilan tikilgan shoyi gazzmollar yoki dag'al yung gazzmollardan kiyim kiyishardi». Tanshuning xronikasidagi ma'lumoti bo'yicha, «...kuchar xoqoni shtofdan kafan kiyadi va qimmatbaho toshli kamar taqadi».

### Kech o'rta asr gazzmollar

O'rta asr Sharq miniaturasi xalqlar moddiy madaniyati bo'yicha tanilgan manba. Z.I.Rahimovaning miniatura tadqiqoti interyer va liboslarda qo'llanilgan gazlamalarning ko'pligini oydinlashtiradi. Rassomlar gazlamadagi naqshlarni diqqat bilan tasvirlashgan. Agar gazlamaning ranglar gammasi shubhali bo'lsa (rangtasvir va gazlama bo'yashda har xil bo'yoqlar qo'llanilgan). Tasviriy mavzular – shubhasiz.

1596- yild Qozi Ahmad xattotlar va rassomlar to'g'risida yozgan asarida husnixatning dastxatlari qatorida naqqoshlik san'atining yetti usulini aytib o'tgan: «Yozuvda olti qalam asos bo'lgan kabi, ushbu san'atda ham yetti asos rioya qilinadi: islumi, xotan, farangi, fasali, abr, akre, salami». Traktatning tarjimonи va sharhlovchi B.N.Zaxoder Qozi Ahmadning yozuvini quyidagicha tushuntiradi: «*xotan*» - xitoycha, «*farangi*» - yevropali, «*abr*» - bulut, «*islumi*» - naqsh turi, «*akre*» - Agra, boshqa tushunchalar hali aniqlanmagan. «*Xotan*» haqiqatdan xitoycha (Xatay – shimoliy Xitoy); «*farangi*» - umumiy ma'noda yevropali (ehtimol, fransuz), lekin O'rta Osiyoda farangi deb o'simlik mavzuli faktura rasmlı jakkard gazlamalarni aytishadi; «*abr*» - to'p-to'p bulutlar asosida ikat usulida ishlangan naqsh turi; «*islumi*» - novda asosida tuzilgan o'simlik naqsh (sinusoida, jingala, spiral), shubhasiz, islumi uslubi yetakchi bo'lgan.

O'simlik mavzusidagi naqsh bu davrda ma'lum darajada evolyutsion o'zgargandi. Uning rivojlanishi murakkab va turli-tuman bo'lgan. Eski shakllar inqirozga uchragan sari yangilari tug'ilardi, hududiy farqni belgilovchi har

xil ustalar maktablari bo'lgan. G'uncha, gullar va shoxlarni barcha tasvir turlari bo'yicha gapirishning xojati yo'q. Chunki ularni ko'pligidan buni ayтиб bo'lmaydi. Bu davrda to'qimachilik naqshida eng ko'p uchraydiganlarini ko'rib chiqamiz.

Gul – abadiy go'zallik timsoli. Bu shakl mahalliy florani har xil turlarini badiiy xislatlarini o'ziga olgan. Ayniqsa, xalq tasavvuriga va rivoyatiga, folklor va she'riyatga mos keladigan turlarini. Gullar ikki proyeksiyada tasvirlangan. Bu liliya, gulsapsar, paxta guli, kartoshka gul, gulxayri, qo'qongul, sallagul, binafsha, olcha guli, anor, nilufar va boshqalar. Gullarning tasviri shartli va stilizatsiyalangan (Rasm 149-152).



149-rasm.



150-rasm.



151-rasm.



152-rasm.

**149-rasm.** So'nggi o'rta asr. «Yosh yigit kitob bilan» miniaturasidan fragment.

**150-rasm.** So'nggi o'rta asr. «Pahlavon Mahmudning hind yigiti bilan kurash tushuvi» miniaturasidan fragment.

**151-rasm.** So'nggi o'rta asr. «Yusuf taxida» miniaturasidan fragment.

**152-rasm.** So'nggi o'rta asr. «Temurning g'azot urushuga otlanishi» miniaturasidan fragment.

Islimi turdag'i naqshda novda, poya va barglar muhim rol o'ynaydi. Rasmning xarakteriga ko'ra novdalar, buta shoxlari, o't va gul poyalari uchraydi (Rasm 153) O'simliklar bag'irlab o'sadigan poyalar yoki spiral shaklidagi poyalar bilan doira yoki to'pbarggul kompozitsiyasida tasvirlangan. Bag'irlab o'sadigan poya hoshiyasida kesishib o'tgan poyadek tasvirlangan. Kesishib o'tgan ikki-uch bag'irlab o'sadigan poyalar yoki spiral novdalar murakkab uyg'un naqshni hosil qiladi. Bargning shakli ikki geometriya elementidan iborat: doira kesmasi (aylana yoyi) va to'lqinsimon chiziq (sinusoida), poyaning uchi ham odatda konussimon shaklda. Poya va yaproqlar xilma-xilligi va ularni turli joylanishi natijasida naqsh yaratiladi. Bargning ost qismi ponasimon, yuraksimon, nayzasimon qilingan. Barglar chekkasi yaxlit, tishli yoki arrasimon shaklda tasvirlangan. Bitta bo'lib qo'shilgan barglar ham uchraydi.

Barg va gulli shoxlar erkin joylashtirilgan. Barglarning shakllari xilma-xil; ular poyada navbatma-navbat, qarama-qarshi joylashtirilgan (Rasm 154). Barglar bir tekislikda tasvirlanib yoyilgan, birini ustiga biri qo'yilmagan. Barg jingaladek ko'rinishi mumkin, ammo u o'ralgan yoki eshilgan bo'lishi mumkin emas, soya tushirmasligi lozim. Shunday yozilmagan qoida o'simlik naqqoshlikning uslubini belgilaydi.

Naqshli kompozitsiyalarida madoxillar muhim rol o'ynaydi – bir-biriga kiradigan shakllar. Medalyonlar ikki xilda qo'llanadi: rapportli mavzu va bezak sifatida.

O'simlik mavzusiga nisbatan geometrik naqsh kamroq uchraydi. Bu yo'l-yo'l va yakkam-dukkam katak-katak. Ular chiziqni eni va qaytalanishi, gazlamada joylashtirishi va ranglari bilan farqlanadi (Rasm 155-157).

Zoomorf mavzusi naqshda stilizatsiyalangan qush, hayvonlar, baliq va fantastik hayvonlar, ko'pincha, ma'noga ega bo'lgan. Bu laylak, o'rdak, kaptar, tustovuq, tog'li qo'y, echkilar, Semurg qushi va boshqalar.



153-rasm.

So'nggi o'rta asr.  
«Chavg'on o'yini»  
miniatyurasidan  
fragment.



154-rasm.

So'nggi o'rta asr. «Oshiq-  
lar» miniaturasidan  
fragment.



155-rasm.

«Iskandarning cho'pon bilan suhbat» miniaturasidan fragment

156-rasm.

«Shirinning Farhod bilan tog'da uchrashti» miniaturasidan fragment

157-rasm.

«Tushganlarning Majnundan habar olishi» miniaturasidan fragment

Astral mavzusi ham O'rta Osiyo gazlamalariga mansub: yulduzlar, oy, quyosh, burjlar, spirallar, konsentrik doiralar va boshqalar.

Ilk o'rta asr izi bo'lib, o'yin karta mavzulari ham uchraydi.

Gazlamalarning sujet-mavzuli naqshida shu davr she'riyat siymolari keltirilgan (Layli va Majnun) rasmlar uchraydi. Odadta, miniatura usulida tasvirlangan personajlar bo'lgan. Odamlar, o'simliklar va hayvonlar stilizatsiyalanib tasvirlangan, naqsh rapportli joylashtirilgan.

Gazmolning naqsh mavzulari mayda, o'rta va kamroq yirik bo'lgan; rasmlar siyrak, zinch rapportli yoki hoshiyali joylashtirilgan. Tasviriy mavzular yagona yoki to'planib, to'pbarggul, doira, romb va boshqa turda ishlangan.

Naqqoshlik san'atida rang muhim rol o'ynagan. Rang gammasini tanlash uning ramzi va himoya funksiyasi bilan bog'liq. Misol uchun, moviy, ko'k va binafsha ranglar osmon rangi bilan, jigar rang esa — yer bilan assotsiyalanadi. Rang gammasida oq, sariq, qizil, to'q sariq, terrakota ranglar bo'lgan. Rang birikmalari o'xhash, kontrast va o'xhash-kontrast edi. Kontrastlar ton va oqlik bo'yicha bo'lgan, ammo kontrast keskin emas — pasaytirilgan. Ustalar o'zaro juda yaqin tonlar rangli kontrastni pasaytiradi, juda katta farq esa uni hosil bo'lishiga monelik qiladi.

Miniaturlardan kostyum tahlili quyidagini ko'rsatadi: naqshli

gazlamalardan (o'simlik va geometrik) salla, ko'yak, xalat, yopinchiq, ishtonlar qilinardi. Ko'pincha, erkak va ayollar kiyimidagi o'simlik mavzulari tashqi muhitni aks ettiradi va ba'zan ma'noli bo'lgan.

Erkaklar va ayollar, katta va kichiklar, turli ijtimoiy guruhlar kiyimlarining naqshi farqlanmasdi.

Naqshli gazmollar interyerda ham uchraydi, ularning naqshi kiyim gazmollariga o'xshaydi.

### Bosma naqshli gazmollar

O.A.Suxarevaning ma'lumoti bo'yicha, gazmol bezashning o'ziga xos bosma usuli bo'lgan. O'rta Osiyoda qadim zamonlarda naqsh bosishning maxsus usuli yaratilgan. Bo'yoqlar o'zgarmagan holda kompozitsiya va naqshda xilma-xillikni barpo etishga imkon beradi. Ammo texnologiya jarayoni naqshni koloristik boyitishni chekladi va naqsh, asosan, qora va qizil ranglarda qilinadigan bo'ldi.

Uch fragment bosma naqshli topilma gazmollar bittasi X-XI asrlarga oid (Kiiev viloyati datorkinini qabridan topilgan) kiper o'rlishda to'qilgan shoyi gazlama. Ikkiasi esa (XI-XII asrlarga oid) Orel viloyatida slavyan-seversk qo'rg'onlardan topilgan – polotno o'rlishda to'qilgan yung gazlama. Barcha namunalarda naqsh qora bo'yoq bilan qilingan. Namunalar yaxshi saqlanib qolmagani uchun texnologik tahlil etilmagandi. Shoyi gazlamalardagi yurakcha va mayda xalqachadan murakkab naqshni tiklashga imkoniyat bo'limgan. Yung namunalarning naqshi xalqa tuzilishda doiralar va injular tasvirlaridan iborat. Bosmani birida doirani markazida sakkiz qirrali to'pbarggul, ikkinchisida esa – y'og'on tomonli kvadrat tasvirlangan.

Garchi bosmalarda so'g'd shoyilaridagi doira mavzulari qo'llanmasa ham, boshqa texnika va matoda ishlangani uchun zandanachiningsovuuqqon stilizatsiyasi bo'lmasdan, juda ta'sirli san'at asari bo'lib chiqqan. Qadimiy yung bosmalarini so'g'd shoyilar bilan naqshlarni stilistik yaqinligi va M.Qoshg'ariyning bosma va qora bo'yoq to'g'risida ma'lumotlari ularni ehtimol O'rta Osiyodan chiqqan deb aytishimizga imkoniyat yaratadi.

Boshqa qadimiy bosma gazlama yodgorligi Bibixonim maqbarasidan topilgan chirib ketgan bosma namunasi (XIV asr)dir. Uning naqshi zamonaviy bosma naqshlarni eslatadi. XVIII asrda ishlangan bosh kiyimidagi naqsh ham hozirgi naqshlarga o'xshaydi. Bundan shunday xulosa qilish mumkin: O'zbekistonda bosma usuli qadim-qadim zamonlarda qo'llanilgan.

Bosma gazlamalarini ishlash O'rta Osiyoda XIX asrning birinchi yarmida keng joriy etilgan. Bu gazlamalar Rossiyaga eksport qilingan.

Buxoro va uning atrofidagi qishloqlar bosma ishslashning asosiy markazi

bo'lgan. Bu san'at bilan, ayniqsa, Jondor, G'ijduvon, Chitgaron, Vardonze, Romitan qishloqlari mashhur bo'lgan. Ular donalab tayyorlanadigan ajoyib bosmani ishlashgan.

Bosma gazlamani O'rta Osiyoning boshqa joylarida ham ishlashgan: Samarqand, Urgut, Kattaqo'rg'on, Shahrисабзда. Bu joylarda donali va metrli bosma ishlanardi. Farg'ona va Toshkentda, asosan, metrli bosma ishlanardi. Xorazm bosmalari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan, ularning naqshi nozik edi.

Rossiyadan keltirilgan fabrikada ishlangan gazlamalar O'rta Osiyoda qo'lda ishlangan mahalliy gazlamalar bilan raqobat qilardi. Bu ularni chiqarishga g'ov bo'ldi. XIX asrning oxiriga kelib ustki kiyimda qo'llanmaydigan bo'ldi va faqat past navlari erkaklar choponining astari sifatida qo'llanardi. Ko'ylik uchun qilinadigan yuqori sifatli metrli bosma gazlamalar umuman ishlanmaydigan bo'ldi. Donali buyumlarga (choyshab, ko'rpa, dasturxon) esa ehtiyoj bor edi. (Rasm 158).



158-rasm.

Bosma naqshli dasturxon

XIX asrning oxiri – XX asrning boshida ishlangan buyumlarning sifati avvalgiday yuqori bo'lgan. XX asrning 20- yillarda artellarda bosma qilish uchun sexlar tashkil etilgandi. «Madaniyat» Buxoro artelining filiallari qadimgi bosma ishlab chiqarish markazlarda (Jondor va Chitgaron) tashkil etilgandi. U yerlarda ajoyib nozik naqshlar bilan bezatilgan ko'rpa-chit va choyshablar qilingan.

O'zbek ustalarining buyumlarini ommalashishi va tarqalishida Samarqandda ochilgan badiiy hunarmandchilik san'ati asarlarini doimiy ko'rgazmasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Toshkent arteli «Ittifoq» bosma sexi chitgarni jalb qilgandi. Keyinchalik, bu yerda usto Abdug'ofurov rahbarligida Fozil Fayziyev, Usto Soat, Usto Ikrom Ismoilov kabi boshqa mashhur chitgarlar ishlashgan.

1930- yilda Toshkentda Badiiy o'quv-ishlab chiqarish kombinati tashkil etilgan. Bu yerda barcha mashhur hunarmand ustalar birlashtirilgan. Yoshlarni barcha asosiy badiiy hunarmandchilik turlariga o'qitish tashkil etilgan. 1934-

yilda gazmolga bosma usulida naqsh qilishni o'qitish bo'yicha bo'lim ochilgan. Birinchi guruh 11 o'quvchidan iborat bo'lган. Abduraim Abdug'ofurov va Ikrom Ismoilov dars olib borishgan. 1937- yilda birinchi usta-instruktorlar chiqarildi.

O'zrasmsanbirlashmasi ustaxonalarida o'rganish va zamonaviy bosmada qo'llash uchun qadimgi bosma rasmlar va qoliplarni yig'ish bo'yicha ish olib borilgandi. Eksperimental ustaxonalar qoshida tashkil etilgan laboratoriyalarda rassomlar V.I.Krinitkiy, V.P.Stolyarov va ustalar Karim Qo'ziboyev va Ikrom Tolipov (Beshqirdan, chitgar, ko'kbosma bo'yicha mutaxassis) ishni malakali tarzda olib borishgan. Ular qadim namunalar bo'yicha buyumlarni ommabop ishlab chiqarishni tiklash barobariga yangi zamonaga yarasha kompozitsiyalarni yaratishgan.

Ikkinci jahon urushi paytida bosma gazlamalar aholining ehtiyojini ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Bu vaqtida O'zbekistonda bosma bo'yicha bitta ixtisoslashtirilgan artel Toshkentda va bosma sexlar Samarqand, Qo'qon, Marg'ilon, Buxoro, Andijon artellarida bo'lган.

Dekorativ bosma gazmollari turli maishiy buyumlardan tashqari yirik ijtimoiy binolarni bezatilishida qo'llanila boshlandi (Toshkent filarmoniysi, Tashsovet).

Urushdan keyingi yillarda hunarmandchilikda bosma gazmollari kamroq ishlataladigan bo'ldi.

O'zbek bosmasi o'ziga xos badiiy tur va uslubga ega. Faqat viloyatiga ko'ra deyarli farqlanardi. Ornamental kəmpozitsiya odmi iliq gammada, gazlamani och sariq fonida faqat ikki rang qo'llanadi — qora va qizil. Bu an'anaviy kolorit qatorida Toshkentda rang-barang bosmalar ham ishlanardi. Yashil, sariq, binafsha va ko'k ranglar oz miqdorda kiritilardi. Ammo buyumlar boyigach, bu polixromlik an'anaviy bosmaga oid odmi uyg'unlik yo'qotildi.

O'zbek bosmasi yumshoq paxmoq gazlama bosmaga o'ziga xos xususiyatlar berib, unga og'ir qimmatbaho yung buyum turini ato etdi. Qadim zamonlarda mahalliy dag'al gazmollarning tabiiy xususiyatlariga endi maxsus ishlov berish vositasida erishildi.

Bosma qilish uchun hunarmandchilik artellari maxsus tukli gazmolni ishlab chiqaradigan bo'lishdi. Paxmoqni har xil turlarini, paxmoq odehyalga qadar, qo'llashardi.

Bosma ishslash texnikasi ancha murakkab bo'lган. Ammo, mehnat sarfi buyumlarning yuqori badiiyligi va bo'yoqlarining mustahkamligi bilan tiklanardi.

Tanin (bujs'un qaynatmasi) eritmasi bilan shimdirligan gazlamaga maxsus

yog'och qoli plar bilan naqsh solinardi. Naqshning asosiy chegaralari, uning chiziqlari qora rang bilan maxsus qolip «bosma» yordamida qilinardi. Shunday qoli plar uzoq saqlanib yetilgan va qo'y yog'ida qaynatib ishlov berilgan ko'ndalang kesilgan nok daraxtidan qilinardi. Chuqur va nozik o'ymakorlikning nafisligi, qimmatbaho va yaxshi ishlangan daraxtning yoqimli fakturasi bilan ular, ko'pincha, naqkoshlik san'at asariga aylandi.

Bosmaning rangli yechimida asosiy rol o'ynaydigan qizil rang uchun, odatda, ornamontal shaklni yoki fonni to'ldiradigan qoli plar yumshoq arzon daraxt - terakdan qilinardi. Ularning shakl va chiziqlari dag'al bo'lган.

Naqshning qora rangi tanin (uning eritmasi bilan gazlama dastlab shimdiriladi) va temir tuzlarining eritmasi (cho'yan qozonlarda achitish usulida tayyorlanadigan) bilan qo'shilganda hosil bo'ladi. Yelim vositasida (o'rik daraxti yelimi) quyuqlashtirilgan eritma qolip bilan gazlamaga bosiladi. Gazlamaga bosma bo'yog'i surish usuli quyidagicha: bo'yoq solingen sopol tog'orani ustiga yung gazlamasi bo'yoqqa sal tegib turgan holda tortiladi va qolip unga sal tegizdiriladi.

Alizarin eritmasida (qadim zamonlarda uning o'rniga O'zbekistonda o'sadigan ruyon qaynatmasi qo'llanilgandi) gazlama qaynatilganda qizil rang hosil bo'ladi. Gazlama qanchalik yaxshi qaynatilsa va dorivor bilan ishlov berilsa (yedirish uchun), ranglar shunchalik yorqin chiqadi. Ikkinch qolip «dud» bilan «achchiq tosh» muddasi va sariq o'simlik bo'yoq «tuxmak» eritmasi (qizil rangga iliqlik beradigan) aralashgan bo'yoq bilan bo'yalgan joylarini alizirin intensiv qizil rangga bo'yaydi. Ishqor tushmagan joylari qaynatilganda sal-pal pushti rangga bo'yaladi. Gazlama oqar suvda chayilganda qisman yuvilib ketadi. Qadimda kunduzgi tarqoq nurlarda buyumlar oqartirilardi.

Qo'shimcha ranglar yashil, ko'k va sariqlari tayyor qaynatilgan bosmag'a maxsus qoli plar bilan beriladi. Buning uchun yelim bilan quyultirilgan sintetik, odatda, anilin, bo'yoqlar eritmasi qo'llanadi. Yorqin ranglarni hosil qilinadi, ammo yorug'likda va yuvilganda rangi o'chadi.

Bunday turdag'i bosmadan tashqari, qadimda ko'k fonga bosma qilinardi. Ularning ishlash usuli murakkab bo'lGANI bois fabrikada ishlangan gazmollar raqobatiga teng kela olmasdi. Bu bosma turini ishslash uchun naqsh avval oq gazlamaga qora bo'yoq bilan odatiy usulda bosiladi, naqsh elementlari doimo mayda bo'lib, gazlamada ma'lum masofada ritmik joylashtiriladi. Naqsh bosilgandan so'ng, qizil bo'yoq (ruyon yoki alizarin) eritmasida qaynatiladi va yaxshilab oqartiriladi. Keyin naqsh bo'ladigan joyga zaxira suriladi va kub bo'yog'ining (indigo) sovuq eritmasiga solib, ko'k rangga bo'yaladi. Keyin

zaxira moddasi olib tashlanadi va bosma tayyor. Ko'k fonli ayrim qadim bosmalarini naqshni nozikligi bilan ajralib turadi, ammo ularning ko'plari ajoyib qizil-qora naqshli bosmalaridan qolishardi.

Turli mintaqalarning bosma san'atida azaldan tajriba almashinilgan. Bir-birini boyitgan, ikkinchi tomondan esa – bu bir xillikka sabab bo'lgan.

Mavzularning taqlid etilishi yoki boshqa joylardan tayyor qoli plarni olib kelinishi naqsh elementlarini shunday boyitilishiga sabab bo'lgandi. Qoli plar materiali chidamli bo'lgani uchun asrlararo saqlanishi mumkin edi. Ularni ko'paytirish oson edi, chunki eski qolip bilan qilingan iz bo'yicha o'ymakor naqqosh uning nusxasini qila olardi. Shuning uchun ustada zamonaviy qoli plar qatorida ko'plab qadimiylarini uchratish mumkin edi. Misol uchun, hozirgacha ustalar yoqtirgan «palak» naqshini Buxoro, Samarqand, Farg'ona va Toshkentni qadimiy va zamonaviy bosmalarida uchratish mumkin. Bu naqshning vatani Toshkent, u XIX asrda dekorativ kashtadan o'zlashtirilgandi.

Turli joylarning buyumlarini farqlovchi xususiyati – ularning koloriti bo'lgan: Buxoro mintaqasining bosmalarini qizil rangning iliqligi va yumshoqligi bilan ajralib turadi (Rasm 159-160); Samarqandda quyuq, deyarli sovuq och binafshaga moyil qizil rangni sevishadi; Toshkent bosmalarini yorqin sof qizil rangli bo'lgan va bu yerda ko'p rangli bosma ham qilinardi.



159-rasm.

Qush va o'simlik naqsh. Buxoro



160-rasm.

Bodom naqshli choyshab. Buxoro

Bosmani mohirona badiiy bezalishi nozik ishlangan kompozitsion usuli va naqsh elementlarni ko'pligida o'z ifodasini topgan. Bosmada, ko'pincha, uchraydigan mavzular o'simliklar bo'lgan: «anor-guli», «tol bargi», «qizil

gul», «shox», «atir gul» va b. Tasvirlar biri biridan stilizatsiya qilingan darajasi bilan farqlanardi va qanchalik kuchliroq bo'lsa, naqsh shunchalik qadimroq edi. Ba'zi naqshlar qimmatbaho gazmollardan o'zlashtirilardi («adras»), boshqalari esa dekorativ kashtadan («palak»). Ba'zi bosmalarda geometrik figuralar yoki buyumlarni (*patnus*) va qushlarni stilizatsiyalangan tasviri uchraydi.

Naqsh soladigan qoli plardan tashqari ustalarda donabay buyumlarda turli kompozitsiya yaratish uchun konstruktiv ma'noli naqsh elementlarining qoli plari bo'lgan.

Demak, ustada naqshni tayyor elementlari bo'lgan va uning ijodi ularni birikma va kompozitsiya tuzishga yo'llantirilardi. Ustaning mahorati va didi buyumlarni badiiy sifatida o'z aksini topgan.

Usta, yaxshi qoli plarni to'plamiga ega bo'lib, juda ko'p naqsh variantlarini yaratishi mumkin edi: bir o'simlik elementi ustiga ikkinchisini qo'yib, xilma-xil mevali va gullagan shoxlarni yaratishgan; konstruktiv elementlarni biriktirib, ramka, arka, to'g'ri va qiya xochlarni yaratishgan va burchaklarni to'ldirishgan. Maxsus qoli plar to'plami yordamida turli kattalik va shaklda to'pbarggul tuzilib, har xil naqsh bilan to'ldirishgan. Kompozitsiyani burchaklarida to'pbarggulni qismlarini joylashtirib, original kompozitsiya yaratishgan.

Chitgarlar rassomlar bilan birqalikda ishlardi va qadim naqshlarni boshqacha qo'llab, yangi naqshlarni barpo etishardi. Naqsh kompozitsiyalari murakkablashgan, tasvirlari boyitilgan, zamonni aks ettiradigan mavzular yaratilgandi.

O'zbekistonning asosiy texnikaviy o'simligi paxta bo'lgan. Paxta gullari, barglari, ochilgan chanoqlari har xil ko'rinishda naqshda tasvirlangandi. Ustalar «paxta gul», «paxtalik», «paxta bargi» kabi naqshlarni yaratishdi.



161-rasm.

Bosma naqshli choyshab parchasi

Farg'ona kanali qurilganda (1938 y.), bu muhim voqeani aks ettiruvchi besh bosma taxtadan iborat kompozitsiyani Beshariq naqqoshi Tolipov yaratgandi. Taxtaning ikkitasi kolxozchilarni dalasiga borgan suvni, uchtasi esa — paxtani o'sishining uch bosqichini aks ettirgan.

Shu davrda usta A. Abdug'afurov rassom V. Krinnitskiy bilan birqalikda «paxtanusxa» qoli plari uchun eskizlar yaratishgan. Ular 11 bosma taxtadan iborat bo'lib,

paxtani birinchi chiqqan bargidan boshlab, pishgan chanog'igacha stilizatsiyalab tasvirlashgan (Rasm 161).

Donabay buyumlarni ishlaganda ustalar qadim zamonlarda qo'llanilgan usullarni o'zlashtirishgan. Asosiy bosma - choyshab bo'lgan. Ularni avval ko'rpani avra yoki astariga qo'llashgan, keyin u bilan ko'rpa taxlangan tokchani berkitishadigan bo'ldi. Keng tarqalgan choyshabning kompozitsiyasi markazida deyarli yirik to'pbarggul - «oy» mayda bir xil o'simlik yoki geometrik naqsh bilan to'ldirilgan va murakkab hoshiya bilan o'rabb olingan. Hoshiyasi uch xil enli va rasmli yo'llardan iborat. O'rtasida, odatda, markazdagi rasmga o'xshash yoki uni takrorlagan yirik dekorativ rasm bo'lgan.

Buxoro kompozitsiyasi esa kvadrat shaklli bo'lgan, hoshiyasi keng qilinardi.

Choyshabga nisbatan dasturxonlarning kompozitsiyasida hoshiya markazga o'xshamasdi, rang va naqshi esa deyarli asosiy rol o'yamasdi. Hoshiyasida mayda naqshlar bo'lgan holda, markazida qizil yoki oq fonda katta murakkab to'pbarggul yoki gulli shoxlar tasvirlangandi.

An'anaviy bosmalarda gazlamaning yuzasi naqsh bilan butunlay to'ldirilardi, zamonaviylarida esa – fon to'ldirilmagani uchun yirik dekorativ naqsh yaqqol ko'rindi.

Divan yostiqlari, panjara va boshqalar uchun yaratilgan kompozitsiyalar o'ziga xos ajoyib bo'lgan.

Bu sohada Abduraim Abdug'ofurov (1867-1950 yy.) eng mashhur usta bo'lgan. An'anaga rioya qilib, doimo yangilik izlashgan. Toshkentda u birinchi bo'lib ro'yan o'rniga alizarinni ishlatgan. Buxoro va Farg'ona vodiyiga borib, mahalliy usullarni o'rgangan va Toshkentda o'zlashtirgan. O'g'li bilan birga ilgari kam uchragan ko'p rangli bosma usulini yaratgan. Hakimjon Abduraimov, Ismoilov (Toshkent), Qo'ziboyev (Marg'ilon), Tolipov (Qo'qon), Boboyev (Buxoro), Mirzayev, Akbarov, Abdurahmonovlar kabi mashhur naqqosh-chitgarlar bo'lgan. Maqsum Qosimov va Ahad Foziljonovlar qoli plar ishlovchi mashhur oymakorlar edi.

XX ast bosma gazmollarida sujetli mavzular va portretlar ham qilinardi (Rasm 162).



162-rasm.

Alisher Navoiy surati solingen bosma naqshli gazlama

O'zbekiston ustalari ishlagan badiiy asarlar xalqaro ko'rgazmalarda namoyish etilardi va sovrinlarga sazovor bo'lishardi, shu jumladan, 1937-yildagi Parij ko'rgazmasida 5 ta yuqori mukofotga sazovor bo'lishgan.

O'zbekiston muzeylarida, ayniqsa, san'at muzeylarida bosma gazlamalar va qoli plar namunalari yig'ilgan, albomlar chop etilgan. Ammo, afsuski, bu badiiy boyligimiz deyarli tadqiq etilmagan. Chop etilgan ma'lumotlar juda kam. Bu avlodlarimiz uchun ulkan boylik va maktabdir.

### O'zbekiston badiiy gazmollari

O.A. Suxaryeva va S.M. Mahkamovaning ma'lumotlari bo'yicha badiiy gazmolni ishlash san'ati O'zbekistonda qadimdan bo'lgan. Bu to'g'risida madaniy yodgorliklardagi tarixiy asarlar ma'lumot beradi. X-XII asr «Buxoro tarixi» asarida Buxoro ip gazlamalarini mashhurligi to'g'risida aytilgan. Gazmollar Iroq, Eron va Hindistonga eksport qilingan va u yerda juda qadrlangan.

O'rta Osiyo shoyi gazmollari bilan ham mashhur edi: ma'lumki XIV asrda Samarqandda ishlangan to'q qizil duxoba ko'p joylarga eksport qilinganligi to'g'risida «Boburnoma»da yozilgan.

Tarixchilarning ilk ma'lumotlariga ko'ra, O'rta Osiyoda asosan sidirg'a gazmollar ishlangan. Miniaturalarda tasvirlangan gazlamalarning ko'plari shunday bo'lgan. Ammo, sidirg'a gazmollar toifasida bosma (bosmaning ayrim namunalari XIV asrda bo'lgan) va to'qima usulda naqshlangan gazlamalar (yo'l-yo'l gazlamalar VIII-IX asrlarda ba'zi sopol buyumlarda tasvirlangan) ishlanardi.

XIX- XX asrlarda sidirg'a gazlamalar kam ishlangan, naqshli matolar esa keng tarqalgan. Gazmollarning dekorativligi, xilma-xil tasvirlar bilan bezatilishi O'zbekiston to'quv hunarmandchiliga badiiy hunarmandchilik statusini berdi.

O'zbekistonda XIX asrda to'quv hunarmandchiligi boshqa sohalarga nisbatan eng rivojlangani edi. Bu sohada ko'p hunarmandlar ishlashgan, boshqa sohalarga nisbatan ustaxonlari yirik bo'lgan. Butun shaharlar gazlamani ma'lum turini va naqshni ishlashga ixtisoslashgan. Bularning barchasi O'zbekistonni ko'p joylarida gazlamani bezash san'atini rivojlanishiga, mahalliy uslublar, rang va naqshlarni yaratilishiga qulay sharoitlar tug'dirgandi.

O'zbekistonda XIX asrda ip gazlama ishlab chiqarish keng tarqalgan. O'rta Osiyo xalqlari qadimdan shoyi gazlamani to'qishardi, ammo XVII asrda ko'p joylarda bu narsa esdan chiqarilgandi. Faqat Farg'onada vodiysida

(asosan Marg' ilonda) va Buxoroda bu soha rivojlangandi. XVI asrda o'z shoyilar bilan dong'i ketgan Samarqandda Oktabr to'ntarishidan ilgarigi davrda bu san'at bilan faqat - XVIII asrning oxirida Marvdan ko'chirilgan turk tilli eroniyalar shug'ullangan.

Shoyi gazlamalarni ishlash keskin cheklangandi, chunki XIX asrning oxirigacha shoyi liboslarni faqat aslzodalar kiyishi mumkin edi. Bejiz emaski, shoyi - «kanaus» hozir ham «shohi» (shohlar uchun), «adras» - «podshohi» (podshoh uchun) deyiladi. Oddiy xalqqa shoyi kiyim kiyish man etilgandi. Faqat XIX asrning 90-yillarda boy shaharliklar shoyi gazlamadan bashang kiyim kiyishadigan bo'ldi. Ilgari faqat kelin va kuyov kiyimlari to'y marosimida shoyidan bo'lishi mumkin edi.

Shoyi gazlamani faqat aslzodalar kiygani uchun, uni ishlab chiqarish markazlari o'zbek xonliklar poytaxtlarida bo'lgan. Ip gazlamalari esa ko'p hunarmandchilik markazlarida - shahar va qishloqlarda ishlanardi. O'z hojati uchun ip gazlamalar barcha joylarda ishlanardi.

XVIII asr va XIX asrning boshida gazlamalarning badiiy bezatilishi xilma-xil bo'lgan. O'zbekistonda chiqarilgan turli gazlamalar o'z uslubi va naqshiga ega edi. Ayrim naqshlar va ranglar faqat shoyi, boshqalari esa - nimshoyi, uchinchilari - ip gazlamalarida qilinardi. Shoyi va nimshoyi gazlamalar boy va xilma-xil bezatilgan. Ayniqa, nimshoyilar (tanda ipi - ipak, arqoq ipi - paxta) aslzodalar orasida yuqori baholanardi va shoyilarga nisbatan keng tarqalgandi.

Oddiy xalq kiygan ip gazlamalar odmi naqshlangandi, ammo, ularni orasida qadimiylar an'analarni o'z ichiga olgan ajoyib namunalari ham uchraydi.

Har xil joyda ishlangan bir xil gazlamalar umumiy xususiyati bo'lgan holda naqshi va ranglari bilan biri biridan uslubi bo'yicha farqlanardi.

Chor Rossiya O'rta Osiyoga eksport qilgan gazmollar mahalliy to'quv hunarmandchiligidini inqirozga uchratdi. Ammo, mahalliy sanoat qishloq aholisining ehtiyojini qondirardi.

Hunarmandchilik gazmollarining sifati va badiiy holati sun'iy bo'yoqlar va fabrika xom ipini qo'llanganligi bilan o'zgardi. XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoga rus xom ipi va XIX asrning oxirida anilin bo'yoqlari va alizarin olib kelindi. Anilin bo'yoqlari aynigani uchun ip gazlamani sifati pasaydi. Yuqori sifatli alizarin (ro'yan o'rniqa) qimmatbaho ip gazlamada ishlatiladigan bo'ldi. Ishlab chiqarish jarayonini yengillashtirib, koloritni boyitdi va aynimaydigan sof qizil rang berdi. Shoyi gazmollarida avvalgi o'simlik bo'yoqlar jumlasida sun'iyilarini ham ishlatadigan bo'lishdi; xom ip esa faqat mahalliy bo'lgan.

Bu o'zgarishlar gazlamalarning koloriti va uslubini o'zgartirdi, o'simlik

bo'yoqlarning nafis tuslari o'rniga yorqin, jaranglagan yoki odmi ranglar, grafik naqshlar keldi. Ikki – uch kontrast ranglar avvalgi polixromlikning o'mini bosdi.

O'rta Osiyo gazmollari, ayniqsa, shoyilari, endi Rossiya bozoriga ketgani uchun, gazlamalar assortimenti, rangi va naqshlari o'zgargandi. Ammo to'qimachilik sanoatida, ayniqsa, hunarmandchilikda, to'qimachilar yaratgan gazlamada avvalgi naqshlash usullari qo'llanib rivojlangandi.

O'rta Osiyo gazmollarini naqshlashning asosiy xususiyati – naqshni yaratuvchi tanda i pi bo'lgan. Unga to'qishdan oldin rasm solinar, arqoq ipi, odatda tanda i piga nisbatan qalinqoq va dag'al bo'lib ko'rinnasdi va ba'zan naqshning koloritini kuchaytirardi yoki pasaytirardi.

Ko'p joylarda (Xorazmdan tashqari) faqat katak-katak gazlama ishlanganda (XX asrn boshida) yo'l-yo'l tanda va ikki rangli arqoq i pi yordamida naqsh yaratilardi.

Rus bran texnikasi usulida to'qish, naqsh shodalarini murakkab konstruksiyasiga asosan hosil bo'ladi. O'rta Osiyo to'quvchiligidagi ham bu usul qo'llanilgan. Ikki gazlama turida qo'llangan: yo'l-yo'l yoki katak-katak gazlama «djanda»da va Namangan dasturxonlarida.

O'zbekistonda to'quv jarayonida naqsh yaratishda ikki usul qo'llangan va hozirgacha qo'llanmoqda. Ular ikki tur hunarmandchilikka oid gazlamaning naqshini yaratadi: yo'l-yo'l va abr gazlamalarida.

Birinchi usul bo'yicha gazlamalarda yo'l-yo'l naqsh yaratish uchun avval hisoblangan turli bo'yalgan xom iplar birikmasi yordamida tanda i pi tandalash jarayonida naqsh hosil qilinadi. Aynan shu usul XIX asrda O'zbekistonda eng rivojlangani edi.

Yo'l-yo'l naqshlarning xilma-xilligi va ko'pligi shunday gazlama ishlab chiqaradigan mintaqalarda ularning an'anaviy uslubi, juda oddiy va samarali vositalar yordamida ajoyib taassurot qoldiradigan benazir san'ati – bular barchasi yo'l-yo'l naqshlar qadimiy naqsh turi bo'lganligini dalillaydi.

Yo'l-yo'l naqshlar har xil gazlamalarning naqshlarida qo'llanilgan – ip, shoyi, nimshoyilarda. Ehtimol, yo'l-yo'l shoyi gazlamalar ip gazlamalar dan keyin paydo bo'lgan. Shoyi va ip gazalamalarning bir xil an'anaviy naqshini mavjudligi va ayrim mintaqalarda ikki xil gazlamada bir xil nom – «olacha» - bo'lganligi (Buxoro, Kitob) ularni genetik o'xshashligini isbotlaydi.

Samarqand (Rasm 163), Urgut, Nurota va Buxoro viloyatdagi qishloqlari (Gajdumak, Vardonze, Zandana va b.) yo'l-yo'l gazlamalarni ishlab chiqaradigan markazlar bo'lgan. Farg'ona vodiysida Namangan, Beshariq tumanidagi qishloqlar ip gazlamato'qish markazi bo'lgan. O'zigaxos uslubda ip gazlamalar Xorazmda ishlab chiqarilardi.

Yo'l-yo'l gazlamalarni naqshlanishi tandalash jarayonida hosil bo'lgani uchun, to'quvchi naqqosh bo'lib, kompozitsion usullarni va o'z mintaqasining kloristik qonunlarini bilardi. Ularning orasidagi mashhur ustalar yo'l-yo'l gazlamani ishlab chiqarishda badiiy tomonini texnikaviy tomoni bilan baravar e'tiborga olishardi. Shunday ustalardan biri

Mirg'ani Mirazimov an'anaviy Samarqand uslubidan foydalanib, yo'l-yo'l gazlamalarni yaratgan. Samarqandlik aka-ukalar Haydar va Muhammadi Akramovlar, urgutlik Ziyo Salayev va boshqalar yangi-yangi yo'l-yo'l naqshlarni yaratishgan.

XX asr boshida «*qalami*», «*olacha*» turlari yo'l-yo'l gazlamalarning asosiy turlari bo'lgan. «*Qalami*» odatda xonaki dag'al xom ipdan ishlanib, asosan, erkak choponlarida qo'llanildi (Rasm 164-166). Uning yo'l-yo'l naqshini oq foni bo'yalmagan xom ip berardi, arqoq i pi ham oq bo'lgan, yo'l-yo'llari ko'k yoki qora rang qizil rang bilan birikmalari bo'lgan. Oddiy polotno o'rilib usulida to'qilgan gazlamaning oq arqoq i pi yorqin ranglar va yo'l-yo'llarning chegaralarini yumshatardi. Qalami, asosan, qishloqlarda ishlanardi.

Ip gazlamalarni ikkinchi turi «*olacha*» bo'lgan (Rasm 167-169). Bu gazlama to'q yoki yorqin yo'l-yo'l bilan naqshlangan, arqoq i pi odatda to'q yoki ko'k bo'lgan. Olacha ishlanganda fabrika xom i pi qo'llangani uchun gazlama tekis va yuqori navli bo'lgan. To'q koloritli qalin olachada xonaki xom i pi qo'llanilgandi.



163-rasm.

Yo'l-yo'l «*qalami*»  
gazlamasi. Samarqand



164-rasm.

Batist. Samarqand



165-rasm.

«*Qalami*» Nurota




166-rasm.

«*Qalami*» Farg'onha vodiysi



167-rasm.

«*Olacha*»



168-rasm.

«*Olacha*»



169-rasm.

Olacha «*mushku-u-zafar*»

Urgut

Qishloq joylarida an'anaviy yo'l-yo'l ip gazlamalar to'qilardi. Ularda mahalliy qadimiy an'analar o'z aksini topgandi. Masalan, Urgutda sarfinka, Nurotada — olacha, Vobkentda — qalami to'qilardi. Qizil va ko'k rangli yo'l-yo'llarning xilma-xil birikmalari qo'llanilib, oq ip ta'sirida naqsh pushti yoki to'q moviy rangli bo'lib ko'rindi.

Farg'onada (Beshariq va Namangan) ishlangan qalamini naqshiga to'q yashil va qora keng emas yo'l-yo'llarni orasiga juda ingichka oq yo'l kiritildi.

Xorazmda bu mintaqaga oid asosan qizil tonli yashil, ba'zan, binafsha rangli tor yo'l-yo'lli olacha ishlanardi. Xorazm olachasi maxsus usul yordamida yaratilardi (Rasm 170). Bu gazlama asosan Xorazm va Qoraqalpoq milliy libosida qo'llaniladi.



170-rasm.

Yaltiratilgan olacha. Xorazm

«batist» deb nomlashgandi. Naqshlari yo'l-yo'l yoki katak-katak bo'lgan.

Yupqa va zich to'qilgan gazlama «banoras»ni naqshi juda mayda oq va moviy yoki yo'l-yo'lli bo'lgan. Undan ayollar paranjisi va qari erkaklar choponlari qilinardi.

Bu davrda yo'l-yo'l gazlamalardan tashqari katak-katak gazlamalar ham ishlangandi. Bu gazlamaning nomi «*sarfinka*» (rus. «*sarpinka*») edi. O'z texnikaviy sifati bo'yicha mahalliy olachaga yaqin bo'lib, uni eni kengroq bo'lgan va u unchalik qalin emasdi. Katak-katak naqshi yo'l-yo'l tanda va ikki rangli arqoq iplarni o'riliishi bilan barpo etilardi.

Naqshlar o'xhash bo'lsa ham, mahalliy xususiyatlarga ega bo'lgan. Masalan, Samarqandda katak-katak naqshi mayda bo'lib, qizil, to'q ko'k va oq ranglarda bo'lgan. Qari ayollar kiyimi oq va moviy rangli katak-katak sarfinkadan qilinardi. Kataklar oddiy, kattaligi teng bo'lib, gazlamaning yuzasini to'ldirgan. Shu bilan samarqand naqshlari Shahriston gazlamalaridan farqlanardi. Ingichka bir xil rangga bo'yagan arqoq va tanda iplari bilan katak-katak naqshi hosil qilingan. Erkaklar kiyimi uchun shu turdag'i yo'l-yo'l gazlamalari ishlangan. Katak-katak gazlamadan esa faqat ayollar va bolalar kiyimi qilinardi.

Ip gazlamalar jumlasida nimshoyi gazlamalari ham to'qilardi. Naqsh san'ati bo'yicha yuqori yutuqqa erishgan gazlama «*beqasam*» edi. Beqasam — ipak tanda va qalin paxta arqoq ipidan to'qilgan zich yo'l-yo'l gazlama. Buxoro va Qashqadaryoda bu gazlamani ip yo'l-yo'l gazlama kabi «*olacha*»

Shu davrda yupqa och tonli gazlamalar ham to'qilardi. Tanda va arqoq ipi fabrika xom ipi edi. Ba'zi joylarda (Samarqand) ularni «*patis*» (rus.

deyishadi. Maxsus olachani tanda ipi paxta va ipak ipdan, arqoq ipi - paxtadan bo'lgan. Bu olacha «nimshohi» deb atalardi. Bir yoki ikki rangli ipak ipi ajralib turardi. Paxta iplarining orasidan o'tkazilgan sariq shoyi ipi metallni eslatardi.

1922-1926- yillarda beqasam keng tarqalgan. Undan ayol va erkaklar va bolalar ustki bashang kiyimi qilishardi. Har bir mintaqaga gazlamani mahalliy rangga bo'yashgan.

Farg'ona vodiysi gazlamalarining sovuq koloritiga binafsha rangni sovuq yorqin yashil va oq ranglar birikmalar yordamida erishilgan. Oz miqdorda ingichka malina rangli yo'l-yo'l va ba'zan beshinchchi rang kiritilardi. Marg'ilonda bu naqsh ranglar soni bo'yicha nomlangan: «uch qashoq» (uch rangli), «besh qashoq» (besh rangli) yoki «bayroq» bo'lgan. Farg'ona vodiysi shaharlarida malina va pushti ranglar faqat ayollar va bolalar kiyimlari uchun ishlangan beqasamga kiritilardi. Erkaklar kiyimida qizil rang kiritish man etilgan. Erkaklar kiyimi uchun yo'li bir xil to'q yashil, binafsha va ko'k rangli beqasamlar qo'llanilgan. Bu naqsh «olti-bog» deb atalardi.

Buxoroda asosiy ton doimo pushti bo'lgan va naqshda bu yo'lning eni oq, binafsha va yashil rangli yo'llardan kengroq bo'lgan.


Samarqand va Urgut beqasamlarida maxsus texnikada ishlangan kul rang keng yo'llar qilinardi. Shunday to'qish usuli yengil olachi por naqsh «zanjira»ni hosil qiladi. Ba'zan shunday naqsh boshqa mintaqalarda ishlangan beqasamlarda ham uchrardi.

Samarqand va Urgutda «taroq» nomli beqasam to'qilgan. Unda o'ziga xos yashil va binafsha yo'llar yonma-yon joylashtirilib, tobora toraygan yo'llarga bo'linadi va taroqni tishiga o'xhash bo'lib, ikki rang bir-biriga kirardi.

Samarqand, Urgut va Kitobda qadimiy rangli (malina va ko'k yoki yashil va moviy rangli yo'l-yo'llarga oq va sariq ranglar kiritiladi) mayda naqshli beqasam va «mushku-za'far» (sariq- za'faron va to'q ko'k-mushk ranglar birikmasi) to'qilardi. Sariq ranglar zarga o'xshardi. Bu beqasamdan, ko'pincha, kuyov to'y to'ni qilinardi.

Qadimgi an'analar bo'yicha «pari-pashsha» (pashsha qanoti) gazlamasi to'qilgan - tanda oq shoyi va to'q rangli paxta ipidan va arqoq to'q ko'k rangli iplari birikmalar yordamida ko'kimdir kul rangli ingichka yo'lli gazlama hosil bo'lgan.

Farg'ona vodiyida shu naqshli beqasamlar yashil-ko'k toni bilan farqlanadi (Rasm 171). Ular yaltiratuvchi bolg'a bilan urilganidan so'ng muar effekti hosil bo'lardi. Bu beqasamni umumiy koloriti uning nomini berdi - «mosh rang». Shunday gazlamalar Qo'qon, Namangan va Toshkentda ishlanardi va



171-rasm. Beqasam

a,b-Farg'ona vodiysi, c-Urgut

mo'ysafid erkak to'nları uchun qo'l-lanilgan.

Shular jumlasida Samarqandda bu shaharga oid to'q malina, yashil-feruza yoki sarg'ich tonli mayda yo'l-yo'lli beqasamlar ishlangan.

Kitob va Qarshida fabrika xom ipidan zich to'qilgan ip gazlamalar va beqasamlar ishlanardi. Pushti rangli yo'llar yashil, oq va binafsha yo'l-yo'llar bilan al mashgan. Oq rangli yo'llar keng bo'lgani uchun fonga o'xshardi va shu xususiyati bo'yicha boshqa yo'l-yo'l gazlamalardan farqlangan.

Buxoro, Dushanba va boshqa shaharlarda «adraslar» to'qildi. Adrasda tanda i pi shoyi, arqoq ipi esa qalin paxta xom ipidan bo'lgani uchun beqasam kabi ko'ndalang chiviqni hosil qilgan.

XX asrda beqasamlar qadimgi an'analar bo'yicha ishlanib, umumiy foni hosil qilgan. Ular, asosan, yangi ranglari va naqshlari (ko'pincha, Farg'onada yaratilgan) bilan farqlanardi. Farg'onaga xos odmi koloritni eni bir xil binafsha, qora va oq rangli yo'l-yo'llar birikmalarini yaratardi. Ba'zan oq rang o'rninga zarrin sariq rang qilinardi. Bu shoyini nomi «chervon-shohi» edi, chunki bir ko'ylik yoki kamzul uchun gazlama parchasi bir chervon turardi. Samarqandda chiqariladigan yorqin rangli mayda yo'l-yo'lli shoyi «chervona monu mana gir» deb atalgan (meni ol, chervon to'la).

Kanaus shoyi gazlama naqshlari ko'p joylarda tugun bog'lash usulida qilingan. Ularning xilma xil va detallangan nomlari to'quvchilar orasida saqlangan va ular faqat ranglari bo'yicha farqlanardi. Sovuqona yashil rangli shoyiga oq arqoq ipi kumush rangni baxsh etgan. Bu shoyining nomi «bargi karam» bo'lgan. Qora fonda yoyilgan oq dog'li naqsh «qarg'a shohi» deb atalgan.

Asosan, Farg'onada yo'l-yo'l (oq va kul rang yoki oq va och binafsha) va qora oq mayda katak-katak shoyilar ishlangan.

Samarqandda bu davrda naqshi tugun bog'lash (tuguncha batik) usulda qilingan ajoyib shoyi choyshablarni ishlash tiklangan. Choyshablarning naqshi oddiy va yirik bo'lgan, kompozitsiyasi markazda joylashigan katta to'pbarggul

atrofida tuzilardi. To'pbarggul bir necha qator konsentrik doiralardan iborat bo'lib, bir rangli fonda ajralib turardi. Bu buyumlarning koloriti moviy, pushti va och yashil ranglar birikmalari bo'lgan. Oq xonaki shoyidan arqoq ipi barcha ranglarga kumush ton va nafislikni baxsh etardi. Odmi och rangli choyshablar jumlasida yorqin malina, binafsha yoki yashil ranglilari ham ishlanardi. Arqoq ipi tanda ipi rangiga bo'yalgani bois jilo tarqatgan. Arqoq ipga tandaga nisbatan kontrast rang qo'llangani bois (binafsha tanda ipiga-sariq, qizilga-yashil) gazlama tovlangan.

### O'zbekiston abr gazmollari

S.M. Mahkamovaning tadqiqtiga ko'ra A.Byuller «ikat» usulining markazi taxminan Hindiston yoki Janubiy Xitoyda bo'lgan. Ushbu gazlama bo'yash usuli bu joylardan Old va Markaziy Osiyo, G'arbiy Turkistonga tarqalgan. Avval to'qimachilik buyumlari, keyin esa ularning ishlash texnikasi Baqtriya va So'g'dga (IV-VI asrlarda) kelgan.

Hindiston va Sharqiy Osiyoda ikki asosiy ikat turlari (arqoq va qo'shaloq) uchraydi. Ular Old va Markaziy Osiyoda ishlanmagan. Sharqiy Turkistonda faqat tanda ikati ishlangan. Abr tasviri tanda ipda qilinadi.

O'rta Osiyoda abr gazlamalarining paydo bo'lish vaqtini aniqlash qiyin. Keksa usta-abrbandlar bu usulni qadimiy deb hisoblashadi. Mashhur Marg'ilon ustasi A.Ahmedov so'ziga ko'ra pilla bo'limgan davr to'g'risida naql bor, ammo abrband bo'limgan vaqt to'g'risida naql yo'q.

Ajanta rasmlari bu gazlama bo'yash usuli milodning birinchi asrlarida ma'lum bo'lganini tasdiqlaydi.

«Abr» atamasi (fors tilida «bulut» deb tarjima qilinadi) naqsh nomi sifatida XVI asr adabiy ma'lumotlarida uchraydi. Masalan, Qozi Ahmad (1596 y.)ning hattot va rassomlar to'g'risidagi traktatida «abr» naqshi eslatilgan.

Birinchi afsonaga ko'ra abr naqshlari, dastavval, hovuz suvida yuguruvchi bulutlarni taqlidi, ikkinchisiga ko'ra – hovuz suviga to'kilgan yog'ni yoyilgan dog'larining taqlidi bo'lgan. Ehtimol bu tasvirlar ilk bor kamalakni aks ettirgan qadimiy kashta «abri-bahor» kabi bo'lgan.

Abr usulida bo'yashning paydo bo'lish vaqtini tusmollaganda, Farg'onada vodiysida, Buxoro, Samarcand va boshqa bir qator O'rta Osiyo shaharlarda qadimdan ishlanadigan yengil bosh ro'mollar «qalag'ay»ni eslash lozim. Ro'mollar bo'yash texnikasi «bandan» - tugunchali batik usulida ishlanardi. Sidiq'a shoyi ro'molni ayrim joylarini tugun qilib, paxta ipi bilan zaxira qilinardi va bo'yalardi. Bu jarayon ranglarni turiga ko'ra bir necha marta

takrorlanib, o'ziga xos tasvirlar hosil qilardi. Naqshlar oddiy chiqardi: oval, doira, yulduz, romb, yo'l-yo'l. Sharqda keng tarqalib, O'rta Osiyoda o'zgarib va takomillashib, bandan texnikasi ehtimol abriga aylangandi. Endi gazlama zaxira qilinmasdan, tanda ipi zaxira qilinardi.

Abr usuli murakkab va sermehnat bo'lgani bois faqat shoyi va nimshoyi gazlamalar ishlashda qo'llanilgan.

Ip gazlamalarda bu usul faqat yuqori navlarda qo'llanilgan. Masalan, Nurotada yo'l-yo'l naqsh ip gazlamaga murakkab bo'l'magan zaxira yordamida qilinardi. Ammo bu istisno bo'lgan, odatda avval va hozir bu usul shoyi va nimshoyi gazlamalarda qo'llanilgan: adres, baxmal, shoyikanus va atlas.

Shunday gazlamalar ishlab chiqarishda ikki asosiy yo'nalish, ikki usulni ajratish mumkin: Farg'ona va Buxoro usullari.

Farg'ona vodisida bu gazlamalarning ishlashini rivojlanishi va bu yerda qo'llanadigan murakkab texnik usullar ushbu mintaqaga abr gazlamalarining vatani bo'lganining chtimoli borligi to'g'risida fikr tug'diradi.

Farg'ona usuli oddiy, naqshi yoyilgan, Buxoroda — avval mayda, keyin yirik aniq chegara naqshlar bo'lgan.

Abr usulida tanda i pini bo'yash texnikasi juda murakkab. 200-300m uzunlikda tanda i pi maxsus dastgohda mayda tutam — «libit»larga taqsimlanadi. Gazlamaning zichligi va eniga binoan har bir libitda iplar soni 40-60 gacha edi. Libitlar ikkitadan qo'shilib, rom-dastgohni ko'ndalang bruslariga o'raladi. Bruslar orasidagi masofa naqsh rapporti bilan bog'liq (1,4 - 2,25 m). Libitlar tashkil etgan yuzaga rassom-abrband ingichka yog'och bilan suvda eritilgan qora kuya yordamida vertikal o'qi bo'yicha naqshni yarmini ko'ndalang chiziqlar bilan belgilaydi. Usta trafaret, esklizlardan foydalanmaydi.

Naqshni rang-barang bo'lishi uchun tanda i pi ketma-ket paxta iplar bilan zaxiralanadi va ketma-ket bo'yaladi. Libitlar qaynoq bo'yoqda bir necha daqiqa qaynatiladi. Agar bir rapportni davomida libit tutami pushti, sariq, to'q qizil, yashil va oq rangga bo'yalsa, ular uch marta zaxiralanadi. Avval oq va pushti rang bo'ladigan joylari zaxiralanadi. Zaxiralangan tanda sariq bo'yoq eritmasiga solinib, ochiq joylari bo'yaladi, zaxiralangan joylariga esa bo'yoq sal kirib, ajoyib rangli dog'larni hosil qiladi. Keyin qo'shimcha libitning barcha to'q qizil rangga bo'yaladigan joylaridan boshqa joylari zaxiralanadi. Keyin, libitni to'q qizil rangga bo'yalgan joylari zaxiralanadi va yashil rangga bo'yaladigan joy ochiladi. Bo'yash jarayoni boshida barcha joylari (oq va pushtidan tashqari) sariq rangga bo'yalgani uchun, yashil va

to'q qizil rang sariq gruntovkaga yotadi va shu sababdan ranglarga chuqurlik va sof tonlik taassurotini beradi. Odatda, pushti rang boshqa ranglarga nisbatan kam bo'lgani tufayli tanda i pi bir necha marta kosa-bo'yoqqa botiriladi. Naqshni belgilaganda usta ayrim rangli joylarni orasidagi masofani 5 smdan kam bo'lmasligiga e'tibor beradi. Ayni holda bo'yoq zaxiralanmagan joyga yaxshi shimmashligi mumkin.

Qadimiy gazmollar o'simlik bo'yoqlari bilan bo'yalardi: *ro'yan, isparak, anor pusti, tuxumak, gulxayri, nil (indigo), qirmizi*. Bu bo'yoqlar ostobda va suvda aynimaydi. Tabiiy bo'yoqlar yordamida barcha rangli gammanni hosil qilish mumkin edi. Ular o'zaro uyg'unlikni baxsh etardi, aynimasdi va rangi uchmasdi.

Bu bo'yoqlarni xalq ustuo-abrbandchilari XIX asrning 70-yillarigacha ishlatgan. Keyin *anilin* bo'yoqlari qo'llaniladigan bo'ldi. Ammo ular mahkamlanmagani uchun aynib ketardi. Hozir ularni turli kimyoviy moddalar bilan mahkamlashadigan bo'lishdi. Ammo *pushti (rodomin)* va *ko'k (bejon ranglar)* mahkamlanolmaydi.

Barcha ranglarga bo'yagan, chayqalgan, zaxirasi olingan va quritilgandan so'ng qo'sh libitlar chuvalanib, rasmga nisbatan vertikalning ikki tomoniga joylanadi va ohorga botirilgan taroq bilan taraladi. Keyin tanda i pi to'quv dastgohiga tortiladi va odatiy to'quv jarayoni boshlanadi.

O'rilib usuliga ko'ra abr gazlamalar ikki katta guruhga bo'linadi – garnitura va atlas o'riliishi.

Garnitura o'riliishda i pak - «*shoyi*» va «*nimshoyi*» - «*adras*» yoki «*dagir*» gazlamalari to'qiladi. Nimshoyi gazlamada tanda i pi tabiiy ipakdan, arqoq – oq yoki yorqin rangli paxta ipidan qilinadi. Arqoq ip qalinligi tanda ipidan bir necha karra qalinroq, shu boisdan gazlama yuzasi chiviqli bo'ladi. Shoyidan ayollar kiyimi qilinardi. Abr adras gazlamalari erkaklar choponi, chorsi, ko'rpa, yostiq jild, ko'rpa va mebellarni qoplash uchun qo'llanigan.

Atlas o'riliish guruhiga sof ipakdan to'qilgan gazlamalar kiradi: «*to'rt-tepkilik*»lari – atlaslar, «*sakkiz-tepkilik*» va «*o'n ikki-tepkilik*»lari – xonatlaslar, nimshoyi – «*yakro'ya*». Tepkilik qanchalik ko'p bo'lsa, abr gazlama shunchalik bashang bo'ladi. Marg'ilon to'quvchisi M. Mirzakirov ma'lumotiga ko'ra xonatlas Qo'qon xoni Xudoyorxonning buyrug'iiga binoan (1856 yil) ixtiro etilgan va uning sharafiga xonatlas deb nomlangan. Dastavval bu qimmatbaho gazlamadan libosni faqat xon oila a'zolari kiyishi mumkin edi. Xonatlas vatani Marg'ilondir.

Maxsus pardozlash, ishlov berish usuli O'rta Osiyoda qadimdan bo'lgan. Atlasga yaltiroq effekt va adres va beqasamlarga muhayir effektini berish

uchun tuxumning oqi qo'llanilgan. Gazlamaning uchi tuxum oqiga namlanardi va quruq joylariga taxlanardi. So'ng usta yog'och bolg'a-«*kudung*» bilan gazlamani urib, namlikni barcha joylarga taqsimlanishiga erishardi. Hozir bu ish pardozlash mashinalarida qilinadi.

Turli metrli gazlamalardan tashqari bu usulda samarqandlik ustalar ajoyib shoyi choyshablar ishlashgan.

O'zbek milliy badiiy gazlamalarida rang muhim rol o'ynagan. O'zbekistonning barcha mintaqalariga an'anaviy kolorit va ranglar birikmalari mansub. Marg'ilon to'quvchisi M. Mirzakirovning ma'lumotiga ko'ra, Xo'jand gazlamalarida qizil ranglar ko'p, Farg'onada — qizil ranglar kamroq bo'lib, za'faron-sariq ranglar, Qo'qonda — moviy-ko'k ranglar ustunlik qilardi. Gazlamaning zichligi va rangiga ko'ra u qayerda ishlanganini bilish mumkin edi. Undan tashqari, har bir rang ma'lum yoshta mo'ljallangan. Buxoro gazlamalarida, asosan, to'q qizil, sariq va pushti ranglar qo'llanilgan. Farg'ona gazmollarida, asosan, yetti rang bo'lgan: sariq, to'q qizil, yashil, ko'k, pushti, binafsha va qora. Bir rangni ichiga ikkinchi rangni kirgani va fonda'siri ranglar uyg'unligini yaratadi.

Ayrim mintaqalarning ranglari har xil bo'lganidan qat'iy nazar, milliy o'zbek gazlamalarida ayrim umumiy kolorit ham mavjud. Ranglarni keskin kontrast birikmalariga qaramasdan ustalar rang muvozanatiga va uyg'unligiga erishgan, chunki ular naqshda rang kuchini va nisbatlarini doimo inobatga olishgan.

Sariq, qora, to'q qizil va yashil ranglar uyg'unligiga erishish uchun sariq rangga bo'yalgan tanda ipi to'q qizil va yashil ranglarga, qorarangli tanda esa qizil rangga bo'yaladi.

Arqoq ipining rangi barcha ranglar gammasiga iliqlik berib, boshqa ranglarni o'zaro biriktiradi. Arqoq ipi asosan uch rangli bo'lgan: to'q qizil, sariq va oq. To'q qizil rangli arqoq ipi gazlamaga xira pushti ton berardi, sariq arqoq — kumushdek tovlanish beradi va oq arqoq — osoyishtalik va turg'unlik baxsh etadi. Ustalar mohirona qo'llagan ranglar birikmasining qonunlari tajriba jarayonida tuzilgan. O'quv jarayonida o'rgangan ranglar birikmasining usullari hech qachon izmidan chiqmasdi.

Mashhur Namangan abrbandi A. Jalilovning so'ziga ko'ra, abr gazlama bo'yalganda quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim: to'q qizil rangning yoni pushti va sariq rangga bo'yaladi, ammo qora rangga emas. Sariq rangga yashil va binafsha, binafshaga — oq ranglar yarashadi. Ba'zan yashil rangning oldi pushti rangga bo'yalsa, gazlama sal bachkanaroq ko'rindi; ustalar sariq rangni oq rang bilan birga ishlatmasin deyishadi, chunki gazlama bu holda xunuk ko'rindi. Ranglar ketma-ketligida

quyidagilarni ma'qul deb hisoblashgan: to'q qizil – sariq – qora – oq – to'q qizil.

Agar rangli fonda naqsh qilinsa, an'ana bo'yicha to'q qizil fonga - sariq yoki pushti, sariq fonga – binafsha yoki ko'k, oq fonga - qora yoki yashil rangli element joylanardi. Pushti rangni ustalar kamdan kam qo'llashardi. Gazlamada «naqsh guldek ochilsin» deb ustalar bu rangni qo'llashgan.

Abr gazlamalarida koloristik mukammallik yuqori darajada bo'lganligi uchun, naqsh o'z ma'nosini deyarli yo'qtogandi. Gazlamada fon yoki naqshga asosiy e'tibor berilganligiga ko'ra bir shakl ikkinchisiga oqib kiradi, naqshda och ranglar to'qiga, iliq ranglar sovug'iga o'tadi.

Abr gazlamalar kompozitsion tuzilishi har xilligi bilan ajralib turadi. Tuzilish usullarini uch guruhga bo'lish mumkin: setkali, yo'l-yo'l va panno kompozitsiya.

Setkali kompozitsiya bir necha variantlardan iborat. Birinchi variantda setkani chegaralari aniq chizilgan, ikkinchisida esa – uning shakllari takrorlangan naqsh elementlarining joylashgani bilan ajralib turadi.

Yo'l-yo'l gazlamalari ham har xil bo'lgan (Rasm 172-178). Bir xil elementli yo'l-yo'llar va ikki yoki ko'proq elementlari takrorlangan naqshlar uchraydi. Bir xil yoki har xil enli yo'l-yo'llar o'zaro ketma-ket takrorlanadi, yoki keng yo'llar o'rtada joyланади va ikki tomonidan bir xil naqshli milk bilan chegaralanadi. Naqshi archa (Rasm 177-a,b), chaqmoq va to'lqin (Rasm 177-c,d, 178-c) shaklida bo'lishi mumkin

Panno turida ishlangan gazlamalarda kompozitsiyani markaziy shakli oddiy bir tipdagi naqsh, xurpaygan guldastalar, daraxtlar yoki katta doiralar bo'lishi mumkin (Rasm 179-185).

Abr gazlamalar naqshning tasvirlari bo'yicha farqlanadi. Rangi, razmeri va joylanishi bilan ajralib turadigan asosiy yetakchi elementiga (Rasm 186) ko'ra kompozitsiyaga umumiy nom beriladi.


Abr gazlamalarning naqshlarini bir necha guruhga bo'lish mumkin: geometrik, o'simlik, zoomorf, buyumli, astral (Rasm 187-190) va sujetli.

Geometrik naqshlari: doira, romb, kvadrat, to'g'ri chiziq qismi, egribugri chiziqlar bo'lgan (Rasm 173-177, 191-193).

Abr gazlama naqshlarning nomi shuni ko'rsatadiki, ustalar ularni yaratganda ayrim buyumlar ko'rinishidan foydalanishgan.

O'simlik mavzulari deyarli ko'p emas: «*bargi karam*», «*nomozshom gul*», «*daraxt*», «*tuvakda gul*», «*bodom*», «*nok*», «*shox*», «*anorcha*» va boshqalar. (Rasm 180, 191-c, 194 -a,c, 195-c, 196-a,b, 197-a)

Buyumli tasvirlar eng ko'p qo'llanilgan: «*charmak*», «*taxtakach*»,




172-rasm.



173-rasm.



174-rasm.




175-rasm.

Buxoro abr gazlamalari. O'zR San'at muzeyi kolleksiyasidan

«taroq», «o'roq», «kosa gul», «nog'ora», «nog'ora moki», «g'alvirak», «oftoba», «qumg'on», «patnus», «chetan», «bayroq», «katak», «zanjira», «oy bolta» va boshqalar. (Rasm 177-d, 183-b, 184-a, 191-b, 198-b).


Zoomorf turidagi naqshlarda bo'lak yaxlit deb hisoblanadi degan tamoyil (*pars pro toto*) bo'yicha tasvirlanadi: «qo'chqor shoxi», «yo'bars dumis», «tuya



176-rasm.


Namangan abr gazlamasi: a- «archa»; b- «yashin»;

Buxoro abr gazlamasi: c- «to'lqin»



177-rasm.


Marg'ilon abr gazlamasi: a- «o'roq»; b- «yahudiy»; c,d- «chaqirim»



178-rasm.

Marg'ilon abr gazlamasi:

a- «qora palak»; b- «taxtakach»; c- «beshyorma»; d- «shoti kapa»



179-rasm. Buxoro gazlamalar naqshi. O'zR San'at muzeyi kolleksiyasidan



a

b

c  
180-rasm.

Marg'ilon abr gazlamalarining naqshi: a,b-daraxt, c-tuvakda gul, d-qora nafti



a

b

181-rasm.


Marg'ilon abr gazlamalarining naqshi:

a-qora atlas, b-sapsar qarg'a




182-rasm.

Abr gazlamalarining naqshi




183-rasm.

Marg'ilon abr gazlamalarining naqshi: a,c- nomi noma'lum, b-patnus.




184-rasm.

Marg'ilon abr gazlamalarining naqshi: a- «nog'ora», b-nomi noma'lum.




185-rasm.

Marg'ilon abr gazlamalarining naqshi: a- «zangori qarg'a», b- «sariq yaqbas»



186-rasm.  
Abr gazlamalarining elementlari



187-rasm.

Atlas nimshoyi yakruya. Buxoro.

188-rasm.

Abr gazlama. Marg'ilon




189-rasm.

Abr gazlama. Marg'ilon





190-rasm.

Shoyi gazlama. Buxoro




191-rasm.

Abr gazlama. Buxoro




192-rasm.


Gesar Abr gazlamalarining naqshlari.



193-rasm. Buxoro gazlamalarining naqshlari.




194-rasm. Buxoro gazlamalarining naqshlari.



195-rasm. Marg'ilon gazlamalarining naqshlari.




196-rasm. Marg'ilon gazlamalarining naqshlari: a-daraxt, b,c-nomi noma'lum



197-rasm. Marg'ilon gazlamalarining naqshlari:

a- «qizil-ko'k qarg'a», b- «stabdil», c- «bargi karam»



198-rasm. Marg'ilon gazlamalarining naqshlari:

a- «qo'chqor shoxi», b- «ko'tarma», c-nomi noma'lum, e- «oq palak»



199-rasm. Abr naqshli krepdeshin



200-rasm. Naqshi «Ukraina va O'zbekiston» krepdeshin

*payypoq», «kapalak», «chayon», «ilon izi», «pari xo'roz», «tovus», «qarg'a» va boshqalar (Rasm 173-b, 175-b, 181-b, 185-a,b, 188-a, 191-d, 197-a, 198-a).*

Ba'zi abr naqshlari palak kashtasini eslatadi: «qora palak», «oq palak» (Rasm 178-a, 198-d).

Ko'p naqshlarning nomi ularning abstrakt tafsifini tasdiqlaydi va ular assosiy rangi bo'yicha beriladi: «mosh rang», «nilobi», «qora atlas», «sapsar qarg'a» yoki texnik ko'rsatmalari bo'yicha: «oq arqoq», «besh yorma», «yak bas» (Rasm 178-c, 185-b).

Ba'zi gazzmollarning nomi asosiy yoki yashil ranglari kolorit tug'diradigan tasavvuri bo'yicha berilgan: ko'k yoki yashil rang oz miqdorda kiritilgan barcha oq-qora gazlamalarga «odmiy» (Rasm 195-d) degan nom berilgan, olachi por tasavvur tug'diradigan ko'p rangli mayda rasm «qichiq» yoki «sho'x» deylidi.

Quyosh spektrining barcha ranglari kirgan ko'prangli gazlama «tiyri kamon», «bahor», «chaman» deb nomlangan.

Yana bir guruh mavzusi murakkab tasvirlarning ma'nosi ularning nomini aniqlaydi: «Oftobxon» va «Xosiyatxon» (mashhur ustalarining nomi), «Domlajon» (naqshni tuzgan abrbandning nomi), «Farxod va Shirin», «Layli va Majnun», «Tohir va Zuxra» va boshqalar.

Ba'zan ayrim joylar yoki xalqlarning an'anaviy naqshlari gazmolga nom bergen: «Farg'ona nusxa», «Buxoro nusxa», «yaxudiy nusxa» (Rasm 177-d) yoki «juxut qo'li» va boshqalar.

XX asrda zamonaga yarasha yangi naqshlar va ranglar yaratilgan: «Pobeda», «O'zbekiston», «Kreml», «Sputnik», «Tungi yog'du», «Ipak yo'li», «Indira», «Shaxmat», «Samarkand darboza», «Uzuk ko'zi», «Gulnora», «Charxpak», «Tomchi», «Farg'ona tong oguncha», «Navro'z kapalagi», «Baynalminal» va boshqalar.

An'anaviy rasmga ko'ra yangi element kiritilsa, ustalar naqshga umumiy nom - «*tadbil*»ni berishadi (Rasm 195-b).

Barcha mayda elementlar funksional ahamiyatga ega: ba'zilari faqat asosiy markaziy naqshni ikki tomonini chegaralaydigan ingichka yo'l-yo'llarni bezashda qo'llanilgan. Boshqalari esa – bu naqshning atrofisidagi bo'sh joylarni to'ldirish uchun qo'llaniladi. Eng ko'p uchraydigan yordamchi elementlari «*taroq*», «*shox*», «*bodomcha*», «*kosa gul*», «*shokila*», «*ilon izi*», «*tumorcha*», «*sim-sima*» va boshqalar.

XIX va XX asrlar abr gazlamalarining farqi – ularning kompozitsion tuzilishida va badiiy sharhlanishidadir. Qadimiy gazlamalarda avval aytib o'tilgandek, naqshlar uzunasiga yirik rapportli (1,5-2 m) bo'lib, gazlamani enini egallardi; mayda yo'l-yo'l kompozitsiyalar kam ishlanardi; naqsh asosiy elementlari o'simliklar, geometrik shakllari, buyumlar bo'lgan (doiralar, zargarlik buyumlari, shoxlar, daraxtlar, tuvakdagi gullar, o'simlik jingalalari chegarasida naqshli yo'l-yo'llarni ustalar qo'llamagan).

XX asr mobaynida abr gazlamalarini naqshlash usuli bora-bora o'zgargandi: naqshda shartli shakllar tasvirlanadigan bo'ldi. Figuralar kattalashdi. Shaki aniqligi yo'qoldi. Yoyilgan kompozitsiya yaratiladigan bo'ldi. Ammo an'anaviy dekorativ san'at qonunlari saqlanib qolgan.

Ajoyib naqshlarni yaratgan O'zbekiston abrbandlarining nomlari dunyoga mashhur: Abdusamat Ahmedov, Mahmudjon Ahmadaliyev (Marg'ilon), Teshaboy To'raxonov (Andijon), To'ychiahmad (Namangan), Mirg'ani Mirazimov (Samarqand), Xudoybergan Xidirov, Karima Xalilova (Kitob), Muhsin Mirzakarimov, Madali Ahmadjonov va Qo'zi Ibrohimov (Marg'ilon), Abdusalil Jalilov, Rahmatulla Jabborov, Sobirjon Ikromov (Namangan), Rahmat Mirodilov (Samarqand), Fatxitdin Majidov (Andijon), M. Xudoyberdiyeva (Namangan), Tursunboy Karimov (Marg'ilon) va boshqalar.

Toshkent to'qimachilik kombinatida rassom M.Arslonovning tashabbusi bilan abr naqshlarni bosma usulida ip gazlamada qilinadigan bo'ldi. Keyin bu usul Marg'ilon ipak kombinatida krepdeshin, krepjorjet, shifon gazlamalarida ishlataladigan bo'ldi. Ular «odmiy» naqshga asoslanib, «gora qarg'a» (Rasm 199), «Ukraina va O'zbekiston» (Rasm 200), «Sharqiy» naqshlarni yaratishdi. Odmi aniq rasm chegaralari oq fonda tasvirni grafikligini ta'minlardi. Ba'zan qo'shimcha ko'k yoki yashil rang oz miqdorda qo'shilardi. Ammo mexanik bosma an'anaviy abr tasvirlarga taalluqli xususiyatlarni (ranglar yoyilib turganligi, chegaralarni aniq emasligi, ranglar bir-biriga kirishi va tonlarni biri biridan o'tishini) berolmaydi. Ammo qo'lda ishlangan abr gazlamalariga o'ziga xos ajoyib musiqaviylik va ritm baxsh etadi.

Abr gazlamalarni maxsus turi – duxobalar «*baxmal*» yoki «*maxmal*» bo‘lgan. Agar tukli asosi ikatlansa, to‘quv jarayonida duxoba yoki baxmal abr gazlamasi yaratiladi.

Duxoba abr gazmollarning naqshi uzunasi va eni bo‘yicha ishlangan, milki esa sidirg‘a bo‘lgan. Shunday duxoba gazlamalar qatorida eni keng gazlama ham to‘qildi. Abr naqshi uch yo‘lga bo‘linadi: markazida yirik asosiy naqsh, yonlarida - mayda naqshlar.

XIX asrda Buxoro hunarmandlari shoyi yoki nimshoyi (arqoq ipi-paxtadan yoki tanda va arqoq paxtadan, tuki - shoyidan) abr duxobani ishlashardi.

Samarqand esa o‘rtta asrlardan toki XIX asrning oxirigacha sidirg‘a qizil duxobalari bilan mashhur edi. Temuriylar va Shayboniylar davrlarida duxobaga ehtiyoj katta bo‘lgan. Undan tantanali liboslar tikilardi.

Metrli shoyi abr duxobadan chopon, belbog‘, ayollar bosh kiyimlari uchun ishlatilgan. Donalilari esa - uy ro‘zg‘orida qo‘llangan.

### Nazorat savollari.

1. O‘rtta Osiyo qadimiylar gazmollarini to‘g‘risida qayerdan ma’lumot olish mumkin?
2. O‘rtta Osiyo to‘qimachilik markazlari.
3. O‘rtta Osiyoda qo‘llangan bo‘yoqlar.
4. O‘rtta Osiyoda qo‘llangan to‘quvchilik asboblari.
5. Ip gazmollar turlari.
6. Yung gazmollar turlari.
7. Aralashma gazmollar turlari.
8. Shoyi gazmollar turlari.
9. Ilk o‘rtta asr gazlama turlari, naqsh mavzulari va ularni kompozitsion joylanishi.
10. So‘nggi o‘rtta asr gazmollarini o‘rganish uchun manbalar, gazlama turlari, naqshlari va kompozitsion tuzilishi.
11. O‘zbekiston bosma naqsh turlari, mavzulari, ishslash usullari, qo‘llangan bo‘yoqlari, mintaqaviy farqlari, qo‘llangan buyumlari.
12. O‘zbekiston badiy gazlama turlari, ishslash usullari, naqshlari, ranglari, mintaqaviy farqlari.
13. O‘zbekiston abr gazlama turlari, bo‘yash usullari, naqsh turlari, kompozitsion tuzilishlari, mintaqaviy farqlari.
14. Abr gazlama ishlab chiqaradigan O‘zbekiston mohir naqshbandlari.
15. Abr gazlamani ishlab chiqaradigan asosiy markazlari.

## Ispaniya gazmollari

Italiyaning ta'siri Ispaniyaga tarqalgan paytda Ispaniya to'quv san'ati mavritan va sitsiliya san'atiga asoslangan o'z uslubini yaratdi. Ispan feodallari talablariga binoan san'atning estetik izlanishlari va ruhiy holati ushu an'analarga ko'ra shakllangan. Ammo musulmon madaniyati bilan aloqa doimo uzilmagandi.


Bu davrda ispan ritsarları va mavrlar orasida shafqatsiz kurash ketganda, gazlamalarning naqshida fantastik va real hayvonlar, gullar, shoxlar, o'simlik shakllar va o'qilmaydigan yozuvlar tasvirlangan.

Kompozitsiyalari juda chalkashgan bo'lib, zargarlarning filigran buyum-lariga o'xshardi va rasmlari musulmon va nasroniy dunyosiga yaqin edi.

Mavrlar haydalgandan so'ng, Ispaniya nasroniy davlat bo'ldi. Gazlamalarda nasroniy va musulmon elementlari gerblari bilan aralashib, XIV-XV asrlarda maxsus uslub (*mudejar*) yaratildi. Lion muzeiyidagi kimxob ushbu uslubning namunasi. Unda qizil atlasni fonida sarg'ich va qora zar iplar bilan ishlangan Kastiliya va Leonanining qalqon va gerblari tasvirlangan. Bu qalqonlarda diagonal yo'nalishda uch minorali qal'a va orqa oyogida turgan sherlar joylashtirilgan. Qalqonlar orasidagi fonda mayda ispan-mavritan turidagi simmetrik naqshlar. Gazlamaning eni 0,42 m. Ushbu muzeyning gazlama namunasini (eni 0,65 m) havo rangli fonda turli diniy aksessuarları, yepiskop asosi, ochilgan kitoblar, doirada kaptarlar, mitralar, chig'anoqlar, ularni orasida sherlar va Kastiliya va Leonanining gerb qalqonidagi qal'alar tasvirlangan (Rasm 201).

XV asrdan XVI asr o'rta sigacha Ispaniya yirik mustamlakachilik mamlakatiga aylanib, eski va yangi dunyoda katta hududga va boylikka ega bo'ldi. Bu davrda qimmatbaho gazlamalarga ispan aslzodalari tomonidan talab zo'r bo'lgani uchun Italiya gazmollari ham olib kelinadigan bo'ldi.

Bu davrda ispan gazmollariga qo'llanilgan materialning bahosi bir xil, ammo naqshi har xil bo'lgani bois, ularni ikki guruhga bo'lish mumkin. Gazlamalarning birinchi guruhida italyan ustalari Ispaniya yoki Italiyada ishlaganidan qat'iy nazar naqshlar o'z nafisligi va kompozitsiyaning qismlarini mutanosibligi bilan barchani lol qoldiradi. Gazlamaning ikkinchi guruhida zari ko'proq bo'lsa ham, ingichka va nozik mavzuli italyan rasmi og'ir detallar bilan yuklangani bois, kompozitsiyaga nomutanosiblikni ko'rsatadi.



XV-asr Ispaniya  
kimxobi

O'simlik mavzuyidagi naqshlar (gulsapsarlar, boshqolar, uzum shodasi, kungaboqar va katta ispan toji va mo'l-ko'llik shoxi bilan aralashgan) Ispaniyaga xos ranglarda – sariq fonda to'q qizil rasmlar ishlangan (Rasm 202) yoki Italiya soborlarining metall panjarasini eslatadigan stilizatsiyalangan naqshlar sariq-qizil gammada ishlangan (Rasm 203).



202-rasm.



203-rasm.

XV-XVI asr. Ispaniya kimobi.

Bu naqsh bora-bora o'tgan asrlardagi italyan «gotik atir gullarga» sal o'xshagan yassi naqshga aylandi. Shunday gazlamaning tipik namunasi – qirolicha Izabella Katolicheskayaning buyrug'iiga binoan, Grenadaning bиринчи yepiskopiga ishlangan riza. Unda lansetsimon bo'limlarni keng lentalar toj bilan yaratilgan. Ularning ichida Kastiliya, Leona, Arragoniya, Sitsiliya va

Grenada gerblari joylashtirilgan. Eni 0,63m bu gazlama ikki tukli zar aksamit izmali qirqma duxobadir. Ushbu davr kurashgan katolisizm diniy marosimlar uchun gazlamalarda lotin tilida diniy hikmatlarni va yozuvlarni, ishtyoqlar timsollarini va butun sujetllarni tasvirlashni talab qilgan (Rasm 204). Bularning barchasi italyan rasmlaridan o'zlashtirilgan naqshlar orasida joylashtirrilgan.


XVI asrda gazlama naqshida zar ko'p ishlatilgani, mahalliy ispan an'analarida murakkab usullar qo'llanilgani seziladi. Tuki turli uzunlikda naqshli duxoba, ko'pincha foni kashtalangan, zarli bo'rtma naqshga o'xshagan har xil diametrali aksamit chizmalari - bular barchasi shunday gazmollarning bezagi bo'lgan. Bu gazlamalar faqat Eskurial saroy ustaxonalarida emas, balki Italiyaning eng mashhur korxonalarida ham ishlanardi. Chunki Italiya Karl V imperiyasi safiga kirgandi (Rasm 205, 206).

Ispan gazmollari barcha fazilatlariga qaramasdan badiiy tomondan Italiya gazlamalaridan baland emasdi. Ispan gazmollarini, italyan ustalari ishlagan. Ko'r-ko'rona taqlid sezilardi. Italyan naqshlaridan nusxa ko'chirib, ispanlar



204-rasm.

XV asr. Ispaniya  
kimobi.



205-rasm.

XVI asr. Ispaniya gazlamalarining naqshlari.



206-rasm.

XVI asr. Zarbaf duxobadan  
stixarning qismi.

ularni geraldika detallari va emblemalarini kiritib, egri chiziqlarning go‘zal-ligini yo‘qotishgan. *Damas* turidagi gazlamalarda naqshni qo‘pollashganligi, sariq va qizil ranglarda ishlangan geraldik hayvonlar figuralari va gerb qalqonlari ularning aynan ispan nasabini ko‘rsatadi.

XVI asrning oxirida Ispaniya to‘qimachilik sanoati inqirozga uchradi. Ispan cherkovi XVII asrning boshida nasroniy diniga kirgan yuqori malakali mavr-morisklarni haydab, ularning o‘rniga malakasi pastroq nasroniy hunarmandlarni qo‘ydi. Ammo bu chora qo‘l kelmay, mahsulotning sifatini juda pasaytirdi.

Ko‘p o’tmay, ispan to‘quv mahalliy sanoati boshqa gazlama ishlab chiqaradigan mamlakatlar raqobatiga dosh berolmasdan tamomila xarob bo‘lgan.

### Nazorat savollari.

1. Ispaniya to‘qimachilik san’atiga kim va qanday ta’sir etgan?
2. Ispaniya gazmollarining turi
3. Naqsh mavzulari va ularning kompozitsion tuzilishi
4. Nima uchun Ispaniya to‘qimachilik san’ati inqirozga uchradi?

## Italiya gazmollari

Italiya gazmollari – bu Yevropa va jahon to‘qimachilik san’atida bir butun davrni tashkil etadi.

O‘rta asrlarda Italiya boshqa g‘arbiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan iqtisodiy tomonidan rivojlangan mamlakat edi. Uning qulay jug‘rosik o‘rnini va antik shahar madaniyatining birtalay qoldiqlari bunga sabab bo‘lgan. Bu yerda erkin sex hunarmandchiligi va Sharq bilan qizg‘in savdo ertaroq tashkil etilgandi. Italiyada dastlabki mablag‘ to‘planishda salib yurishlari katta rol o‘ynagandi. Savdo va hunarmandchilikning yuksalishi katta va boy shahar jamoalarini tashkil etishga olib keldi.

To‘qimachilik san’ati rivojiga savdo orgali sharq namunalari bilan tanishish ham sabab bo‘ldi. VIII asrdan boshlab Venetsiya, Genuya, Piza, Amalfi, Neapol kabi shaharlar boshqa G‘arb Yevropa mamlakatlariga turli sharq mollarini yetkazishda dalol bo‘lgan. Sharq gazmollari bilan savdo-sotiqliq qilishning foydaligi, Italiyada ham gazzlama ishlab chiqarish sanoatini tiklashi ayon bo‘ldi.



207-rasm. XII asr. Roman uslub naqshlari .


XII-XIII asrlarda Italiya gazlamalarining naqshlari roman uslubida qilingan (Rasm 207). Rasmlar kompozitsiyasi simmetrik ishlangan, naqsh ikki o‘lchovli va yassi edi. Ilk lukka gazlamalar yuzasi xoch va yulduz shaklida ko‘pbur-chaklarga bo‘lingan, ichida juft figuralar tasvirlangan. Boshqa tuzilish turi – doira ichida har bir mintaqaga xos juft hayvonlar (Rasm 208). Uchinchi guruhda esa juft hayvonlar va qushlar qatori navbatma – navbat takrorlangandi (Rasm 209). Ularning orasi fonda erkin joylashgan mayda naqsh va ingichka moyalar bilan ishlov berilgan yirik lansetsimon shakllar bilan to‘dirilgan. Bir yoki ikki rangli maxsus usulda o‘rilgan kamka turidagi shoyi gazlamalarda xira fonda ajralib turadigan yarqiragan rasmlar ishlangan.

Hozir bu gazlama «diasper» - «panni diasperati» yoki «diasprum» deyiladi. Keyin ularni ikki tonda qilishadigan bo'ldi. Ko'pincha, yashil fonda qizil naqsh, hayvon va qushlarning bosh va oyog'i, ularning yelkasi va qanotidagi dumaloq tamg'alar zar ip bilan boyitilgan. Lukkada shunday gazlamalar XV asrgacha ishlangan, ammo uning avji, asosan, XIV asrda bo'lgan, naqshlar turi esa XIII asrdan saqlangan. Naqshi va ishlash texnikasi bo'yicha Lukka diasperlariga o'xshash gazmollar XIII asrda Antioxiyada ham ishlangandi.

XIII asr gazlamalarining naqshini yana bir turi – geraldika bo'lgan. Gerbliliyalari, qalqon va geraldik hayvonlari bilan ularning simmetrik tasviri, ko'pincha, boshqa rangda to'qilgan maxsus yo'llar orasida joylashgan (Rasm 210).



208-rasm.  
XII asr Italiya  
kimxobi



209-rasm.  
XIII-XIV aa.  
Lukka diasperi.



210-rasm.  
XIII a. Italiya gazlamasi.



211-rasm. XIII-XIV aa.  
Lukka diasperi.



212-rasm. XIX asr.  
Italiya diasperi.



213-rasm. XVI asr.  
Italiya duxobasi.

Bu rasmlar feodallarning badiiy maskurasini ifodalagan, chunki ularda moda qonundori edi. Feodal san'atiga oid rasmida harakat yo'q, hayvonlar tasvirida geraldik shartlilik, rasm elementlari bir-biridan ajralgan (Rasm 211).

Ushbu naqshlar jumlasiga xitoy elementlari qo'shilgan. An'anaviy roman simmetriyasi va bir-biridan ajralgan tutash shakllar erkin ishlov berilgan xitoy elementlari bilan qo'shilgandi. Shunday kompozitsiyalarda perspektivada tasvirlangan o'rta asr qal'asiga nozik tasvirlangan o'simlik naqshidan hoshiya qilingan.

Ko'tarinki ruhdagi o'rta asr diniy san'atiga realizm kirib, gotik uslub barpo etildi. San'atni yangi yo'nalishida mavzular endi simmetrik emas, erkin joylashadi. Yangi diagonal sxema just emas, hayvonlar guruhlari bilan birlgilikda nosimmetriklik va harakatni kiritdi. Toq mavzularni mohirona gruppirovkalash yordamida rasmni rapporti yashirildi va chalkashgan kompozitsiya yuzani to'ldirardi (Rasm 212).

Hayvon va qushlarni shartli geraldik tasvirlariga jon kiritilib, tabiatga yaqinlashtirildi va kurash va ta'qib ularni osoyishta holati o'miga keldi. Fantastik hayvonlarga real chet el hayvonlar (maymun, fil va boshqalar.) qo'shildi. Mahalliy floradan olingan o'simlik tasvirlar realistik izohlangan. Pirovardda, boshqalar bilan chambarchas bog'langan odam figurasi, yelkanli qayiq paydo bo'ldi (Rasm 213). Ayrim shakllar va buyumlarni tutashgan tasviri o'rniga ularni kompozitsion birlashuvi barpo etildi. Ammo borliqni realistik tasvirlanishi naqshning shartli dekorativligini buzmasdan, barcha tasvirlarni naqsh vazifalariga bo'ysundiradi. Uzun chirmashgan gotik yozuvli yo'llar odam figuralari orasida o'ralib o'ziga xos naqsh turini barpo etgan.

Xitoy-gotik uslubidagi Lukka gazlamalarida tishli buralib-buralib ketgan keng tasma tasvirlangan. U xitoyliklarning Osmonini (Tchi) ramziy tasvirida qo'llangan naqshiga o'xshaydi.

XIII asning boshida mo'g'ullar istilosи Fors va Mesopatamiyani vayron qildi va bir tomondan Italiyaga eksport qilinadigan sharq gazmollarini ishlab chiqarishni susaytirdi, ikkinchi tomondan esa — Italiyani Xitoy bilan bevosita aloqa qilinishiga imkon tug'dirdi. Xitoy i pakchilik san'atini italiyalik ustalar o'zlashtirib, Italiyada serhasham shoyi gazlamasi ishlab chiqariladigan bo'ldi.

XIV asrda Lukka, Venetsiya, Genuya, Siyena va Florensiya italiya gazlamasini ishlab chiqaradigan muhim markazlari bo'lган. XII asrdan XIV asrgacha Lukka va keyin Venetsiyaning to'qimachilik mahsuloti dunyoda mashhur bo'lган. Venetsiyada XIII asrda i pak to'qish sexi — *samitari* tashkil etilgandi. XIII asrda Genuya shoyi gazlamalarni ishlab chiqaradigan bo'ldi. Italiya janubida i pakchilik sanoati Messina, Redjio va Katansaroda rivojlangandi va har biri turarjoyiga mos gazlamani chiqaradigan bo'ldi.

Lukka va Siyena, asosan, ibodatxonalar uchun mahsulot chiqargan. Florensiya jun gazlamani ishlab chiqarishga ixtisoslashgandi va shu bilan birga, ipak-chilik sanoatini tashkil etib, kimxob, kamka, yirik va mayda naqshli shoyi gazlamalarni oddiy kiyimlar uchun ishlab chiqaradigan bo'ldi.

Renessans san'atida realizm va aristokratlarga xoslik, borliqni ilmiy o'rGANISH, avvalgi dindorlik, aqidaparastlik va qotib qolgan feodal dunyoqarashni o'miga keldi. Bu yangi mafkura keyinroq rangtasvirga nisbatan gazlama bezagida o'z aksini topdi. Ammo XV asr gazlamalarida ham yangi badiiy mafkura hukmronlik qilardi. Gotika simvolizmi va allegoriyasiga bo'ysungan hayvonlar va o'simlik shakllarni realistik tasvirlash endi Renessansning birdan-bir maqsadi bo'ldi.

Shartli sxematika ustidan realizmning to'liq g'alabasi Lukka va Venetsiya gazlamalarida ko'zga tashlanardi. Lukka o'z gazmollari uchun Xitoy fantastik hayvonlarini o'zlashtirib, ularni hurpaygan yoli, irrillab tishlarining oqini ko'rsatgani va boshqa xarakterli xususiyatlarini ta'kidlagan, Venetsiya esa, aksincha, ularni tiyib qo'ygan. Ammo Lukka va Venetsiya gazmollarida hayvonlarni holatida qizg'inlik sezilmaydi, anatomiya talablariga rassomning ongli munosabati sezilib turadi. Bora-bora barcha xorijiy hayvonot dunyosini mahalliy flora egalladi. Xitoy elementlaridan xoli bo'lib, tog' kiyigi, bug'u, itlar, qoplonlar va o'rdaklar real tasvirlandi.

To'qima naqshga perspektivani kiritilishi realizmga intilishini aks ettirdi va XV asrda yangi rang effektlarini kirishiga sabab bo'ldi. Yana simmetriyaga intilish paydo bo'ldi. To'qima naqshda qo'llangan ilk elementlar monumental detallardan va xoqon Pim namunalaridan o'zlashtirilgandi. Rim qazilmalarida topilgan freska rasmlari gazlama naqshlarida ham o'z aksini topgan. Dafna va bolut yaproqlaridan antik chambarlar, serob shoxi, guldonlar, akantring jumjimasи va antik davrni simmetrik tuzilgan bezagi paydo bo'ldi.

Gotik chiziqlarning yengilligi Uyg'onish davri odamlarini qoniqtirmagan. Buni italyan gazlamalari o'simlik va geometrik naqshlarini evolyutsiyasidan bilsa bo'ladi. Darhaqiqat, rasmlarda ancha vaqt davomida «gotik atirguli»ni ichida chetiga chinnigul va lola chiqqan stilizatsiyalangan ananas tasvirlangandi. Ammo bu atirgul gotika asari bo'lsa ham, uning shakli ko'payganligi o'zgacha taassurot uyg'otardi.

Uyg'onish naqshida ko'zga yaqqol tashlanadigan yirik chiziqlar dunyoviy ne'matlar mo'l-ko'lligini aks ettiradi. Masalan, naqsh elementi toj bo'lgan gazlamalarni olsak, ko'pincha, simmetrik panjaralar va dog'lar birikkan joylar toj bilan yashiringan. 1519-yilda Karl V xoqonlikni qabul qilganda toj modaga kirgandi.

Italiya Renessans rasm va freskalarida shu davrdagi liboslar va gazlamalar puxtalik bilan tasvirlangan.

Aslzodalar o'ziga juda serhasham turmush sharoitlarini yaratishgandi. Dastlabki naturalizm o'miga birmuncha ideallashtirilgan realizm kirdi. Aslzodalar talablariga binoan, yuqori sifatli serhasham gazlamalar Italiyada to'qilgan. Gazlamalarni bu umumiy xususiyatlardan tashqari har bir joyda tashqi muhit va ishlangan usuliga ko'ra o'zining naqsh turlari bo'lgan. XIV asrning ikkinchi yarmida Lukka diasperlarini o'miga ibodatxonalar uchun maxsus gazlamalar chiqarilgan. Bu yerda nurafshon qanotli farishtalar uzun liboslarda ishtiyoq qurollari bilan yulduzli osmon fonida ajralib, Uyg'onish davriga mansub xususiyatlarni ifodalaydi.

Ibodatxona uchun Siyenada ishlangan gazlamalarda Tavrotdan sahnalar va figuralar tasvirlangan.


Qadimiy gazlamalar foni, odatda, to'q, keyingilarida esa — rasmning to'q silueti qirqilgan duxobani och fonida ajralib turadi.

Genuyada, ko'pincha, sharq namunalarini o'zgartirmasdan o'zlashtirib, asosan, eksportga mahsulot ishlashgan. Genuya ikki naqshli duxobani (qirqilgan va yarim qirqilgan) ishlab chiqarishga ixtisoslashgandi. Qirqilgan duxoba, odatda, ikki tukli bo'lgan, uning naqshi yengil relyefi bilan fondan ko'tarilib turgan. Yarim qirqilgan duxobada ishlashda ikki texnika qo'llanilgan: duxobaning bir qismi qirqiladi, qolgani esa qirqilmasdan izmali bo'lib qoladi.

Genuya gazmollari, ayniqsa, XIV-XV asrlarda mashhur edi. Avval naqsh mayda bo'lib, to'q tuki bilan shu rangdagi yaltiragan atlas fonida ajralib turardi. Naqshlar Sharqni eslatardi: baland ingichka poyali daraxtlarda qushlar, sharq hayvonlari. Kompozitsiya simmetrik emas, takrorlangan qismlar birini ustidan birining yoki shaxmat tartibida joylashgan. Keyinroq ishlangan genuya gazmollarida rasmlarning ko'p qismi qirqilgan duxoba usulida qilingan.

Boy Florensiyaning rivojlangan sanoati oqsuyaklarga mansub mayda va yirik naqshli gazlamalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgandi. Gazlamadagi shakllar simmetrik yoki bir tomonlama bo'lib, tekis yoyilgan. Odatda, bir tamonlama rasmning normal turi — galma-gal ikki tomoniga egilgan gul va yaproqlari bor shoxchalarining qatorlari (Rasm 214, 215). Ularni ishlash usuli: atlas yoki tafta fonida tukini uzunligi har xil qirqma duxoba, shu bilan birga duxoba gullari, odatda, fonga nisbatan boshqa rangli.

Umuman, bu barcha gullar asosan mahalliy florani aks ettiradi. Ba'zan ularning orasida juda real tasvirlangan hayvonlar va geraldik detallar ham uchraydi.



**214-rasm.** XV-XVI asr.  
Italiya duxobasi



**215-rasm.** XVI asr.  
Florensiya duxobasi



**216-rasm.** XVI asr.  
Florensiya kamkasi



**217-rasm.** XV a.  
Venetsiya kimxobi

Florensiya gazmollarida naqshlar xilma-xil bo'lgan (Rasm 216). Ko'pincha, ularda Florensiya gerbi – mohirona stilizatsiyalangan va boshqa naqshlar bilan uyg'unlashgan liliya bo'lardi. Mahalliy aholi uchun mayda gulli gazmollardan tashqari Florensiya serhasham va boy sidirg'a gazmollarni – kamka va zar bilan to'qilgan kimxob va gilamlarini ishlab chiqarardi. Ulardan tashqari donalab tayyorlanadigan buyumlar va metrli gazlamalar ishlanardi. Metrli gazlamalarda odatda qizil fonda tila yoki sariq rangli zikh naqshni orasida muqaddas tarixdan sahnalar tasvirlangan medalyonlar qatori joylashgan. Donalab ishlangan buyumlar murakkab bo'lgan. Hozirgacha saqlangan namunalarda kompozitsiyani rassom Antonio Palayyuola qilgan. Gazlamani esa usta Franchesko Maloshi ishlagan. Ularning naqshi har xil bo'lgan: bolutdan chambarlar, dafna shoxlari va mevalari, ularni orasida katolik cherkovlarning emblemalari va buyurtmachilarining gerblari.

Venetsiya gazmollari va naqshi xilma-xil bo'lgan. Dansigdag'i Mariyenkirxada saqlanayotgan XV asr qora zarli kimxobida kalxat gondolaning eshkagini ushlab turibdi. O'simlik naqshlar (palmetkalar, anorlar, yaproqlar va mayda shoxchalar) fonni to'ldirgan (Rasm 217).

XV asrning o'rtasidan boshlab, to'qima naqshni evolyutsiyasi natijasida gazlamalarda hayvonlarning o'rmini mashtabi kattaygan o'simlik shakllar egalladi. Ularning orasida anor tasviri ustunlik qildi.

Venetsiyada silliq kamkaning o'rniiga silliq yoki naqshli (ba'zan zar bilan to'qilgan) tuki har xil uzunlikda duxoba kirdi. Bu duxobalarning naqsh elementlari avval fonni to'ldirgan mayda detallardan kelib chiqqan. Endi ular kattalashib, ustunlik qiladigan bo'ldi. Shu mavzular qatoriga tishli gulbargli qalin poyada yetti parrakli gullar kirdi (Rasm 218). Odatda, gullar



**218-rasm.**  
XV asr. Venetsiya  
duxobasi



**219-rasm.**  
XV asr. Venetsiya  
kimxobi



**220-rasm. XV asr.**  
Venetsiya duxoba  
kimxobi



**221-rasm.**  
XV-XVI aa.  
Venetsiya duxobasi

gorizontal yo'l bo'yicha joylashgan. Ularning orasida yaproq va poyalardan yo'llar joylashgan. Bu kompozitsiyalarning sxemasi juda to'g'ri va figuralar bilan to'ldirib yuborilganligi ularning fazilatlarini kamaytirmaydi.

Boshqa kompozitsiyada serhasham italyan gazmollariga xos (asosan venetsian gazmollarida) to'lqinsimon keng vertikal yo'llarda yirik yaproqlar orasida «*gotik atirguli*» tasvirlangan (Rasm 219). Uning ichida atrofi yaproqlardan chambarlar bilan o'ralgan o'simlik mavzulari simmetrik joylashgan. *Anor, qushqo'nmasning g'uncha va gullari va ananas poyalari to'lqinsimon yo'llar bo'yicha o'ralgan* (Rasm 220). Shunday usulda tuzilgan kompozitsiyalar faqat qirqma zarli duxobalarda uchragan. Bu gazlamalar foni va naqshi zar bilan ishlangani tufayli shoyi asosi deyarli ko'rmasdi va faqat qirqma duxobaning ingichka konturi gazlamadagi tasvirlarni ko'rsatardi (Rasm 221).

XV asrgacha Italiya to'qimachilik korxonalari hunarmandchilik sexlaridan iborat edi. XV asrda manifakturalar tashkil etildi. Avval sexda rassom raqib bo'lsa, endi manifakturada u badiiy rahbar bo'ldi, ustalar esa texnik-ijrochi bo'lib qolishdi.

Gazlamalarni dastlabki bezash usuli kashta bo'lgan va bora-bora takomillashib, XIV-XV asrlarda Italiya yuqori sifatli badiiy namunalarni yaratadigan bo'ldi. Ammo manifakturalarda to'qimachilik kashtani astasekin siqib chiqardi. Cherkov liboslari uchun gazlamalar to'qiladigan bo'ldi. Shulardan biri riza uchun xochlar, dalmatikalar uchun uloqlar.

To'qimachilik texnikasi tez takomillashgandi. Mokini almashish usuli naqshda ranglarning sonini ko'paytirishga imkon yaratdi. Gazlamaning fakturasini boyligi kashtaga ehtiyoj yo'qligini ovdinlashtirdi.

XV asrda duxobani qirqish texnikaviy usulidan kesish usuliga va izmali duxoba ishlab chiqarishga o'tishdi va keyingi texnikani takomillanishi naqshli duxobani yaratishga imkon berdi. Bu yerda duxoba tuki foni silliq zar bilan solishtirilgan. XVII asrda lionlik Dangon takomillashtirilgan to'quv dastgohi Italiyaga olib kelindi va bu o'z navbatida italiya gazmollarini naqshini yangi va nihoyatda qiziqarli detallar bilan boyitdi.

XIV-XV asrlarning taniqli rassomlari Viktor Pizano (1395-1456 yy.), Sandro Botichelli (1447-1515 yy.), Djakopo Bellini (1440-1471 yy.) albomlarida duxoba va kimxob gazlamalarning naqshlari tasvirlangan. Rassom Palayyuola (1429-1498 yy.) rasmlari bo'yicha ishlangan gazlama namunalari saqlangan. Italiya rassomlarining dekorativ gazlama ishlab chiqarishdagi ishtiroti to'qimachilik san'atida muhim rol o'ynagandi. Ammo XVI asrning ikkinchi yarmida mashhur rassomlar to'qimachilik san'atidan uzoqlashdi.

Italiya gazmollarini bezatish badiiy uslublarining tahlili quyidagini ko'rsatadi: ular asosan sharq namunalarini o'zlashtirishgan. Yevropa salib yurishlari davrida madaniyat sohasida arablardan ko'p narsani o'rganishgan va musulmon texnikasi yutuqlariga asoslanib, o'z korxonalarida badiiy va to'qimachilik sanoatini rivojlantirishgan. Sharqda zar va kumush bilan qimmatbaho gazlamalar, qirqma va izmali duxoba, qalin va yengil shoyi va harir gazlamalar ishlanardi.

Italiya korxonalarida shoyi va junni bo'yashda sharq usullari qo'llaniladigan bo'ldi. Italiya bo'yoqchilar iordan indigo, damashq qizil, lakkus va sandal bo'yoqlarini qo'llashgan va achchiq tosh yordamida mustahkamlashgan. XIV asrning oxirida Florensiyada 200dan oshiq bo'yoqchilar ustaxonalari ishlagan. 1429- yilda Italiyada bo'yashda qo'llaniladigan usullar to'plami «*Meraviglia arte dei tutori*» chiqqandi. Venetsiyada dastlabki ishlangan gazlamalar sharq tusida bo'lganligi 1295- yilda Vatikan rizaxonasidagi ro'yxatda va qo'lyozmada yozilgan. Ular shunchalik darajada yaxshi qilinganligidan sharq namunalaridan ajratish mumkin emasdi.

Agar Vizantiya va Sharq bilan savdo qilgan Venetsiya va boshqa shaharlar Yevropaga sharq arab va fors didlarini tarqatsa, Lukka – G'arb bilan savdo aloqasi tufayli Ispaniya va Sitsiliyada ishlangan arab naqsh mavzularidan foydalangan.

Nihoyat, O'rta Osiyoda mo'g'ul xoqonligi tuzilishi natijasida G'arbiy Yevropaga xitoy gazlamalari yog'ildi. Dastavval Xitoy ta'siri Venetsiya gazmollarida sezilgandi, ular xitoy namunalarini takrorlagandi. Keyin xitoy mavzulari, o'simlik shakllari va fantastik mahluqlarining variantlari boshqa joylarda ham tasvirlangan.

Italiya flamand yoki fransuz gazmollari naqshlariga taqlid etilmagan, Flandriyada esa XVI asrda ipakchilik bo'lmagan.

Xorijiy namunalar va texnikaga taqlid etishdan boshlab, Italiya keyin chet el mavzularini qayta ishlab, ularga realizm xususiyatlarini va mahalliy maishiy sharoitlariga mos Renessans davrining san'at xususiyatlarini kiritdi; Sharqqa mansub zoomorf mavzulariga nisbatan o'simlik naqshlar ustunlik qilardi.

XVI asr boshida sharq mavzulari italiya rassomlarini batamom qiziqtirmay qo'ydi. Geraldikadan tashqari hayvonot dunyosining elementlari deyarli uchramaydigan bo'ldi. Mahalliy o'simlik shakllaridan tuzilgan naqsh ustunlik qilgandi. Liboslar uchun naqshlar bir xil bo'lmagan, dekorativ gazlamalarda esa – boshqacha qilinardi. Ispaniya modasi ta'sirida ko'yaklar qanchalik tor va qattiq bo'lsa, shunchalik yuzani kengaytiradigan yirik naqshlar o'rinni emasdi. Liboslar uchun maxsus mayda rasmlar bir-biriga yaqin joylashgan mayda shoxlardan iborat edi. Mayda rasmlar ko'yakni shakli o'zgargancha saqlangandi.

Devorni qoplash uchun va saroy xodimlarining livreyasi uchun maxsus buyurtma bo'yicha Venetsiyada ishlangan gazlamalar XVI asrga xos edi. Bu gazlamalarda turli zamonaviy va antik harbiy armatura tasvirlangandi:sovut, qilich, dubulg'a, do'mbira, zambarak, mortiralari.

Venetsiyada serhasham kimxob-aksamitlar ham ishlanardi, ular bir-biridan faqat matosi bilan farqlanardi. Ishlab chiqarish usuliga binoan, naqshning bir qismi fonda bo'rtib chiqqandi, tukni uzunligi har xilligi va metall izmalarni diametri turli bo'lganligi natijasida aksamitlar ma'lum darajada xajmli bo'lgan. Bo'rtma aksamitlardan tashqari oddiy *glazer* parcha turidagi silliq aksamitlar ham bo'lgan (Rasm 222).



XVI asrning ikkinchi yarmida san'atda Barokko badiiy uslubi vujudga keldi. Bu uslubning asosiy maqsadi – san'at yordamida aslzodalar obro'sini saqlash, ular atrofida dabdaba tug'dirish. Renessans san'atining avvalgi ratsionalizmi, uning muvozanati va osoyishtaligi o'rniga hayajonli harakat, ho'jako'rsinga qilgan hashamat, bejamadorlik va bezaklarni haddan tashqari ko'pligi keldi. Gazlamalarda yana din mavzulari asosiy o'rinni egalladi. Bu gazlamalarning rasmini asosiy vazifasi – tomoshabinni boylik va dabdaba bilan lol qoldirish, uning e'tibori va fikrini jalb etishdir.

O'rta o'qning ikki tomonida simmetrik joylashgan nihoyat ko'p detallar, o'simlik mavzulari detallari, mevalar, to'rlar, zar uqalar kompozitsiyani to'ldirib yuborib, ko'zni o'ynatardi. Bu gazlamalarning ijobiyl tomoni – ishlab chiqarishning nozik texnikasi, nafis koloriti, ayniqsa, dekorativ

gazlamalarda yaqqol bilinadi. Ba'zan modaga binoan ular ham mebel, ham kostyum, ham cherkov liboslarida qo'llanardi.

Barokko naqshlarining razmeri kattaya boshladi, dekorativ gazlamalarning rapportining uzunligi 1,5-2 metr, kengligi esa — gazlamaning eni bo'yicha bo'lgan. XVII asr — yirik dekorativ naqshlarning davri hisoblanadi. Devor va mebelni qoplash uchun duxoba va shoyi gazlama — «dama» ishlangandi. Guldon, savat, serobgarchilik shoxlaridan o'sib chiqqan yoki guldasta bo'lib egilgan o'simlik detallari bilan bezatilgan simmetrik keng dog'lar ularni naqshi bo'lgan. Yaproqlari uchli edi, keyingi davrda ular patga o'xshab dumaloqlanib va egilib qoldi (Rasm 223-225).

Italiyada barokko gazmollari kech Gotika va Renessans kabi keng va mustaqil rivojlanmagandi. Italiyaning iqtisodiy inqirozi tufayli serhasham gazlama ishlab chiqarish ustunligi Fransiyaga o'tgan.



222-rasm. XVII a.  
Venetsiya  
«aksamit» kimxobi

223-rasm. XVII a.  
Italiya kimxobi

224-rasm. XVI a.  
Italiya altabasidan  
felon

225-rasm. XVI a.  
Rus kashtasi bilan  
tovlangan aksamit

### Nazorat savollari.

1. Italiya gazmollari Yevropa to'qimachilik san'atida qanday o'rin egallagan?
2. Sharq to'qimachilik san'ati italiya gazmollariga qanday ta'sir etgan?
3. Italiya gazmollarining naqsh turlari
4. Gazlama ishlab chiqarish markazlari va ularning farqlovchi xususiyatlari
5. Gotika uslubdagi gazmollarni ta'riflab bering?
6. Renessans uslubdagi gazmollarni ta'riflab bering?
7. Barokko uslubdagi gazmollarni ta'riflab bering?

## Fransiya gazmollari

Agar XV-XVI asrlarda Yevropada gazlama ishlab chiqarishda italiya ustunlik qilgan bo'lsa, XVII-XVIII asrlarda esa shubhasiz ustunlik Fransiyaga o'tgandi.

Klassik mutlaqlikning mamlakati Fransiya XVII-XVIII asrlarda san'at sohasida va gazlamani bezashda tipik va mahorati bo'yicha buyuk mutlaqlik mafkurasining badiiy aksini yaratdi. Barcha eng yaxshi gazzmol namunalari qirol saroyi ustaxonalarida ishlangandi. Markazlashgan hokimiyatni o'matish uchun san'at kuchli qurol va usul bo'ldi. Dabdabalik va qirol hayotini jiddiy serhashamligi - uning mutlaq hokimligini mafkuraviy tasdiqlanishi edi. Fransuz mutlaqligi mamlakat hayotini o'z qo'lida to'plab va mustaqil feedallarni itoatli saroy amaldorlariga aylantirib, san'atda ham monopoliyasini e'lon qilgandi.

XVII asr san'atida barokko uslubi faqat saroya xizmat qilish, hukmon zodagonlarning mafkurasini ifodalash ma'nosidagi san'at emas, balki saroy akademiyalari va ustaxonalarini tashkil etish edi.

Lekin shoyi va gobelen ishlab chiqarish saroy ustaxonalari maxsus xizmat uchun berk korxonalar bo'lsa, Fransyaning XVII-XVIII asrlardagi to'quv sanoati ham o'z rivojida tuzilayotgan mutlaqlik bilan umuman asoslangandi.

Fransiyada to'quv sanoatini rivojlanishi, asosan, hukumatni merkantilizm siyosati bilan bog'liq edi. Bu siyosat mutlaqlikning iqtisodiy asosi bo'lib, mamlakatning o'z sanoatini rivojlanishiga g'amxo'rlik etishni, xorijiy ustalarni jalb qilishni, importni cheklashni va xomashyo va tayyor mahsulotni sotishni reglamentga solishni ko'zda tutardi.

Endi bu sanoatning tarixiga nazar tashlaymiz. Uning ilk kurtaklari o'rta asrda uchraydi. Qadimiy zamonlardan Lionda har yili to'rt yarmarka o'tkazilardi. U yerga har tomonlardan savdogarlar kelishardi. Darhaqiqat, asosiy mol xom ipak, yarimfabrikat va niroyat tayyor gazzollar bo'lgan. Rivoyatga ko'ra, Lionda shoyi gazzollarni avval italiyaliklar ishlab chiqarishgan. Bu 1314-yildagi isyondan keyin Lukkadan immigratsiya qilingan ustalar edi. Boshqa ma'lumotlarga binoan Lionda ipakchilik sanoatining asoschisi Avinondan, italyan to'quvchilarini bo'lgan.


Lion to'quvchilik sanoati, ma'lumotlarga ko'ra, qirol Lyudovik XI ni davriga taqaladi. 1466-yil 23-noyabrda Orleanda qirol chiqargan farmonida Lionda qirol to'quvchilik fabrikasi tashkil etilsin, deyilgan. Darhaqiqat, yangi korxonalarga og'ir soliq solingandi, ammo 1466-yildagi dekret zar, shoyi va shunga o'xshash gazzollarni ishlaydigan ustaxonalarga imtiyoz bergani bois, chet eldan ustalar keleshiga sabab bo'ldi.

Lyudovik XI fransuz saroyini Turga ko'chirilishi i pakchilik sanoatini rivojlanishiga sabab bo'ldi. Qirol buyrug'iga binoan, i pak to'quvchilar dastgohlari bilan Liondan Turga ko'chirlgandi.

Tur zar bilan to'qilgan mebel gazmollari «Gros de Tours», turk duxobasi, zar uqasi va turli lentalari bilan mashhur edi. XV asrda Turda 8000 to'quv dastgohi bo'lgan, Lion shu me'yorga 100 yildan so'ng erishgandi. Lyudovik XI vorislari o'z navbatida i pak sanoatini rag'batlantirish uchun bir necha chora ko'rishgan. Masalan, 1494- yilning 17- iyulida Karl VIII farmoniga binoan, shoyi gazlama ishlab chiqaradigan shaharlar mahsulotiga shahar muhri qo'yilishi shart edi. Shu bois gazlamani sifati kafolatlanardi. Shu bilan birga, xorijiy shoyi gazlamalarni, zar va kumush kimxobni ishlash man etilgandi. 1513- yildagi farmon bo'yicha to'quvchilar barcha soliq va o'lponlardan ozod qilingandi. 1540- yilda Lionga xorijdan kelgan shoyi gazlamalar to'planardi, Fransiyaning boshqa shaharlari esa ulardan sotib olishi lozim edi.


Tur va Liondan tashqari Parij, Avinon, Nim, Sen-Shamon, Sent-Etyenda gazlama ishlab chiqarilardi.

Fransuz i pakchilik sanoatida muhim voqeа — XVI asrda o'z i pakchilik sanoatini tiklanishi shaklida. XVII asrda Fransiyada ishlab chiqarilgan shoyi gazmollari italyan gazmollaridan deyarli farqlanmasdi. Agar XV asrda fransuz hukumati italyan ustalarini jalb etishga intilgan bo'lsa, XVI-XVII asrlarda esa Italiyaning ta'siriga qulay sharoit tug'dirilgandi. Italiya sanoati inqirozga uchrashi bilan rassomlar va to'quvchilarining bir qismi Ispaniya va Fransiyaga ko'chgandi. Ular fransuzlar uchun o'qituvchi sifatida bo'lgan. Fransuz hukumati italyan ustalarini astoydil taklif etib, ularga bir necha imtiyoz bergandi. Fransuz ustalari italyan texnikasini o'zlashtirib, o'z mahsulotiga mahalliy xususiyatlarni ham bera boshlashdi (Rasm 226,227). Shuningdek,



226-rasm.

Barokko uslubidagi Fransiya gazlamasi



227-rasm.

XVII asr. Fransiya gazlamasi

parda va devorlar uchun mo'ljallangan dekorativ gazlamalarda italyan kompo-zitsiyalari orasida mahalliy elementlari (davlat gerbining fransuz liliyasi va qirol toji) tasvirlanardi (Rasm 228,229).

Kiyimga mo'ljallangan gazlamalarda italyan barokko ipak uslubi takrorlangandi, ammo fonga nisbatan naqshni kontrast qilinishi yo'qolgandi. Zich joylashgan naqshlarning ko'pligi, o'simlik mavzularini fantastik bezalishi, mayda ishlangan fon bilan bog'lanishi fransuz gazlamalarini nihoyat boy nafis to'rga o'xshatardi (Rasm 230). Kompozitsiya o'rta o'qiga nisbatan simmetrik tuzilardi. Shunday naqshli gazlamalarga Lyudovik XIII gazlamasi degan nom berilgandi.



228-rasm. XVII asr  
Fransiya duxobasi



229-rasm. XVII asr  
Fransiya duxobasi



230-rasm. XVII asr  
Fransiya kimxobi

1665- yilda lionlik Dangon to'quv dastgohini takomillashtirishi mustaqil fransuz sanoatini yuksalishiga olib keldi. Bundan oldin naqshli gazlamalar qo'l to'quv dastgohida to'qilardi. Bu dastgohda 800 tanda ipi tortilar edi, tandani ostida egilib o'tirgan bir necha ip tortuvchilari tanda ipni ma'lum qismlaridan mokini o'tkazishardi. Dangonning kashfiyoti tanda ipni 2400 gacha ko'paytirib, ip tortuvchilarni sonini 4 gacha kamaytirdi.

Fransuz merkantilizmi sanoatni, shu jumladan, to'quvchilik san'atini ham rivojlanishini talab qilgan.

Qirol Lyudovik XIV davrida moliyani bosh kontroleri Kolber Fransiyaning iqtisodiy asosini, shu jumladan, to'qimachilik sanoatini ham markazlashtirdi.

Lionda shoyi gazmollar ishlab chiqaradigan ulkan manifaktura tashkil etilgandi. U bir necha komunnadan iborat edi. Lion komunna-ustaxonalaridan chiqqan gazmollarning uchi usta va uning shogirdining nomi va tamg'asi

bilan belgilanardi, pastrog'ida tanda ipni soni va sifati belgilanardi. Keyin Byuroda saylangan oqsoqollar gazlamani sifatini tckshirib, maxsus taqriz berishardi. Tekshirilgan gazlama to'piga «Bureau de visite des etoffes de soie de la manufacture de Lyon» degan yozuvli muhr qo'yildi.

Kolber Sharl Lebren boshchiligidagi maxsus Nozik san'atlari vazirligi tashkil etildi. Hokimiyatni ulug'lash va qat'iy saroy etiketi mutlaqligini estetikasida o'z aksini topdi. Bu maskura estetik san'atdan qahramona mavzular, afsona va tarixiylik, olijanob mavzularni talab qildi.

Gazlama naqshlarida naturalizmning o'trniga ulug'verlik va salobatga intilgan idealizatsiyalashgan realizm kirdi. O'simlik shakllar tabiiy holiga nisbatan barokkoga oid yirikroq tasvirlanardi. Keyinchalik, real florani yorug' va soya yordamida yangicha tasvirlashadigan bo'lishdi. Kompozitsiyada simmetriya ustunlik qildi. Bittalab yoki guruholab guldastaga birikkan juda katta gullar va mevalar, odatda, gazlamani qizil fonida har xil dekorativ detallari bilan joylashgan.

Gazlamalarda Versal va Vo saroyining bog'lari o'z aksini topgan. Ularda shi poncha, tis, apelsin va noranja daraxtlari, favorolar tasvirlari ko'p uchragan (Rasm 231).



231-rasm.

XVII asr Fransiya kimxobi

XVII asrning oxirida chig'anoqning tasviri kira boshladi. Naqsh detallari juda ko'p bo'lgani uchun tasvir eni bo'yicha bir rapportda qilinardi, ikki rapport ham uchrardi. Naqsh bo'rtma bo'lishi uchun gazlamalar zar va kumush bilan to'qildi.

Avval atlas yoki tafta turidagi sidirg'aning bir rangli fonga nisbatan sujeti muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bora- bora naqsh siyraklashgan sari, gazlamaning serhashamligi yanada oshirilib, fon har xil usulda boyitiladigan bo'ldi. Bu gazlamalar asosan aslzodalar libosida qo'llangan.

Mebel uchun *Damas va Brocatelle* turidagi shoyi gazzmollar ishlanardi. Ularni maxsus naqshida sal stilizatsiyalangan, keng, qirqilgan (xurpaygan yoki gul va patni eslatadigan), sulton shaklida dumaloqlangan yaproqlar tasvirlangan. Ularni orasida ora-sira yirik gullar va mevalar shartli nursimon naqsh bilan joylashgan; keyin undan chig'anoq shakli kelib chiqdi. Rasmning rapporti eni bo'yicha bo'lgan. Och fonda qizil yoki yashil rangli naqsh ajralib turardi. Bu duxobadan tashqari mebel uchun mayda naqshli, eniga 2-4 rapportli duxoba «jardinier» ishlanardi.

Diniy marosimlar uchun gazlamalar arzonroq bo'lgan va naqshi, asosan, o'simlik va diniy ramzlardan iborat bo'lib, yassi qilinardi.

Lyudovik XIVning rassomlari kompozitsiyalarni xilma-xil mavzular bilan bezatishardi.

XVIII asr rassomlari bu mavzularni faqat o'zgartirib, boshqa uslubda o'z kompozitsiyalarini yaratishardi. XVII asrda sal stilizatsiyalangan gullar XVIII asrda tabiiy xoliga va kattaligiga ega bo'ldi. Zar uqa bezakni o'rniga endi to'r mavzulari paydo bo'ldi.

XVIII asrda mutlaqlik inqirozga uchradi va Buyuk fransuz inqilobi bilan asr yakunlandi.

Saroy etiketi va unga xos san'ati o'z ma'nosini yo'qotdi. San'at endi qahramonlik va hokimiyatni madh etish o'rniga aslzodalarining ehtiyojini bajarar edi. Zodagonlar, bankirlar san'atda yengil va nozik tomoshani, xushchaqchaq va allalaydigan taronalarni istardi. Bu badiiy mafkura rokoko uslubida o'z aksini topgandi. Bu davrda bir qator iste'dodli rassomlar (Antuan Vatto, Klod Jilo, Jyul Oppener, Meyson) gazlamani bezash uchun yangi mavzularni yaratishgandi.

Shuningdek, Klod Jilo og'ir keng ornamental jingala va afsonaviy qochirmalar o'rniga o'z dekorativ kompozitsiyalariga yengil fantastik peyzajni kiritdi: nafis tasvirlangan daraxtlar, g'orlar, sharsharalar, arlekinlar va go'yoki xitoyliklar sahnalarini kiritdi. Bu sahnalar uzum novdalari, ingichka jingalalar, og'ir yaproqli spirallar, guldonlar, gullar bilan o'rab olingen (Rasm 232).

Jyul Oppener qoldirgan albomlarida yangi yengil antiqa uslubda ishlangan kompozitsiyalarida asosiy ornamental mavzu chig'anoq bo'lgan.

A. Vatto dekorativ kompozitsiyalarida odamni o'rniga maymunni kiritdi, ular konkida uchadi, musiqa bilan shug'ullanadi, bir-birini davolaydi va hakozo. Liboslar, soch turmaklar, mebel, gazzollar bezagi o'zgardi. Liboslarda yengil, xushchaqchaq mavzular yupqa gazmollarni bezatgan.

Bu rassomlar yaratgan naqshlarida to'lqinsimon qirrali, ingichka, uzun chig'anoqlarga yopishgan, egilgan jingalalar, gullar, yaproqlar tasviri bor edi. Rasmlarda masxaraboz paydo bo'lishi italyan komediyasiga qiziqish bilan bog'liq. Mustamlakachilik siyosatini o'sishi tropik mamlakatlarning o'simlik mavzulariga qiziqishiga



232-rasm. XVIII asr.  
Fransiya shoyi gazlamasi  
«lampas»

olib keldi. Xitoydan Fransiyaga ko‘p chinni buyumlar, gazmollar, kashtalar, lok buyumlar, brinjlar olib kelindi.

Avval gazlama naqshlarida simmetrik tuzilishlar qolgandi: o‘rtadagi uch guldan tuzilgan guldstansi yengil va nafis tasvirlangan egilgan shoxlar o‘rab olgan. Keyin kompozitsiya tuzilishida markazdagi katta guldstansi o‘rniga juft guldstalar naqshli fonda erkin joylashgan. Bora-bora simmetrik dog‘larni o‘rniga nosimmetrikliq kirdi: kompozitsiya vertikal yo‘nalishdagi ikki parallel to‘lqinsimon o‘qlar bo‘yicha tuziladigan bo‘ldi.

Kompozitsiya tuzilgan asosiy o‘qlar - yirik shoxlar; ularning atrofida sidirg‘a yoki naqshli fonni to‘ldirgan guldstalar, xilma-xil o‘simlik mavzulari bo‘lgan (Rasm 233-236).

Fransuz gazlamalarida to‘r tasviri naqshda paydo bo‘ldi. Ko‘pincha, o‘simlik shakllari bilan nafis gulto‘r yoki gulli naqshli to‘r qiyalab tasvirlangan guldstalar orasida o‘ralib, shoyini reps fonida o‘zgacha kompozitsiyani yaratardi. Gul va to‘rlardan tashqari rokoko gazmollarida mo‘yna (oqsuvsar, qoplon) tasvirlanardi.

Osiyo mavzulari ancha vaqt davomida saqlangandi. Bu sibizg‘a chalgan cho‘pon bola tuyalarni oldida, musallas va meva yuklangan, yelkan o‘rniga mevalar tasvirlangan ekzotik kemalar (Rasm 237).

Qimmatbaho gazlamalar zar, kumush, shnurlar, kashta va yaltiroq tangachalar bilan bezatiladigan bo‘ldi (Rasm 238-240). Bu davrda ishlangan murakkab to‘lqinsimon yo‘lli barcha gazlamalarning rapporti unchilik katta bo‘limgani uchun, ular arzonlashgandi. Arzon gazmolga ehtiyoj katta bo‘lgani yangi gazlama «draget» (le draguet) ixtiro etilishiga sabab bo‘ldi. Uning yangiligi – arqoq ipi bilan birgalikda tanda ipi ham naqsh yaratardi. Bundan oldin gazlamada faqat arqoq ipi naqshni hosil qildi.

Dragetni har xil turlaridan tashqari jippi rasmi duxobalar ishlanardi. Bu duxobani kompozitsiyalarida nihoyat xilma-xil sujetlar uchraydi: gullar, mevalar, hayvonlar, ov sahnalari (Rasm 241).

Yana bir keng tarqalgan gazlama turida naqsh maxsus usulda tayyorlangan tanda ipi bilan hosil qilinardi. Shunday gazlamaning tashqi ko‘rinishi yengil akvarelni eslatardi (Rasm 238, 242).

Rokokoni o‘rniga kelgan «Lyudovik XVI uslubi»ning mafkurasi inqirozga yuz tutgandi. Dvoryanlar halok bo‘lishlarini sezardi. Yangi uslub g‘amg‘in, akcessuarlarning ko‘plari dafn marosimidan o‘zlashtirilgan; osilib tushgan, sal so‘lib qolgan gulchambarlar, cho‘zilgan ovallar, ojizona osilgan drapirovkalar – bular barchasi g‘amg‘inlik alomatini ifodalardi.

Agar rokokko davrida to‘lqinsimon chiziqlar, chig‘anoqlar va egri




233,234-rasm. XVIII asr o'rtalari.  
Naqshi rangli iplardan shoyi gazlama

235-rasm. XVIII a. boshi. Naqshi rangli  
iplardan «kamka»



236-rasm. XVIII a.  
Naqshi rangli iplardan  
shoyi gazlama

237-rasm. XVIII a.  
Fransiya shoyi  
gazlamasi




238,239-rasmlar. XVIII a. o'rtasi naqshi  
rangli va kumush iplardan shoyi  
gazlama



240-rasm. XVIII asr  
i-choragi. Naqshi rangli va zar  
iplardan atlas gazlamasi



241-rasm. Fransiya  
«Miniatyura» duxobasi.



242-rasm. XVIII a.  
Naqshi rangli iplardan  
shoyi gazlama

chiziqlar muhim rol o'ynagan bo'lsa, endi yangi uslubda ular ishlatilmasdi. Chiziqlar to'g'ri bo'ldi va ko'pchaygan gullardan faqat mayda dala gullari qolgandi. Klassika bilan qiziqish tiklanishi hayajonlanish va nasihatomuz rag'batlari bilan ifodalangandi. Hayot o'yini davom etmoqda, ammo sevgi pastorali (cho'ponlar hayoti tasvirlangan badiiy asar) meshchan xayrlilariga almashdi. Qirol o'zi lentalar bilan bog'langan qo'zichoqlarni boqmoqda, uning ukasi mакtab o'qituvchisidek saboq bermoqda, qirolicha Mariya Antuanetta esa sarv chinnisidan tayyorlangan idishlarga shoxi zarlangan sigir va echkini sog'moqda. Versalning oldidagi Trianonda qurilgan ideal ferma va mol saroyida oxurlar va suv havzalari marmardan qilingandi, devorlari esa qizil shtof bilan qoplangandi.

Lyudovik XVI uslubining asosiy elementi – to'gri vertikal chiziq dala gullari, cho'pon bosh kiyimi, sibizg'a, lentalar bilan o'ralgan xassa, gul bilan guldonlar, musiqa va bog'dorchilik asboblari – xullas bularning barchasi Trianonning dala iddiliyasini eslatardi.

Antik Pompeya qazilmalarining ta'siri - shartli naqsh va me'morchilik elementlarini kirishiga imkon berdi. Gulchambarlar, osilchoqlar va akant shoxlariga antikdan taqlid etilgan guldon, o'qdon va kamon, mash'al, o'pishgan kaptarlar qo'shildi. Ilk bor mingyillik davrida gazlamani bezagi me'morchilikka bo'ysungandi. Bu gazlamalar faqat mebel uchun ishlatilardi.

Asosan, *lampas* (*lampas*) ishlanardi, *dama(damas)* esa kamroq, ba'zilarida rasmning effektini kuchaytirish uchun maxsus kashta qilinardi.

XVIII asrning oxirgi choragida to'quvchi Gaspar Greguar figuralar to'qilgan ipak duxobasi bilan mashhur bo'lgan. U miniaturaga o'xshagan kichkina duxoba rasmlarni to'qigandi. Napoleon I, Lyudovik XVIII, gersoginya Angulemskaya portretlari eng yaxshi asarlari bo'lgan.

Filipp de-Lassal (1723-1803 yy.) Lyudovik XVI ning uslubi asosida ishlasa ham, shoyi gazmollar tarixida o'z janrini yaratgandi (Rasm 243-244). Uning ustozlari rassomlar Saraba, Busheler, Bushe va shu davrning mashhur dekoratori Dyutile bo'lgandi. Lassal, qalamni birinchi chizig'idan boshlab, to o'zi tayyorlagan tanda ipida mokini yakuniy harakatini qilishga intilardi. Uning naqshlari juda oddiy va dadil rasmlardan iborat edi. Yorug'lik, soya va nimton yordamida u o'z modellarini bo'rtma qilib yaratardi. Uning deyarli barcha asralarida to'q jigar ranglar qo'llanardi. O'z ishlarida Lassal faqat ipakni tan olardi. Uni barcha asralarida na zar, na kumush, na duxoba uchramagan, tuk effektini esa kamdan-kam baxmal ipi (*sinel*) yordamida yaratgandi (Rasm 243,245). Qimmatbaho gazlamalarida devorni qoplash, parda va mebel uchun Lassal



243-rasm. Naqshi rangli sineldan shoyi gazlama.  
Fillip de Lassal rasmidan



244-rasm. Naqshi rangli shoyi gazlama.  
Fillip de Lassal rasmidan



245-rasm. Naqshi rangli sineldan shoyi gazlamalar.  
Fillip de Lassal rasmidan

mohir dekorator sifatida o'zini ko'rsatdi. Shox otib ketgan poyalar orasida dekorativ qushlar tasvirlari ko'plab uchraydi. Uni kompozitsiyalarida nihoyat mohirona va oddiy tasvirlangan oq qushlar, kaptarlar, kakliklar, tovuslar, qirg'ovullar bo'lgan (Rasm 243, 244).

Ulardan tashqari Filipp de-Lassal maxsus mavzuli gazlama ishlagan. Masalan, Rossiyaning turklar bilan urushi tamom bo'lishi munosabati bilan buyurtma qilingandi. «Qrim» gazlamasida urush apofezi tasvirlangan: soni bo'yicha qalqonlar yoyilgan, rus burguti gullayotgan lavrda o'tirib, oxirgi turk kemasiga chaqmoq sochmoqda.

XVIII asrning oxirida fransuz to'quv sanoatida muhim voqeа ro'y berdi: qiyinchilik tug'diradigan choralar bekor qilindi. Erkinlikka erishgan to'quvchi ustalar rasm va mato tanlashda tashabbus ko'rsatishgan. Sof oltin va kumush o'miga naqshga oltin yalatgan misni, zar i p va boshqa surrogatlar qo'llashadi. Bular barchasi gazlamani arzonlashiga olib keldi va keng tarqalishiga sabab bo'ldi.

Fransuz inqilobi barcha dvoryan uslublarini yo'q qildi va rassom Jan Lui David tuzgan dasturi bo'yicha san'at xalqni tarbiya qilishi va baxtli qilishga yordam berishi kerak. Ammo ichki kontrrevolyutsiya va intervensiya bilan inqilob kurashi Parij va Orleanda to'qimachilik sanoatini, Lion, Tur va Nimda i pakchilik sanoatining rivojini to'xtatdi. Faqat Nimda Napoleonning

Misrga yurishlaridan keyin shollar to'qish korxonalari ochildi, ammo keyin inqirozga uchrab, trikotaj va paypoq to'qish korxonalariga aylandi.

Napoleon davrida sidirg'a yoki juda siyrak va oddiy naqshlar modaga kirdi.

Konsullik va imperiya davrida Fransiyada yangi aristokratiya yuzaga kelib, antiklik bilan revolyutsion qiziqish imperator uslubi – ampirda («emperia») o'zlashtirildi. Mamlakat o'z sanoatini rivojlantirishi uchun Napoleon bir qator chora ko'rdi. Uning kontinental sistemasi fransuz burjuaziyasiga yordam berish uchun inglizlarni Yevropa va Osiyo bozorlaridan uzoqlashtirish edi.


To'quv sanoatinining tiklanishi va rivojlanishiga alohida e'tibor berilgandi. Eski qirol rezidensiyalarini restavratsiya qilish uchun yirik buyurtmalar Lion sanoatini tiklanishiga asos bo'ldi. Bir necha yil mobaynida Perse va Fonten rassomlarining ishtirokida Sen-Klau, Kompen, Medon, Fonteblo, Versal, Tyuilri saroy xonalari tiklangandi.

Kamilla Pernon, Zaxariya Grand, Grand-Freer, Bissardona, Bonn Lion fabrikalari yangi imperator Napoléonning buyurtmalarini doimiy ta'minlovchilari bo'lgan. Saroylarning devorlari faqat mahalliy shoyi va duxoba bilan qoplanishi shart edi, xorijiy gazmollarni qo'llash man etilgandi. Tantanali marosimlarga nafaqat ayollar, erkaklar ham shoyi va duxobadan libos kiyishi lozim edi.

Napoleon davridagi gazlamalarning kompozitsiyasini rassomlar Persc (1784-1838 yy.) va Fonten (1762-1853 yy.) yaratgan. Ikkalasi ham me'mor bo'lgan va antik davr bilan qiziqishgan. Lebren kabi ular badiiy san'atga juda ko'p rasmlar ishlangan. Gazmollar, gilamlar, pardalar, mebelni qoplash uchun gazlamalar yaratgandi. Bu rassomlarning asarlari nihoyatda yaxshi qilinib, hisob va geometrik tuzilish bo'yicha ishlangandi.

Ampir uslubining gazmollari serhasham va egiluvchan bo'lib, ular eng yaxshi ipakdan qilinardi. Ularning rasmlari juda murakkab edi va yunon-rim naqsh namunalari ularning manbasi bo'lgandi. Ampir uslubida to'lqinsimon va egilgan chiziqning o'mini to'g'ri chiziq egalladi, gazmoldagi barcha kompozitsiyalarning asosi hayvonot va o'simlik mavzulari bilan boyitilgan geometrik shakllar va geometrik tuzilishlar bo'lgan.

Doira, oval, kvadrat, romb, ko'pburchaklar, ko'pincha, gul marjonlari yoki bolut shoxdari bilan o'rab olinib, yulduz va asalarilar bilan qoplangandi (Rasm 246). Palma, pechak, uzum va mitra yaproqlari, atirgul, ko'knor, dastorgul va bodrezak gullari naqshning asosiy mavzulari bo'lgan. Mevalar kamdan-kam uchrardi. Hayvonot mavzulardan, ko'pincha, burgut, oqqush, kapalak va asalarilar uchrardi. Ulardan tashqari ampir gazmollar naqshlarida yunon-rim naqsh elementlari uchrar edi: palmetta, meandr, stilizatsiyalangan



246-rasm. XIX asr.  
«Lampas» shoyi gazlamasi

ishlanardi. Birinchi imperiya davrida to'q ko'k («fransuz pasteli») rang keng tarqalgandi. Fransuz sanoatida bu yangi bo'yoqni paydo bo'lishi indigoni Fransiya olib kelish man etilgani bilan bog'liq.

Eski tuzim badiiy gazlamalarning evolyutsiyasini yakunlab, XVIII asr progressiv tashabbusini qo'llab va rivojlantirib, Napoleon davri yangi uslubiga yo'l ochdi. Bu tashabbuslarning biri — qo'l to'quvchilikdan mexanik to'quvchilikka o'tish (lion to'quvchisi Jakkard mexanik to'quv dastgohni 1801-yilda ixtiro etshi bilan); ikkinchisi — rasm bosadigan ishni rivojlanishi va takomillanishi. O'n bir yildan so'ng Jakkardning dastgohini Jan Berton takomillashtirgandi. Jakkardning dastgohi dunyoga tez tarqaldi (Yevropa, Amerika va Xitoya) (Rasm 248).

XIX asrda gazlama bezashda juda rivojlangan fransuz bosma ishi o'ziga xos tarixga ega bo'lgan. Qo'lda naqsh bosish allaqachon Rossiya, Germaniya, Angliya, Fransiya va Italiyada bo'lgan. «Sion gazlamalari» Yevropada eng qadimiy bosma namuna deb hisoblanadi. Ularning bir qismi Bazel tarix

novdalar; fan, san'at, sanoat, savdo va urushning turli atributlari. Naqshni kompozitsiyasida doimo me'morchilik tuzilishlar sezilardi va shakllar yoki geometrik to'g'ri bo'limlarida bir necha mavzular takrorlanishi qo'llanardi. Ba'zan gazlamaning sidirg'a foni mayda yulduzlar, gullar, asalarilar bilan to'l-dirilgan (Rasm 247). Devorni qoplash uchun, asosan, sidirg'a gazlamalar qo'llangandi, ammo ularni nafis rasmli zar yoki kumush kimxobdan hoshiya o'rabi olgan. Mohirona ishlangan rasmlardan tashqari ampir gazlamalar yorqin rangi, koloriti va bo'rtma naqshi bilan o'ziga e'tiborni jalb etardi.

Napoleon imperator bo'lgan ilk davrda gazmollar och, nafis tonda bo'lgan, kuch-qudrat davrida, aksincha, modaga juda yorqin ranglar kirgandi: alvon, qizil, malina, sap-sariq va yashil ranglar. Ko'pincha, bir gazmolda mohirona ikki yoki uch ton



247-rasm.

XIX asr. «Empire» uslubida duxoba.



248-rasm. XIX asr

Jakkardning to'qima portreti

muzeyida, boshqalari — Bern muzeyida saqlanmoqda. Bu gazlamada bir necha qator birin-ketin afsonaviy qirol Polipning tarixdagi voqealari tasvirlangan. Vilyam va Forer tadqiqoti bo'yicha bu gazlama XIV asrda Shimoliy Italiyani bosma ustaxonasida ishlangan. Fransiyada bosma gazmollarni odatda «hind» gazlamasi deb atashardi (Sharqiy Hindistondan olib kelingan ip gazlamalarga o'xshagini uchun).

XVI asrda Kan shahrida Andre Grandorj o'g'lliali bilan shunday usulda ichki kiyimni bezashadigan bo'lishdi («Gran Kan» ichki kiyimi deyishardi). XVII asrdan boshlab, shunday bezatilgan ichki kiyimni barcha badavlat oilalarda uchratish mumkin edi.

XVIII asrning oxirida bosma qilinadigan ustaxonalar Hamburg va Angliyada bo'lgan va shunday «hind» gazmollari, asosan, mebelni qoplashda qo'llanardi.

Fors va Hindistonda ishlangan murakkab bosma gazmollari G'arb bozoriga kelib, keng tarqalgandi.

Marsel, Montelye, Avinon, Ruan va Shatelro ustaxonalari ularga taqlid etgandi. Badiiy to'quvchilikka bosma raqobat bo'lgani uchun, Kolber bosmani taqiq qilgandi, ammo 1759- yilda taqiq bekor qilinadi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida bosma qiladigan ustaxonalarning soni ancha ko'paydi, lekin ularni orasida Xristofor Filipp Oberkampf ustaxonasining mahsuloti Fransiyada ibrat ko'rsatib, boshqalarni ergashtirgandi. Oberkampf bo'yagan zig'ir va ip gazlamalar («hind», «siam», «de Oranj») o'rniiga nimzig'ir va nimi p mahalliy gazlamalariga mayda bosilgan — «minonet»ni ishlab chiqargandi. Avval boshqa korxonalar kabi naqsh yog'ochdan qilingan qolip-«manerka» bilan bosilardi. Keyin 1770- yilda u

metall yassi shakl bilan bosiladigan bo'ldi va shundan so'ng kontur bo'yicha ko'prangli bo'yashga o'tdi. Bu usulda avval konturlari bosilardi, so'ng ketma-ket kerakli bo'yoqqa bo'yalardi. Ko'p o'tmasdan, «*pikotaj*» yoki «*pike*» usuli keng tarqaldi. Bu usulda metall chutka yordamida nuqtalar bilan fon to'ldirilardi (Rasm 249-251).



249-rasm. 1782-yil. J. Gyue.  
Jui bosmasi.



250-rasm. 1783-yil. J. Gyue.  
Jui bosmasi.



251-rasm. 1790-yil. J. Gyue.  
Jui bosmasi.

1799- yilda Oberkampf ilk bor naqshni o'yilgan silindr yordamida gazlamaga naqsh bosadigan bo'ldi. Bu g'oya, silindr shaklida uzlusksiz naqsh solish usuli, bosma sanoatiga keskin o'zgarish kiritdi.

Oberkampfning bosma ishlarida qo'llangan bo'yoqlarning sifati yaxshi edi, ular aynimasdi, oftobda o'ngmasdi. Juida bir qator mohir kimyochilar (Bertolet, Monj, Laplas. Shaptal, Gey Lyussak), rassomlar (Jannu, Le-Bi, Gil, Vitri, Garne, Kave, Teri) naqqosh va o'ymakor bo'lib ishlangandi.


Jui fabrikasidagi naqshlarni ikki katta guruhga bo'lish mumkin: birinchisi — Sharqdan kelgan hind va fors gazlamalaridan fransuz didiga mos o'zlashtirilgan nusxalar va turli lentalar, gulchambarlar, shoxlar va arabes-kalar «*pike*» fonida; ikkinchisi — figuralar bilan kompozitsiyalar. Ikkinchini guruh dunyoga mashhur bo'lgan. Uning sujetlari tarixdan, adabiyotdan va zamonaviy hayotdan o'zlashtirilib, taniqli rassom Gyuening rasmlari bo'yicha, asosan, binafsha, qizil yoki jigar ranglarda oq fonda qilinardi.

Inqilob davrida Jyuining bosma gazmollarida shu vaqtida yuz bergen bir qator mashhur voqealar tasvirlanardi, Napoleon I davrida esa klassik uslubida Perse va Fonten ishlagan naqshlarda urushlar sahnasi aksessuarlari bilan tasvirlangandi.

Buyuk fransuz inqilobidan so'ng to'quv sanoati sohasida sharoit keskin o'zgargandi.

Iste'molchilar arzon va chiroyli gazlamani talab qilishardi. Ishlab chiqarishni erkinligini, ayrim tashabbuskorlarning raqibligi, avval qo'llanilgan qimmatbaho gazlamalarni surrogatlanishi, jakkard mashinalarini keng qo'llanishi va bosma ishning rivojlanishi XIX asr to'quv sanoatida o'ziga xos davr yaratib, bozorga misli ko'rilmagan miqdorda xilma-xil naqshli gazlamalarini chiqardi. Yangi tuzimda qimmatbaho gazlamalarni o'mniga bosma gazlamalari kirdi. Jui fabrikalari qatorida Ruan chitlari va mebel gazlamalari mashhur bo'lgan. Bularni barchasida ketma-ket bir xil mavzular bir-birini o'rniga kelardi.

Avval Lyudovik XVI dekorativ florasidan o'zlashtirishini ko'ramiz (cho'pon ayollar atributlari bilan), keyin Napoleon I Misr yurishlaridan so'ng gazlamalarda ehromlar, xarobalar manzaralar, ibodatxonalar, saroylar, zafar arkasi tasvirlangandi (Rasm 252) va nihoyat Konsullik va Imperiya davrida Yunon va Rim tarixidan voqealar, medalyon va kameyalarda bust va ma'budalar, qonun chiqaruvchilar yoki jangchilar yon tomonidan tasvirlangan naqshlar tipik bo'lgan (Rasm 253).



252,253-rasm. Fransiya bosmasi.

Restavratsiya davrida antik-rim mavzulari o'mniga XVIII asrning naqshlariga qaytish bo'ldi. Emmigratsiyadan qaytgan aslzodalar gazlamada o'tgan asr naqshlarini talab qilishgan.

O'zlashtirish, qayta ishlash va kombinatsiya qilish natijasida to'quv san'atida, badiiy san'atdagi kabi, ashaddi eklektika yuzaga keldi. Bu davrda gazlamalar kompozitsiyasi haqiqiy tarixiy ma'lumotlarga asoslanmasdan, tasodifiy uchragan yoki o'tgan davrlar uslublaridagi mavzular bilan haddan tashqari to'ldirilgan. Ko'pincha metall, o'yma yog'och, ganchkorlikka xos bezak elementlari tasvirlangandi. Natijada yengil shoyi gazlamalarida gotik uchli ravvoqi va boshqa tosh binolarning me'moriy detallari, shu jumladan, ganchkorlik rokoko uslubining chig'anoqlari paydo bo'lgan.

Shu davr san'atida uslubiy oqim - romantizm ro'y bergan. O'tgan uslublar ni qayta tikishlashga intilib, romantizm gotika elementlarigacha yetdi. Unda salib yurishlaridan sahnalar va o'rta asr ritstarlar musobaqlaridan tashqari gotik qal'alari fonida Valter Skotning romanlaridan turli sahnalar tasvirlanganidi.

Romantizmga mansub narodniklik oqimlarining g'oyalari «Qishloq to'ylari», «Kalabriy qaroqchilar» kabi rasmlarda o'z aksini topgan.

Shular bilan bir qatorda sharq namunalaridan taqlid etilgan naqshlar tasvirlanardi. Bu yerda ham eklektika ro'y bergandi.

Bu uslubiy oqimga Uchinchilik respublika davrida xotima berilgandi. Tarix bilan qiziqish o'rniga bir tomondan naturalizm, ikkinchi tomondan — «chiroyli so'nishga» mansub har xil egilish va sinishlarni qayta tiklash keldi. Naturalizm yapon san'atida o'ziga tayanch topdi. 1878-yilda Parijdagi jahon ko'rgazmasida boshqa eksponatlar qatorida G'arbga notanish Yaponiya san'at asarlari namoyish etilgandi.

Yaponiya badiiy san'at asarlariidan serhasham kimxoblar, shoyi va boshqa gazlamalar o'zgacha muvaffaqiyat qozongandi. Rasmlarni o'ziga xos realizmi, yangi koloriti, ishlab chiqarish yuksak texnikasi fransuz rassomlarida o'ziga xos taassurot qoldirgandi.

Shu vaqtidan boshlab fransuz san'ati ma'lum darajada ikkinchi marotaba sharqning asiri bo'ldi. Ammo bu qiziqish XIX asr boshidagiga o'xshamasdi. Endi yapon kompozitsiyalarining usullarini sinchiklab tadqiq etib, fransuz rassomlari deyarli fantastik floradan va romantizm ta'sirida yaratgan kompozitsiyalaridan voz kechishdi va tabiatda, tashqi muhitda yangi shakllarni qidira boshlashdi, natura esa stilizatsiyalab, rangi oddiylashtirildi. Yaponiya gravyularidagi qora chegaralar gazlamani yangi naqshlarida rangli qilindi.

Yaponiya naturalizmi «modern» uslubining asosi bo'ldi. Avval naqshning jingalalari va gullarning chegaralari mayinligi va bir vaznligi endi egilgan va singan turda bo'la boshladidi. Ularning seskanma egilishlari va so'lgan yashil koloriti modern uslubiga mansub bo'lib, bir necha yillar davomida bir muncha tan olingandi.

Dekorativ gazlamalaridan tashqari XIX asr juda ko'p ko'yaklik matolarni bozorga chiqargandi. Ularning naqshi va fakturasi kiyimni bichimiga mos bo'lishi lozim edi.

Qirol rejimidagi gazmollar qalin bo'lib, tana shakllarni berkitardi. Direktoriyada ularning o'miga modaga juda yengil nimharir gazlamalar kirdi. Tanani siqib turadigan kiyimlar o'miga erkin shakllar keldi, ularning vazni poyafzal bilan 400 grammdan kam bo'lgan. Harir gazmollar deyarli naqshsiz edi. Sharqqa taqlid etilgan yorqin va rang-barang shol yoki rangli yaltiroq

tangachalar va zar ip bilan to'qilgan shoyi palantin libosni yagona bezagi bo'lgan. Metalldan yasalgan yaltiroq tangachalar bu davrda keng tarqalib, avvalgi davrdagi zar va kumush kashtani o'mini egalladi.

Restavratsiya davrida avval sidirg'a, keyin bora-bora razmeri kattalashgan ayrim figuralari bilan bezatilgan qalin gazlamalar modaga kirdi. Keng yubkalar krinolin bilan kiyilardi, ularni metall gardishlarining taxlamlari tekislangani uchun gazlamaning naqshi butunlay ko'rinardi.

Fabrikalar ishlab chiqargan gazlama namunalari yil sayin oshgandi. Parijdagi odatiy bahor ko'rgazmasida mavsum yangiliklari namoyish etilardi. Fransuz didining bu namunalari barcha mamlakatlarga tarqalardi. Bir asr davomida moda sohasida Parij barcha mamlakatlar uchun hukmdor bo'lgan.


### Nazorat savollari.

1. Qaysi davrda Fransiya to'qimachilik san'ati Yevropada ustunlik qilgan?
2. To'qimachilik sanoatini rivojlanishiga nima sabab bo'ldi?
3. Qanday gazlama turlari ishlab chiqarildi?
4. XVII asr gazlama turlari va naqshlari.
5. XVIII asr gazlama turlari va naqshlari.
6. XIX asr gazlama turlari va naqshlari.

### Rus gazmollari

Rus gazlarma tarixining dastlabki xronologiyasini Moskva mamlakatini tiklanish davridan boshlaymiz (Rasm 254). Bir tomondan aynan shu vaqtidan boshlab to'plangan savdo kapitali xorijiy shoyi gazlamani sotib olishga imkon berardi, ikkinchi tomondan esa – shu vaqtidan boshlab tarqoq hunarmandchilik sanoati o'lkkalar bo'yicha ixtisoslana boshlandi va avval davlat, keyin shaxsiy tashabbus bo'yicha ilk yirik ustaxonalar tashkil etildi.

XVI asrdan boshlab Moskvaga sharq gazmollarini boy assortimenti kela boshladi. Gazlamalar savdo yoki harbiy o'lja sifatida kelgandi. Ivan Groznyi oprichnigi Genrix Shtadenning so'zi bo'yicha, «Fors - Qizilboshi, Buxoro, Shemamaxa – bu barcha mamlakatlar Rossiya bilan doimo savdo-sotiq qiladi, ularning odatiy moli – oltin buyumlar, har xil shoyi gazmollari Astraxan va Qozonni ishg'ol qilganda, qrim savdogarlaridan tortib olingen serhasham gazlamalar chor



254-rasm. VIII-IX aa.  
Kiyev va Moskva Rusi  
gazlamasining naqshi

voyevodalariga mukofot sifatida ularashilgandi. Shtaden ma'lumotiga ko'ra «qrim savdogarlarida juda ko'p xilma-xil mollar topilgandi, ruslar esa shunday mollarni aslo ko'rmagandi».

XVII asrda Fors bilan savdo rivojlandi va Hindiston, Xiva va Buxoro bilan aloqa bog'lashga urinib ko'rildi.

XVII asrning o'rtasigacha xilma-xil musulmon gazlamalar serhasham kimxob va duxobadan boshlab bosma dag'al i p gazlamagacha Rossiya import qilinadigan bo'ldi. Fors va Moskva orasida qizg'in mol almashish natijasida chor saroyi va cherkov ehtiyoji qondirildi.

Cherkov liboslarini ajoyib kashtalari, bosma gazmollari - bular barchasi yo'qolgan sharq gazlamalarini ifodalaydi yoki ularning naqsh mavzularini takrorlaydi.

Moskvada qimmatbaho gazlamalardan po'stin, opashen, feryaz, kafanlar qilinardi, bir qismi esa cherkov va monastrlarga sadaqa qilinardi. Musulmon gazlamalaridan oddiy kiyimlar kam tikilardi va hozirgacha kam saqlangan. Faqat pardalar, gazmollar, ot anjomlari ko'proq saqlangan (Rasm 255).



255-rasm. XVII asr.

Fors kashtasi. Ot yolig'i monopoliyasi Moskvaning eng yirik va foydali kommersiyasi bo'lgandi. Rus hukumatining savdo siyosatining asosiy tomoni - Fors va u bilan bog'liq Buxoro i pakbozori uchun G'arbiy Yevropasavdogarlari bilan kurash bo'lgan.

Ipak xomashyosi bilan savdo qilish rus hukumatining monopoliyasi bo'lgani o'z i pakchilik sanoatini va kashtachilikni rivojlanishiga keng imkon berdi.

1670- yilgacha Fors, Hindiston va Xitoy shoyi buyumlari bilan savdo qilish erkin bo'lgan; fors va hind savdogarlari Astraxan va hattoki Moskvaga ham musulmon san'at asarlarini ko'p miqdorda olib kelishardi. Natijada Rossiya G'arbga nisbatan ancha ko'proq sharqning eng yaxshi asarlari saqlanib qolgan. Qimmatbaho gazmollari cherkov liboslari uchun qo'llangani uchun ko'p miqdorda saqlangan. Bu gazlamalar, asosan, sadaqa sifatida cherkovga berilgani uchun ishlangan vaqtini aniq bilish mumkin.

Moskvaga olib kelingan musulmon gazlamalarini nomlari turli-tuman bo'lgan: *altabas, barxat, obyar, izobarf, bayberek, atlas, kamka, tafta, fata, dorogi, kutnya, zenden, kindyak, viboyka, buz, mitkal* va b.

Bulardan eng qimmatbahosi kimxobning bir turi – altabas edi. Uning nomi Savvaitov va Inostransevning fikricha, «*altun*» - oltin, «*buz*» - gazlama, turk so'zlaridan kelib chiqqan, Veltmanning fikriga ko'ra esa – «*au di badj*» - kimxob, arab so'zidan kelib chiqqan. Bu gazlamani texnikaviy tahlili uni Vizantiya silliq aksamitiga o'xshaganligini tasdiqladi. Demak, Vizantiyadan bu gazlama Sharq va G'arbga tarqalgan va yangi joylarda ushbu usulda ishlangan gazlamalarga har xil nomlar berilgan.

G'arb Vizantiya gazlama nominini deyarli saqlagan holda (examitum, samitum, samita), Sharq o'z holiga o'zlashtirib, yangi nom bergandi.

V. Kleyn altabas va aksamitni tarkibiga binoan quyidagini aytgan: «Tanda i pi – zich qatorli rangli ingichka ipak (yashil, sariq), uch arqoq iplari ularni biriktirardi. Yarim xomashyo ipak (qizil rangga sal bo'yagan) eng muhim arqoq i pi bo'lgan, u sarja o'riliш bilan chervchat rangli tanda i pi bilan bog'lanadi. Bu tanda va birinchi arqoq iplarni o'riliшidan juda zich vaqalin gazlama yaratilgandi. Birinchi arqoqqa yana ikki arqoq i pi qo'yiladi: birinchisi ingichka sariq i pakdan (siyrak qatlam bilan), ikkinchisi – qalin yigirilgan zar ipdan. Ikki ustidagi arqoqlar juda ingichka i pak maxsus tanda bilan sarja o'riliш o'zaro biriktirilgan. Silliq aksamitda yassi naqsh odatiy usulda yaratilgandi. Horuza ochilganda tanda iplari ma'lum darajada ikki qatorgabo'linadi vaularning orasidan arqoq i pi o'tgandan so'ng, iplarning yangi kombinatsiyalarini tuzish uchun xomuza berkilibadi. Izmalii aksamit to'qilganda zar i pi endi arqoq i pi bilan bog'lanmaydi; zar ipli moki tanda i pini faqat bir qismini o'rib oladi (unga dastlabki metall chivig'i qo'yiladi); izmalar qatori bitganda xomuza berkilib, metall chivig'i sug'urib olinadi. Xomuzani har bir ochilishida izmalar qilinmasdan, oraliq bilan qilinadi, ya'ni har bir qator izmadan keyin uch-besh qator eshilgan zardan arqoq iplari o'tadi».

Sharq altabas va G'arb aksamitining fakturasini farqi shundaki, G'arbda zar i pni eshilgani qo'llansa, Sharqda – cho'zilgani qo'llanardi. Shubhasiz, shu bois G'arb aksamitiga nisbatan Sharq altabasiga zar ko'proq ketgani uchun u qimmatroq turardi. Undan tashqari G'arbda zar i pi rangli i pakka faqat qo'shimcha bo'lsa, Sharq altabasida esa – fonda faqat cho'zilgan zar ishlatalardi, natijada gazlama bolg'alangan metall taxtasiga o'xshardi. Shu bois, gazlama egilganda sinishi mumkin edi.

Sharqdan olib kelingan duxobalar silliq va naqshli bo'lgan. Rossiyada

XVII asrda naqshli duxobalar silliq atlas yoki satin fonida - bo'rtiq, kimxob fonli duxobalar esa — zarli deb nomlangan. Bulardan tashqari duxobani bir necha turlari bo'lgan.

Odatda, duxobani ishlash uchun ikkita tanda i pi qo'llanilgan: birinchisi fonni ishlash uchun, ikkinchisi esa — tukini («morx»ni). Ikkinci tanda birinchisiga nisbatan 4-6 karra uzunroq olinardi, chunki undan izma qilinardi, ular keyin qirqilib, tukni hosil qilardi. Turli effektga erishish uchun izmalmarni qisman qirqish mumkin, bu holda yarim qirqilgan duxoba hosil bo'ladi.

Ba'zan, ayniqsa, boy va yuqori navli duxobalarda aksamit kabi izmalari zar i pdan to'qilardi. Shunday duxoba «aksamichniy» deb nomlanardi.


Boshqa zar ipli gazlamalaridan ko'p uchraydiganlari «obyar» va «izobarf» edi (Rasm 256). *Obyar* — reps ishlovi berilgan muar turidagi gazlama. Tanda va arqoq ipi qalinligi har xil bo'lgani uchun (tanda i pi ingichka, arqoq — ancha qalinroq) unda gorizontal chivig'i hosil bo'ladi.

*Izobarf, zarbof (izer—oltin, baf-gazlama, baften-to'qish)* — zar va kumush ip bilan to'qilgan fors shoyi gazlamasi. Bu gazlama satin o'rilihsda bir yoki ikki rangli tanda va olti arqoq iplari bilan to'qilardi.

XVI — XVII asrlarda Rossiyada eng ishlatiladigan shoyi gazlamalari *atlas*, *kamka* va *tafta* bo'lgan. Taftani XX asrda *kanaus* deyishardi. Kamka — forsdan kelgan qalin shoyi gazlama. Kamka — bu shoyi degani. Uning o'riliishi grodenaplevli, ammo farqi shundaki — tanda va arqoq iplari o'zaro tartibsiz almashib naqshni hosil qiladi. Bu to'qish usuli hozirgacha saqlanib, Fransiyada, keyin Rossiyada *dama* (*damas*) deyilardi.

Qimmatbaho gazlamalardan tashqari Rossiyaga har xil kashta va bosma ip gazlamalari olib kelinardi (Rasm 257). Sharq bilan savdoni rivojlantirib, Moskva shu mollar yordamida Yevropa bilan aloqa bog'lashga intilardi. G'arb esa Moskva orqali faqat Sharqqa yo'l qidirmasdan, xomashyo evaziga molini sotiladigan bozorni qidirardi.

Sharq gazlamalari qatorida G'arbiy Yevropadan italiya va ispan gazlamalari olib kelinardi. Chetdan keltirilgan gazmollar quyidagilari edi: italyan kimxob (Rasm 258), ikki tukli duxoba va har xil shoyilar.



256-rasm.

XVII asr. Fors bosmasi.



257-rasm.

XVII asr. Italiya obyari.

Qadimiy rus bosma naqshi, odatda, moybo'yoq bilan qilinardi. Bu usul oddiy edi va ishlash uchun ko'p vaqt sarf etmasdi, faqat quritishga ko'p vaqt ketardi.

Moskva Rusida bosmadan faqat ko'yak emas, balki bayroq, parda, chodirlar, cherkov liboslari va boshqa buyumlar ham qilinardi.

Naqshi taqlid etilgan gazlamalar, asosan, shahar kundalik hayotida qo'llanildi, qishloqda esa qo'llanilmadidi. Ular o'z ehtiyojiga «bosma naqsh qilingan olachani» («krashenina pechatnaya»), ya'ni oq, moviy, sariq yoki yashil mayda rasmli to'q ko'k fonda (kub bo'yog'i) «xolstina»ni ishlatalishiadi. Naqshlari qadim-qadim zamonlardan saqlanib qolgan tasvirlar bo'lgan. Ular xilma-xilligi va boy fantaziyasi bilan ajralib turardi. Dehqonlarning asarlari guberniyalar bo'yicha keskin farqlanardi.

Yevropa singari Rossiya ham i pakchilikni rivojlanishini istagandi. Moskvada shoh Aleksey tut daraxtini o'stirmoqchi bo'ldi, ammo, tut qalamchalari unmagandi, Simbirsk va Astraxanda xom i pakchilikni tashkil etishaolmadi.

Sharqdan xom i pak kelgani tufayli, Moskva o'zida i pakchilik sanoatini tashkil etgandi, ammo, uni chet el mutaxassislari boshqargandi.

Petr I islohotlari tufayli i pakchilikishi surilib qolgandi, chunki muntazam qo'shinlarni kiyim bilan ta'minlash uchun polotno va movut kerak edi. 1717- yilda maxsus farmon chiqqandi: «Hech qanday zar va kumush bilan to'qilgan gazlamalardan kiyim qilinmasin, faqat eskisini kiyish mumkin, yangilari qilinsa – katta jarima solinadi. Zar va kumushdan tashqari Sibirdan xitoy va fors shoyi gazlamalaridan va mahalliy manifakturalardan turli matolardan kiyilsin» (Qonunlarni to'liq to'plami 3127 raqami).

Ammo XVII asrga nisbatan Pyotr I davrida va keyin XVIII asrda i pakchiksanoati rivojlanishiga ko'proq imkon berilgandi. Bora-bora davlat korxonalari o'rniغا xususiyatlari tashkil etilgandi. Bu holda gazlamalar naqshlarida G'arbning ta'siri kuchaygandi. Pyotr I 1700- yil 4- yanvardagi farmoniga binoan saroy xodimlari va amaldorlariga osiyo turidagi kiyimlarni kiyish man etilgandi. Oxaben va uzun kafanlar o'rniغا ham poytaxt, ham viloyatlarda nemis turidagi kamzolarni kiyishadigan bo'lди.

Oliy rus dvoryanlar chet elga borib, G'arb-Yevropa madaniyatining va modalari bilan tanishgan va shu modalarni Rossiyaga olib kelishgan. G'arb bilan savdo takomillashdi; natijada Moskva va Peterburgning do'konlari g'arb-yevropa mahsulotlari bilan ta'minlangan.

Pyotr I davrida Italiya va Fransiyaga to'qimachilik, hunarmandchilikka o'rganish uchun o'quvchilar yuborilgandi; Yelizaveta davrida ulardan ikkalasiga (Ivkov va Vodilovga) porushchik unvoni berilgandi. Ular Moskva



265-rasm.  
XVI asr. Rus  
shoyi gazlamasi.



266-rasm. XVIII asr.  
Rus bosmasi.

dagi nesommlar faqat xorijdan kelgan namunalardan tasviri taqlid etishadi, o'zlar esa namunalar naqshini yaratishmaydi» (Rasm 265,266).

Pyr I davrida parij gobelenlar manifakturasi kabi rus shpaler manifikurasini taifakturasining kimxoblari (Rasm 267-269), tafta va shollari

Kubava man-



267-rasm. XIX asr.  
uchun kimxob  
is sarafani



268-rasm. XVIII asr.  
Rus duxobasi.



269-rasm. Mitropolit  
Dionisiy sakkosining  
parchasi.

XIX ming bosida modada bo'lgan. Bu manifakturada 1821-yildan boshlab qalin oldatmovuti, 1823- yildan esa — movutning yupqasini ishlab chiqagan.

174-yilgachha Rossiyada Peterburgda faqat bir bosma fabrikasi bo'lgan. Amma Astraxan. Qozon va Vyatka guberniyalaridagi buxoro va fors fabrikalarining nabsulotlari muhim rol o'yagandi. Qozon professori logann Butix 1811-yilda o'z ishlarida quyidagini yozgan: «Rossiyada alvonni (kumsh) ko'p iste'mol qilinishi va uni olib kelish qimmatga tushgani

bois, buxoroliklar va forslar bundan 30 yil oldin Astraxan, Qozon va Vyatka guberniyalarida fabrikalarni tashkil etishgan. Bu fabrikalar tatarlarga tegishli, lekin ustalari buxoroliklar...». Butix tavsiflagan sharq bo'yash usullari G'arbda qo'llanib, mahsulotni sifatini ancha yaxshilagandi. Shubhasiz, bu davrda G'arbgan nisbatan Sharqdan ko'proq o'r ganilgandi: XIX asrda Sharqda bo'yash va bosma qilish madaniyati uning ko'p asrlar davomidagi tajribasiga ko'ra, yuqori darajada bo'lgan.

XIX asrda krepostnoy dehqonlar ishlagan to'qimachilik fabrikalarida ommabop arzon gulli gazlamalar ishlab chiqarilardi: avval xolstda, keyin rangli mitkalda bosma naqsh qilinardi.

Gazmollar tasvirining tahlili dehqon manifikaturalarini an'anaviy hunarmandchilik korxonalari bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Moybo'yoq bilan bo'yash usulidan tashqari xom ip va gazlamani uyda bo'yash usullari saqlanib qolgandi. Bosma gazlamalar uchun naqshlar sharq (fors va turk) namunalardan taqlid etilardi yoki ularni o'z didiga ko'ra qayta ishlashardi.

Sharq bozori uchun ishlangan maxsus gazlamalardan tashqari, shahar bozori uchun g'arb namunalarini (asosan fransuz) taqlid qilishni davom etishgandi. Bu XIX asr sanoat siyosatiga javob bermasdi va matbuotda tanqid etilardi. 1829- yilda Sankt-Peterburgdagi Rossiya manifikaturalarining mahsulotlarini birinchi ko'rgazmasi haqidagi xabariga binoan: «Tasvirlarda, ko'pincha, o'rinsiz, chet elga ko'r-ko'rona taqlid qilinishi ayon, misol uchun, a la jiraffe degan gazlama Parijda yoqishi mumkin, chunki bu hayvonni u yerda ko'chalarda olib yurishgan, bizda esa uni hech kim ko'rmagan. Fabrikalarni bittasiga ham bizni joyimizga mos rasm o'ylab chiqarish fikri kelmagan. Har bir mamlakat o'z xususiyatlari, o'z shuhratiga ega. Ulardan foydalanish kerak va shunda boshqa xalqlar, bizdan o'zlashtirishadi. Biz bir oyog'imiz bilan Osiyoda turibmiz, qartaygan Yevropaga o'xshamagan mamlakatmiz, bu yerda tengi yo'q, ajoyib, a'lo narsalar ko'p. Yevropa va Osiyo didini birlashtirgan holda mutlaqo yangi va jozibali narsalarni yaratish mumkin». Ammo bu tanqidlar va nasihatlar XIX asrning oxirigacha e'tiborsiz qoldirilgan.

Bosma chit ishlab chiqarish fabrikalarini paydo bo'lishi va rivojlanishi borasida Ivanovo-Voznesenskning tarixi ma'lumot beradi.

Yekaterina II davrida Shlisserburgda xorijiliklarning Siritsius va Eyman chit fabrikasida XVIII asrning 40-yillarini oxirida ishlagan ivanovolik dehqon Grigoriy Butrimov ko'prangli chitlarni ishlash xorijiy texnikasini astoidil o'rgangandi. 1750- yilda vataniga qaytib, Ivanovo qishlog'ida xususiy bosma chit ishlab chiqarish fabrikasini tashkil etdi. Umuman aytganda, bosmani

moybo'yoq bilan emas, qaynatish usulida qiladigan birinchi fabrikani 1745-yilda ivanovolik dehqon Ivan Ishinskiy tashkil etgan. Bu fabrikada «Riga» ro'mollarini va metrli bosma gazmollarni ishlab chiqarishgandi. Undan keyin Yamanovskiy, Butrimov, Sokov, Usov, Grachyov va Garelin xususiy fabrikalar tashkil etishdi. Barcha ishlar qo'lida qilinardi. Shu davrda ivanova chiti oddiy xolst bo'lgan, unga bir rangda naqsh bosilardi va ustidan qo'lida qo'shimcha bir necha rangga bo'yalardi.



270-rasm. XIX a. Bosma uchun taxtalar (manerlar).

Ustaxonalarda uzun stollarni oldida naqsh bosuvchi turardi, u o'ymaqolipini («svetka» yoki «maner») (Rasm 270) bo'yoqqa botirib, stolda tortilgan oq xolst yoki polotnoga bosardi. Asosiy rasmni chegarasini belgilaydigan naqsh bosuvchidan tashqari ayollar mo'yqalam yoki barmog'i bilan rasmni bo'yashardi, bolalar esa bo'yoqni maydalashardi. Korxonani egasi ishchilardan sir saqlab, katta sopol idishda kerakli bo'yoq qaynatardi.

**Ivanovo chitlari** – bu umumlashtirilgan tushuncha. Bu chitlar Ivanovo qishlog'ida va unga yaqin joylarda (Shuya, Kxomi va Teykovo qishloqlar, Vologod guberniyadagi Aleksandrov shahri) ishlab chiqarilardi. XVIII asrning oxirida – XIX asrning birinchi yarmidauch yirik ip gazlamaishlab chiqaradigan markazlaridan – Peterburg, Moskva va Vladimir guberniyasi – Vladimir guberniyasi kambag'allarning ehtiyojini bajarardi. Ivanovo chitlari bu davrda maxsus olachi por, arzon va oddiy gazlamalar edi.



271-rasm. XVIII asr boshi. «Sirin qush» naqshli bosma chit



272-rasm. XVII asr oxiri. Oq asosli chit I.M.Yamanovskiy manufakturasi



273-rasm. XVIII-XIX aa. Naqshi viboya usulida ishlangan

Chitlarning naqshi har xil didlarga va har xil hayotiy sharoitga tatbiq etilishga mos edi. XVIII asrda Rossiyada ishlab chiqarilgan ip gazlama modali yangilik bo'lgandi, ular dvoryanlarning intererida devorni va mebelni qoplashda, deraza pardalarida qo'llanilardi, undan modali ko'yaklar va aristokratlar uchun uy kiyimlari tikilardi (Rasm 271-273).

XIX asrda gazlamani mashinada ishlab chiqarishni rivojlanishi va gazlamani arzonlanishi bilan ular shahar, meshchan va dehqon aholini kundalik hayotida kerakli bo'lib qoldi. Arzon, amaliy jihatdan yaxshi, rang-barang naqshli chitlar bilan dehqonlarning uylari bezatilardi, ulardan parda, yostiq jildlari qilinardi. Yorqin yirik gulli naqshlar uyning ko'rinishiga xushchaqchaqlik kiritadi. Xalq kiyimida chitlar keng qo'llangandi. Ulardan sarafan, erkak va ayollar ko'yaklari va peshbandlari tikilardi. Dekorativ va ko'yak chitlarning naqshlari ishlatiladigan buyumlarga mos qilinardi.

Chitni ishlab chiqarish – bosma hunarmandchilikni davomi bo'lgan. Avval bosma qilish uchun qo'llangan asboblar chit ishlab chiqarishda saqlanib qolgandi. Faqat gazlama turi o'zgargandi: xolstni o'miga avval yupqa zig'ir, keyin ip gazlamalarini qo'llashgan. Gazlamada bo'yoqni mahkamlash usuli ham o'zgargandi. Avval bosma uchun moybo'yoqlar qo'llangandi, ular qurigandan so'ng bosma tayyor bo'lardi. Chit ishlab chiqarish jarayonida bo'yoqni mahkamlash uchun turli moddalar qo'llanilgan.

Bosma naqshli zig'ir gazlama (Rasm 274) Rossiyada XVI-XVII asrlarda ma'lum bo'lgan. Vladimir guberniyasining zig'iri mashhur bo'lgan, xolst va polotno to'qish dehqonlarning odatiy hunari edi. Pyotr I davrida yelkanli flot ehtiyojlari uchun to'quvchilik muvaffaqiyatlari rivojlangandi. Bo'yoqlardan mohirona foydalanish usuli ikona chizadigan rassomlarga ma'lum edi. O'rmoni mo'l joylarda yog'ochda o'ymakorlik - odatiy hunar bo'lgan. Daryolar ko'pligi ham muhim edi.

Ma'lumki, XVII asrning oxirida Ivanovo qishlog'ida xolst ishlab chiqaradigan hunarmandchilik rivojlangandi va dehqonlar Moskvaga o'z mollarini sotuvga olib borishardi.

Chit ishlab chiqarish va naqshni bosma usulda ishlash mashinalari paydo bo'lishiga qadar barcha ishlar qo'lda qilinardi. Bosma uchun har xil gazlamalar qo'llanilgan. Oddiy mahalliy dehqonlar ishlangan xolst va Kostroma, Yaroslavl, Vladimir guberniyalarda ishlangan yupqaroq polotno qo'llanilgan.

XVIII asrning oxirgi o'n yilliklaridaxoridan kelgan ip gazlamada bosma



274-rasm. XVII asr.

Rus bosmasi.

XVIII asr 80-90- yillarda sotuvda ingliz mitkasi paydo bo'ldi. Yaxshi oqartirilgani uchun undan oliv navli chitlar ishlanadigan bo'ldi. XVIII asrning oxirida Buxoro xom i pidan Rossiyada mitkal ishlanganadigan bo'ldi. Shu vaqtida nimzig'ir gazlama ishlangan: tanda i pi — zig'ir, arqoq i pi — ingichka ingliz paxta i pi bo'lgan.

XIX asrning boshida bosma faqat ip gazlamada qilinadigan bo'ldi. 1809- yildan Ivanovoda zig'ir gazlama ishlanmaydigan bo'ldi. Qo'llangan materiallari kam bo'lsa ham, ustalar gazlamada badiiy effekt yaratish uchun ularga xos o'zgacha usullarni qo'llashardi.

Dehqonlar ishlagan dag'al, yuzasi donali, ba'zan oqartirilmagan, ba'zan sal oqartirilgan xolstning fonida tasvirning konturlari bir muncha terbanib, qo'lda chizilgan kabi, jonli chiziqni tasvirini yaratardi.

Yupqa polotnoda yaltiragan yuzani yaratish uchun prokatlash va dazmollah yordamida pardoz beriladi, shu bois gazlama naqshlarida o'zgacha effekt yaratilardi.

Bo'zni yumshoq, sal-pal tukli fakturasi, ba'zan siyrak iplari bilan, bo'yoqni yaxshi shimib olib, gazlamaga chuqur fon berardi. Ost-hind mitkali bo'zga nisbatan yupqaroq va yumshoqroq bo'lgani uchun, ustalar undan asosan mayda gulli kompozitsiyalarni yaratgan. Ingliz mitkali esa rangli chitlarga qo'llanardi, chunki uning yaxshi oqartirganligi bo'yoqlarning sof tonini yaratishga imkon berardi. Taxtani ketma-ket gazlamani ustiga qo'yib tasvir bosish texnikasi barcha gazlamalarda qo'llangan, ammo bo'yoqlar tarkibi, ularni tolada mahkamlash usullari gazlama turiga ko'ra o'zgarardi.

Dag'al dehqon xolsti odatda yog'och qoli p va olifada eritilgan bo'yoqlar bilan bosilardi. Ko'pincha, shunday xolstda qurum yoki qorakuyadan bo'yoq qo'llangan. Olifadan yaltiragan qora yuzasida naqshning aniq relyefi xolstni xira fonida yumsharadi. Naqshlarning katta shakllari maydarloq geometrik figura va chiziqlar bilan bo'lingani nimtonlar yaratardi va o'simlik mavzularining ko'lagini aniplardi.

Yupqaroq zig'ir polotnoda mayda naqsh bosilardi. Ko'pincha, fon bo'yalib, tasvir oq qoldirilardi, ba'zan u qo'shimcha bo'yoqlar bilan bo'yalardi.

Moybo'yoq bilan bo'ylagani uchun silliq yuzali gazlamaning foni yaltiroq va loklanganga o'xshash bo'lardi, bunda mayda naqshlarning aniq shakllari yaxshi ko'rindi.

Tabiiy xususiyatlariiga ko'ra ip gazlamalar bo'yoqni yaxshi shimib olgani uchun, ularni moybo'yoqlar bilan emas, «yuzaki» bo'yoqlar bilan bo'yashardi. Bo'yoqlar yopishqoq modda bilan aralashtirilgani sababli gazlama yuzasida mahkamlanardi. Yangi usulni afzalligi — gazlamani yumshoqligi,

kamchiligi – yuvilganda ayniganligi. Bu kamchilik shu davr ingliz va fransuz chitlariga ham taalluqli edi.

Mukammalroq bo'yash usuli «qaynatma» bo'lgan. Bu usulda taxta yordamida gazlamaga mahkamlagichlar (maxsus moddalar bo'yoqlar bilan qo'shilganda tolada erimaydigan lokni hosil qilardi) suriladi. Mahkamlagichlar bosilgandan so'ng gazlama bo'yoq critmasida qaynatiladi va keyin yuviladi. Mahkamlagichlar bo'lgan joylarda bo'yoq qolib naqsh hosil qilinadi, qolgan joylardan esa bo'yoq yuvilib ketadi. Ba'zan shunday usulda fon bo'yalardi, oq qolgan tasvirlar esa qo'shimcha boshqa ranglarga bo'yalardi. Mustahkam chitlarda har bir rang «qaynatma» usulda qilinardi.

Sal keyinroq yangi «o'yma» usul paydo bo'lgandi. Dastlabki bo'yalgan gazlama bo'yoqni yemiradigan maxsus moddalar bilan bosilib, bo'yalgan fonda oq tasvirlar hosil qilinardi. Qimmatbaho bo'yoqlarni tejash uchun ushbu usulni, asosan, mayda naqshlar uchun qo'llashardi (Rasm 275-279).

Naqshning bosma taxtalari XVIII asrning oxirida – XIX asrning boshida bir muncha takomillashtirilgandi. Ularga jezdan qilingan naqshni ba'zi ingichka detallari o'rnatilardi, fonnini nuqtali tasvir uchun mix qoqilardi. Shunday



275-rasm.

276-rasm.

277-rasm.

278-rasm.

279-rasm.

O'ysha naqshli chitlar.

usul yupqa zig'ir va ip gazlamani badiiy bezatishda ko'p imkon bergan.

Qadimgi naqlardan shu ma'lumki, 1793-1798- yillarda Ivanovo chit manifakturalarida «rassvetka» (gul solish) usuli qo'llanilgan – spirtli bo'yoqlar bilan mo'yqalam yordamida naqshning ba'zi joylari bo'yalardi. Naqshni erkin tasvirlash ularni «jonli» qilardi. Ushbu usul gul va o'simlik shakllarining hajmini ko'rsatib, naqshni badiiy effektini kuchaytiradi.

Gazlamani badiiy bezashda bo'yoqlar muhim rol o'ynagan. Bir asr davomida, sun'iy bo'yoqlar (XIX asrning 70-yillarigacha) ixtiro etilguncha, gazlama bo'yashda o'simlik va mineral bo'yoqlar qo'llanilgan. Ro'yanning ildizi va indigo asosiy bo'yoqlar xomashyosi bo'lgan. Yanchilgan ro'yan ildizidan – «krap» va undan ekstrakt – «garansin» har xil ishqorlar

yordamida g'isht-qizildan, binafsha, to'q jigar rang va qora tuslarga cha ajoyib mustahkam bo'yoqlar hosil qilinardi. Bu bo'yoqlarni o'ziga xos xususiyati – ularning tuslarini mislisiz nafisligi va hattoki kontrast birikmalarida ham uyg'unligidir. Bu ranglar XVIII asrning oxirida - XIX asrning birinchi yarmida chitlarda keng qo'llangan. Ulardan tashqari indigo ham keng qo'llanilgan, ular mustahkamlagichlar bilan och moviyidan to'q ko'k ranggacha tuslarni berardi.

Arzon ko'k va qizil rangli bo'yoqlar sandal yog'ochdan tayyorlanardi, ammo ular mustahkam emasdi. Sariq rang – «*kverseton*» - eman po'stlog'idan va sariq-yashil rang fors nokidan yasalardi.

Ulardan tashqari mineral bo'yoqlari: oxra-sariq rangi uchun va lazur-moviy rang uchun qo'llanardi. 1829- yilda Shuya manifakturasida quyidagi moddalari qo'llangan: golland krapi (yanchilgan ro'yan), kversitron, indigo, qizil va ko'k sandal, siyoh yong'oqlari, vitrol moyi (sulfat kislotasi), marganets, kamed (o'simlik shirasi), saxarum saturni (qo'rgoshin shakari).

Chit ishlab chiqarishda bo'yoqchilik ishi asosiy deb hisoblangan. Yaxshi mutaxassislar juda kam edi. Korxona bo'yoqchilik laboratoriysi sehrli xona bo'lgandi.

Chitlarni naqshida va kolerida badiiy madaniyatning manbalari XVIII asrning oxirida - XIX asrning boshida qo'llanilgan (Rasm 271, 280). Ushbu naqshlar va kompozitsiyalar xalq dekorativ-amaliy san'atida yaratilgandi. Ularning orasida eng qadimii - geometrik naqshlari: no'xat, romb, doira va kvadratlar an'anaviy muvozanat usulida chiziqli va diagonal kompozitsiyada tuzilardi. Yupqa ip gazmolda ushbu naqshlar maydarоq qilinardi, bu elementlardan tuzilgan tasvirlar esa yangi ma'noda ifodalanardi.

Qadimiy xalq gazlamalarida ushbu naqshlar elementlari bilan, asosan, fon yoki naqshning ayrim qismi uchun tuzilardi. Endi ular naqshning mustaqil rapporti bo'ldi. Shashka tartibida joylantirilgan mayda romblar, kvadratlar bilan bo'lingan yo'llar, uchbarglar, mayda gullardan naqshlar «*viboyka*»ga (yuqori navli bosmagazlama, naqsh yupqa zig'ir va dag'al ip gazlamaga bosilardi) bosilardi (Rasm 281), ulardan dehqonlarning erkak va ayollar kiyimlari tikilardi. Ushbu mayda gulli gazlamalar qo'lда to'qilgan dehqonning «*pestryadi*»ni o'miga ishlataligan. Bu davr bosma gazlamalarida ba'zi tasviriy mavzular xalq san'atini an'analarida ishlangandi.

Geometrik shakklardan naqshlar har xil variantda XIX-XX asrning boshidagi chitlarda qilingandi (Rasm 275, 281, 283, 286).

Ivanovo chitining boshqa badiiy bezash yo'naliishi – G'arbiy Yevropa naqshining shakkulari va kompozitsivalari bilan uslubiy umumiyligini namoyon etadi. Shoyi gazlamalardan taqlid etilgan ushbu naqshlar va kompozitsiyalar




280-rasm. XIX a. boshi  
«Kuchli botir Usinya  
Gorinich»



281-rasm.  
XIX asr boshi.  
Viboyka.



282-rasm. XIX a.  
Kashmir shol  
turidagi chit.



283-rasm.  
Iroqi usulida  
ishlangan Chit

chitda ehtimol Yevropa didiga mos ishlangandi. Ammo shoyi gazlamalari bilan uslubiy birligi bo'lsa ham, chitlarni ushbu yo'nalishdagi naqshlari o'ziga xos edi. Bu yerda turli davrlarga oid uslublarning to'qimachilik tasvirlarini birga ishlangani ko'rindi.

Masalan, O.O.Sokovni manifakturasida ishlangan gulli viboykalarida (XVIII asr oxiri – XIX asr boshi) yirik fantastik meva va barglar tasvirlangan, kompozitsion yechimi bo'yicha ular XVII asr oxiri – XVIII asr boshida ishlangan gazlamalarga o'xshardi. Shu jumladan klassitsizm uslubida ishlangan chitlar ham uchrardi. Ularda nafis gul va yaproqli shoxlar yo'llari buralib, aniq geometrik naqshli yo'llar bilan navbatlanadi. Shunday kompozitsiyalar shu davr shoyi dekorativ gazlamalarida eng tarqalgani edi.

Klassitsizm uslubiga mansub boshqa gazlamalardagi kompozitsiyalar (guldastali guldonlar va odmi naqshli doira romb va ovalga joylashgan) ivanova chitlar naqshlarida umumiy va ornamental shakllarni saqlab qolib, o'ziga xos naqshni yaratgan.

Ivanovo chitlarini naqsh va kompozitsiyalarida sarafanga oid kimxbob (Rasm 267) gazlamalarning naqshi uchraydi. Kimxbob gazlamalarning naqshlari xalq didiga ko'ra qayta ishlangan XVIII asr shoyi gazlamalarining naqshi edi. Arzon zar ipli kimxbob gazlamalaridan ayollar bayram liboslarini (sarafan va nimchalarini) tikishiradi.

Chitlarda naqshning barcha detallari taqlid etilardi, hattoki fakturasini ham saqlab qolar edi. Masalan, I.P.Kobalin fabrikasida (XVIII asr oxiri) ishlab chiqaradigan chitida gazlamani chiviqligini aks etish uchun yo'l-yo'l qizil fonda guldastalar bosma usulda ishlanib, ornamental figuralariga aylangan.

Bu yerda sariq rang bilan shoyi gazlamadagi zar ipli naqshiga o'xshatilgan. Ivanovo ustalari sharq ekzotikasi bilan ham qiziqishgan. Masalan, M.Yamanovskiy fabrikasini chitlarida palma va gulli shoxlar orasida ekzotik qushlar tasvirlangan.

Boshqa chitlarda sharq ekzotika mavzulari (Rasm 284) xalq naqshlari bilan qo'shilgan, Masalan, M.I.Garelin fabrikasidagi ro'mollar hoshiyasida palmalar va boshqa g'alati shaklli o'simliklar tasvirlangan, o'rtasida rombli naqshlar xalq kashtasida uchraydigan «qo'g'irchoq»lar bilan o'ralgan.

Boshqa ivanova mahsulotlari ustalar sharq naqshlari bilan bevosita tanishligini ko'rsatadi. Sharq bilan Ivanovoni savdo aloqalari azaldan bo'lgan.

  
Sharqda sotiladigan gazlamaning birinchi naqshi Buxoro gazlamasidan taqlid etilgandi. Qimmatbaho sharq gazmollarining naqshlarini rus ustalari ilgari ham o'zlashtirishgandi. Sharq «abr» naqshlari taqlid etilgan (Rasm 285). XVII asr namunalari saqlanib qolgan. XVIII asrning ikkinchi yarmida ivanova bosmasida sharq duxoba va kimxoblarning naqshlari shashka tartibida joylashgan.

Ammo ivanova bosma va chitlarida «bodom» naqshlari (Rasm 282, 286) eng tarqalgan tasvir bo'lgan. Ushbu naqsh ro'mollar va metrli gazlamarida qilingandi. «Bodom» naqshlari ikki turda bo'lgan. Birinchisida bu shaklni chegarasi aniq chizilgan, ikkinchisida – o'simlik va gul mavzulari bodom shaklida joylashgan. Bodom naqshi ro'mollarning chegarasi va o'rtasida joylangandi. Aniq chizilgan bodom naqshlari ehtimol O'rta Osiyodan kelib chiqqan. Buning asli xo'roz, tustovuq bo'lgan deb anglashadi. O'rta Osiyoda ular sehrli ma'noli bo'lib, tumor sifatida qo'llanilgan. Kashmir shollaridagi bodomni asli gul shoxi bo'lgan deb anglashadi.

Bu yo'nalishlar XIX-XX asr boshida ivanova chitlarida asosiy bo'lgan.

  
XX asrning 20-yillarda chitga gul bosish korxonalari mexanizatsiyalashgani gazlamalarni badiiy bezatilishiga ta'sir etgandi. Endi naqshlar yog'ochda emas, mis silindrda o'yilgandi. Nihoyat ko'p ifodali vositalarni (chiziq, shtrixpvka, nuqta va tursimon ishlovlari,

284-rasm. XIX asr oxiri. Chit.  
Abr naqshli gazlama.



286-rasm.  
XIX asr. Kashmir sholi  
turidagi chit

geometrik va o'simlik shakllarini aks ettirish) kombinatsiya qilishga imkoniyat bergandi (Rasm 283).

Chitga naqshni bosish texnikasining rivojlanishi perrotin mashinalarini joriy etilishi bilan nishonlangandi. Ular yassi shakllari bilan birdaniga bir necha rangga bo'yashga imkon berdi. Keyin ko'pvalli mashinalar ixtiro etilganidan so'ng perrotinlar o'z afzalligini yo'qotdi.

Zubkov fabrikasida yangi yo'nalishdagi naqshlar «milflor» yaratilgandi – bu mayda gullar yassi yoki ko'lamli tasvirlangan har xil kompozitsiyalar.

*Nil* rang (*kuboviy*), *saksoniya*, *adrianopl* (qizil) to'q qizil (*kumach*) chitlarining dovrug'i ketgandi. Ular Rossiya, Kavkaz, O'rta Osiyo va Forsda sotilardi.

Chitlarni ishlash uchun kasanchilar ishlagan xom chit-mitkalni qo'llashgandi. 1828- yilda sanoat sharhlovchisini ma'lumotiga ko'ra barcha dehqon uylarida mitkal, kashemir, chit, viboyka, ro'mollar va shollarga naqsh bosilardi. 1830-40- yillarda mitkalni ingliz xom ipidan to'qishardi. Keyin, asosan, mahalliy xomashyosi qo'llangan. Rus mitkali tamomila ingliz mitkali va sharq chitini o'rnini egalladi. Chitlar endi xalq san'ati an'analari bo'yicha bezatiladigan bo'ldi. Ularning naqshlarida asosan mayda masshtabli geometrik mavzular o'zlashtirilardi – har xil kvadrat va rombsimon to'rlar, ensiz yo'llar, mayda doiralar, ba'zan o'rgimchak uyasiga o'xhash turlar gazlamani rangiga nimtonlar berardi. Shunday usulda erkak ko'yaklariga mo'ljallangan chitlar ishlanardi.

Ko'yakli chitlarda oq va qizil fonida gul mavzulari yassi yoki hajmiy tasvirlanardi. Gul va o'simlik mavzulari hajmdorligi shtrixli yoki nuqtali ishlov berish bilan ishlanardi (Rasm 287-290).

Ko'k chitlarda (*kuboviy*) qizil-pushti rangli gul naqshlari tasvirlangan. Ularda fon va naqshning nisbati uyg'unligi topilgan, ikkalasi mustaqil rol o'ynaydi.



287-rasm.



288-rasm.



289-rasm.



290-rasm.

### XIX asr ko'p rangli chitlar.

Qizil chitlarda (*kumach*) gul va o'simlik mavzulari imkon boricha umumlashtirilgan va ornamental shakllarga aylantirilgan, ular xuddi mo'yqalam bilan ishlangandek tuyulardi. Naqshni shunday usulda tasvirlash xoxloma tasviriy usuliga o'xshardi. Gul va o'simlik naqshlariga «bodring»

ornamental figuralar uzviy qo'shilgan, ba'zi buyumlarda esa — nurli shakllar sariq rang bilan naqshni batamom yorib o'tadi. Bu gazlamalarni yorqin koloriti ranglarni kontrast birikmalari bilan (qizil-oq, qizil-sariq, ko'k - yashil va qora ranglar) xalq didiga mos bo'lgan.

Xalq chitlarga nisbatan shaharliklar didiga mos chitlari ma'lum yo'nalishga ega bo'limgan. Ba'zan rassomlar oldingi davr shoyi gazlamalarining tasvirlarini o'zlashtirishgandi.

Masalan, P.A.Zubkov fabrikasini chitida shoyi gazlamadan o'zlashtirilgan naqsh «droget» - gul bilan to'ldirilgan rombsimon to'r tasvirlangan. Undan jaket va ko'ylik tikilardi. 1853- yildagi ko'rgazma sharhlovchisi shu naqshlar to'g'risida quyidagini yozgan: «Bu yerda bosma san'atining botanik bog'i tasvirlangan desa bo'ladi. Ammo flora bu yerda o'ziga xos ieroglifsimon. Bir joyda tabiatda yo'q sallagul g'alati burgut tumshug'ida o'sgan; boshqasida — qayrilgan qushqo'nmas samovarsimon o'ralgan; uchinchisida — g'ayritabiyy hashoratlar kabi yoyilgan bo'tako'zlar to'q ko'k fonda va b.». (G.Min. Vistavka manufakturix izdelyi - Moskovskiye vedomosti, 1853, 23 iyulya) Bu yerda shakllar nisbatini me'yori yo'qotilgandi.

1860- yildan boshlab, chitlarda otlarning boshi, taqa, tovuq, xo'rozlar, fotografik aniqlik bilan tasvirlangan tematik naqshlar paydo bo'ldi. Ushbu naqshlarda naturalistik predmetligi, ko'pincha, dekorativlikka zid bo'lib, shunday naqshlarni badiiy qiymatini susaytirardi.

«Milflor» yo'nalishi yassi yoki hajmiy grafik chizilgan mayda gulli naqshlar ancha ko'lAMDOR edi. Ushbu naqshlarda gul tasviri emas, uning siyomsi berilardi va shu bois ornamental shakllarni yaratishda fantaziya uchun katta imkon tug'dirardi. Shashka tartibida komponovka qilingan yoki buralgan ingichka shoxlarda joylashgan naqshlar shakllari va uyg'un ishlangan koloriti bilan o'ynardi. Ushbu naqshlar gazlama fakturasiga mos bo'lgan. Ularni ishlashda mashina texnikasining yutuqlari qo'llangani sababli, zargarlikka oid aniq bosma qilinardi.

Fonni nuqtali ishslash usuli yangilangandi. Ornamental shakllarning atrofida joylashgan nuqtalar uzoqlashgani sari kichrayib siyraklashardi, shu bilan naqshdan fonga ravon o'tishga erishilardi va chuqur perspektiva tasavvuri yaratilib, ornamental shakl yoki gullari to'q fondan chiqib kelganday tuyulardi.

«Shan-jan» shoyi gazlamaning naqshini imitatsiya qiladigan boshqa usul qo'llanilardi. Ma'lum ritmda takrorlangan qiya yo'g'onlashgan yo'l-yo'l chegaralari yoyilgan oval figuralarini hosil qilgan, ular bu gazlamaga xos tovladanigan effekt beradi.

Gazlama yuzasini qoplagan mayda naqshli kompozitsiyalar «marmar gulli» deb nomlangandi. Alovida geometrik mavzularni ritmik navbatlanishi bilan shu effektga erishilardi.

Umuman, naqshlarni kompozitsion va ritmik tuzilishlari murakkablashgandi. Ko'pincha, ma'lum ritmda navbatlangan naqshning elementlari naqshli fanni ustidan boshqa ritmda navbatlangan yirik naqshlar tasvirlangandi. Ba'zan shashka tartibida joylashgan gul shakllari murakkab ritmda tuzilgan geometrik mavzudan naqshlar bilan bo'linardi.

Ivanovo chitlarida gazlama bezashda kompozitsiya muvozanatida, rang, gul va o'simlik mavzulariga qiziqishda xalq an'analari to'liq saqlanib qolgandi. Rus chitiga naqsh bosish san'ati xalq badiiy ijodi bilan chambarchas bog'liq edi va yangi badiiy uslublarni o'ziga xos qayta ishlab o'zlashtirilgandi.

An'anaviy yassi ishlangan tasvirlar qatorida o'simlik naqshlari hajmiy qilinadigan bo'ldi.

Eng keng tarqalgan chit - oq fonli chitlar - oq fonda qizil gulli naqshlar; qora gruntli - mayda yoki yirik gulli naqshli; «travchat» viboykalar (Rasm 291-292) - qizil fonda oq yoki rangli o'simlik naqshlar. «Kub» bosmalar ham qilinardi - ko'k fonda zaxira usulida oq naqsh zig'ir polotnoda qilinardi.

Chitlarning koloriti asosan qizil, qora, sariq, yashil, binafsha va jigar rangli bo'lgan. Naqshda bo'yoqlar birikmalari kontrast qilinardi: qora qizil bilan, yashil sariq bilan, yashil binafsha va jigar ranglar bilan. Shunday birikmalar rus dekorativ - amaliy san'atiga mansub edi.



291-rasm. XIX asr.

Atirgul naqshli chit.



292-rasm. XIX asr.

O'simlik naqshli bosma.

Shunga qaramasdan bu gazlamalarning koloriti g'isht-qizil ton yordamida mayin tasavvurni berardi, naqsh va fanni qo'shimcha mayda ornamental mavzular bilan to'ldirilgani bir tondan ikinchi tonga o'tishni yumshatadi. Bunga yana oqartirilmagan tabiiy och sariq rang ham sabab bo'lgandi. Shunday oq foning g'isht-qizil ro'yan rangi bilan birikmasi uyg'unlikni hosil qilardi.

Iste'molchining didiga ko'ra, XIX asr gazmollari bezagida turli yo'nalishlar qo'llanilgan. Yuqori tabaqa aholisiga mo'ljallangan chitlarda bu davr badiiy uslubida va moda yo'nalishlarni ta'siri yaqqol ko'rindirdi.

Deylik, mebel uchun dekorativ gazlamalar klassitsizm uslubida qilinib, me'morchilik uslubiga mos qelardi. Dekorativ chitlarga 1812-yildagi urushdan keyin ehtiyoj bo'lgan. Bu davrda chitlar yangi va modali bo'lgan va 1829-yilda ko'rgazma sharhlovchisining taqriziga ko'ra, chit gazlamalari yupqaligi, go'zalligi, naqshlar xilma-xilligi, ranglar mustahkamligi bo'yicha shoyi

gazlamalardan qolishmasdi. Shuning uchun aslzodalar ham chitlarni ko'yakka va mebelni qoplashga qo'llashardi.

Yangi koloristik ohangi ko'prangli chitlarni bezashda qo'llanilgan. Fonning mayda naqshlari mexanik usulida chit bosish mashinalarida ishlanardi, gulli naqshlar esa qo'lida bo'yalardi. Bu usul faqat ish unumdorligini ko'tarmasdan, badiiy xususiyatlarini ham kuchaytirgandi. Fonni to'rsimon qilinishi fondan naqshga o'tishni yumshatardi.

Ro'yanli qo'l viboykasi 1830-yillarda batamom yo'qoldi, chunki mashinaviy ishlab chiqarishga teng kelaolmagandi.

Bu davrda iste'molchilar didiga mos naqshlari sharq mavzuidagi chitlar asosiy o'rinni egallagandi. Chitlarning naqshlari xilma-xil, ko'prangli va koloriti intensiv bo'lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida chitlarni badiiy bezagida amaliy san'atning an'analari o'z aksini topgan. Bu chitlar naqshlarning o'ziga xosligi va originalligi bilan badiiy tomondan ajralib turardi. Yorqin qizil fon va sariq, moviy, yashil, qora yassi tasvirlangan o'simlik naqshlar go'zal edi. Bu chitlar ostobda kuymasdi va suvda aynimasdi.

1860- yilda sun'iy bo'yoq alizarin ixtiro etilishi bilan chitlar ko'p miqdorda ishlanadigan bo'ldi. Bu chitlar qimmatbaho bo'lganiga qaramasdan, ular oddiy xalq orasida keng tarqalgandi. Gazlamani deyarli har bir dehqon ayol kam miqdorda sotib olardi va oq xolstdan qilingan kiyimini kashta o'rniga bezatishardi.

O'rta Osiyo bozoriga shunday chitlar ko'p miqdorda jo'natildi. Ular choponlarda astar sifatida qo'llanilgan.

1870- yilda sun'iy bo'yoqlarni qo'llanishi bo'yash ishida yangi imkon tug'dirdi. Ularning yordamida ko'prangli chitlarni bo'yash jarayoni qisqardi, koloriti intensiv bo'lib, qora, to'q sariq, binafsha, yashil, pushti va qizil ranglarni ba'zan bir operatsiyada qilinardi.

Sharq mavzuidagi chitlarda O'rta Osiyo gazmollariga mansub arab yozuvlaridan imitatsiya qilingan naqshlar qilinardi.

Zamonaviy modaga mos chitlar ham ishlangan.

### Nazorat savollari.

1. Sharq gazmollarining rus gazmollari bozoriga ta'siri.
2. Rus gazlamasi turlari.
3. Sharq gazlamalarini Rossiyada o'zlashtirilishi.
4. Pyotr I davrida rus to'qimachilik sanoati .
5. Rus bosma chit va zig'ir gazlamalari.

6. Ivanovo chitlarini ishlash va bo'yash usullari, qo'llangan bo'yoqlari, naqshning tasviriy mavzulari.
7. Sharq mavzudagi rus i p gazlamalari.

## XX asr gzmollari

XX asr Yevropa gzmollarini rivojlanish omillari quyidagilar bo'lgan: texnikani tez yuksalishi, buyumlarni ommabop ishlab chiqarilish ustunligi, yangi sharoit va yangi turmush tarzi, urushlar va sportning ta'siri, modani ommabopligi, tez o'zgarishi va demokratikligi.

XX asr boshida san'atda *modern* (fr. art – nouveau – yangi san'at) uslubi gazlamalarni dekorativ ychimiga ta'sir etgan.

*Modern (art nuvo)* uslubi asosida ingliz utopik sotsializmining g'oyalari, san'at yordamida dunyoni mukammallashtirish mumkinligi g'oyasi yotgan. Bu uslubning asosiya maqsadi – akademik san'at qonunlaridan voz kechish. Ingliz rassomlari akademik naqshni rad etib, tabiatni ijodiy manba etgan. Ikkinci ijodiy manba yapon san'ati bo'lgan – chiziqlarni nozikligi, rang tanlashda, nosimmetrik kompozitsiyada, ranglar birikmasida (sariq oq-rang bilan, sariq binafsha rang bilan, moviy rang yashil bilan).

Art nuvo uslubining asosi chiziq bo'lgan – jonli, tepkili, rivojlanayotgan, jonsizni jonlantiradigan va bezakli yuzaga energiya beradigan. Chiziqlar raqsga tushayotgan to'lqinsimon arabeskalarini eslatardi

Art nuvo manbalari tabiiy sujetlardan o'zlashtirilgandi. G'unchalar (yangi hayot timsoli) va uzun poyali xira rangli gullar yoki okean oqimlarida tebrangan suv o'tlari eng ko'p tarqalgandi (Rasm 293-295)..

Ko'pincha, o'simlikning eshilgan poyasi guldan ustunlik qilardi. Xrizantema, nenacha, g'arov va tovuslar bilan sharq mavzulari eng sevimli sujetlar bo'lgan.



293-rasm.



294-rasm.



295-rasm.

Modern uslubidagi gazlama naqshlari

Qimmatbaho modern gazmollari stilizatsiyalangan chirmashadigan o'simliklar, ekzotik, botqoq o'simliklar, suv o'tlari, chig'anoqlar, meduzalar, gullar va yaproqlar ichki tuzilishi bilan tasvirlangan. Naqshlar nosimmetrik joylashgandi. Ranglar gammasi mo'tadil xira tonlarda edi: anor rangiga oid, bronza rangi, kul rangning nozik turlari, nafis-moviy va pushti ranglari.

1900-1907- yillarda tabiiy toladan ishlangan juda qimmat materiallardan kiyimlar tikilardi. Ingliz movut, kashemir, duxoba, kort, sheviot, velyur, kreplar va boshqalar ommabop bo'lgan. Ulardan tashqari sidirg'a yoki kashtalangan etamin, vual, fulyar, grenadin, batist, to'r, muslin, taftalar ham ommabop edi. Shoyi gazlamalar faqat bashang kiyimda qo'llanilgan.

Ranglar gammasi: mo'tadil, xira pastel tonlar va kul rangni har xil tonlari. Yevropada kunduzgi to'q rangli kiyim, kechqurun – och rangli kiyim kiyishgan. Och kul ranglar, tamaki, yashil, och sariq, oq, qum ranglar modada bo'lgan. Parij modaga yorqin ranglarni kiritdi: qizil, yashil va binafsha, ammo «...fransuzlar didiga ko'ra ularni sidirg'a emas, nuqtali yoki nozik tasvirli qilingan».

Gazlamadagi naqshlar murakkab emasdi. Mayda katak-katak, yo'l-yo'l, qora fonda oq nuqtalar – *louisiny*; yo'l-yo'l *tafta -broche*; kashtalangan katak-kataklar; Lyudovik XV davridagi guldstalar bilan naqshlangan batsit va *linon*; yapon va sharq tasvirlari bo'lgan. Xira tonli yo'l-yo'llar va kataklar qatorida katta yoki mayda nuqtali naqshlar qilingandi.

1905- yilda Dyagilev rus balet guruhining gastrollari dekorativ san'atiga ma'lum darajada ta'sir etgandi. Rassom Bakst antik, sharq, qipchoqlar mavzularidan ilhomlanib, yangi ranglarni kiritgandi. To'q sariq, limon-sariq, alvon va binafsha yorqin ranglar modaga kirgandi. Duxoba, shifon va atlas turli birikmalarda bo'lib, uslubga binoan, ipak, eski kumush, xira oltin, yaltiragan nozik va qimmatbaho miltillagan toshlar bilan kashtalan-gandi.

1909-1914- yillarda harir shifondan yumshoq og'ir g'ijimlanmaydigan «*say-feodal*»gacha elastik gazmollar qo'llangandi. Rang gammasi marjon rangdan to'q qizil rangacha, qizil ranglar, har xil tonli ko'k ranglar, och binafsha, kumush rang (*gris perle*), malla va har xil tonli sariq, to'q yashil, qora, kul va jigar ranglar bo'lgan. Naqshi oq-qora katak-katak (*pied de poyle*) bo'lgan.

Bora-bora dekor o'zgara boshladi. Fors va sharq mavzularida qilingan bo'rtma kashtalar yo'qoldi. Harir shifonlar, qalin matolar (*shoyi, movut, pa-de-sin, sharmyz*) bilan birgalikda qo'llanilardi. Oltin va kumush yaltiragan marjon bilan kashtalar saqlangandi. Bu davrda jundan trikotajni qo'llamoqchi bo'lishgan.

Birinchi jahon urushi (1914-1918 y.) yengil sanoatni rivojlanishiga putur yetkazdi. Amerika va Yevropa harbiy kiyimlarida ilk bor *kamuflaj* (*fr.camouflage*) gazlamasi qo'llanilgan. Bu gazlamadagi xaki, yashil, ko'k va jigar rangli turli shakldagi dog'lar buyumni maskirovka qilardi. Rossiyada kamuflaj gazlamasi 1935- yilda sobiq Sovet armiyasida qo'llangandi.

1915-1923- yillarda turli *movutlar, serge, sheviot, koverkot, diventin* va *garabardin* ommabop edi. Modaga katak-katak va yo'l-yo'l jun gazlamalar qaytib keldi; yumshoq kashemir, sheviot va sherstyanka eng sevimli gazlamalar bo'lgan.

Shoyi gazlamalardan yumshoq *krepdeshinlar*, xira va yaltiroq *fulyarlar, soie lavable, toile de soie, tafta va taffetaline, muslin, kreplar, shifon, krep-jorjet* va *shoyi kashemir* qo'llanilgan.

Shoyi trikotaj – *trikotin* ommabop bo'ldi. *Solque* fakturali, sal burushgan yuzali va naqshi bir maromda bo'lмаган qora shoyi gazlama – yangilik bo'ldi.

Ip gazlamalardan batist, etamin, linon, opal, organdi, satin, vual, shantung, turli kreton va eponjlar (ko'pincha oq yoki rangli yo'l-yo'l) ommabop bo'lgan.

Ranglar avval och pastel tonli edi, bora-bora ular yorqinlashib, birikmali kontrastroq bo'ldi. Oq - qora rang birikmasi eng modali edi. Modaga g'adir-budir yuzali qora shoyi kira boshladi. Bu ko'p yillar davomida modadan chiqmaydigan oq-qora ranglar birikmasini boshlanishi edi. Uni barcha yoshlari uchun va turli mo'ljal uchun qo'llash mumkin edi. Bu davrda qorani oq bilan birikmasini shaxmat tasvirli gazlamalarda qo'llashgan; undan tashqari, ko'pincha, qorani yashil va bronza ranglarni kul rang bilan biriktirishgandi. Eng modali ranglar: chataige yoki yosh kashtan, brinj-qizil, «quyosh botganda qum» rangi va toshbaqa ranglari bo'lgan.

Rasmlar yiriklashib, rangtasvirli xususiyatga ega bo'ldi (har xil shakldagi dog'lar). Fulyarlar yorqin yirik rasmlari bilan ajralib turardi. Juda yirik naqsh yo'l-yo'l yoki erkin joylashgandi. Naqshning yirik dog'lari fon bilan kontrastda bo'lgan (Rasm 296).

1920- yilda *dadizm* xususiyatlari rivojlantirib, *syurrealizm* (*fr.surrealisme* – o'ta realizm) yaratilgandi. Bu san'atdagi modernistik oqim ikki jahon urushlarni orasidagi vaqtida Yevropa va Amerikada mayjud bo'lgan. Falsafa ratsionalizmdan voz kechish, irratsional, beihtiyor (instinktlar, tushlar, gallyutsionatsiyalar) doiralarga namoyish etish – syurrealizmnning asosi bo'ldi. Bu badiiy oqim mantiqiy bog'lanishlardan voz kechib, erkin assotsiatsiyalarga asoslanishni o'z usuli deb e'lon qilgan. Syurrealizmnning asosiy xususiyatlari buyumlar va hodisalarining parodoksal nomantiqiy birikmalari edi, ularga buyum-plastik haqligi berilgan edi.



296-rasm. 1915 yil.  
Ivanovo chiti.

Bu oqimning yirik namoyondalari Salvador Dali, Rene Margarita, Xuan Miro, I.Tangi bo'lgan. Ularning ijodiga psixoanalitik Z.Freydning tadqiqotlari ta'sir etgandi. Bu badiiy oqim san'atning barcha turlariga, jumladan, to'qimachilik dizayni va modaga ham ta'sir etgan edi. Ushbu yo'nالishda Men Rey, Xorst P.Xorst, Sesil Biton, Elza Skyaparelli ishlashgan.

1920 – 1930- yillarda dekorativ san'atda *art deko* (fr.ar *decor* – dekorativ san'at) Yevropa va Amerikada paydo bo'lgan. 1925- yil Parijdag'i dekorativ san'atlarning Xalqaro ko'rgazmasidan keyin bu badiiy oqimning nomi tarqalgandi. Ko'rgazmada hayotning barcha tomonlariga

ta'sir etgan yangi uslub namoyish etilgandi. Art deko uslubi san'atdagi har xil oqimlar asosida paydo bo'lgan: 1900- yillar dizayni, shu jumladan, art nuvo, fransuz fovizmi, vena Sensessioni, rus konstruktivizmi va golland «*de steyl*»i. Ulardan tashqari bu uslubga abstraksionizm va kubizm, Misr va Sharq san'ati, Afrika va Amerika mahalliy aholisining madaniyati ta'sir etgan. Bir tomondan klassiklikni, simmetriklikni, to'gri yo'llikni, ikkinchi tomondan – dabdalilik va zebolikni mujassamlashtrilgan uslub ushbu atama bilan belgilangandi.

1910-1920- yillarda abstrakt san'atida geometrik konstruktivizm - *suprematism* (lot.supremus – nihoyat, oxirgi, so'nggi) deb nomlangan oqim paydo bo'ldi. Uning asosida oliv realligi yotgan – oddiy geometrik shakllar yordamida olam tarkibini yaratish. Suprematizmning asoschisi va nazariyotchisi K. Malevich bo'lgan. 1915- yilda u mashhur «Qora kvadrat»ni yaratdi.

Suprematizm to'qimachilik dizaynida, yani naqsh san'atida, o'z aksini topgan. To'qimachilik dizaynida rassomlar K.Malevich, N.Udalsova, N.Suetin, I.Chashnik va boshqalar ishlashgan. Bu an'anaviy naqshni yangilashda va abstrakt geometrik rasmni joriy etishda novatorlik eksperimentlar qilingan. Bu tajribalarni agitatsion to'qimachilikda konstruktivistlar L.Stepanova va L.Popova qo'llashgan. 1923- yilda K.Malevich suprematik ko'yak loyihasida o'z tasvirlash usulini qo'llagan. Ular uchun nosimetrik kompozitsiya va rangli kontrastlar tavsiya etilgan.

20- yillarda kundalik kiyimlar arzon matolardan tikiladigan bo'ldi. Kunning ikkinchi yarmi kiyimlari uchun qimmatbaho gazmollar qo'llanilgandi, ammolar deyarli ommabop bo'limgan.

1926- yilda Fransiya iqtisodiy inqirozga uchragan. Tibet echkisining junidan

qilinadigan *kascha*, *buratyl* va *tabiiy kashemir*, *lion shoyi* va *kimxobni* faqat chet elliqlar qilishardi. «Redferen va Pakenni modellarini Parij teatr va restoranlarida, asosan, ingliz va amerika ayollari ko'rsatishardi. Fransuz ayollari esa endi odmi kiyinishadigan bo'ldi» deb shu davr jurnallarida yozilgandi.

Polotno *frotte* (*frotte*), *kreton*, *eponj*, *naqshli vual*, oqartirilgan shoyilar yoki ularni yasamasi, sidirg'a yoki yo'l-yo'l, to'r va shoyi trikotaj (trikotin) va jun trikotaj ommabop bo'lgan.

Oq va qora ranglar ommabop edi, ulardan tashqari pervansh, siklamen, binafsha va har xil qum ranglar ommabop bo'lgan.


Shoyi gazmollarda xalq manbalari bo'yicha stilizatsiyalangan gullar, yaproqlar va shoxlar tasvirlangandi. Ko'pincha, gazmolda kashta va rasmlarni stilizatsiyasi Misr manbalariga asoslangandi. Yangilik sifatida kontrast yoki bir tonda qilingan geometrik naqshlar (kvadrat, chiziq yoki doirachalar) edi. Gazlamalarda jahon rangtasviri ta'siri sezildi. Bu naqsh turini hattoki gaz, duxoba, movut, och shoyi va jorjetda qo'llashardi. Parij magazinlarida ajoyib rangli mato - «*picassine*» sotilardi. «Kubizm moda ijodkorlariga naqshda shunday fantaziyanı yaratishga jur'at etishga imkoniyat berdi» - deb Bize 1925- yilda yozgan.

Sobiq sovet mamlakatida xolst, ishlov berilmagan polotno, bo'z, chit, soldat movuti, bayka, bumazeya, dag'al jun asosiy matolar bo'lgan. 1921-1922- yillarda yangi iqtisodiy siyosatga o'tish bosqichida va to'qimachilik korxonalarini tiklanishi bilan bosma naqshli gazlamalar paydo bo'la boshladi, asosan, chit, satin va flanel. An'anaviy gulli tasvirlarni saqlagan holda rassomlar yangi naqshlarni barpo etishgandi. Ularning ijodiy izlanishlari mehnat badiiy siymolariga, inqilobga, geometrik naqshlarni yaratishga bag'ishlangandi. Bu tasvirlarning go'zalligi ranglar birikmalarini kontrastida, ritmda, emotsiyal ifodaliligidagi aks etgandi.

Proletkult g'oyalari rassomlarining ijodiy izlanishlarida yangi to'qimachilik naqshlarini yaratishda xato bo'lib chiqqanligi aniqlandi. Bu g'oyalari bo'yicha an'anaviy gulli naqsh meshchanlik va konservativizmni namoyon etadi deb hisoblanardi. Gazlamalarni bezatish uchun ularga begona formalistik usullar, agitatsion uslub, mavzuli rasmlar targ'ibot etilgandi. Tasvirlarda samolyot, traktor, kombayn, mashinalar, mexanik detallar, pionerlar, o'roq va bolg'a va boshqa turli siyosiy tasvirlar solingandi (Rasm 297-305).


1920- yillarning oxirida rassomlar o'simlik va geometrik an'anaviy naqshlarga qaytishdi (Rasm 306-307).

Gazmollarga qiziqish 1925- yildan keyin bo'lgan, chunki ularni ranglarini va fakturasini o'zgartirishga zarurat paydo bo'ldi. Ranglar gammasi yorqin



297-rasm.

1920- yillar chitlari



298-rasm.



299-rasm. 1920- yil.

«Shesternya» naqshli chit



300-rasm. 1920 yil.

«Traktor» naqshli chit



301-rasm.

1920- yillar. Ivanovo chitlari




302-rasm.

303-rasm.



304-rasm.



305-rasm.

1920- yillar. Ivanovo chitlari.



306-rasm.



307-rasm.

1920- yillar. Ivanovo chitlari.



308-rasm.

ranglardan xira ranglargacha (kubizmning monoxromatik mohiyati) tez o'zgarardi. To'qimachilik gazmollarida avangard rassomlar yaratgan geometrik va abstrakt tasvirlar ustunlik qilgan (Rasm 303, 308, 309).

1929- yilda G'arbiy Yevropa va Amerika mamlakatlari iqtisodiy inqiroza uchradи. Bu ishsizlik moddiy va ruhiy o'zgarishlarni tug'dirib, odamlarni estetik qarashida va tasavvurida, madaniyat va san'atida aks etgandi. Yangi estetik ideal avvalgi davrga mansub yoshlik, hayotiy kuch, xushchaqchaq dunyoqarashni yo'qtgandi. Moda balog'at yoshiga, nazokatlikka va meshchan idealiga nazar solardi: kinoaktrisalar Greta Garbo va Marlen Dietrich yaratgan siymolar romantik ajiblik, ekssentriklik va ular bilan birga sportga oidligini va mustaqillikni ifoda etardi.



309-rasm.  
1930 yy.  
Dekorativ  
chit

310-rasm.  
1930 yy.  
«Yog' och»  
tayyorlash

311-rasm.  
1930 yy.  
Chit bosh ro'molning  
parchasi

312-rasm.  
1930 yy. Ivanovo chitlari.


Qo'llangan asosiy matolar: zig'ir, ip (*polotno, perkal, markizet, organdi*), sun'iy atsetat shoyi, velvet tvidlar, jun, ipak va paxtadan trikotaj bo'lgan. Naqshlar mazuli yo'l-yo'l, katak-katak va asosan gulli bo'lgan: naturalistik tasvirlarlangan xrizantema, moychechak, ko'knorlar (Rasm 310-313).

1930- yillarda yassi metall (oltin va kumush) iplardan to'qilgan gazmollar lame (fr. *lame* – metall ip bilan bezatilgan) bashang ko'yaklar uchun qo'llanilgan.

1930-1939- yillarda kiyimlarni oddiylashgani va iqtisodiy qiyinchiliklar serhasham gazlamalarga talabni susayishiga sabab bo'ldi. 1902- yilda Fransiya-da zig'ir gazlamadan (*toile de emballage* – narsa o'rangan) ko'yak-matroska tikildi. Keyinroq 1920- yilda Parijda qimmatchilik bo'lgani tufayli polotnodan kiyimni targ'ibot qilish uchun manifestatsiya o'tgandi. Keyingi yillarda Fransiya ko'p miqdorda ip perkalni ishlab chiqaradigan bo'ldi. Bu gazlamalar 1930- yilda ommaviy ishlab chiqarildi.



**314-rasm.**  
1930 yy. «Havo  
eskadriliyasi».



**315-rasm.** 1933 yil.  
«Qizil armiya paxta  
termoqda».



**316-rasm.** 1933 y.  
«Dengiz floti».



**317-rasm.** 1938 y.  
Ivanovo chiti.



**318-rasm.** 1930 y.  
Ivanovo chiti



**319-rasm.** 1930- yil.  
Oq asosli chit.



**320-rasm.**  
1935 y. Chit.



**321-rasm.**  
«Sharqiy shit».



**322-rasm.**  
1930 yy. Satin




**323-rasm.** 1930 y.  
Chinnigul



**324-rasm.**  
1930 yy. Satin



**325-rasm.**  
«Sherstyanka»



**326-rasm.**  
1949 y.  
«Shtapel»



**327-rasm.** 1951 y.  
«Salla gul», shifon



**328-rasm.** 1951 y.  
Sarafanga oid chit



**329-rasm.** 1956 y.  
Viskoza shtapel



**330-rasm.** 1950 yy. «Xo'rozcha»,  
«Qo'shiq» naqshi



**331-rasm.** 1958 y.  
«Kungabooqar»

1931- yilda tabiiy shoyi chesucha, oqartirilgan va gulli shoyilar targ'ibot etiladigan bo'lди.

1934- yildan boshlab, zig'ir gazmollari sport kiyimlari uchun reklama qilingandi, chunki bu mato to'gri chiziq va murakkab bo'lmanan bichimni talab etardi.

1935- yilda silliq, och rangli, xira katak-katak, yo'l-yo'l juda yupqa orilgani ommabop bo'lgandi.

Ip gazlamalari yozgi kiyimlarda ustunlik qilardi (Rasm 314-316). Shoyidan faqat tushlikdan keyin kiyiladigan kiyimlar qilinardi, ertalabki, sport, sayohat va kechki kiyimlar uchun ip yoki sun'iy i pakdan foydalanilardi.

Eng ommabop jun gazlamasi tvid edi. Ip va shoyi trikotaj ham ommabop bo'lди. Bir tanda va bir arqoqli va ko'ptandali – melanj va sharmez rasmlar keng tarqalgandi. Jersi gazlamalari turli xil bo'lgan. Sof junli polotnolar, angorayungidan jun, turli rangli va qalinlashgan xom i pi olachi por fakturani hosil qilgan (*to'qima puantelizm*) polotnolar modaga kirgandi (Rasm 317).

Bu davrda «rangli moda»ni Parijda italiyalik dizayner Skiaparelli kiritdi. U yorqin jonli ranglarni tiklash tashabbuskori edi. Kiyimlarda bir ranglik yo'qoldi. Qora rang modada qat'iy o'rmini egalladi.

1935- yilda ko'k rang yangilik bo'lди. Undan tashqari modada binafsha, yashil, to'q sariq, banan, limon va oromgul ranglar bo'lgandi.

Bu davrda 20-yillarga nisbatan naqshli gazlamalar ko'proq qo'llanilgandi. Endi geometrik naqshlar qatorida mayda gulli naqshlar ustunlik qilardi (Rasm 318-319). Bu, asosan, naturalistik tasvirlangan ko'knor, butako'z, moychechak va xrizantemalar bo'lgan (Rasm 320-324). 1934- yildan boshlab juda mayda gullar gazlama yuzasini to'ldirgandi.

Katak-katak va yo'l-yo'llar kichik va katta rapportli bo'lgan. Tafta va moviy, ko'k, qizil, yashil rangli shotland katakli jun gazlamalar ommabop edi (Rasm 325).

Ikkinci jahon urushi davrida kimyo yangi *sintetik tolani* yaratdi. Ularning xususiyatlari tabiiy tolalarga nisbatan mutlaqo boshqacha bo'lgani uchun ular yengil sanoatda tez joriy etildi. Yangi gazlamalar paydo bo'lishi bilan tabiiy tololi gazlamalar (zig'ir, yung, ipak va ip) orqada qola boshladи. Sintetik tolalarni mustahkamligi tufayli ulardan trikotaj paypoqlar to'qiladigan bo'lди.

Urush yillarda qizil jun va shoyi gazlamalar yo'qolib, o'niga turli past sifatli gazmollar kirdi: nasha o'simlikdan, paxta qo'shilgan, jutdan va yung yasamasidan. Gazmollar qalin, ranglari to'q edi, oq rang butunlay yo'qoldi, asosiy rang – qora bo'lgan. Eng modali rang birikmalari: qora sariq bilan, yashil ko'k bilan, oq sariq bilan.

1946- yilda ranglar yorqinroq bo'la boshladi: sariq, brinj, kofe va shokolad ranglari.

1947-1960- yillarda oldingi gazmollar qatorida sun'iy va sintetik toladan gazlamalar (*neylon, perlon, silon, elan* va b.) keng tarqalgandi. Turli jun gazlamalarga sintetik tolalar qo'shiladigan bo'ldi (*nitron, lavsan* va b.). *Jersi ommabop* bo'ldi.

Bashang kiyimlarda tafta, silliq yoki gofre qilingan gazmollar, sidirg'a yoki yo'l-yo'l, mayda xolli va boshqa naqshlar qo'llanardi (Rasm 326-331). Yozgi ko'yaklar uchun, asosan, tabiiy va sun'iy ipakdan gazlamalar, sintetik tola qo'shilgan ip gazlamalar silliq va rasmli o'rilib uslubida qo'llangan. AQSHda urushdan keyin bosma melanjdan ko'yak qilishgan. Bu davrda faktura effektlarni va yangi to'qish usullarini yaratishga intilishgandi. Endi silliq gazlamalar qatorida fakturali gazlamalar qo'llaniladigan bo'ldi.

Bashang kiyimlar uchun *la broderie de St Gal* nomli gipyur paydo bo'ldi, naqsh relyefli bo'rtib chiqqani tufayli gullar gazlamada o'sib chiqqandek ko'rinaridi. Ko'pincha, yaltiroq bo'rtib chiqqan rasmli «*tergal*»; rasmli o'rilib shoyi va neylon gazlamalar; tovlangan gofrelangan tafta; hajmli kashtalangan to'r; tovlangan kashemirlar *metallises zar* va kumush bilan to'qigan; zar yoki selofan bilan djersi *brillant* (yaltiroq); hajmli jun gazlamalar (*buckle, moxer*) va uzun tukli qo'yni terisini eslatadigan gazlamalar qo'llanilgandi.

Turli fakturali to'qima gazlamalar jumlasida har xil trikotaj ham qo'llanardi. Ip gazlamalar ham gofrelnardi va bo'rtib chiqqan fakturali qilinardi. Odeyal uchun gazlamalar ham kiyimda qo'llanadigan bo'ldi.

Bu gazlamalar kontrastida turli harir neylon kiyimda qo'llanardi.

Bu davrning yangiligi — hali kam qo'llanadigan zich va g'ovak *noto 'qima materiallar*.

Rang gammasi tez o'zgaradigan bo'ldi. Davrni boshida oq rang qo'llanmasdi, ranglar, asosan, to'q bo'lgan. Keyin modaga sariq rang kirdi va 50- yildan boshlab, ranglar ochroq va yorqinroq bo'la boshladi — avval bashang, keyin kundalik kiyimlarda. 1959-1960- yillarda sarg'ish, keyin 1960-1961- yillarda qora, ko'k yoki sapfir yashil bilan, 1961-1962- yillarda «*haute couture*» oq va tuxum sarig'i ranglari kirdi.

Urushdan keyin naqsh turlari juda ko'paydi. Ekzotik mamlakatlar uchun ishlab chiqarilgan gazlamalar ta'siridan bu hodisa ro'y berdi. Fransiyada gazlamalar naqshini mashhur rassomlar Picasso, Leje, Dyufi, Miro yaratishgan. Ulardan tashqari mayda standart naqshli gazlamalar ishlanardi.

1950-1960- yillarda mustamlakalarni ozodlik kurashi modada o'z aksini



332-rasm. 1950-1960 yy. Gazlamalari

topdi. Modaga sharq mavzulari kirdi. Naqshlarda afrika o'simliklari va hayvonlari stilizatsiyalarini tasvirlangandi (Rasm 332). An'anaviy o'simlik va geometrik mavzular ham bo'lgan. Asosiy gazlamalar - tabiiy, sun'iy va sintetik. Yangi fakturali gazlamalar yaratildi.

1960- yillarda kosmik uchishlar paydo bo'lishi bilan bo'rtma fakturali sintetik gazmol «kosmos» ishlangandi. Shularni qatorida sintetik gazmollar (*kapron, dedron, naylon, lavsan, djersi* va b.) va *noto'qima* gazmollar keng tarqalgandi (Rasm 332).

1940-1990- yillarda Yevropa

va Amerika tasviriy san'atida abstrakt san'atining yangi avangardik varianti «*op art*» (ingl. *or art* – optik san'at) bo'lgan. Uning asoschisi fransuz rassomi V.Vazarelli. Bu usulda bir xil geometrik shakl, chiziq va ranglar ritmik kombinatsiyalarini, harakat illyuziyasini (aldanish) yaratadi. Dekorativ effektlar to'qimachilik san'atida 60- yillarda uchraydi.

XX asrning 70-yillarida *jins* gazlamasi keng tarqaldi. Ilk bor 1853- yilda Levi Strauss palatka va tentlarga mo'ljallangan jigar rangli gazlamadan kiyim tikkandi. Shu davrda ishtonlar uchun gazlama italiya porti Genuyadan jo'natilardi, tugunlarda «genes» deb muhr qo'yildi. Amerikaliklar bu so'zni o'zicha «*jins*» deb o'qishardi. L.Strausda chodir brezenti tamom bo'lganda u Nimdan (Fransiya) ko'k sarjani sotib olgandi. Gazlama esa *denim – denim* (fr.de Nimes – Nimdan) deb ataladigan bo'ldi. Ikkinchini jahon urushida AQSH faqat jangda qatnashgan askarlarga jinsdan kiyim bergandi. Ammo xippilar jinsnini uniforma qilib oldi.

Yevropaga jinslar 50-yillarda keldi. Yuqori modada esa 70-yillarda qo'llangandi. Yangi texnologiyalar paydo bo'ldi: jinsnini tarashlashdi, kislotada ivitishdi, oqartirishdi, hattoki maxsus teshik bo'lishi uchun o'q otishdi. Ammo dunyoda haqiqiy jins shov-shuvi yangi noan'anaviy ranglarni paydo bo'lishi bilan boshlandi – eng avval qora rangdan boshlab.

Bunga yaponlar ixtiro qilgan texnologiyalar «Overday» va «stounuosh» yangi texnologiyalar imkon berdi. «Overday» (ingl. Overdy - qo'shimcha bo'yash) usuli - yorqin ranglar yoki ajoyib rangli effektlarni yaratish jarayoni. Bu usul jins buyumlar yoki gazmollar qo'shimcha bo'yalishiga asoslangan jarayon. Uning asosiy belgisi - o'ng va teskarisining rangi bir xilligi. «Stounoush» (ingl. stone wash - tosh bilan yuvish) - jins gazlamaga eskirgan holatni berish uchun mayda toshlar bilan yuvilgan. Zamonaviy texnologiyalar boshqa usullar yordamida toshsiz shu effektga erishadi.

70-yillarda *gazmol-kompanonlar* ishlanadigan bo'ldi. Masalan, 1976-yilda Frankfurt yarmarkasida bir xil xom ipdan ishlangan har xil fakturali trikotaj va to'qima gazmollar namoyish etilgandi. Ularda turli assortimentni komplekt usulida yaratish mumkin edi. Shu jumladan ikki yuzali struktura yaratilgandi. Masalan, «Tekstyunion» fransuz firmasi bir tomoni yaltiroq atlas, ikkinchi tomoni esa - g'adir-budir gazlama «satin-chesucha»ni yaratishgan. Kiyimlar asosan bir rangli bo'lgani uchun gazlamani yuzasi-fakturasi turli qilinadigan bo'ldi.

Klassik gazmollar klassik va sport uslubiga mos bo'lishi lozim edi. Jun matolarni yuzasi dag'al bo'lgan yoki relyef o'riliш yordamida gazmol yuzasida o'ziga xos faktura yaratilardi. «Dyupon» moda markazi «rogojka» (dag'al gazlama) va «gopsek» (ingliz tilida qumloq uchun qop) ishlab chiqargandi.


Gazlama to'qilganda xom iplar yoki tanda va arqoq iplari muhim rol o'ynagan. Qalin va ingichka, yengil va og'ir, toni bo'yicha farqlangan xom iplar qo'llanardi. Noan'anaviy tola birikmalari, masalan, poliestr 75%, zig'ir 15%, paxta 10% zig'ir polotnoni eslatardi.

Ip gazmollardan *poplin*, *yupqa gabardin*, *pike*, *mitkal*, yaltiragan gazmollar, *batist*, *vual*, *moleskin*, *parusina*, *panama* tavsiya etilgan.

Shoyi gazmollarda turli tabiiy va sintetik tolalardan *krep*, *gabardin*, *poplin*, *reps*, *rogojka*, *to'r merejkaga* o'xshagan gazmollar, yaltiragan effektlri *broshe*, *lamse*, *kloke* va *bloshe effektlri*, *ponje* (tanda ipi arqoqqa nisbatan qalinoq juda yupqa va plastik gazlama), *chesucha* va «xonan» (chesuchaga nisbatan yupqaroq va yuzasi tekisroq gazlama) yaratilgan.

Yo'l-yo'l gazmollari bosma, to'qima va jakkard usulida ishlangan. Yo'l-yo'llarning eni va ritmik yechimi turli bo'lgan. Ishlash texnikasiga binoan naqshi ifodali chiziqli yoki yengil soyali rasmlar akvarel yoki nuqtali puantilizm va aerografiya usulida qilinardi. Yo'l-yo'l naqshning ustunligi rasmlar kompozitsion yechimiga ta'sir etgan.

Jun gazlamalarida «quruq» tusheli gazlamalar, tropikali, taroqli jun, alpaka (tanda ipi - paxta, arqoq - kamvol ipi), *gabardin*, *rogojka*, *koverkot*,



333-a rasm.

«Gullar» sintetik  
gazlama

333-b rasm

«Dega»  
dekorativ sholi

*sarja, zig'ir simon gazmollar, taralgan ingichka ipdan poplinlar, atlaslar, satisimon movutlar, flanel, tvid, bukle, baxmalsimon gazmollar va boshqalar.*

Gazmollarning badiiy bezalishida, asosan, yo'l-yo'llar turli usulda ishlangan. Undan tashqari turli tarixiy davrlar va uslublardan tasviriy asarlar: qadimiy gravyura, natyurmort, impressionistlar peyzajlari (Rasm 333-a,b), yapon grafikasi, ingliz chinnisidan

tasvirlar yoki tog' tasvirlari qilinardi. Shularning jumlasida janr tasvirlar, papiroza etiketkalari, pochta markalari turida qilingan naqshlar. Bu tasvirlar «sublistik» (quruq pechat) texnikasida qilinardi. Gazlamani shunday bezalishi «jahon estetika standartlaridan o'tgan asrlar bilan ruxiy bog'lanishi» jamoa ongida yangi oqimi bilan bog'liq (Rasm 334-369).

80- yillarda modasida gazlamalarning yuzasini har xil xomashyo yordamida ifodali qilish yo'nalishi paydo bo'ldi. Krep va fason xom ip, tuklash va g'ijimlangan effekti yordamida fakturali yuza yaratilgandi.

Bu davrda kimyo toladan tabiiyga o'xshatib gazlama ishlash va yumshoq, shaklini saqlaydigan matolarni yaratish muhim rol o'ynagan.

Ip gazlamalari *silliq tarkibli, bir xil rangli, ola-chipor, bosma, mayda to'r effektlı o'rlishda, satinirovlanlı effektlı, pike, kotle, flanel va tukli gazmollar, gofre gazmollar (krepon, hind polotnosi simon), velvet-rubchik, «denim», elastik. bo'lgan* (Rasm 370-374).

Gazmollarni badiiy-koloristik bezalishi quyidagicha bo'lgan:

- o'simlik mavzusida birinchi tomondan — 30- yillarning modasi manba bo'lgan (mayda gullar) (Rasm 376,378,380,383-386, 392, 395-396), ikkinchi tomondan — yirik gullar, o'simlik mavzulari, ko'pincha, geometrik shakllari bilan (yo'l-yo'l, katak-katak, mayda geometrik figuralar) tasvirlanardi (Rasm 375-385);


- olachi por (Rasm 386), jakkard va trikotaj materiallariga o'xshaydigan tasvirlari to'q va och fonda;

- sharq xalqlarining naqsh mavzulari (Rasm 387-389): kashmir mavzulari, geometrik va o'simlik, gilam, Xitoy, Eron, Hindiston. Yaponiya san'atlarining mavzulari; Indoneziya batikini mavzulari (Rasm 379-381);

- abstrakt va sujet (Rasm 391-391) mavzulari;
- geometrik mavzulari (*nuqta, kvadrat, turli geometrik figuralar*) alohida yoki o'simlik mavzulari bilan birgalikda qo'llangan. Mavzularni badiiy talqin



334-rasm.



335-rasm.

1970 yy. gazlama naqshlari.



336-rasm. 1970 y.  
Pardaga oid viskoza



337-rasm. 1970 y.  
«Dengiz» naqshi



338-rasm. 1970 y.  
Geometrik naqsh



339-rasm. 1976 y. Qadimiyy  
grafika uslubidagi naqsh



340-rasm. 1976 y.  
Peyzaj kompozitsiyasi



341-rasm. 1976 y. Yapon grafikasi  
uslubidagi naqsh



342-rasm. Ingliz  
chinni uslubida



343-rasm. 1976 y.  
Tog tasvirlari.



344-rasm. 1977 y.  
Doka gazlamasi



345-rasm. 1977 y.  
Bosma gulli naqsh



346-rasm. Geometrik  
va gulli naqsh




347-rasm.  
Geometrik  
naqsh



348-rasm. Marmaga  
o'xshash naqsh



349-rasm.  
Jun gazlama



350-rasm.  
Mavhum naqsh



351-rasm.



352-rasm.



353-rasm.



354-rasm.



355-rasm.



356-rasm.



357-rasm.



358-rasm.



359-rasm.



360-rasm.



361-rasm.



362-rasm.



1978 y. naqshlari



364-rasm.



365-rasm.  
1978 y. gazlamalari




366-rasm.



367-rasm.



368-rasm.



369-rasm.

1978 y. Pavlov-Posad ushida ishlangan gazlamalar



370-rasm.



371-rasm.




372-rasm.




373-rasm.


1970 yy. ip gazlamalari




374-rasm.



375-rasm.



376-rasm.



377-rasm.

1980 yy. ip gazlamalari



378-rasm.




379-rasm.



380-rasm.



381-rasm.




382-rasm.

1981 y. Gul naqshli gazlamalar



383-rasm.



384-rasm.



385-rasm.



386-rasm.


1981 y. Gazlamalar naqshi



387-rasm.



388-rasm.



389-rasm.

1981 y. Sharq mavzuli gazlamalari



390-rasm.



391-rasm.




392-rasm.


1980 y. Olimpiadaga bag'ishlangan gazlamalar




393-rasm.



394-rasm.




395-rasm.




396-rasm.




397-rasm.



398-rasm.




399-rasm.



400-rasm.



401-rasm.



402-rasm.

1980- yillar. Geometrik naqshli gazlamlalar

qilinishi optik effekt (*mayda dogg'lar, rastr, shtrix, punktir*) yoki dekorativlik usulida erishilgan (Rasm 393-403);

- kompozitsion erkin, guruhli, naqsh yo'l-yo'lli yoki hoshiyali bo'lgan;
- koloriti har xil: iliq (*qizil, to'q qizil, pushti*) va sovuq ranglar (*ko'k, yashil, moviy*), *yer ranglar* (*oxra, och-sariq, qum va jigar ranglari*).

Shoyi gazmollar – yengil, yumshoq, har xil strukturali turli xomashyodan (*viskoza va paxta, viskoza va poliesfir, viskoza va buret xom ipi, paxta va poliesfir, zig'ir va poliesfir, atsetat va poliesfir shoyi*) ishlangan. Fason va teksturiralgan xom ip, metallizatsiyalangan ip qo'llangan «*g'ijimlangan*» effekti modaga kirgan. Shoyi gazmollar: *satin krep, vual, tual, tafta, tivil, matlasses, «xom ipakdan» gazmollar, jorjet, shifon, estaminlar va strechtlar aktual bo'lgan.*

Jakkard gazmollarning naqshi mayda, mavzusi – geometrik yoki o'simlik edi.

Jun gazmollar klassik tendensiyalari davom etgan. Asosan, tabiiy tola yoki zig'ir, paxta, ipak va kimyo tolalari bilan aralashmasi. Gazlamalarga yumshoq, yaltiroq va elastik ishlov berilgandi. Asosiy jun gazlamalari: *gabardin, shevriot, sukno, flanel, hajmli tukli gazlamalar, fulesimon, ikki yuzali, yengil va rustikal gazmollari.*

Ayollar kiyimi uchun naqshi klassik tendensiyada:

- yo'l-yo'l – *ignali, punktir, nosimmetrik, folklor;*
- katak-katak – *rangli, dastro'mol usulida, «madras», «Prens de Gal», folklor;*
- *mayda tasvirlar: katak-katak, «archa», «fil-a-fil»;*
- *bosma – kashemir, mayda gullar, galstuksimon;*
- *kompanon – rasmlar.*

Erkaklar kiyimi uchun gazlamalar ham klassik yo'nalishda bo'lgan:

- kolorit: *antratsit, bo'z moviy, bo'z yashil, turli tonda jigar ranglar;*
- rasmlar: *«fil a fil», «tuz qalampir», «tovus ko'zi», turli variantda ignali chiziqlar, katak-katak (odatiy kontrului, «madras» tipdag'i, «Prens de Gal» murakkab tarqoq va b.), «archa», pepit, gazmol-kompanonlar.*

### Nazorat savollari.

1. Modern uslubdagi gazlamalar fakturasi, ranglari va naqshlari.
2. 1900-1907 yillarda gazlama turlari va naqshlari.
3. 1909-1914 yillarda gazlama turlari va naqshlari.
4. 1914-1920 yillarda gazlama turlari va naqshlari.
5. 1920-1930 yillarda gazlama turlari va naqshlari.
6. 1930-1939 yillarda gazlama turlari va naqshlari.

7. 1940-1945 yillarda gazlama turlari va naqshlari.
8. 1947-1960 yillarda gazlama turlari va naqshlari.
9. 1960-1970 yillarda gazlama turlari va naqshlari.
10. 1970-2000 yillarda gazlama turlari va naqshlari.

### **XX asr yangi gzmollari**

XX asrning oxirida fan va texnika intensiv rivojlanishi natijasida to'qimachilik sohasida ko'p kashfiyotlar ro'y bergandi. Bu, eng avvalo, mikrofrazer yoki mikrotola, mikrokapsullah, murakkab kombinatsiyalangan materiallar, sopol tolalari yoki zanglamaydigan po'lat bilan qoplangan «kiyintirilgan texnika», ya'ni elektron mikrosxemalari integratsiyalangan kiyimlar va ekologik materiallar bilan izohlanadi. «The indepedent magazinera» jurnaliga bergen intervyusida Djon Galyano «To'qimachilik sohasida hozir yangi texnologiyalarni e'tiborga olish kerak» degan.

XX asrning oxirida barpo etilgan yangi materiallar quyidagi xususiyatlarga ega: funksional, ekologik va ushlab ko'rganda yoqimli. Yangi materiallarni barpo etish dunyoda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Yangi texnologiyalar esa gzmollarning xususiyatlarini shunchalik darajada o'zgartirganki, ularni tashqi ko'rinishi gazlamani nimaga mo'ljalanganligi bilan bog'liq emasdek tuyuladi.

XIX va XX asr chegarasida sellyulozani regeneratsiya qilish natijasida kimyoviy ta'sirida nafis va yaltiroq material - viskoza ixtiro etilgandi.

1938- yilda Dyupon poliamidni, sal keyinroq poliyestrni ixtiro etdi. Viskozani sun'iy shoyi deb atashdi, u tabiiy shoyidan arzonroq edi va bir muncha xususiyatlarga ega bo'lgan.

Poliamid va poliyestrni yengilligi, pishiqligi, rangni o'zgartirishni ko'p imkoniyatlari, teksturasi va parvarish qilish osonligi uchun qadrlashardi. 1950- yilning oxirida Dyupon *laykrani* ixtiro etdi - bu juda elastik sun'iy tola bo'lgan, ammo u modaga faqat 80-yillarda kirdi. Dastavval laykrani tanani siqadigan ichki kiyim uchun qo'llashgandi, hozir esa undan tanaga yopishib turadigan kiyimlar yaratiladi. Laykra tolasini tabiiy va sun'iy gazlamalar tarkibiga qo'shish mumkin. Shu tufayli elastik xususiyatlariga ko'ra undan universal razmerli va turli shaklli kiyimlarni yaratish mumkin bo'ldi. Bu matoni XX va XXI asr chegarasida klassik va avangard yo'nalishda ijod etadigan dizaynerlar qo'llashgan. Funksional xususiyatlari o'z o'zidan bo'lgani uchun, uni estetik xususiyatlari asosan e'tiborga olinadi. Sun'iy gazlamalar allaqachon paxta va shoyi va boshqa tabiiy gazlamalarga nisbatan ikkinchi darajali deb hisoblanmaydigan bo'ldi.

Maxsus materiallar va *polyarflizni* ixtiro etilishi bilan poliyestrga qiziqish kuchaydi. Ulardan dastavval alpinistlar va uzoq ekspeditsiyalar ishtirokchilar kiyimida qo'llanildi.

Gazlama sohasida turli materiallar regeneratsiya qilish natijasida «*layotsel*» tolasi ixtiro etilgandi. Viskoza ishlash jarayonlarini turlab, juda chiroyli gazlamalar – *tyutsel* (Courtaulds) va *laysel* (Zenzing) hosil qilindi. Ishonchimiz komilki, bu gazlamalar XXI asrda keng qo'llanadi.

Keng tarqalgan gazlamalardan ko'plari AQSH mudofa vazirligi va NASA kosmik tadqiqotlar buyrug'i bo'yicha dastavval yaratilib, spetsifik yuqori texnologiyalar sohasiga mo'ljallangan kiyimlarda qo'llanardi. Masalan, ixtiolar *groteks*, *kevlar* va taqilma «*velkro*» dastavval AQSH kosmik tadqiqotlar dasturi doirasida yaratilgan. Endi esa ular bizning kundalik kiyimlarimizda qo'llanadi.

Olim va muhandislar turli spetsifik talablarga javob beradigan har xil sun'iy tolalarni yaratishadigan bo'ldi. Ularning qatoriga, masalan, *taktel* (Dyupon) kiradi, u turli variantlarda yaratilgan.

Mikrotolalar e'tiborni jalb etmoqda. To'qimachilik sanoatida mikrotexnologiyalar tufayli muhim imkoniyatlar ochildi. Mikrotolalardan ishlangan gazlamalar issiq vasovudan, shamol va yomg'irdan saqlaydi va havo o'tkazuvchan bo'lgani uchun odam terlamaydi va uta sovib ketmaydi.

Mikrotexnologiya yutuqlariga mikrokapsulyatsiyani ixtiro etilishi kiradi. Bu kapsulaga turli substansiyalarni (*muattar hidlarni*, *vitaminlarni*, *dengiz suv o'nlarini*) kiritishga imkon beradi va keyin ularni ichi bo'sh tolalarni ichiga kirkizishadi. Avval bu texnologiya tibbiy sohasida qo'llanardi, keyin uni to'qimachilik sanoatida qo'llashadigan bo'lishdi. Uni rivojlanishiga yaponlar katta xissa qo'shishdi. Ular bu gazlamani ayollar ichki kiyimida, paypoq va kechasilik kiyimda qo'llashadigan bo'lishdi.

Odamni sog'ligiga yaxshi ta'sir etadigan gazmollarga qiziqish, yangi gazmollar bo'ginini paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu guruhg'a bakteriyalarga qarshi xususiyatlari va keramik tola bilan qoplangan gazlamalar kiradi. Viskoza va poliyestri keramika bilan kombinatsiyasi natijasida ultrabinafsha nurlardan saqlaydigan gazlamani barpo etish mumkin (saqlash koefitsienti 30). Shunday gazlamada teriga zararli ta'siridan qo'rmasdan quyosh vannalarini rohatlanib qabul qilish mumkin. Antibakterial tolalar *amikor* va *amikor plyusni* tarkibiga aktiv modda kiradi. Bakteriyalarni ko'payishiga to'sqinlik qiladi va natijada kiyimda hid bo'lmaydi.

Texnologiya sohasida eng so'nggi hozircha munozarali gazlamalarga «*aqli*» matolar kiradi. Ular avtomatik ravishda tashqi muhitni o'zgarishiga to'g'rilanadi.

Bu fantastika tuyulsa ham, dizaynerlar va interyerlarni bezatuvchilari bu materiallarni qo'llashadi.

Gazlamani har qanday tolali yoki elastik materiallardan yaratish mumkin. Texnologiyalar bilan almashish natijasida bugun gazmolga sopol, plastik, penoplast, rezina va qog'ozni transformatsiya qilishga imkon bo'ldi. Yaponiyada yangi gazlamalarni korxonalarga tatbiq etish bilan Reyko Sudo (birga ta'sis qiluvchi, ijro etuvchi direktori va gazlama bo'yicha Nino corporation firmani yetakchi dizayneri), Makiko Minagawa (Miyake Design Studio firmasining yetakchi dizayneri) va Yunixi Aran (o'z badiiy modellarini birga ta'sis qiluvchi) shug'ullanishgan. Bu mutaxassislar, ko'pincha, to'qimachilik sohasidan uzoq texnologiyalarga – avtomobilsozlikka murojaat qilishga majbur edi.

Bu gazlamalar – dizaynerlar fantaziya va ijodiy izlanishlarning natijasi bo'lib, moda dunyosida mutlaqo yangi voqeа edi. Yaponiyaliklar o'z ijodlarida qadim an'analarni so'nggi yutuqlar bilan kombinatsiya qilishni o'rganishgan, natijada, ko'pincha to'qimachilik sohasida an'anaviy juda dag'al yoki pishiq bo'lmagan xomashyodan estetik nuqtayi-nazaridan yangi gazzmollar yaratishgan.

Poxol, yog'och va boshqa tolali materiallardan qog'oz ishlanadi. Qog'ozni teksturasi va tashqi ko'rinishi unga ishlatilgan xomashyo bilan bog'liq. Ko'p mamlakatlarda qog'ozni gazlama ishlab chiqarishda ishlatishardi, masalan, Yaponiyada obi to'qimachilik hunarmandchiligidagi va Finlyandyada gilam to'qishda. Dunyodagi barcha modelerlar qog'oz va flis materiali bilan ham ishlashadi, ba'zilari qog'oz ishlash texnologiyasini qo'llashadi, masalan, tivek bilan (Dyupon). Tivek baland harorat va bosim sharoitida juda qalın polietilen tolalaridan tayyorlanadi. Bu gazzmol ko'p kimyoviy moddalar ta'siriga barqaror va dastavval saqlaydigan kiyimlarda qo'llangan, ammo hozir uni futuristik uslubda ishlangan modali kolleksiyalarda qo'llashadi. Yangi yaratilgan «qog'oz» materiallar xarir, chidamli, yaxshi yuviladi, pishiq, tez kir bo'lmaydi, issiqlikni saqlaydi va sitilmaydi (choklar chetini yo'rmasht kerak emas) va ularni ikkilamchi mahsulot sifatida ishlatish mumkin.

Undan tashqari, bu gazzmollar boshqa estetika turiga kiradi: zich to'qilgan, erkin taxlamani hosil qilmasa ham origami texnikasi kabi (Yaponiyada qog'ozni tahlab turli shakl yaratish usuli) bichim detallarini geometrik shaklga o'xshatib, bir-biriga moslab, odam figurasiiga o'zgacha tashqi ko'rinish beradi. Fiksatsiya qilinmagan texnikada gazlamaga qog'oz kiritiladi.

Himoya kiyimini ishslash uchun yog'och yana bitta kerakli material hisoblanadi. Tabiiy xususiyatlariga ko'ra, sinish xususiyati bo'yicha barqaror,

shuning uchun bu material o'q va sanchishdan bo'lgan yaradorlikdan saqlaydi.

Sim va to'r turidagi metallar gazlamada qadimdan qo'llanib kelinadi. Ma'lumki, 20-yillardakiym uchun gazmollardasim iplari qo'llangan; 60-yillarda ayrim buyumlarni metall iplardan to'qishgan; ruhoniylarning tantanali marosimlar uchun mo'ljallangan kiyimlari kumush va zar iplar bilan to'qilgan gazlamadan tayyorlangan; teatr dekoratsiyalari va kechki tualetlarni «lame» (parcha turi)dan tayyorlashgan. Nino firmasi misning yumshoqligi va plastikligiga asoslanib, ko'p yangi materiallar yaratishgan. Yupqa poliuretan qoplami mis ipini xiralashdan saqlaydi. Yunxi Aranning to'qimachilik sohasida 36 patenti bor, shular jumlasida metall iplarni novatorlik qo'llash to'g'risidagi va b. Jakob Scblayepfer shveysar korxonasi interyerni bezash va kiyim uchun metall matolarni ishlab chiqaradi.

Scboyeller Textil AG firmasining metall mahsulotlari bir qator mukofotga ega. Industries Ltd Yaponiya korporatsiyasi mikrotexnolgiya bo'yicha o'z yutuqlarini o'zgacha material – metall flizelinni ishlab chiqarishda qo'lladi. Bu noto'qima material siljiydigan ichi kovak metall tolalardan tayyorlangan.

Gazlama ishlab chiqarish jarayonidagi oxirgi bosqich – pardoziplash muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon yangi materiallar ishlab chiqarish sohasida perspektiv hisoblanadi, chunki uni yordamida gazlamani teksturasi, funksional xususiyati va tashqi ko'rinishini butunlay o'zgartirish mumkin. Kosmik sohasida, ekstremal sharoit va professional sport uchun kiyimlarni ishlashda ilmiy izlanishlar natijasida yaratilgan texnologiyalari yangi gazmollarni pardoziplash jarayonida qo'llanadi.

Gazlamani pardoziplash sohasida salmoqli o'sish (progress) 90-yillarda ro'y berdi va moda dunyosiga katta ta'sir etdi. Podiumlarda har xil futuristik gazlamalar paydo bo'ldi, masalan, teflon qoplangan gazlamalarga hech narsa yopishmaydi, chunki uni ishqalanish koeffitsienti juda past, bular jumlasiga yuzasi rezinalangan gazlamalar ham kiradi.

Sport kiyimi va shimplarni teskari tomoniga kiritilgan «tezlanish tasmalari» havoning qarshiligini qamaytiradi, natijada sportchilarning tezligi o'zgaradi.

Gazlamaning pardoziishi uning dekorativ xususiyatlariiga taalluqli. Bunga naqsh bosish, termik ishlov berish (yuzaga bo'rtma relief yoki uch o'lchamli elementlarni berish uchun), xira, yaltiroq yoki aks ettiruvchi qoplamlalar; ingichka membranalar, laminatsiya uchun va turli kimyoviy ishlov berishlar kiradi. Bosma texnologiyalarni rivojlanganligi shundaki, ular yordamida naqshni kompyuter ekranidan gazlamaga bir zumda ko'chirish mumkin. Endi shablonlarni ishlatishga zaruriyat qolmadidi. Sun'iy tolalarning termoplastik xusuşıylari gazlamada turg'un taxamlarni hosil qilishga imkon beradi.

Eng yangi oshkor qilingan ixtiro – lazer apparatlari bilan juda yuqori haroratda kiyim detallarini biriktirish yoki shaklini yaratish va bir necha modellarning variantlarini yaratish mumkin.

Juda yupqa qoplamlar gazlamalarga yangi optik va funksonal xususiyatlarni beradi, ammo ularni teksturasi va yumshoqligi o'zgarmaydi.

Har xil qoplamlar gazlamani tashqi ko'rinishini butunlay o'zgartirishi mumkin. Masalan, suyuq eritmada mayda mo'llak metall zarralari gazlama yuzasiga vakuum pulverizator bilan berilib, juda yupqa qatlam hosil qiladi. Shu usulda ishlangan yuza mexanik ta'sirga juda chidamligi bilan ajralib turadi, shuning uchun uni qo'lida, kir yuvish mashinasida va kimyoviy ishlov berish yordamida tozalash mumkin.

Undan tashqari sintetik gazlamani termoplastik xususiyatlariga binoan ularda plisserovka, g'ijimlangan effektni yoki relyef naqshni hosil qilish mumkin.

Yuqori sifatli po'lat bilan gazlama yuzasini qoplash faqat ko'raklikni baxsh etmasdan, noqulay ob-havo va qisman televizor va kompyuter nurlaridan saqlaydi.

Zamonaviy texnika va texnologiya qo'llanib, ko'zga ko'rinxinmaydigan ishlov gazlamaga beriladi. Tanda ipiga membranalarni kavsharlab, gazlama bir necha qo'shimcha xususiyatlarga ega bo'ladi va sifati ancha yashilanadi. Yuqori darajada rivojlangan membran texnologiyasi materialni laminatsiya qilinganda (Gore-Tex), gazlama havo va namlikni o'tkazmaydi, ammo tanadan chiqqan namlikni tashqariga o'tkazadi. Bu xususiyatlar asosida membranalarni mikroporali tarkibi: shunday har bir membranada juda ko'p mikrog'ovaklar ichki havo va suvni o'tkazmasdan tashqariga bug'ni o'tkazadi.

*Sympatex* (Akzo Nobel) materiali – yana bitta samarali havo va suv o'tkazmaydigan laminat namunasi, ammo «*nafas oladigan*» simpateksning membranasini gidrofil tarkibi o'ziga suv va terini tortadi.

Ko'zga ko'rinxinmaydigan laminat g'ijimlanadigan gazlamalarni molekulyar tarkibili o'zgartirib, tolalarni parallel joylantiradi va ular g'ijimlanmaydi.

Tanani haroratini normal holatda tutish uchun sovuq paytda biz necha qavat kiyim kiyamiz, bu ancha noqulaylik tug'diradi. Sport kiyim sohasida izlanish natijasida yangi sintetik materiallar ixtiro etilgandi. Ular yengil, yupqa, shaklni saqlaydigan va zamонавиъи bo'lib, kundalik kiyimda qo'llanadigan bo'ldi. Ustki kiyim min fazoni egallab, yana bir xususiyatga ega bo'ldi: ular ikki tomonlama kiyilishi mumkin.

Ayrim materiallarning detallarini choksiz kimyoviy ishlov berish yordamida biriktirilib, suv o'tkazmaydigan, silliq, tanaga yoqimli yopishib turadigan buyumlar barpo etildi.

Sport gazlamalari «ot kutyur» va «pret-a-porte» kolleksiyalarida aktiv qo'llanmoqda. Ulardan biri - *neopren* (rezinasimon sintetik polimer), *polyar fliz*, *magnit* va *kontakt taqilmalari* («velkro» tasmasi). Bular barchasi funksional va ommabop kiyim yaratishga imkon beradi.

AQSHda kiyimni funksionalligiga alohida e'tibor berishgani sababli, yangi materiallarni keng qo'llashadi (Kelvin Klyayn, Ralf Loren, Tommi Xilfige va Donna Karan).

Sport va kundalik kiyimlarni kombinatsiyalash – zamonaviy zaruriyati va fenomeni. Hozirgi modaning umumiy shiori: «Zamonaviy, dinamiklik, noan'anaviy».

Amerikaning Dyersburg korporatsiyasi plastik butilkaldardan gazmol – «*Dyersburg B.C.O. Collection*»ni yaratdi. Bu havo o'tkazmaydigan qalin «polyar fliz»dan kolleksiyalar yaratishgan.

*Neoprenni* ishlab chiqaradigan yetakchi firma Yamamoto suv sporti uchun kiyim ishlab chiqardi. *3-Dis Neopren* (uch o'lchamli intellektual charm) tarkibiga *Spberical Carbon* kirardi (maxsus uglerod sharchalar), ular kiyim yuzasida bosimni baravar taqsimlaydi. Ulardan tashqari uni tarkibiga kirgan *FE Polimer* gazlamani chidamlik muddatini uzaytiradi. Bu yuqori texnologik material jonli substansiya kabi sezadi va mexanik cho'zilish yoki siqishni sezib, tartibga soladi.

Dizayner Sem de Terenning funksional modellari streych-fliz, simpateks va laykradan qilingan. Modelerlar, interyer, mebel va maishiy buyumlar dizaynerlari yuqori texnologik materiallarga e'tiborini jaib etgan.

XX asrning oxirida bu sohada ko'p yangiliklar ixtiro etildi, ammo XXI asrda bizni qiziqarli yangiliklar kutmoqda: *chiroyli, tashqi muhit o'zgarishiga javob beradigan gazlamalar, ular yangi estetik tamoyillarni tashkil etib, yangi sifat va tashqi ko'rinish yaratishiga sababchi bo'lishi muqarrar*.

### Nazorat savollari.

1. Yangi gazmollar paydo bo'lishiga nima sabab bo'ldi?
2. To'qimachilik dizayni paydo bo'lishi sabablari
3. Dizaynning san'atdan farqlovchi xususiyatlari
4. Sintetik gazlamalarni paydo bo'lishi sabablari
5. Mikrotolalar, mikrotexnologiya, mikrokapsulyatsiya usullar gazlamalarga qanday yutuq yaratdi?
6. Odam sog'ligiga ta'sir etadigan yangi gazlarmalarning xususiyatlari
7. Gazlamalarni pardozlashning yangi usullari
8. Kelajakda gazlamalarga qo'yilgan asosiy talablar

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Соболев Н.Н. Очерки по истории украшения тканей. — М-Л.: «Academia», 1934.
2. Арманд Т. Орнаментация ткани. — М-Л-: «Academia», 1931.
3. Лубо-Лесниченко Е.И. Древние китайские шелковые ткани и вышивки V в. до н.э. - III в. н.э. — Л.: Издательство государственного Эрмитажа, 1961.
4. Николаева Н.С. Декоративное искусство Японии. — М.: «Искусство», 1972.
5. Гусева Н.Р. Современное декоративно-прикладное искусство Индии. — М.: Искусство, 1958.
6. Ртвеладзе Э.И. Великий шелковый путь.- Т.: Узбекистон Миллий энциклопедияси, 1999.
7. Мухamedов М.М. Великий шелковый путь. - Т.:ТИТЛП,1996.
8. Наследники шелкового пути Узбекистана. — Изд-во «Edition hansjøugt tayeg», Штутгарт,1997.
9. Пугаченкова Г.А. , Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии.- М.: «Искусство»,1982.
10. Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана.- Т.: АН Уз. Институт искусствознания,1961.
11. Ртвеладзе Э.И. Цепь времен. Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. — Т.: Изд-во им. Г.Гуляма, 1987.
12. Фахретдинова Д.А. Декоративно — прикладное искусство Узбекистана.- Т.: изд-во им. Г.Гуляма, 1972.
13. Маркова В.И. Драгоценные ткани. — М.: Изд-во Реклама, 1971.
14. Текстильное искусство Сефевидского Ирана XVI-XVII вв. — М.: Советский художник, 1980.
15. Махкамова С.М. К истории ткачества Средней Азии. В кн. Художественная культура Средней Азии IX-XIII вв. — Т.: Изд-во им. Г. Гуляма, 1983.
16. Народное искусство Узбекистана. — Т.: Изд-во им. Г.Гуляма, 1954.
17. Махкамова С.М. Узбекские абревые ткани. — Т.: Государственное издательство художественной литературы Уз.ССР, 1963.

18. Махкамова С.М. Узбекистанские бекасабы.- Т.: «Фан» 1971.
19. Rugs woven silks from Central Asia. The Ray Collection. – Cambridge, 1998.
20. Полякова Е.А., Рахимова З.И. Миниатюра и литература Востока.- Т.: Изд-во Литературы и искусства им. Г.Гуляма, 1987.
21. Немцова Н.Б. К истории тканей и одежды населения Средней Азии XV в. В кн. Из истории искусства великого города.- Т.: 1972.
22. Садикова Н.С. Ўзбек миллий кийимлари: XIX-XX асрлар. – Т.: «Шарқ» нашриёт- матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2003.
23. Ҳасанбоева Г.К., Чурсина В.А. Костюм тарихи.- Т.: «Ўзбекистон», 2002.
24. Народы Средней Азии и Казахстана. кн. I,II,- М.: 1962,1963.
25. Якунина Л.И. Русские набивные ткани XVI-XVII вв.- М.: «Искусство», 1954.
26. Соловьев И.Л., Болдырева М.Д. Ивановские ситцы.- М.: Легпромбытиздан, 1987.
27. Зелинг Ш. Мода. Век модельеров. 1900-1999. Kone mann. 1999.
28. Балдано И.Ц. Мода XX века: Энциклопедия.- М.: «Олма-Пресс», 2002.
29. Андреева Р.П. Энциклопедия моды.- С-П.: «Литера», 1997.
30. Методические рекомендации по направлению моды.- М.: ЦНИИИТЭИ ЛП.
31. Журналы мод.
32. Матье М.Э., Ляпунова К.С. Художественные ткани Коптского Египта.- М-Л.: Искусство, 1951.
33. [www.ethnogrphy,omskreg.ru](http://www.ethnogrphy,omskreg.ru) – Кафедра этнографии и музееведения ОГУ. Автореферат.
34. [www.disserteition 2.narod.ru.avtoreferats 6](http://www.disserteition 2.narod.ru.avtoreferats 6).
35. [www.adit.ru/](http://www.adit.ru/)- ситцевый проект, справочник терминов.
36. [www.textile market.ru](http://www.textile market.ru) – Текстильмаркет – Англо-русский словарь терминов.
37. [www.bur.narod.ru](http://www.bur.narod.ru) – Орнамент отдельных народов РСФСР – книга.
38. [www.rbtl.ru.Konkurs/Kivnova](http://www.rbtl.ru.Konkurs/Kivnova)
39. [www.wint.decy.ru/nanoword](http://www.wint.decy.ru/nanoword)- Геометрические орнаменты Средней Азии.
40. [www.bur.ru/cat/bks/bodc](http://www.bur.ru/cat/bks/bodc) – Неелов В.И. Рассказы от качества.- М.: Легпромбытиздан, 1990.

O'quv qo'llanmada Osiyo va Yevropa to'qimachilik san'ati va dizaynining tarixi ko'rib chiqilgan. Qadimiylar, o'rta asrlar va zamona viy to'qimachilik buyumlarining turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Gazmollarning tola tarkibi, to'qish usuli, fakturasi, bo'yash usullari, qo'llangan bo'yoqlari, ranglari, naqsh mavzulari, ularning ramzlari, kompozitsion joylanishi va naqsh ishlash usullari ko'rsatilgan. Gazlama ishlab chiqarish bo'yicha asrlar davomida xalqlarni o'zaro bir-biriga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma to'qimachilik, yengil sanoat va badiiy institutlar talabalari, magistrantlar, aspirantlar, dissenatorlar, dizaynerlar va boshqa san'at xodimlariga tavsiya etilgan.

Учебное пособие посвящено истории текстильного искусства и дизайна в странах Азии и Европы. Оно содержит информацию по видам текстильных изделий от древности до современности. Ткани рассмотрены по их волокнистому составу, способу изготовления, структуре и фактуре, способу их окрашивания, применяемым красителям, цветовому решению, орнаментальным мотивам, их симметрике и композиционному решению на полотне, способу нанесения орнамента. Рассмотрено взаимовлияние различных народов на способы изготовления и орнаментальные мотивы текстильных изделий.

Учебное пособие может быть рекомендовано для студентов текстильной и легкой промышленности, художественных вузов, магистрантов, диссидентов, аспирантов, художников и др. деятелей искусства.

The textbook is devoted to the history of art and design of textile in Asian and European countries. It contains information about type of textile fabrics from the ancient to present times. Fabrics are considered according their fiber composition, structure and texture, methods of production and painting, used dyes, color solutions on canvas, methods of ornamental pattern plotting. It is also considered interference of different nations to the methods of production and ornamental motives of textile fabrics.

The textbook could be recommended for the students of Arts Universities, Universities of Textile and Light Industries, as well as for holders of masteres degree, candidates for a degree, post-graduate students, artists and other cultural workers.

## Mundarija

Muqaddima .....	3
Misr gazlamasi .....	5
Ossur-Bobil gazlamasi .....	10
Yunon va Rim gazlamasi .....	12
Vizantiya gazlamasi .....	20
Sosoniy gazlamasi .....	30
Kopt gazlamasi .....	37
Fors gazlamasi .....	43
Hind gazlamasi .....	53
Xitoy gazlamasi .....	75
Yaponiya gazlamasi .....	95
Arab gazlamasi .....	105
Turk gazlamasi .....	108
Ispan-mavritan gazlamasi .....	111
Sitsiliya gazlamasi .....	115
O'ita Osiyo gazlamasi .....	119
Ispaniya gazlamasi .....	174
Italiya gazlamasi .....	177
Fransiya gazlamasi .....	187
Rus gazlamasi .....	202
XX asr gazlamasi .....	222
XX asr yangi gazlamalari .....	241
Adabiyotlar .....	248
Annotatsiya .....	250

**G. Hasanboyeva**

**TO'QIMACHILIK DIZAYNI TARIXI**

Muharrir	B. Ro'zimuhammad
Badiiy muharrir	B. Qahharov
Texnik muharrir	M. Alimov
Sahifalovchi	D. Abdusattorov
Musahhih	H. Teshaboyev

Bosishga ruxsat etildi 17.08.06. Qog'oz bichimi 60x84. 1/<sub>16</sub>  
Hisob nashr tabog'i 15,8. b.t. Adadi - 500 nusxa.  
Buyurtma raqami № 114

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti,  
700084, Toshkent, H. Asomov ko'chasi, 7-uy.

Hisob-shartnoma № 12-2006

«FAN VA TEKNOLOGIYALAR» markazining bosmaxonasi  
700003, Toshkent, Olmazor ko'chasi, 171-uy.